# O‘QISH

*4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

“SHARQ” NASHRIYOT – MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2017

UO‘K: 502.2=512.133(075.2)
KBK: 81.2 O‘zb – 922
G – 33

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

T u z u v c h i - m u a l l i f l a r :
Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova,
Shaxnoza Muslimova, Fotima Karimova,
Gulsara Saydaliyeva, Zahro Kabilova.

T a q r i z c h i l a r :

**Nazira Ahmedova** – RTM “Boshlang‘ich ta’lim” bo‘limi boshlig‘i;

**Ziyoda Yo‘ldosheva** – Qashqadaryo viloyat XTXQTMOI katta o‘qituvchisi;

**Ra’no Anarbayeva** – Angren shahar 43-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

G – 33 **G. Boymurodova va boshq.**
O‘qish kitobi (Matn): 4-sinf uchun darslik / G.Boymurodova X.Sattorova, Sh.Muslimova, F.Karimova. – T.: “Sharq”, 2017/ – 240-b.

Ushbu qo‘llanma 4-sinfda o‘qish fanini o‘qitishning sifatini yaxshilash yo‘lida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar faoliyatiga joriy etish maqsadida ishlab chiqildi. Shuningdek, qo‘llanmadagi multimediali ilovalari esa o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishlash imkonini beradi.

**SHARTLI BELGILAR**




– ilg‘or pedagogik texnologiya



– multimediali ilova

Respublika ta’lim markazi huzuridagi “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-metodik kengashning 2017-yil 24-maydagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

**ISBN 978-9943-26-719-0**

© G.Boymurodova, X.Sattorova, Sh.Muslimova, F.Karimova.
© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2017.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

## SO‘ZBOSHI

*“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir”*

Islom KARIMOV

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. O‘qish darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti hamda Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–4-sinflari uchun o‘qish fani dasturi amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘qish fanini o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o‘quv dasturlari asosida 4-sinf o‘qituvchilari uchun hamkorlik, didaktik o‘yin texnologiyalari va integratsiyalashgan ta’lim mazmunini ochib berishga qaratilgan ushbu metodik qo‘llanma yaratildi. Shuningdek, qo‘llanmadagi multimedia ilovalari o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishlash, pedagogik texnologiyalardan o‘rinli va mahorat bilan foydalanish o‘quv jarayonida o‘zlashtirishning yuqori ko‘rsatkichlariga erishish imkonini yaratadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi


## Metodik qo‘llanmaning tuzilishi

Ushbu metodik qo‘llanma 4-sinf “O‘qish kitobi” (S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov) darsligi asosida yaratildi. O‘quv reja bo‘yicha o‘qish darslariga 170 soat ajratilgan. Qo‘llanmada 119 ta mavzuga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan namunaviy dars ishlanmalari berilgan.

Mazkur metodik qo‘llanmada o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyalar yoritib berilgan. O‘quvchilar jamoada ishlash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish hamda maqsadli foydalanish va o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘qish fanidan berilgan dars ishlanma namunalarida interfaol usullardan foydalanish, didaktik o‘yin texnologiyalar o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, darslikning 119 ta mavzusiga multimedia ilovalari yaratilgan. Jumladan, ularga 32 ta animatsiya, 24 ta videolavha, 6 ta qo‘shiq, 102 ta lug‘at ishi, 86 ta ta’limiy o‘yin, 30 ta test topshiriqlari kiritilgan.


Multimedia ilovaning birinchi sahifasida poytaxtimiz Toshkent shahrining zamonaviy binolari, Registon maydoni, Amir Temur haykali, Mustaqillik maydoni arkasidagi laylak tasvirlari musiqa sadolari ostida ko‘rinadi. Mundarijaga o‘tish uchun sahifa burchagidagi kitob tasviriga bosiladi. Mundarijada 119 ta namunaviy darslarning mavzulari ko‘rsatilgan. Dars mavzusi yozilgan qator kursor orqali tanlansa, o‘sha darsga tegishli sahifa ochiladi.





Multimedia ilovada mavzuga oid animatsiya, videolavha, ta’limiy mashqlar va krossvordlar berilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.






Lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarning so‘z boyligini va nutqini o‘stiradi. Mustaqil fikrlash hamda ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘qish darslarida tayanch va fanga oid kompetensiya elementlari 119 ta dars ishlanmalarining maqsadlarida quyidagicha ko‘rsatilgan:

**TK – tayanch kompetensiyalar**

*TK 1* – kommunikativ kompetensiya

*TK 2* – axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

*TK 3* – o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi

*TK 4* – ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

*TK 5* – milliy va umummadaniy kompetensiya

*TK 6* – matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

**FK – fanga oid kompetensiyalar**

*FK 1* – adabiy-nutqiy kompetensiya

*FK 2* – badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

***Eslatma:*** Tayanch kompetensiyalarning kommunikativ kompetensiyasi o‘qishning fanga oid kompetensiyasi bilan bir xil mazmunni anglatganligi sababli, ularni fanga oid *(adabiy-nutqiy)* kompetensiya ichiga singdirib shakllantirish lozim.

## O‘qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish

O‘qish darslarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsida o‘ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari “O‘qish” fanini o‘qitishni takomillashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Darslarni “Bumerang” texnologiyasi, “Arra”, “O‘z o‘rningni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik”

metodlari, , “Pinbord” usuli, “She’rni tikla” kabi mashqlaridan foydalanib o‘tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

**“Bumerang” texnologiyasi.** “Bumerang” texnologiyasi bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmunga (muammoli, munozarali va h.) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Bunda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchi turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida chiqishi mumkin. “Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: g‘oya, fikr va dalillarni yozma hamda og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

*Maqsadi:* o‘quvchilarda anglab o‘qish orqali, fikrni yetkaza olishga, tushuntira olishga o‘rgatish.

*Vazifasi:* o‘quvchilarni guruhda ishlash, hamfikrlik, o‘zaro fikr almashishga ko‘nikma hosil qilish.

Masalan, X.To‘xtaboyevning “Xatosini tushungan bola”, Rahim Bekniyozning “Mo‘jiza” hikoyalarida qo‘llanilgan.

**“FSMU” metodi** – 4 bosqichli yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda qo‘llaniladi. O‘zlashtirilgan bilimlar asosida tashkil qilinadi va har bir o‘quvchi 4 bosqich asosida fikr-mulohaza bildiradi.

Bunda:

**F** – fikringizni bayon eting.

**S** – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

**M** – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring.

**U** – fikringizni umumlashtiring.

*Maqsadi:* o‘quvchilar mashg‘ulotda o‘rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilish, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko‘rsatish, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga o‘rgatish.

*Vazifasi:* o‘quvchilarni erkin fikrlash, o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarga fikrini o‘tkazish, ochiq holda bahslashish va bahs-munozara madaniyatiga o‘rgatadi. Masalan, N.A.Samarqandiyning “Sulton Maxmud va Beruniy” rivoyatida qo‘llanilgan.

**“Arra” metodi.**

Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4-5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o‘quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi.

Ma’lum vaqtdan so‘ng har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o‘quvchilar o‘zlashtirib oladilar.

*Maqsadi:* o‘quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

*Vazifasi:* o‘quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a’zolariga o‘z fikrini tushuntirib, isbotlashga o‘rgatish. Masalan, Xondamirning “Tanbeh” rivoyatida qo‘llanilgan.

**“O‘z o‘rningni top” metodi.** Mavzu bo‘yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo‘naltirilgan. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qilishi, muloqot ko‘nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo‘ladi va dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

*Maqsadi:* o‘quvchilarda o‘z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

*Vazifasi:* o‘quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o‘z fikrlarini isbotlashga o‘rgatiladi. Masalan, Xans Kristyan Andersenning “Bolalar gurungi” ertagida (2-qism) qo‘llanilgan.

**“Ikki qismli kundalik” metodi.** “Ikki qismli kundalik” pedagogik uslub bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

1-bosqich. O‘quvchilar ertakni juftlikda navbat bilan past ovozda o‘qiydilar.

2-bosqich. Hamma ertakni o‘qib bo‘lganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi.

3-bosqich. O‘quvchilarga daftarning chap tomoniga muallif fikrlarini yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur fikrga berilgan o‘zining izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan ertak haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga (o‘z xohishiga ko‘ra) bittadan fikrni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohlari o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur fikrga o‘z izohini berish ruxsat etiladi.

6-bosqich. O‘quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo‘lib ham ishlashlari mumkin.

*Maqsadi:* o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish.

*Vazifasi:* o‘quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash, mavzudan

kerakli xulosa chiqarish malakasi shakllanadi. Masalan, Aziz Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” ertagida qo‘llanilgan.

O‘qish darslarida shu kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta’lim maqsadiga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

## Texnologik xaritalardan o‘qish darslarida foydalanish

Darsning texnologik xaritasi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati hamda unga taqsimlangan vaqt har bir bosqich bo‘yicha to‘g‘ri belgilash uchun ishlatiladi. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavzular bo‘yicha texnologik xaritani tuzib olishi lozim. Namuna:

50-dars. ***Mavzu*:** “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin”. 2-qism.

***Mavzu***: “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin”. 2-qism.
**Mavzuga oid tayanch tushunchalar**: podshoh, kabobchi, zindon, gilam.
**Soatlar soni:** 1 soat.
**Mavzuning qisqacha ta’rifi:** Podshoh hunari tufayli o‘limdan qutulib qoladi.
**O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**
**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi dars.
**Metod**: suhbat, tushuntirish, “Sinkveyn”, “Kim topqir”, “Tez javob” o‘yini, “Harfdan gapgacha” mashqlari.
**Shakl:** guruhda, yakka tartibda ishlash.
**Jihoz:** turli kasb egalari va ish qurollari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

| Darsning maqsad va vazifalari |
|---|
| **Maqsadlar:**<br>***Ta'limiy:*** o'quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, ifodali va sidirg'a o'qishga, o'qigan asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini og'zaki tarzda izchil ifodalashga o'rgatish.<br>***TK 2***: ertak asosida yaratilgan multimedia ilovalariga munosabat bildirish.<br>***FK 1*:** ertakni ongli, ifodali o'qiy olish.<br>***Tarbiyaviy:*** o'quvchilarning hunar egallashga ishtiyoqini, kasb tanlashga qiziqishini oshirish, ularda turli kasb egalariga hurmat, o'zgalar mehnatini qadriga yetish tuyg'ularini tarbiyalash.<br>***TK 4****:* yaxshi odatlarga rioya qilish.<br>***Rivojlantiruvchi:*** o'quvchilarning o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriq tuzish, asar mazmuni va voqealari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, test yechish malakalarini rivojlantirish.<br>***FK 2:*** o'rganilgan ertakning qahramonlarini ajrata olish. |

| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
|---|---|---|---|
| **Dars bosqichlari va ishning nomi** | **Bajariladigan ish mazmuni** | **Metod** | **Vaqt** |
| *1-bosqich Tashkiliy qism* | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o'quv-chilarining darsga tay-yorgarligi tekshiriladi. | Savol-javob | 2 daqiqa |
| *2-bosqich Ehtiyojlarni aniqlash* | Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. | Suhbat | 2 daqiqa |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *3-bosqich Darsning borishi* | 1. O‘tgan darsni so‘rab baholash, o‘qish malakalarini tekshirish.<br>2. “Kim topqir” o‘yini o‘tkaziladi.<br>3. Ertakni o‘qishga tayyorgarlik.<br>4. Ertakning II qismi asosida animatsiya namoyish etiladi.<br>5. Lug‘at ishi.<br>6. Ertak mazmuni yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.<br>7. Berilgan mavzu bo‘yicha bir necha so‘z orqali matnni bayon qilish usuli bajariladi. | Savol-javob<br>Izlanish<br>Suhbat<br>Namoyish<br>Tushuntirish<br>Savol-javob<br>“Sinkveyn” usuli | 4 daqiqa<br>5 daqiqa<br>1 daqiqa<br>3 daqiqa<br>2 daqiqa<br>4 daqiqa<br>5 daqiqa |
| *4-bosqich Mustahkamlash* | 1. O‘quvchilar bilan qatorlararo musobaqa o‘tkaziladi.<br>2. Darslik bilan ishlash. O‘quvchilarni ishtirok etgan so‘zni, so‘ng gapni topib o‘qiydilar.<br>3. O‘quvchilarga yakunlovchi savollar bilan murojaat etiladi. O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi. | “Tez javob” mashqi<br>“Harfdan gapgacha” mashqi<br>Savol-javob<br>Izlanish | 5 daqiqa<br>5 daqiqa<br>4 daqiqa |
| *5-bosqich Dars yakuni va baholash* | O‘quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e’lon qilinadi.<br>Dars yakunlanadi. | Baholash | 2 daqiqa |
| *6-bosqich Uyga vazifa berish* | Ertakni o‘qib, mazmunini so‘zlash. Ertak mazmuni asosida ijodiy rasm chizish. | Tushuntirish | 1 daqiqa |

## O‘qishdan namunaviy dars ishlanmalari

**1-d a r s**

**Mavzu:** “Mangulikka tatigulik kun” (*Safar Barnoyev*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Mangulikka tatigulik kun” matni bilan tanishtirish, o‘quvchilarga buyuk allomalarimiz haqida ma’lumot berish. Mustaqillikning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish.

***FK 1:*** matnga oid audioni tinglab, mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni allomalarimiz kabi mard, jasur, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg‘uradigan insonlar qilib tarbiyalash.

***TK 5:*** matnda aks etgan vatanparvarlik g‘oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, lug‘at ustida ishlashni, qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***TK 4:*** jamiyatda bo‘layotgan voqea jarayonlariga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

***FK 2:*** o‘qilgan matn mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Zanjir” metodi, “Alifbo bilag‘oni”, “Allomalar tug‘ilgan joyni top” ta’limiy o‘yinlari**.**

**Dars jihozlari**: rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan Safar Barnoyevning “Mangulikka tatigulik kun” matni bilan tanishamiz. Muallif Safar Barnoyev haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.

Matn mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi. Matni mazmuni tushuntiriladi. Matnda berilgan allomalarimizning tug‘ilgan joylari haqida ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**tilimiz qulfi ochildi** – mustaqillik tufayli fikrimizni erkin ayta oldik
**ko‘zimiz ochildi** – haqiqatni tushundik
**Alayhissalom** – payg‘ambarga salomimiz bo‘lsin
**bug‘doy zahirasi** – g‘amlab qo‘yilgan bug‘doy
**abadiy** – mangu, doimiy
**Sohibqiron** – shoh, podshoh
**abadiy mulk** – doimiy saqlanadigan mulk

Matn asosida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi.

1. Nima uchun 1991-yilning 31-avgustini asrga tatigulik kun deymiz?
2. Mustaqillik qaytarib bergan allomalardan kimlarni bilasiz?
3. O‘zbekistonning haqiqiy egalari kimlar bo‘ladilar?

**III. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Mangulikka tatigulik kun” matnini o‘quvchilar “Zanjir” usulida o‘qiydi va hikoya qilib beradilar.

– Bolalar, matn necha qismdan iborat ekan?

O‘quvchilar matn qismlariga sarlavha topadilar.

Darslikdagi savollar ustida ishlanadi.

***“Alifbo bilag‘oni” o‘yini.*** O‘quvchilar berilgan raqamlarga harflarni alifbo tartibida joylashtirib, berkingan so‘zni topadilar.

***Test topshiriqlari:***

1. Qaysi kun vatanimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi?

**A)**1991-yil 31-avgust B )1991-yil 1-sentabr

D) 1991-yil 30-avgust E) 1991-yil 3-sentabr

2. Mangulikka tatigulik kun matni muallifi kim?

A) A. Oripov B**)** T. Hayit **D)** S.Barnoyev E) D. Rajab

3. Qaysi so‘zlar til boyligimizdan mustahkam o‘rin egalladi?

**A)** O‘zbekiston bug‘doyi B) O‘zbekiston sporti

D**)** O‘zbekiston askarlari E) O‘zbekiston mashinalari

4. Qaysi viloyatlardagi tarixiy obidalarga e’tibor kuchaydi?

A) Toshkent, Buxoro B) Xiva, Samarqand

**D)** a va b javob to‘g‘ri E) Farg‘ona, Namangan

5. Mustaqillik qaytarib bergan allomalardan kimlarni bilib oldingiz?

A) A. Temur, Z.M.Bobur B) Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshbandiy D) Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ali Romitaniy E) barcha javoblar to‘g‘ri

***“Allomalar tug‘ilgan joyini top” o‘yini.*** O‘quvchilar allomalarning tug‘ilgan joylarini topishlari lozim bo‘ladi. Al-Buxoriy – Buxoro, At-Termiziy – Termiz, Bahouddin Naqshbandiy – Kogon, Abduxoliq G‘ijduvoniy – G‘ijduvon, Xoja Ali Romitaniy – Buxoro, Burhoniddin Marg‘inoniy – Marg‘ilon.

**IV. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi.

1. Allomalarimiz bizga qanday milliy–madaniy meros qoldirgan?
2. O‘zbekistonning haqiqiy egalari kimlar bo‘ladilar?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**V. Uyga vazifa berish.** “Mangulikka tatigulik kun” matnini o‘qish.

## 2-dars

***Mavzu:*** “Iqboli buyuksan” (*Abdulla Oripov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmuni bilan tanishtirish, shoir asarlari haqida to‘liq tushuncha hosil qilish, she’rni ongli, ifodali o‘qishga va ma’nodosh so‘zlarni topishga o‘rgatish.

***TK 3:*** she’riy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda vatanni ardoqlash, ota-onani e’zozlash, ustozlarni hurmat qilish tuyg‘ularini tarbiyalash, ularni mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intiluvchanlikka o‘rgatish.

***TK 5****:* she’rda aks etgan vatanparvarlik g‘oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, test yechish malakalarini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish.

***FK 1:*** she’riy matnlarni tinglab tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Rasmli reja”, “O‘rnini top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** vatanimiz go‘zalligi, maktabda bilim olayotgan, sport bilan shug‘ullanayotgan bolalar tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**




***“Rasmli reja” mashqi.*** O‘quvchilar Safar Barnoyevning “Mangulikka tatigulik kun” matni mazmunini “Rasmli reja” o‘yini asosida so‘zlab beradilar. Buning uchun doskaga xatboshilarga oid rasmlar ilinadi. O‘quvchilar shu rasmlar asosida matnni qayta hikoya qilib beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1. O‘zbekistonimiz qachon mustaqilikka erishdi?

**A)** 1991-yil B) 1993-yil
D) 1992-yil E) 1994-yil

2. O‘zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qachon qo‘shildi?

**A)** istiqlolga erishgach B) istiqloldan oldin
D) mustaqillik arafasida E) mustaqillikdan avval

3. Toshkent, Buxoro, Xiva hamda Samarqandda nimalarga e’tibor kuchaydi?

A) teatrlarga B) muzeylarga
D) bog‘chalarga **E)** tarixiy obidalarga

4. Bugungi ishlar, qurilishlar kimlarga abadiy mulk bo‘lib qoladi?

A) kattalarga **B)** bolalarga

D) ustozlarga E) ota-onalarga

5. Mustaqil respublikamiz bolalarining ilm olish va hunar egallashlari uchun nimalar keng ochib berildi?

A) do‘konlar B) bog‘chalar

**D)** dunyo darvozalari E) mahallalar

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Iqboli buyuksan” she’ri bilan tanishamiz.

O‘qituvchi she’r muallifi haqida ma’lumot beradi.

She’r mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi. O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi:

– Nima deb o‘ylaysiz, shoir bu she’rni qanday kayfiyatda yozgan?

– She’rning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?

O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qiydilar.

– She’rdagi tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilang.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**dilband** – dilni o‘ziga tortuvchi, maftun etuvchi; aziz farzand

**suyuk** – eng yaxshi ko‘rilgan, sevikli

**iqbol** – baxtli taqdir, porloq kelajak; baxt, omad

She’r mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu she’r nima haqida ekan?

– She’rning asosiy mavzusi nima deb o‘ylaysiz?

– Sizningcha bu she’r kimga qarata aytilgan?

– She’r kimning nomidan aytilgan?

– Ota-onalarni e’zozlashimizning sababi nimada?

– Ona bilan Vatan tushunchalari nima uchun qiyoslanadi?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

– Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? Bunda muallifning kayfiyati va o‘zingizning hissiyotlaringizni namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.

***“O‘rnini top” o‘yini.*** O‘quvchilar qofiyalarni o‘z o‘rniga joylashtirishlari lozim bo‘ladi.

– She’rdagi yangi, nutqimizda kam foydalaniladigan so‘zlarga bir nechta ma’nodosh so‘zlar topishga harakat qiling.

Otaga

Vatanni

Avvalo rahmatdir Onaga,
So'ng esa albatta .....
Bizlarga eslatmish hayotni,
Unutmang hech qachon .....
Sen o'zbek elining farzandi,
Istiqlol yurtining .....
Vataning g'oyatda keng erur,
Barchaga barobar, teng .....

erur

dilbandi

– She’rdagi o‘xshatishlarni aniqlang. Ularning vazifasi nimadan iborat?

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi:

1. Sizda nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
3. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
4. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Iqboli buyuksan” she’rini yod olish.

## 3-d a r s

***Mavzu:*** “Qodir boboning orzusi” (*To‘lqin Hayit*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** “Qodir boboning orzusi” matnining mazmuni bilan tanishtirish, bog‘lanishli nutq va matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

***FK 1:*** o‘qilgan matn mazmunini tushunib, mavzuga mos maqol topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda dunyoga mashhur bo‘lgan avtomobillarni ishlab chiqaryotgan Vatan bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otish va mehnatsevarlikka o‘rgatish.

***TK 4:*** hikoyada aks etgan milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan asarlarning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Ichda o‘qish” usuli, “Kasblarga ta’rif”, “Maqollar chashmasi” ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II.Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan” she’rini yoddan aytib beradi. She’r asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ona bilan Vatan tushunchalari nima uchun qiyoslanadi?
2. Ustozni nima uchun unutmaslik kerak?
3. *Suyuksan* so‘ziga qofiyadosh so‘zni toping.
4. *Dilbandi* so‘ziga ma’nodosh so‘zni toping.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugungi dars mavzusi: “Qodir boboning orzusi”.

Muallif To‘lqin Hayit haqida o‘qituvchi qisqacha ma’lumot beradi.



Matn mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi.

“Qodir boboning orzusi” matni mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**xiyla o‘ylantirib qo‘ydi** – bir muncha fursat o‘ylantirib qo‘ydi
**shukronalik** – shukur qilish, qanoatli va mamnunlik holati
**shirin o‘y** – shirin hayol
**qanot bag‘ishlab** – madad berib
**turnaqator** – qator bo‘lib tizilib, birining ketidan biri
**ilinjida** – yetishish umidida, ko‘zlangan dard – maqsad, umidvorlikda
**yuragi go‘yoki o‘z qolipga tushgandek** – xotirjam bo‘ldi



***“Maqollar chashmasi” o‘yini.*** O‘quvchilar hunarga oid maqollarni aytadilar.

Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
Non topilar… (*yo‘lingda*)
Hunari yo‘q kishidan
Bigizi bor yamoqchi… (*yaxshi*)

Hunarli kishi och... (*qolmas*)
Hunarli yigit-mevali… (*daraxt*)
Hunar hunardan ... (*unar*)

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Matn o‘quvchilarga “Ichda o‘qish” usulida o‘qitiladi. Matn mazmuni hikoya qildiriladi.

Savol va topshiriq:

– Qodir boboning oldingi hayoti bilan hozirgi hayotini solishtiring.

– Siz qanday kasblarni bilasiz?



***“Kasblarga ta‘rif” o‘yini*** o‘tkaziladi. O‘quvchilar uchta guruhga bo‘linadi. Kasblarga ta‘rif beriladi. O‘quvchilar bu kasb nomlarini topishadi.

…… xurmacha,
Loydan oldim bir parcha.
Buyumlarim sifatli
Hammasidir o‘zgacha.
*(Kulolchiman)*
Menman mohir…… ,
Ish ketidan yerman osh.
Shogirdlarim, bor yo‘ldosh,
Men ularga ko‘makdosh.
*(Sartarosh)*

…… opa
Biz kelsak kitob topar.
Ilm oling, o‘qing der
Va bilimdon bo‘ling der.
*(Kutubxonachi)*
Qo‘li shirin pazanda,
Ovqatni qilmas kanda.
Olib, tatib ko‘ringlar,
Ta’mi juda mazza-da.
*(Oshpaz)*

***Test topshiriqlari:***

1. Qodir bobo bu yil necha yoshga kiradi?
A) sakson besh B) oltmish **D)** sakson E) yetmish bir
2. Asaka shahrida qanday ishlab chiqarish zavodi qurildi?
**A)** yengil mashina B) neft mahsulotlari
D) yengil sanoat E) paxta tozalash
3. Birinchi bo‘lib qaysi avtomobillar ishlab chiqarildi?
A)”Volga”, “Jiguli”, “Tiko” B) “Otayo‘l”, “Moskvich”, “Neksiya”
D) “Jiguli”, “Damas”, “Traktor” **E)** “Tiko”, “Damas”, “Neksiya”
4. Qodir boboning nevarasi nimaning rasmini chizgan edi?
A) gullarning **B**) mashinalarning
D**)** daraxtlarning E) hayvonlarning
5. Qodir boboning orzusini kim amalga oshiradi?
A) o‘g‘li B) qizi **D)** nevarasi E) yoshlar

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi:

1. Hikoyani o‘qib, qanday xulosa chiqardingiz?
2. Kelajakda siz kim bo‘lmoqchisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Qodir boboning orzusi” matnini o‘qib kelish.

## 4-d a r s

***Mavzu:*** “Istiqlol bolalari” (*Dilshod Rajab*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Istiqlol bolalari” she’rining mazmuni bilan tanishtirish, ularga ozod va obod Vatan qadriga yetish to‘g‘risida tushuncha berish, she’riy matnlar mazmuni va o‘zgalar nutqini tushuna olish, suhbatlarda tushungan holda ishtirok eta olishni o‘rgatish.

***TK 2***: mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga o‘rgatish, yosh avlodning har jihatdan kamol topishiga yuksak ishonch ruhida tarbiyalash.

***FK 1****:* she’rga ishlangan multimedia ilovalarni tinglab tushuna olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2****:* o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat , tushuntirish, “Tezkor javob”, “Topqirlar” o‘yinlari.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilardan “Qodir boboning orzusi” hikoyasining mazmunini hikoya qilib berish so‘raladi. O‘tilgan mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Qodir boboga nima tinchlik bermas edi?
2. Qodir boboning yuragi nima uchun entikdi?
3. Qodir bobo va nevarasi nima haqida suhbat qurishdi?
4. Mamlakatimizda qanday avtomobillar ishlab chiqariladi?

***“Tezkor javob” o‘yini.*** Buning uchun sinf o‘quvchilari uch guruhga ajratiladi. Har bir guruh Vatan haqida maqollarni tez-tez aytishlari zarur. Masalan: Ona yurting – oltin beshiging.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

***“Topqirlar” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘quvchilar berilgan harflarni tagida raqamlarga mosini qo‘yib, so‘zlarni hosil qilishlari lozim. Bu so‘zlar orqali yangi mavzu hosil bo‘ladi. Javob: Istiqlol bolalari.

Bugungi darsda siz bilan “Istiqlol bolalari” she’ri bilan tanishamiz.

Matn mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi.

She’r matni audio orqali o‘qib eshittiriladi. Mavzuning mazmuni o‘quvchilar bilan tahlil qilinadi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga “Istiqlol bolalari” she’ri, “Davom ettir” usulidan foydalanib, ifodali qilib o‘qitiladi. She’r asosida qofiyadosh so‘zlar topiladi.

***“Qofiyadoshini top” o‘yini.*** Mashqni bajarishda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi. Har bir guruh a’zosi berilgan so‘zlarni qofiyadoshini topib, to‘g‘ri joylashtirishlari zarur. Masalan: ozod-obod-shod, olgan-solgan-chalgan.

***Test topshiriqlari:***

1. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng nimalarga erishdik?

A) davlatimiz rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirdi

B) o‘z boyligimizga erishdik

D) erkimizga erishdik **E)** hamma javoblar to‘g‘ri

2.O‘zbekistonning kelajagi kimlar?

A) ota-onalar **B)** bolalar D) keksalar E) rassomlar

3. “Istiqlol bolalari” she’rining muallifi kim?

A) Abdulla Oripov **B)** Dilshod Rajab

D) Tursunboy Adashboyev E) Po‘lat Mo‘min

4.“Istiqlol bolalari” she’rida nimalarga urg‘u berilgan?

**A)** a’lo o‘qishga, vatan ishonchi bo‘lishga

B) ota-onaga, ustozga, sportga

D) gullarga, daraxtlarga E) kitoblarga

5. *Vatan – ozod, Vatan – obod,*

*Kelajakka boramiz shod*. – Bu misralar kimning qalamiga mansub?

A) Abdulla Oripov **B)** Dilshod Rajab

D)Tursunboy Adashboyev E) Po‘lat Mo‘min;

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Mustaqillikka erishgan yurtimiz istiqlol bolalariga nima berdi?

2. She’rda shoir bolalar nomidan kuylashining sababi nimada deb o‘ylaysiz?

3. Nima uchun she’r “Istiqlol bolalari” deb nomlandi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Istiqlol bolalari” she’rini yod olish.

## 7-d a r s

***Mavzu:*** “Serquyosh o‘lka” (*Zafar Diyor*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy*:** o‘quvchilarga O‘zbekiston, uning yoshlarga yaratgan imkoniyatlari haqida ma’lumot berish, “Serquyosh o‘lka” she’ri bilan tanishtirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali, o‘qiy olish va mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning vatanga muhabbat, u bilan faxrlanish, tabiati va ne’matlarining qadriga yetish hislarini tarbiyalash.

***TK 5***: she’rda aks etgan umuminsoniy qadriyatlarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini, mustaqil va ijodiy ishlash, ziyraklik, hozirjavoblik qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “O‘rniga qo‘y”, “Ketma-ket ayt” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar bilan o‘tilgan mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– Mustaqillikka qachon erishdik?

– Yurtmizda yoshlarga qanday imkoniyatlar yaratilmoqda?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

O‘quvchilar uyda yozgan hikoyalari o‘qitiladi va fikrlari to‘ldiriladi.

***“Mozaika” mashqi.*** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruh O‘zbekistonning turli joylari rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

**–** Bugun biz sizlar bilan Zafar Diyorning “Serquyosh o‘lka” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan keng yurtimiz, undagi o‘zgarishlar haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.

– Siz yurtimiz haqida nimalarni bilasiz?

– Yurtimizdagi qanday diqqatga sazovor joylarni bilasiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Serquyosh o‘lka” she’ri mazmuni asosida lavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Serquyosh o‘lka” she’r matni o‘qiladi. She’r mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**dong‘i** – nomi

**dimog‘** – halqumning yuqori bo‘limi

**shodon** – xursand

**chog‘ –** xursand, shod, yaxshi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Serquyosh o‘lka” she’ri o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Shoir yurtimiz tabiatini qanday so‘zlar bilan ulug‘laydi?

– She’rdagi “Serquyosh o‘lka” iborasini qanday so‘zlar bilan almashtirish mumkin?

***“O‘rniga qo‘y” o‘yini.*** O‘quvchilar she’rdagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni tegishli joyga yozishlari kerak.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

***“Ketma-ket ayt” mashqi.*** O‘quvchilar O‘zbekistondagi inshootlar nomini ketma-ket aytishadi. Shu tarzda o‘yin davom etadi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Serquyosh o‘lka” she’rini yodlash.

## 8-dars

***Mavzu:*** “Xarita” (*Normurod Norqobilov*) 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoyaning mazmuni va muallifi bilan tanishtirish, ifodali ravon o‘qish, hikoya mazmunini to‘liq uqib olish, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olish, asar qahramonlarining fe’l-atvorini aniqlash va qiyosiy tavsiflashni o‘rgatish.

***TK 2:*** hikoyadagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish.

***FK 1:*** hikoyani ongli, o‘qiy olish va mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni vatanimizning har bir qarich yerini e’zozlash, tug‘ilib o‘sgan joyini ardoqlash, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, birovlarni kamsitmaslikni o‘rgatish, tirishqoqlik, intiluvchanlik tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 5:*** hikoyadagi qahramonlarda insoniylik xususiyatlarga xolis mulohaza yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, rollarga bo‘linib o‘qish, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan hikoyaning qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Davom ettir”,“Soat bilan do‘stlashamiz” mashqlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Bir necha o‘quvchi Zafar Diyorning “Serquyosh o‘lka” she’rini yoddan aytib beradi.

O‘quvchilar bilan “Davom ettir” o‘yini o‘tkaziladi.




***“Davom ettir” o‘yini.*** Bu o‘yinda 8 nafar o‘quvchi doska oldiga chiqadi. Ulardan birining qo‘liga koptok beriladi. Shu o‘quvchi she’rning ikki qatorini aytib, koptokni boshqa, o‘zi istagan o‘quvchiga uzatadi. Koptokni olgan o‘quvchi she’rning davomini aytishi kerak bo‘ladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Men sizlarga topishmoq aytaman, javobini toping-chi.

Shahari bor, odami yo‘q,
Daryosi bor, suvi yo‘q. (*Xarita*).

– To‘g‘ri, bu topishmoqning javobi – xarita. Xarita haqida nimalarni bilasiz?

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Xarita”. (Normurod Norqobilov). 1-qism.

O‘qituvchi hikoya muallifi Normurod Norqobilov haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘qituvchi “Xarita” hikoyasini ifodali o‘qib beradi.

Hikoyada uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***



**xiyla** – ma’lum darajada, birmuncha
**qiyratmoq** – bir tekis yo‘q qilmoq
**tumshaymoq** – biror narsadan xafa bo‘lib, qovoq solib o‘tirmoq
**ayil** – egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog‘lanadigan qayish
**ayilday botdi** – qattiq tegdi, og‘ir botdi, ranjitdi

Hikoya mazmuni tahlil qilinadi.
– Bu hikoya qahramonlari kimlar ekan?
– Rasul qaysi darsni jini suymasdi?
– Sinf rahbari Rasulni kimga biriktirib qo‘ydi?
– Samad Rasulning uyiga nima uchun hovliqib kirib keldi?
– Samad qishlog‘ining xaritasida nimalarni tasvirladi?
– Bolalar nima ustida tortishib qolishdi?

**Darslik bilan ishlash.** ***“Rolli o‘qish” usuli.*** O‘quvchilar hikoyani rollarga bo‘linib o‘qiydilar. Uch nafar o‘quvchi muallif, Samad, Rasul kabi rollarga bo‘linadilar va ularning so‘zlarini o‘qiydilar. O‘qiyotganlarida har bir qahramonning xarakterini ochib bera olishlari lozimligi tushuntiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari bajariladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Rasul qaysi fandan tuzukroq o‘qir ekan?
A) o‘qish B) ona tili **D)** matematika E) rasm
2. Kim Rasulni Samadga biriktirib qo‘ygandi?
**A)** sinf rahbari B) onasi D) direktor E) otasi
3. Samad nimani chizibdi?
A) kitobni **B)** xaritani D) mashinani E) gulni
4. Bolalarga “qishlog‘imizning o‘zi bir vatan, kichik vatan” deb kim aytgan edi?
A) otasi B) akasi D) do‘sti **E)** muallim
5. Bolalarning tortishuvi natijasida kim arazlab ketdi?
A) Rasul **B)** Samad D) muallim E) Rasulning akasi



***“Soat bilan do‘stlashamiz” mashqi.*** O‘quvchilar kataklarda ko‘rsatilgan vaqt o‘rniga soatdagi harflarni joylashtirsalar hikoya mazmuniga mos maqollarni topadilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Hikoyada nima sizni ko‘proq hayajonga soldi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, hikoyaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
3. Darsda olgan qaysi bilimlaringizni hayotingizda qo‘llaysiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xarita” hikoyasining 1-qismini o‘qish.

## 9-dars

***Mavzu:*** “Xarita” (*Normurod Norqobil*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Xarita” matnining mazmuni bilan tanishtirish, matn haqida ma’lumot berish, hikoyada vatanga bo‘lgan muhabbatning kichik qahramonlar chizgan shahar va qishloqlar misolida tushuntirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga, matndagi asosiy va ikkinchi darajali xislatlarni ajrata olishga o‘rgatish.

***TK 3:*** o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ongli va ifodali o‘qish, matnni qisqartirib hikoyalash, asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘rganilgan asarlarning qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Zanjir” usuli, “Qismini top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilardan bir nechtasi o‘tilgan “Xarita” hikoyasining 1-qismini ifodali o‘qiydi va qolgan o‘quvchilar “Davom ettir” usulida hikoya qilib beradi. So‘ngra mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– Samad qishlog‘ining xaritasida nimalarni tasvirladi?

– Rasul va Samad nima ustida tortishib qolishdi?

– Hikoyadan siz nimani o‘zingizga oldingiz?

***“Mozaika” o‘yini.*** O‘quvchilarga O‘zbekiston hududlari kesma holatda tarqatiladi. O‘zbekiston xaritasini hosil qiladilar.

**Javob**: Xarita.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugungi darsda siz bilan “Xarita” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Matn o‘quvchilarga “Zanjir” usulida o‘qitiladi.

Mavzudagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**qolip** – andaza, quyma shakl

**loqayd** – befarq, beparvo, sovuqqon

**kashfiyot** – ixtiro, topilma

**jimitdek** – juda kichkina, jajji,

**zig‘ircha** – ozgina, jindek

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***“Qismini top” mashqi.*** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlarga mavzu matni qismlarga bo‘lib beriladi. Har bir guruh a’zolari berilgan qismlarni to‘g‘ri topib, ifodali qilib o‘qishadi va hikoya qilishadi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1. Rasul xaritada Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarini nima uchun ko‘hna yodgorliklar misolida tasvirladi?

2. Siz O‘zbekistonni qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekanligini bilasizmi?

***Test topshiriqlari:***

1. Kimning rasmida chegara nuqtali chiziqlar bilan chizilgan edi?
**A)** Samadda B) Rasulda D) Islomda E) Akasida
2. Chizgan birinchi rasmiga akasi qanday qaradi?
A) quvonch bilan B) tashvish bilan
D) loqayd bo‘lib E) hayratomuz holatda
3. Rasul umrida ko‘rmagan qaysi shaharni tasavvur qilib chizdi?
A) Samarqandni **B)** Toshkentni D) Buxoroni E) Andijonni
4. Cho‘l degan joyga nimani rasmini chizdi?
**A)** qo‘yni B) itni D) otni E) echkini
5. Rasul xarita tagiga nima deb yozdi?
A) Tojikiston B) Qozog‘iston D) Armaniston **E)** O‘zbekiston

Test natijasi e’lon qilinadi va xulosalanadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagicha savollar beriladi:

1. Shu mavzudan so‘ng sizda o‘z qishloq yoki shaharingiz xaritasini chizish istagi paydo bo‘ldimi?
2. Chizgan xaritangizda nimalarni tasvirlagan bo‘lardingiz?
3. Mavzudan olgan bilimlaringizni qachon qo‘llash mumkin?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xarita” hikoyasining 2-qismini o‘qish.

## 11-d a r s

***Mavzu:*** “Mardlik va aql yorug‘ligi” (*Miraziz A’zam*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy***: “Mardlik va aql yorug‘ligi” she’r mazmuni bilan tanishtirish, Vatanni mo‘tabar ekanligini tushuntirish, Vatan oldidagi burchini anglatish.

***FK 1:*** she’rni ifodali, to‘g‘ri o‘qib, mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ilmga bo‘lgan muhabbatini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 5:*** she'rda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o'quvchilarda ijodiy fikrlash, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

***TK 3:*** mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, "Tarmoqlash", "Davomini top" o'yini.

**Dars jihozlari:** ko'rgazmali va tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar "Xarita" hikoyasining II qismini so'zlab beradilar.

"Xarita" mavzusi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– Samad va Rasul nima sababdan tortishib qolishdi?

– Rasul xaritada Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarini nima uchun ko'hna yodgorliklar misolida tasvirladi?

O'quvchilar javoblari to'ldirilib umumlashtiriladi.




***"Tarmoqlash" metodi.*** "Tarmoqlash" metodi yordamida O'zbekistonning chegaradosh davlatlari aniqlanadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Miraziz A'zamning "Mardlik va aql yorug'ligi" she'ri bilan tanishamiz.

Miraziz A'zam haqida ma'lumot beriladi.

O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi.



***Lug'at ishi:***

**qo'r** – olov yonib bo'lgach, ostida qolgan cho'g' uyumi

**o'git** – nasihat **tayin** – aniq **uvol** – isrof

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va har bir guruh she'rning bir bandini yoddan aytib beradi.

She'r matni ustida savol-javob o'tkaziladi.

– She'r nima haqida ekan?

– Qanday kishilarni mard deymiz?

O'rganilganlar yuzasidan test sinovi o'tkaziladi.

***Test topshiriqlari:***

1. O'g'il bolaga xos xislatlar yozilgan qatorni aniqlang?

**A)** mard, jasur, qo'rqmas B) ilmsiz, dangasa, chiroyli

D) qo'rqmas, epchil, ishyoqmas E) madaniyatli, bilimdon, ilmli.

2. She'r mavzusi nima haqida aytilgan?

A) vatan haqida **B)** mard va ilmli bo'lish haqida

D) o'qish haqida E) askar bola haqida

3. Bilimli bo‘lish uchun nima qilish kerak?

**A)** yaxshi o‘qish kerak B) chiroyli kiyinish kerak

D) pahlavon bo‘lish kerak E) sport bilan shug‘ullanish kerak

4. Misralarni davom ettiring? Aqlni faqat ilm...

A) o‘g‘ilga mardlik kerak B) yorug‘ aql Vatanni

**D)** yorug‘ qilar, ukajon E) bir gapim bor ukajon

5. She’rni muallifi kim?

A) Abdulla Oripov B) Anvar Obidjon

D) Zafar Diyor **E)** Miraziz A’zam

***“Davomini top” o‘yini***

Nomard do‘stdan …. dushman yaxshi. (mard)

Mard tuzar, nomard …. (buzar)

Mard maydonda, kuch …. sinaladi. (bilimda)

Ilmli mingni yiqar …. birni. (ilmsiz)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Bilim haqida qanday she’rlar bilasiz?

2.Qanday insonlarni vatanparvar deb hisoblaysiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Mardlik va aql yorug‘ligi” she’rini yodlash.

## 12-d a r s

***Mavzu:*** “Kichik Vatan” (*Ashurali Jo‘rayev*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Kichik Vatan” hikoyasining mazmuni bilan tanishtirish, odamning yashaydigan uy-joyi, hovlisi uning kichik Vatani ekanligi haqida va insonning ota-ona oldidagi farzandlik burchining Vatan oldidagi burchi bilan uyg‘unligi to‘g‘risida ma’lumot berish.

***FK 1:*** hikoyada ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda Vatanning ostonadan boshlanishi va uning muqaddasligi yuzasidan umumiy tasavvur hosil qilish, ona Vatanga bo‘lgan muhabbatni o‘stirish.

***TK 5:*** hikoyada aks etgan vatanparvarlik g‘oyasini singdirish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmuniga doir savol va topshiriqlar bilan ishlash, matndagi so‘z, gaplarning ma’nolarini izohlay olishi, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Zanjir” usuli, “Sonlar va bo‘g‘inlar” mashqi, “Mohir jurnalist”, “Bir haqiqat uch yolg‘on” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarning bir nechtasi Miraziz A’zamning “Mardlik va aql yorug‘ligi” she’rini ifodali qilib yoddan aytib beradi.

***Test topshiriqlari:***

1. “*Do‘stlar mening yurtimni O‘zbekiston deydilar*”. – Bu misra qaysi she’rdan olingan?

A) “Iqboli buyuksan” **B**) “Serquyosh o‘lka”

D) “Istiqlol bolalari” E) “Mardlik va aql yorug‘ligi”

2. N.Norqobilovning “Xarita” hikoyasida Rasul yoqtirmagan dars qaysi?

**A**) matematika B) rasm D) tabiat E) o‘qish

3. “Xarita” hikoyasida “O‘zbekiston” xaritasini kim chizdi?

**A**) Rasul B) Samad D) akasi E) ustozi

4. “Mardlik va aql yorug‘ligi she’rining muallifi kim?

A) A. Jo‘rayev **B)** M. A’zam D) M.Omon E) Po‘lat Mo‘min

5. “Mardlik va aql yorug‘ligi” she’rida nima Vatanni olg‘a boshlaydi?

A) kuch **B**) aql yorug‘ligi D) pahlavon yigit E) yorug‘ yo‘l

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**“Sonlar va bo‘g‘inlar” mashqi** o‘tkaziladi. O‘quvchilar bulutlarda berilgan ifodalarni yechib, natijani topadilar. Chiqqan natija to‘kilayotgan barglarda aks etgan. Shu barglardagi sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiradilar. Barglarning orqa tarafidagi bo‘g‘inlarni birlashtirib so‘ng hosil bo‘lgan so‘zlarni o‘qiydilar. Yangi mavzu kelib chiqadi.



**Javob: Kichik Vatan.**

– Bugungi darsda siz bilan “Kichik Vatan” hikoyasi bilan tanishamiz.

Muallif Ashurali Jo‘rayev haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.

Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib, ifodali qilib o‘qib beriladi.

Hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**bostirma –** usti yengilgina yopilgan yo‘lak

**chorpoya** – to‘rt oyoqli va panjarali katta keng yog‘och karavot, so‘ri

**hamon** – haligacha, hanuzgacha **hamroh** – yo‘li bir, yo‘ldosh

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilarga “Kichik Vatan” hikoyasi “Zanjir” usulidan foydalanib, navbatma-navbat o‘qitiladi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida savollar beriladi.

1. Hikoya nima haqida?
2. Hikoyaning asosiy qahramoni kim?
3. Bobo nima uchun xomush bo‘lib yurdi?
4. Erdon tog‘ani duo qilib, bobo qanday tilak bildirdi?

***“Mohir jurnalist”* mashqi.** O‘quvchilarga hikoyadan parchalar beriladi.

“ – Bobojon, kichik Vatan ham bo‘ladimi?” – beixtiyor so‘radim. – Bo‘ladi, bolam, bo‘ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi kichik vatani. Ana shu kichik Vatanlar yig‘ilib-yig‘ilib, birlashib O‘zbekiston degan ulug‘ Vatanga aylanadi…”

– Bu parchalarni o‘qib, ko‘z o‘ngingizda nimalar namoyon bo‘ldi? Fikrlaringizni 3–4 ta gap bilan ifodalang.

***“Bir haqiqat uch yolg‘on” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘quvchilarga maqollar beriladi. Maqollarni yon tomonlariga so‘zlar yozilgan tarqatmalar osilgan bo‘ladi. Ular berilgan so‘zlarni qaysi biri Vatan haqida ekanligini topishlari zarur.

Maqollar: Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi.

Ekin yerida ko‘karar, er–elida.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Yangi hovliga ko‘chayotgan bobo nima uchun g‘amgin bo‘lib qoldi?
2. Bobo “Kichik Vatan” haqida nimalarni gapirib berdi?
3. “Kichik Vatan” haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Boboning holati sizda ham bo‘lganmi?
5. Hikoyani o‘qib qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Kichik Vatan” hikoyasini o‘qish.

## 13-dars

***Mavzu:*** “Gulg‘unchalarmiz”. (*Muhiddin Omon*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmunini chuqur tahlil qilib, shoirning asl g‘oyasini tushunishga, she’rni ifodali o‘qishga va qofiyadosh so‘zlarni topishga o‘rgatish.

***TK 4***: she’rga doir kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish.

***FK 1:*** she’rdagi audio matnni tinglab tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda vatanning muqaddasligi, yagonaligi va unga bo‘lgan muhabbat, buyuk allomalarimizga bo‘lgan hurmat tuyg‘usini tarbiyalash.

***TK 5:*** she’rda aks etgan vatanparvarlik g‘oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, test yechish malakalarini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish.

***FK 2***: o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Tarmoqlash”, “Zanjir” usuli, “So‘zlar o‘yini”, “Qofiyadosh so‘zni top” mashqlari.

**Dars jihozlari:** baxtli bolalik tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Ashurali Jo‘rayevning “Kichik Vatan” hikoyasini “Zanjir” usulida o‘qib, mazmunini so‘zlab beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1. “Kichik Vatan” hikoyasi qahramoni boshqa qishloqqa ko‘chganida nechanchi sinfda o‘qirdi?

A) birinchi B) ikkinchi **D)** uchinchi E) to‘rtinchi

2. Ko‘chishlaridan bir kun oldin kimlar mollarni haydab yangi uylariga ketishdi?

A) Akasi va do‘sti **B)** akasi va otasi

D) otasi va bobosi E) ukasi va akasi

3. Hikoyada boboning ismi nima edi?

A) Erdon **B)** Jo‘ra D) Rasul E) Murod

4. Ularning uylarini kim sotib oldi?

A) Komil aka B) Shoyim tog‘a D) Samad aka **E)** Erdon aka

5. *Odamning yashaydigan …, … kichik Vatani.* Gapdagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni aniqlang.

A) hovlisi, maktabi B) uyi, bog‘chasi

**D)** uyi, hovli-joyi E) mahallasi, do‘koni

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Gulg‘unchalarmiz” (Muhiddin Omon).

O‘qituvchi “Gulg‘uncha” so‘ziga izoh beradi. “Gulg‘uncha” so‘zi gulning g‘unchasi, ochilmagan gul kabi ma’nolarni anglatishi tushuntiriladi.

She’rning muallifi Muhiddin Omon haqida qisqacha ma’lumot o‘qituvchi tomonidan beriladi.



She’r matni mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi.

O‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

– Nima deb o‘ylaysiz, bu she’rni yozayotganda shoir qanday kayfiyatda bo‘lgan?

– Sizningcha bu she’rning yaratilishiga nima sabab bo‘lgan?

– She’rning asosiy g‘oyasi nimadan iborat deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qiydilar.

– She’rdagi tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilang.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**jo‘shar** – to‘lib toshar, mavj urar **zurriyot** – bola, farzand

**lol qolgan** – hayron holda qolgan **beg‘ubor –** ko‘nglida yomonligi yo‘q

She’r mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu she’r kimlar haqida ekan?

– She’rning asosiy mavzusi nima deb o‘ylaysiz?

– She’r kimning nomidan aytilgan?

– “Gulg‘unchalar” deganda kimlarni tushunasiz?




***“Tarmoqlash” metodi.***

– Vatanimiz kelajagi bo‘lmish yosh avlod qanday xislatlarga ega bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

Bu savolga javoblarini o‘quvchilar “Tarmoqlash” usulida yozadilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

– Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? She’rni o‘qiyotganda o‘z hissiyotlaringizni namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.




***“Qofiyadosh so‘zni top” mashqi.***

O‘quvchilar she’rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlaydilar.

Gulg‘unchalarmiz – chalarmiz

Tarona – ona

Bemalol – barkamol

Avlodlarimiz – zurriyotimiz

– She’rdagi yangi, nutqimizda kam foydalaniladigan so‘zlarga bir nechta ma’nodosh so‘zlar topishga harakat qiling.

– She’rdagi o‘xshatishlarni aniqlang. Ularning vazifasi nimadan iborat?


(mitti yulduz, gulg‘unchalarmiz; baxt-u saodatning kuyin chalamiz; ilm-u hunar bilan dunyoni olgan)



***“So‘zlar o‘yini” mashqi.***

– Biz kimlarning zurriyotlarimiz?

– Bu savolga javobni “So‘zlar o‘yini” mashqi yordamida bilib olishingiz mumkin. Harfli kvadratlarning ichiga buyuk ajdodlarimizning ismlari yozilgan. So‘zlarni turli yo‘nalishlarda o‘qish mumkin.



(Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy)

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Sizda nima kuchli taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
3. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
4. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Gulg‘unchalarmiz” she’rini yodlash.

## 16-d a r s

***Mavzu:*** “Kuz”. (*Shukur Sa’dulla*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga kuz fasli haqida ma’lumot berish, “Kuz” she’ri bilan tanishtirish, o‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2***: kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topish.

***FK 1:*** she’rga mos ixcham audio matnni tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning tabiatga muhabbat, tabiat in’omlariga shukronalik hislarini tarbiyalash.

***TK 5:*** she’rda bo‘layotgan hodisa jarayonlariga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, she’rni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Qofiyadoshini top”, “Zanjir” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“O‘zbekiston – Vatanim manim” bo‘limi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni” maqol mazmunan bo‘limdagi qaysi she’rlarga mos keladi?

– Vatanni sevgan o‘quvchi qanday yaxshi ishlarni bajarishi kerak?

O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.



***“Mozaika” mashqi.***

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga kuz fasli tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Shukur Sa’dullaning “Kuz” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan kuz fasli, tabiat hodisalari haqida suhbat o ‘tkaziladi.

– Kuz faslida qanday mevalar pishadi?

– Kuzda ob-havoda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r mualli-fi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Kuz” haqidagi videolavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Kuz” she’ri matni o‘qiladi. She’r mazmuni tushuntiriladi. No-tanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**aftidan** – yuzidan

**zamin solinar** – tayyorlanar

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Kuz” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar dars-likdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– “Quyosh tushar taftidan”, “Qishga zamin solinar” misralarining ma’nosini izohlang.



***“Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Kuz” she’ridagi qofi-yadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z top-gan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**



***“Zanjir” o‘yini.*** O‘quvchilar kuz faslida bo‘ladigan o‘zga-rishlarni ketma-ket aytishadi. Shu tarzda o‘yin davom etadi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Kuz” she’rini ifodali o‘qish va yodlash.

## 17-dars

***Mavzu:*** “Qovun sayli” (*Shukur Sa‘dulla*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy*:** o‘quvchilarga “Qovun sayli” hikoyasi haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarni ifodali o‘qish, mazmunini so‘zlab berish malakasini takomillashtirish.

**FK 1:** hikoya mazmuni va fikrini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy*:** o‘quvchilarni tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga, o‘rgatish, tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni singdirish.

***TK 4:*** hikoyada aks etgan milliy qadriyatlarni anglash.

***Rivojlantiruvchi*:** o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, muammoli izlanish, “Shivirlab o‘qish”, “Pinbord” usullari, “Qovunlar nomini toping” o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Shukur Sa’dullaning “Kuz” she’rini yoddan aytib beradi.

O‘quvchilarga savol va topshiriqlar beriladi.

– Kuz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

– She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni aytib bering.

***Test topshiriqlari:***

1. G‘ir-g‘ir shamol nima qiladi?

**A)** yeladi B) uchadi D) qo‘nadi E) sakraydi

2. O‘g‘il-qizlar qayerga boradi?

A) dalaga **B)** maktabga D) kutubxonaga E) bog‘ga

3. *Taftidan* so‘ziga qofiyadosh so‘zni toping.

A ) daraxtlar B) kuz D) palladan **E)** aftidan

4. Kuzda nimalar to‘kiladi?

**A)** barglar B) gullar D) patlar E) mevalar

5. *Aftidan* so‘zining ma’nodoshini toping?

A) oy B) vaqt **D)** qiyofa E) yuz

***“Qovunlar nomini toping” o‘yini.*** Qovunlarning rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar uning turini topadilar. “Amiri”, “Sariq qirqma”, “Ko‘kcha”, “Bosvoldi”, “Qorako‘l”, “Doniyor”, “Asati”, “Obi novvot”, “Kampirchopon”.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz Shukur Sa’dullaning “Qovun sayli” hikoyasi bilan tanishamiz.

Muallif haqida ma’lumot beriladi.

Hikoya mazmuniga mos rasmlar namoyish etilib, matn o‘qiladi.

Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**bejirim –** shinam va chiroyli; xushbichim.

**yoqalab o‘tib** – chekkasi bo‘ylab yurib

**pushtalarida –** yonma-yon jo‘yaklar orasidagi, odatda qator qilib ekin ekiladigan uzun yer bo‘lagi, ekin palak otishi uchun qoldirilgan bo‘sh joy.

**choydish** – suv, choy qaynatiladigan metall idish, qumg‘on.

**karji –** qovun tilimidan ko‘ndalangiga kesilgan bo‘lak.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Qovun sayli” matnini “Shivirlab o‘qish” usulida o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.


Savol-javob o‘tkaziladi:

1. Bolalar polizga nima uchun borishdi?
2. Ular polizda qanday qovunlarni ko‘rishdi?
3. Qovun polizida qanday voqealar yuz berdi?

***“Pinbord” usulida matn yaratish.***

O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi. Reja asosida “Pinvord” usulida “Qovun sayli” matni yaratadi. Shu tariqa matn kengaytirilib boriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**




O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi:

1. Fasllarga bog‘liq yana qanday an’analarni bilasiz?
2. O‘zingiz shunday an’analarda ishtirok etganmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Qovun sayli” hikoyasining 1-qismini o‘qish .

## 18-d a r s

***Mavzu:*** “Qovun sayli” (*Shukur Sa’dulla*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoyaning mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri, ongli o‘qish, o‘qiganini so‘zlab berish, so‘z ma’nolarini farqlash, hikoyaning asosiy g‘oyasini aniqlashni o‘rgatish.

***TK 3***: mavzuni o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.

***FK 1*:** matnlarni tinglab, mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda milliy bayramlarimizga nisbatan hurmat, vatanimizda yetishtiriladigan noz-ne’matlarga nisbatan shukronalik, dehqon va bog‘bonlarga nisbatan mehr, mehnatsevarlik kabi tuyg‘ularni tarbiyalash.

***TK 5***: hikoyada aks etgan insonparvarlik g‘oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ifodali o‘qish, asar mazmunini shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, qovun turlarini ajrata olish malakalarini, og‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Kim tez topadi?”, “Tanlab so‘zla”, “Egasini top” mashqlari.

**Dars jihozlari:** qovun turlari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**




***“Tanlab so‘zla” mashqi.*** O‘quvchilar “Qovun sayli” hikoyasining 1-qismini “Tanlab so‘zla” mashqi yordamida so‘zlaydilar. Bunda o‘quvchilar juftliklarda bir-birlariga navbat bilan hikoyaning o‘zlari xohlagan qismini so‘zlab beradilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi ulardan juftiga qo‘ygan bahoni so‘raydi. Ular qo‘ygan baholarini qisqacha izohi bilan aytadilar.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Bolaning tog‘asi har safar qayerga taklif qilardi?

– Qovun poliziga kimlar borishdi?

– Chaylada nimalar dumalab yotardi?

– Ertalab choy ichgach, tog‘asi bolalarga qanday topshiriq berdi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Qovun sayli” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi “Qovun sayli” hikoyasining 2-qismini ifodali o‘qib beradi.

– Bolajonlar, men hozir hikoyani o‘qiyman, siz esa diqqat bilan eshiting va tushunarsiz so‘zlarni qalam bilan belgilab qo‘ying.

Hikoyani o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tushunarsiz so‘zlarga izoh beradi.



***Lug‘at ishi:***

**zaptiga olmoq** – tobora kuchaymoq
**garov o‘ynamoq** – bas bog‘lashmoq
**ilova qilmoq** – qo‘shimcha fikr bildirmoq
**inqillab** – arang, zo‘rg‘a

Hikoyaning mazmuni tahlil qilinadi.

– Qovun poliziga mashinalarda kimlar keldi?

– Kim katta-katta qovunlarni polizdan ko‘tarib chiqdi?

– Mehmonlar polizga nima uchun kelishgan ekan?

– Rais va Ali polvon nima haqida bahslashishdi?

– Hikoyaning so‘nggida rais bolaga nima dedi?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Hikoyani o‘quvchilar bitta gapdan navbat bilan “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari bajariladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Kim o‘zini katta olmay, kelib bolalar bilan ko‘rishdi?

A) o‘qituvchi **B)** rais D) traktorchi E) dehqon

2. Rais va sheriklari qanday qovunni tanlashdi?

A) katta, yengil B) qizil, og‘ir D) kichik, yumshoq **E)** serto‘r, og‘ir

3. Rais va sheriklari bittadan qovun tanlab qayerga kirishdi?

A) ayvonga B) uyga **D)** chaylaga E) bog‘chaga

4. Rais tanlagan qovunining ta’mi yuzasidan kim bilan bahslashdi?

**A)** Ali polvon B) Hasan D) Husan E) tog‘asi

5. Qovun sayli qachon bo‘ladi?


**A)** kuzda B) bahorda D) qishda E) yozda

O‘quvchilar yakka tartibda test topshiriqlarini bajaradilar. Test javoblari o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi, xatolar izohlanadi.

– Qovunlarning qanday turlarini bilasiz? Buni “Kim tez topadi?” o‘yini yordamida bilib olamiz.

***“Kim tez topadi?” o‘yini.***

O‘quvchilar birinchi harfi va harflar soniga qarab qovun turlarini topishlari lozim bo‘ladi. Tez va to‘g‘ri topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.







(asati, umrboqi, doniyor, ko‘kalapish, bo‘rikalla, obinovvot)

**Darslik bilan ishlash.**

***“Egasini top”* mashqi.** Bu mashqni qatorlararo yoki guruhlararo o‘tkazish mumkin. Bir o‘quvchi hikoyadan biror qahramonning gapini o‘qib beradi. Ikkinchi o‘quvchi esa bu gap kimga tegishli ekanini topishi lozim.

Masalan:
– Qovun sayliga keldik. Qani, mehmon qilinglar! *(Rais)*
– O‘zingiz tanlang, rais bobo! *(Bola)*
– Meniki shirin. *(Ali polvon)*
– Tushingizni suvga ayting. *(Rais)*
– Katta bo‘lay. Sizning o‘rningizni olaman! *(Bola)*

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Hikoyadan nima ko‘proq sizning yodingizda qoldi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, hikoyaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
3. Darsda olgan qaysi bilimlaringizni hayotingizda qo‘llaysiz?
4. Kuzda o‘tkaziladigan qaysi bayramlarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qovun sayli” hikoyasining 2-qismini hikoyalashga tayyorlanib kelish.

## 19-d a r s

***Mavzu:*** “Dehqon” (*Sulaymon Rahmon*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga dehqonchilik, mehnatsevarlik fazilati haqida ma’lumot berish, “Dehqon” she’ri bilan tanishtirish. To‘g‘ri va ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

***FK 1:*** she’r matnlarini tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda insonlarga nisbatan mehr-oqibat, turli kasb egalariga hurmat, dehqon mehnatini qadrlash, mehnatsevarlik hislarini tarbiyalash.

***TK 5:*** she’rda aks etgan umuminsoniy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarda ifodali o‘qish malakalarini, qofiyadosh so‘zlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***TK 3:*** she’riy kitoblarni o‘qib-o‘rganib borish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob,“Zanjir”, “Polizda”, “Qofiyadoshini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Qovun sayli” hikoyasining 2-qismi o‘qitiladi, mazmuni o‘quvchilarga hikoya qildiriladi. Hikoya yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Hikoya nima uchun “Qovun sayli” deb nomlangan?

– Qovun sayli qachon bo‘ladi?

– Kimlar atayin katta-katta qovunlarni qiynalib polizdan ko‘tarib chiqishdi?

– Qovunlarni qanday turlarini bilasiz?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

O‘quvchilar zanjir usulida o‘zlari bilgan qovun turlarini aytadilar.

***“Mozaika”* mashqi.** O‘quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga paxtazor, mevalar tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Sulaymon Rahmonning “Dehqon” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dehqon, uning qanchalik ko‘p mehnat qilishi haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Dehqon bobo nimalarni parvarish qiladi?

– Dehqon bobo bizga qanday yordam beradi?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Dehqon” she’ri mazmuni tasvirlangan videolavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Dehqon” she’ri matni o‘qiladi.

She’r mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**jonlanadi** – tiriladi

**sahrolarda** – cho‘llarda

**saxiy** – qo‘li ochiq

**namoyon** – aks etgan

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Dehqon” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Shoir dehqonni qanday so‘zlar bilan ulug‘laydi?

– U dehqonni nima uchun “yer naqqoshi” deb ataydi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

***“Zanjir” o‘yini.*** O‘quvchilar dehqon yetishtiradigan mahsulotlarni ketma-ket aytishadi. Shu tarzda o‘yin davom etadi.

***“Polizda”o‘yini.*** Qovun polizi tasvirlanib, qovunlarga *inson, quyoshi, bahor, o‘ngimda* so‘zlari, bulutlarga *bo‘ston, naqqoshi, olma-anor, ko‘nglimda* so‘zlari yoziladi. To‘g‘ri juft tanlangan bulutdan yomg‘ir yog‘adi va qovun kattalashadi.

“***Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Dehqon” she’ridagi qofiyadosh so‘zlarni topib aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Dehqon” she’rini yodlash.

## 23-d a r s

***Mavzu*:** “Salomlashish odobi” (*Husayn Voiz Koshifiy*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni insoniylik fazilatlarining boshi bo‘lgan salomlashish odobi yuzasidan tushuncha berish, “Salomlashish odobi” matnining mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1***: matn mazmunidan ta’sirlanish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga matnda bayon qilingan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, yosh avlodning har jihatdan kamol topishiga yuksak ishonch g‘oyasining tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratish.

***TK 4:*** ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish, o‘qituvchi yordamida ularga baho bera olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Ichda o‘qish” usuli, “Birikmadan gapgacha”, “Maqollar bilag‘oni” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Dehqon” she’rini yoddan aytib beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1. “Kuz” she’ridagi “Qishga zamin solinar” misrasini izohlang.

**A)** qishning boshlanishiga ishora B) kuzning boshlanishiga ishora

D) bahor kelishiga ishora E) yozning tugashiga ishora

2.“Qovun sayli” hikoyasida bola qayerlik bo‘ladi?

**A**) toshkentlik B) buxorolik D) samarqandlik E) andijonlik

3. “Qovun sayli” hikoyasida qovunning qaysi turlari haqida aytilgan?

A) shakarpalak, ko‘kcha, umrboqi B) ko‘kcha, obinovvot, doniyor

**D**) umrboqi, doniyor, ko‘kkalapish E) bosvoldi, obinovvot, ko‘kkalapish

4. Dehqon qaysi she’rda “yer naqqoshi” deya ta’riflanadi?

A) Shukur Sa’dulla, “Kuz” **B**) Sulaymon Rahmon, “Dehqon”

D) Anvar Obidjon, “Vatan” E) Muhammad Yusuf, “Bobodehqon”

5. Kuzda dehqonchilikka oid qanaqa bayram o‘tkaziladi?

A) Hosil bayrami **B**) Mehrjon bayrami

D) Paxta bayrami E) Mustaqillik bayrami

***“Birikmadan gapgacha” mashqi.*** Buning uchun sinf o‘quvchilariga kuz fasliga mos so‘z birikmalari beriladi. O‘quvchilar shu birikmalar asosida gaplar tuzishlari lozim. Bu topshiriq bo‘yicha mazmunli gaplar tuzgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

*(Oltin fasl, mehnatkash inson, oltin qo‘l, saxiy yer, xalqimiz rizqi.)*

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu “Salomlashish odobi” e’lon qilinadi. “Salom” so‘zining ma’nosi va salomlashish turlari haqida suhbat o‘tkaziladi.

O‘qituvchi tomonidan matn muallifi Husayn Voiz Koshifiy haqida qisqacha ma’lumot beradi.

O‘qituvchi tomonidan salomlashishning yetti holati haqida tushuncha beradi. Mavzu o‘quvchilarga “Ichda o‘qish” usulidan foydalanib o‘qitiladi.

Mavzudagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**maqbara** – qabr ustiga qurilgan me’moriy inshoot

**qazoyi hojat** – taqdirga oid ishni amalga oshirmoq

**mavridida** – qulay vaqt **qiroat** – o‘ziga xos ohangda o‘qish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga “Salomlashish odobi” matni navbatma-navbat tinish belgilariga e’tibor bergan holda ifodali qilib o‘qitiladi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1. Qaysi holatlarda salomlashish kerak?

2. Qanday holatlarda salom berilmaydi?

“***Maqollar bilag‘oni***” **o‘yini.** Bu o‘yinda doskaga bir nechta so‘zlar aralash qilib osib qo‘yiladi. Har bir guruh o‘quvchilari so‘zlarni to‘g‘ri yig‘salar maqollar hosil bo‘ladi. Tez va to‘g‘ri yig‘gan guruh g‘olib hisoblanadi.

So‘zlar: kattadan, ham, boshi, alik, farz, salom, odob, nuqtadan, alif.
Maqollar: Odobning boshi salom. Salom ham, alik ham farz.

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Matn nima haqida ekan?
2. Matnning asosiy g‘oyasi nimada deb o‘ylaysiz?
3. Darsdagi qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
4. O‘qigan matningizdan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Salomlashish odobi” matnini o‘qish.

## 24-dars

***Mavzu:*** “Odamdan nima qoladi?” (*Yusuf Xos Hojib*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga ezgulik va yomonlik haqida ma’lumot berish, “Odamdan nima qoladi?” matni bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 3:*** mavzuga oid kitoblarni o‘qib-o‘rganib borish.

***FK 1:*** matnni tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ezgu fazilatlarga ega bo‘lish, o‘zgalarga yaxshilik qilishga intilish, o‘zidan yaxshi nom qoldirish, vaqtdan unumli foydalanish hislarini tarbiyalash.

***TK 5***: yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqlarini, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, savollarga matndan javob topish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*****:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, “Kim topag‘on” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Salomlashish odobi” matni o‘qitiladi, mazmuni zanjir usulida qayta hikoya qildiriladi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Qaysi holatlarda salomlashsangiz odobsizlikka kiradi?

– Salomlashish odobi deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan Yusuf Xos Hojibning “Odamdan nima qoladi?” dostonidan bir parcha bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan yaxshilik va yomonlik orasidagi farq haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.



“Odamdan nima qoladi?” matni asosida lavha namoyish qilinadi. Kadr ortidan “Odamdan nima qoladi?” matni o‘qiladi. Matn mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**mangu** – barhayot
**yashindek** – chaqmoqdek
**o‘kinib** – achinib, afsuslanib
**ayondir** – namoyondir
**poygak** – ostona
**yilqi** – otlar to‘dasi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Odamdan nima qoladi?” matni o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Dostondan parchani o‘qib, nimani tushunib oldingiz?
– Shoir dono va bilimli kishilar to‘g‘risida nimalar deydi?
– Bilimsiz kishilar nimaga o‘xshatiladi?
– Odamdan nima qolar ekan?

Matn mazmuni hikoya qildiriladi.




***“Kim topag‘on?” o‘yini.***

O‘quvchilarga matn mazmuni asosida savollar beriladi.

– Nima yashindek tez kechadi?
– Tiriklikda nimani yig‘moq kerak?
– Inson vafotidan keyin undan nima qoladi?
– Kimlarning ishi har vaqt orqaga ketadi?

Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi va rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Darsda nimalarni bilib oldingiz?
– Bilib olgan ma’lumotlarni qayerda qo‘llay olasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Odamdan nima qoladi?” matnini o‘qish.

## 25-d a r s

***Mavzu:*** “Eng ulug‘ fazilat”.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik qaytishi haqida ma’lumot berish, “Eng ulug‘ fazilat” ertagi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**FK 1:** o‘qilgan ertakning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni o‘zgalarga yaxshilik qilishga undash, axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***TK 5 :*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqlarini rivojlantirish.

***TK 3:*** ertak kitoblarni o‘qib-o‘rganib borish.

**FK 2:** o‘rganilgan asarlarning nomi, qahramonlarining mazmunini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, tushuntirish, “O‘yla, izla, top” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid resurslar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Odamdan nima qoladi?” matni o‘qitiladi, mazmuni o‘quvchilarga hikoya qildiriladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Odamdan nima qolar ekan?

– Odam qachon obro‘ topadi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz yaxshilik haqida qanday ertaklar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Eng ulug‘ fazilat” ertagi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan yaxshilik va yomonlik haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Eng ulug‘ fazilat” ertagini ifodali o‘qib beradi.

Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**huzuriga –** oldiga

**taqdirnoma –** maqtov yorlig‘i

**ma’murlar** – ma’muriyatga doir boshqarish ijro bilan shug‘ullanadigan kishilar

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Eng ulug‘ fazilat” ertagi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.



***“O‘yla, izla, top” o‘yini.*** O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Ota o‘g‘illarini qanday sinab ko‘rdi?

– Nima uchun kenja o‘g‘ilning ishi otasiga juda ma’qul keldi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Eng ulug‘ fazilat” ertagini o‘qish.

## 26-dars

***Mavzu:*** “Har kim ekkanin o‘rar” (*Munavvar qori Abdurashidxonov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga qarindoshlik rishtalarining qanchalik muhimligi haqida ma’lumot berish, “Har kim ekkanin o‘rar” ertagi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1*:** o‘qilgan matnning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni yaqinlariga mehribon bo‘lish, ota-onasini hurmat qilishga o‘rgatish.

***TK 5:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, asar qahramonlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan she’rning nomi, mazmunini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Qofiyadoshini top”, “Zanjir” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Eng ulug‘ fazilat” ertagi o‘qitiladi, mazmuni 3-4 nafar o‘quvchiga hikoya qildiriladi. Ertak yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Eng ulug‘ fazilat nima ekan?

– Qaysi o‘g‘il javobi otaga ma’qul keldi?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz Munavvar qori Abdurashidxonovning “Har kim ekkanin o‘rar” ertagi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan ota va bola orasidagi hurmat, e’zoz haqida suhbatlashiladi, savol-javob o‘tkaziladi.

– Ota va bola orasida qanday umumiylik bor?

– Siz ota-onangizga qanday munosabatda bo‘lasiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



Ertak audio orqali o‘qib eshittiriladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**qartaymish** – qarigan

**chog‘imda** – paytimda

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash**. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Har kim ekkanin o‘rar” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– O‘g‘il bilan nevara nima uchun otalarini sahroga chiqarib tashlamoqchi bo‘lishdi?



– Chol farzandiga o‘z qilmishi to‘g‘risida nimalar dedi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Qofiyadoshini top” mashqi.*** O‘quvchilar “Har kim ekkanin o‘rar” she’riy ertagidagi qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

***“Zanjir”o‘yini.*** O‘quvchilar ertakdagi voqealar ketma-ketligini kichik hikoya tarzida aytadilar. Har bir o‘quvchi bittadan gap aytadi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Har kim ekkanin o‘rar” ertagini o‘qish.

## 27-dars

***Mavzu:*** “Chaqimchiga “mukofot” (*Ertak*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Chaqimchiga “mukofot” ertagi bilan tanishtirish. Matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash va ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1*:** o‘qilgan matnning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 4:*** xunuk odatlardan nafratlanish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, qayta hikoyalash asosida bog‘lanishli nutqni o‘stirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “T-chizma” metodi, “Mosini top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga tayyorlash.

**II**.**Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash**.

O‘quvchilar “Har kim ekkanin o‘rar” ertagini yoddan aytib beradi.

Savol-javob o‘tkaziladi.

1. O‘g‘il bilan nevaraning ishini qanday baholaysiz?
2. “Har kim ekkanini o‘rar” hikmatini izohlab bering.
3. Biz qariyalarga qanday munosabatda bo‘lishimiz kerak?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan “Chaqimchiga “mukofot” ertagi bilan tanishamiz.

Ertak mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi, kadr ortidan matn o‘qiladi va matn mazmuni tushuntiriladi.

O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**shikor** – ov

**xiyonat** – va’dasini buzdi

**voqif** – bilib qoldi, ogoh bo‘ldi

**tazarru** – tavba qildi

Mavzu yuzasidan ***“Mosini top” o‘yini*** o‘tkaziladi.

| | |
|---|---|
| hokim | jilovdor |
| saxiy | landavur |
| ziyrak | baxil |
| oqko‘ngil | vafodor |
| bevafo | ichi qora |

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilarga “Chaqimchiga “mukofot” ertagini “Ichda o‘qish” usulida o‘qitiladi va qayta hikoya qildiriladi.

Quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Hokim otboqardan nimani iltimos qildi?

2. Chaqimchilik qanday odat ekan?
3. Hokimning ukasi qanday yo‘l tutdi?
4. Chaqimchi otboqar qanday jazo oldi?
5. Chaqimchilik haqida o‘z fikringizni bayon eting.




**“T-chizma” metodi** orqali qahramonlarga tavsif beriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi.

1. Salbiy odatlar aks etgan yana qanday ertaklarni bilasiz?
2. Chaqimchilik haqida maqollar bilasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Chaqimchiga “mukofot” ertagini o‘qish.

## 28-d a r s

***Mavzu:*** “Omonatga xiyonat” (*Ertak*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Omonatga xiyonat” ertagi bilan tanishtirish, ularga omonatga xiyonat qilmaslik haqida tushuncha berish.

***FK 1*:** matnning mazmuniga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga yaxshi va yomon xislatlar haqida tushuncha berish, ularni mavzudan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, o‘zlarida yaxshi xislatlarni tarkib toptiruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish.

***TK 4:*** ertakda xilma-xil shaklda namoyon bo‘lgan qahramonning halolligiga xolis mulohaza yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, lug‘at ustida ishlash, qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan ertak qahramonini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Sirli raqamlar” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II**. **Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Chaqimchiga “mukofot” ertagini o‘qib, so‘zlab beradilar.




***“Sirli raqamlar” o‘yini.*** Bu o‘yinni o‘tkazish uchun darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilardan yetti nafari xattaxta yoniga chiqadilar, o‘qituvchi stol ustiga teskari qilib qo‘yilgan harflardan o‘quvchilarga bittadan olishini aytadi.

O‘quvchilar qarsak yordamida tovush chiqarib “XIYONAT” so‘zini hosil qiladilar.

O‘quvchilarga umumlashtiruvchi savollar beriladi:

1. *Xiyonat* so‘zi nechta harf va nechta tovushdan iborat? (7 ta harf va 7 ta tovush)

2. So‘z nechta bo‘g‘inli ekan? (3 ta bo‘g‘inli)

3. *Xiyonat* so‘zining ma’nosi nima?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Omonatga xiyonat” ertagi bilan tanishamiz.

Xalq og‘zaki ijodi, ertak haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



Matn mazmuniga mos animatsiya namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi.

Matn mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?

***Lug‘at ishi:***



**qozi** – kishilar orasidagi kelishmovchiliklarni hal qiluvchi adolatli kishi

**omonat** – o‘zga kishining narsasi

**xiyonat** – ishonib topshirilgan narsani o‘g‘irlash, yashirish, egasini aldash

**muhrlangan** – tamg‘alangan, og‘zi berkitilgan

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** “Chaqimchiga “mukofot” ertagini o‘quvchilar ***“Ichda o‘qish”*** usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar.

Darslikdagi savollar ustida ishlanadi.



***Test topshiriqlari:***

1. Omonat egasi xalta ichiga nima solgan edi?

A) tanga **B)** oltin D) bug‘doy E) kitob

2. Omonat egasi va xiyonatchi kimning oldiga borishdi?

A) otasining B) do‘stining **D)** qozining E) bobosining

3. Omonat egasi safardan necha yilda qaytib keldi?

A) 1 yilda **B)** 10 yilda D) 3 yilda E) 5 yilda

4. Qozi qanday qilib omonatga xiyonat qilinganligini aniqladi?

A) xiyonatchining gapini tinglab B) muhrga qarab

**D**) tangani chiqarilgan yiliga qarab E) qozining gapini tinglab

5. Xiyonatchiga qanday jazo berildi?

A) dorga osildi **B)** eshakka teskari mindirib shahar aylantirildi

D) shahardan chiqarib yuborildi E) yer haydatdi

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Ertak nima haqida ekan?

2. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Omonatga xiyonat” ertagini qayta hikoya qilish.

## 30-d a r s

***Mavzu:*** “Ikki saxiy” (*Murod Xidir*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ikki saxiy” ertagi bilan tanishtirish, yaxshilik qilishga o‘rgatish, matnni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***FK 1*:** o‘qilgan matnning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda saxiylik, insoniylik, bag‘rikenglik, ochiqqo‘llik kabi fazilatlarni shakllantirish.

***TK 5:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, o‘g‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Yashiringan so‘zni top” o‘yini, “Blis-o‘yin” texnologiyasi.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Omonatga xiyonat” ertagini qayta hikoya qilib beradilar.

Ertak mazmuni asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Omonat deganda nimani tushunasiz?
2. Safarga ketayotgan kishi o‘z do‘stiga nimani omonat topshirdi?
3. Qozi omonatga xiyonat qilganini qanday aniqladi?
4. Xiyonatkorlik qanday xislat?
5. Xiyonatkorni do‘st deb ayta olamizmi?

– Biz sizlar bilan vafodorlik, birovga yaxshilik qilish, qadrlash, oliyjanoblik kabi fazilatlar bilan ushbu asarlar orqali tanishdik. Yana shunday fazilatlarni bilasizmi? (saxiylik, mehmondo‘stlik, mehribonlik).



***“Yashiringan so‘zni top” o‘yini.***

Saxiyning o‘ng qo‘li berar,
…qo‘li bilmas. (*chap*)
…topsa, o‘rtada,
Baxil topsa, xaltada. (*Saxiy*)
Saxiy bilan …bir buloqdan
suv ichmas (*baxil*)

Saxiyning xayriga baxilning
…og‘rir. (*boshi*)

Maqollar tahlil qilinib, yangi mavzu bilan bog‘lanadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Ikki saxiy” ertagi bilan tanishamiz.

Muallif Murod Xidir haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.



“Ikki saxiy” ertagi o‘quvchilarga animatsiya orqali taqdim etiladi.

Ertak mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydilar. Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**hotamligi** – saxiy, rahmdil inson **najot** – yordam
**ilinjida** – yetishish umidida **serfahm** – fahm-farosatli
**obi yovg‘on** – suv va guruchdan tayyorlangan taom
“**tishining kirini so‘rgan kezlari**”– qattiq ocharchilik bo‘lgan paytlar
**savob** – o‘zgalarga beminnat qilingan xolis yordam, yaxshi, ezgu ish.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**



***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Ikki saxiy” ertagini “Davom ettir” usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar. Savol-javob:

– Saxiy deb kimlarni aytar ekanmiz?

– Jumlani qanday izohlaysiz: “Yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan qahatchilik yillarida?”

– Nima deb o‘ylaysiz nima uchun ertak “Ikki saxiy” deb nomlanadi?

– Ertakning mazmuniga doir hikmatli so‘z ayta olasizmi?



***“Blis-o‘yin” texnologiyasi.***

| **O‘quvchining F.I.** | | Sinf: 4. “Ikki saxiy”. M.Xidir. | | |
|---|---|---|---|---|
| **T/r** | Savollar mazmuni | O‘quvchi javobi | To‘g‘ri javob | Javoblar mazmuni |
| **1** | Kim g‘oyat hotamligi bilan dovrug‘ solgan edi? | | 4 | Boshi qotgan bir guruh odamlar har qanday jumboqni tafakkur ko‘zi bilan yechadigan donishmand cholning oldiga bordi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2** | Bir saxiy nima bilan mashg‘ul edi? | | 1 | Qadim zamonda bir saxiy g‘oyat hotamligi bilan dovrug‘ solgan edi. |
| **3** | Yana kim hammaga saxovat eshigini ochib yubordi? | | 6 | – Buvajon, har ikki saxiy haqida eshitgansiz, albatta. Shu kunlarda birinchi saxiyga keluvchilar ancha siyraklashib qoldi. Ikkinchi saxiy ham hech kimdan hech nimani ayamayapti. Ayting, buvajon, kim chin saxiy? Qaysi biri? |
| **4** | Qishloqning bir guruh odamlari chin saxiyni bilish uchun kimning oldiga bordi? | | 2 | Bir saxiy ekin ekkan, mol boqqan,tun-u kun ter to‘kkan. |
| **5** | Donishmand qanday inson edi? | | 3 | Qishloqning yana bir odami hammaga saxovat eshigini ochib yubordi. |
| **6** | Odamlar chol qoshiga kelib nima deyishdi? | | 5 | Donishmand naq yuz qovun pishig‘ini ko‘rgan bo‘lsa-da, hamon hushyor va ziyrak, serfahm va zukko edi. |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Ertakni kim yozgan ekan?
2. Saxiylik haqida yana qanday maqollarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ikki saxiy” ertagining 1-qismini o‘qish.

## 31-dars

***Mavzu:*** “Ikki saxiy” (*Murod Xidir*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri va ongli o‘qishga, ertak qahramonlarini o‘zaro qiyoslab, shaxsiy xususiyatlari va o‘xshash tomonlarini topib, tegishli xulosa chiqarishga o‘rgatish.

***FK 1*:** matnni tinglab tushunib olish, mavzuga mos maqol topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga mehribonlik, saxiylik, hotamtoylik kabi go‘zal insoniy fazilatlarni singdirish.

***TK 5:*** yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar asosida bahs-munoza-

ra qilish, ertak mazmunini qayta hikoyalash, matndagi so‘zlarning ma’nosini izohlay olish malakasini rivojlantirish.

***FK 2*: o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish.**

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** bahs-munozara, suhbat, tushuntirish, “Venn diagrammasi”, “Tosh-u tarozi”, “Topib o‘qi” mashqlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. Davomatni aniqlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Ikki saxiy” ertagining 1-qismini “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar ertak mazmunini bitta xatboshidan hikoya qilib beradilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Ikki saxiy”ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

“Ikki saxiy” ertagining mazmuni lavha orqali namoyish qilinadi, kadr ortidan matn ifodali o‘qib beriladi.

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**hojatmand** – ehtiyoji, talabi bor odam

**ajrim qilish** – kelishmovchilikni, nizoli holatni bir yoqlik qilmoq

**tama qilmoq** – birovdan biror narsa kutmoq, birovdan o‘lja olishga intilmoq

O‘quvchilarga savollar beriladi:

– Qaysi saxiy hojatmandni hech nima demay kuzatarkan?

– Ikkinchi saxiy hojatmandlarga nima der ekan?

– Birinchi saxiyning tamagirlik haqida fikri qanday?

– Nuroniy chol, ikkinchi saxiy hojatmandlardan bir umr qarzdor bo‘lib qolayotir, deganda nimani nazarda tutgan?

IPT

***“Tosh-u tarozi”* mashqi.** O‘qituvchi ikkinchi saxiyning tosh-u tarozisini amaliy tarzda yoki rasmlar yordamida ko‘rsatadi. O‘quvchilar hojatmand va saxiy qiyofasida oldi-berdi qilishadi. Saxiyning ulashgan narsasi, olgan savobi, so‘rab olgan duolarini taqqoslaydilar. O‘quvchilarning fikri so‘raladi, bahs-munozara o‘tkaziladi.

O‘quvchilar fikri umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

IPT

***“Venn diagrammasi”* metodi.** O‘quvchilar ikki saxiyning shaxsiy xususiyatlari va o‘xshash tomonlarini “Venn diagrammasi”ga yozishlari lozim bo‘ladi.

Mashq natijalari tekshiriladi, xulosa qilinadi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari bajariladi.



***Test topshiriqlari:***

1. Birinchi saxiy hojatmandni kuzatayotganda, unga nima deydi?
   A) “yaxshi boring” B) “duo qiling”
   **D)** hech nima E) “savob uchun qilyapman”
2. Duoni so‘rab olish nima bilan teng ekan?
   A) saxiylik **B)** tilanchilik
   D) donolik E) qo‘rqoqlik
3. Ikkinchi saxiyning kimdan undirgan duolari foydaga qoladi?
   A) boydan B) kambag‘aldan D) xalqdan **E)** hojatmanddan
4. Qaysi saxiy hojatmandlaridan bir umr qarzdor bo‘lib qolayotgan ekan?
   A)birinchi **B)** ikkinchi D) uchinchi E) to‘rtinchi
5. Ko‘p o‘tmay, ikkinchi saxiy kimning nazaridan qoldi?
   **A)** elning B) qarindoshlarning D) qo‘shnilarning E) do‘stlarning

**Darslik bilan ishlash.**




***“Topib o‘qi”* mashqi.** Bu mashqda matndan 1-qator o‘quvchilari ikki bo‘g‘inli, 2-qator o‘quvchilari uch bo‘g‘inli, 3-qator o‘quvchilari to‘rt bo‘g‘inli so‘zlarni topib o‘qib berishlari lozim bo‘ladi. Eng ko‘p va tez topgan qator g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Donishmand ikkinchi saxiyning ishlarini nima uchun ma’qullamadi?
2. Siz “saxiylik” deganda nimani tushunasiz?
3. Nima deb o‘ylaysiz, ertakning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ikki saxiy” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 32-d a r s

***Mavzu:*** “Qo‘zichoq” (*Rauf Tolib*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Qo‘zichoq” masali bilan tanishtirish, ifodali o‘qish, qismlarga bo‘lib reja tuzish, savollar tuzish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1:*** asar mazmunini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga kekkaymaslik, kattalar nasihatiga quloq tutish, o‘zboshimcha bo‘lmaslik hislarini tarbiyalash.

***TK 4:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, erkin va mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

***FK 2*****:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, muammoli izlanish, “Begonasini top” o‘yini, “Davom ettir”, “Zanjir” usullari.

**Dars jihozlari**: rasm va tarqatma materiallar, multimediali ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Murod Xidirning “Ikki saxiy” ertagining 2-qismini “Davom ettir” usulida qayta hikoya qildiriladi.

Matn asosida suhbat o‘tkaziladi.

– Donishmand tamagirlik va tilanchilik haqida qanday misol keltirdi?

– “Ikki saxiy” mavzusida kichik matn yarating.

***“Begonasini top” o‘yini.***

1. Uzun xartumli va kuchli…..(Fil)
2. Sudraluvchi, zaharli ….. (Ilon)
3. Shoxlari bor, qo‘chqordek,
   Bo‘yi misli daraxtdek. (Kiyik)
4. Tikanli, kichkina…….(Tipratikan)
5. Dalama-dala qidiradi,
   Qo‘y bilan echki oh uradi. (Bo‘ri)
6. Kichkina va jingalak yungli.(*Qo‘zichoq*)

– Qaysi biri uy hayvonlari?

– Qo‘zichoq nimaning bolasi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu bilan bog‘laydi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz sizlar bilan “Qo‘zichoq” masali bilan tanishamiz.

Muallif Rauf Tolib haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.

Masal mazmuniga mos videolavhalar namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

Masal mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**jimirlab** – tovlanib
**irg‘ishlab** – sakrab
**burni ko‘tarilib ketibdi –** kekkayib ketibdi
**og‘zi qulog‘iga yetibdi –** xursand bo‘libdi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Qo‘zichoq” masali o‘quvchilarga “Zanjir” usulida o‘qitiladi. O‘quvchilar matnni qismlarga bo‘lib reja tuzadi va qayta hikoya qiladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Qayerda qo‘zichoq tug‘ilibdi?

**A)** yaylovda B) o‘rmonda D) tog‘da E) bog‘da

2. Qo‘zichoq o‘zi haqidagi maqtovlarni eshitib nima qilib ketibdi?

A) xursand bo‘lib **B**) taltayib D) uyalib E) xafa bo‘lib

3. Qo‘zichoq atayin qayerlarda qolib ketar ekan ?

A) suv ichida B) g‘or ichida **D)** butalar ichida E) bog‘ ichida

4. Bir kuni qo‘zichoq yo‘qolib qolganda Ona qo‘y Qo‘zichoqni qayerdan topib olibdi?

**A)** soy bo‘yidagi o‘tloqdan B) tog‘ etagidan

D) ariq bo‘yidan E) paxta dalasidan

5. Ona qo‘y quruq maqtovlarga uchib, bo‘riga yem bo‘lgan Qo‘zichoqning nimasini ko‘ziga surtib yum-yum yig‘labdi?

A) qo‘lini B) sochini D) boshini **E)** terisini

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz?
2. Qo‘zichoq to‘g‘ri ish qildimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Qo‘zichoq” masalini ifodali o‘qish.

## 35-d a r s

***Mavzu:*** “Boychechak” *(She’r)*.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga xalq qo‘shiqlari haqida tushuncha berish, ular orasidan bolalarning o‘yin-qo‘shiqlarini ajrata olishni, she’r mazmunini chuqur tahlil qilib, she’rni ifodali o‘qishga va ma’nodosh so‘zlarni topishga o‘rgatish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1*:** she’rni yoddan aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda vatanimiz tabiati in’omlariga muhabbat, xalqimizning madaniy merosiga bo‘lgan hurmat tuyg‘usini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning so‘zlar ma’nolarini izohlay olish, savollarga to‘liq javob berish malakalarini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish.

***FK 2*:** she’r mazmunidan ta’sirlana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Bu meniki”, “Ma’nodosh so‘zni top”, “Sehrli sandiqcha” mashqlari.

**Dars jihozlari:** gullar tasvirlangan rasmlar, so‘z va gaplar yozilgan tarqatmalar, sandiqcha maketi, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. Davomatni aniqlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarning “Ma’naviyat – qalb quyoshi” bo‘limidagi she’r va hikoyalar asosida “Inson odobi bilan go‘zal” mavzusida yozib kelgan insholari tekshiriladi. Ayrim insholarni o‘qib beradilar. O‘quvchilar o‘tilgan mavzular yuzasidan bir-birlariga savollar berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi bo‘lim va mavzu e’lon qilinadi. “Xalq og‘zaki ijodi”. “Qo‘shiqlar qanotida”. “Boychechak”.



O‘qituvchi o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodiga nimalar kirishi haqida ma’lumot beradi. Video namoyish etiladi.

– Xalq og‘zaki ijodi xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo‘shiqlar, bolalarning quvnoq o‘yin-qo‘shiqlari, hozirjavoblik, topqirlik taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo‘g‘rilgan rivoyatlarni o‘z ichiga oladi.

***“Bu meniki” o‘yini.***




O‘quvchilarga “ertak”, “topishmoq”, “maqol”, “rivoyat”, “tez aytish”, “latifa”, “afsona”, “xalq qo‘shiqlari” kabi so‘zlar yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

– Aziz o‘quvchilar, hozir siz audio tasma orqali xalq og‘zaki ijodi janrlariga oid ta’riflarni eshitasiz. Qaysi o‘quvchi qo‘lidagi so‘zga oid ta’rifni eshitsa, darhol “bu meniki” deb javob berishi lozim bo‘ladi.

Masalan:

- Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba’zan uydirmalar vositasida, ba’zan real tasvirlovchi og‘zaki hikoya. (Rivoyat)
- To‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi badiiy asar. (Ertak)
- Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora. (Maqol)
- Kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya. (Latifa)

➢ Avloddan-avlodga, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan uydirma, to‘qimadan iborat, ba’zan diniy mazmundagi hikoya. (Afsona)

➢ Topilishi kerak bo‘lgan narsa, hodisa va shu kabilarning ramz va o‘xshatmalar orqali ifodalangan qisqa tavsifi. (Topishmoq)

➢ Yanglishib ketish mumkin bo‘lgan, qofiyadosh, o‘xshash so‘zlarning jumlalarini adashmay, tez talaffuz qilish. (Tez aytish)

– Barakalla bolajonlar, bugun biz sizlar bilan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan “Boychechak” she’ri bilan tanishamiz.

O‘qituvchi o‘quvchilarga she’rni ifodali o‘qib beradi.

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

– Bu she’r nima haqida ekan?

– Uni eshitganingizda ko‘z oldingizga nimalar keldi?

O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qiydilar.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**ayron** – qatiqning moyi ajratib olingandan keyin qolgan suyuq qismi, shuningdek, qatiq yoki suzmaga suv qo‘shib tayyorlangan ichimlik.

**qatalab chiqqan** – yorib chiqqan

**baxmal** – duxoba, tukli mato

***“Ma’nodosh so‘zni top”* mashqi.** O‘quvchilar she’rdagi ayrim so‘zlarga ma’nodosh so‘zlar topadilar va ular ishtirokida gaplar tuzadilar.

Masalan: Vayron – buzuq, xarob; yumalab – dumalab; chopdilar – kesdilar; qattiq – mustahkam; cho‘ntak – kissa; joylandi – solindi.

– Bolajonlar, “Boychechak” qo‘shig‘ini eshitganmisiz?

– Hozir hammamiz birgalikda eshitamiz.

Xalqimiz tarixida qo‘shiqlarning qadimiy turi mavjud bo‘lgan: ov qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, to‘y qo‘shiqlari (“Yor-yor”), aza qo‘shiqlari (marsiya) kabi. Bundan tashqari bolalarga mo‘ljallangan alla, ovunchoq qo‘shiqlar, o‘yin qo‘shiqlari (“Boychechak”, “Oq terakmi, ko‘k terak”) ham mavjud.

– Boychechak haqida yana she’rlar bilasizmi? O‘zingiz bilgan she’rlardan birini aytib bering.

Boychechak haqida qo‘shiq eshittiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

**–** Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? She’rni o‘qiyotganda hissiyotlaringizni namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.

***“Sehrli sandiqcha” mashqi.*** O‘quvchilarga turli asarlardan olingan gaplar yozilgan qog‘oz tarqatiladi. Ular bu gaplarni o‘qib, asar nomini va muallifini aniqlaydilar. Faqat xalq og‘zaki ijodi janrlariga oidlarini “Sehrli sandiqcha”ga soladilar.

– Bolajonlar, biz sizlar bilan xalq og‘zaki ijodiga oid ertak, maqol, topishmoq, qo‘shiqlarni aniqlab, “Sehrli sandiqcha”ga joyladik. Biz uchun ular dunyodagi barcha dur-u javohirlardan ham qimmatliroqdir. Siz bu durdonalarni mukammal o‘rganib, avaylab-asrab keyingi avlodga ham qoldirishingiz lozim.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
3. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
4. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Boychechak” she’rini yod olish.

## 36-d a r s

***Mavzu:*** “Oftob chiqdi olamga” (*Xalq qo‘shig‘i*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodi turlari, xalq qo‘shiqlari haqida ma’lumot berish, “Oftob chiqdi olamga” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1*:** o‘qilgan qo‘shiqning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar hamda madaniyatimizga nisbatan hurmat tuyg‘ularini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “So‘z o‘yini”, “Qofiyadoshini top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Boychechak” she’ri o‘qitiladi, 3–4 nafar o‘quvchidan yoddan so‘raladi. She’r yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Boychechak guli qaysi faslda gullaydi?

– “Boychechak” qo‘shig‘i qachon kuylangan?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, oftob asli nima? U nima uchun kerak?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan xalq qo‘shiqlaridan biri bo‘lgan “Oftob chiqdi olamga” qo‘shig‘i bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan oftob, uning qanchalik ko‘p joylarga nur taratishi haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘qituvchi o‘qib, she’r mazmunini tushuntiradi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Oftob chiqdi olamga” she’ri o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.




***“So‘z o‘yini”* mashqi.** Ekranda berilgan so‘zlarnig ingliz tilidagi tarjimasini o‘z o‘rniga qo‘yadilar. Masalan: xola-aunt, olam-world, oftob-sunshine.

“Oftob” qo‘shig‘i eshittiriladi.

***“Qofiyadoshini top”* o‘yini.** O‘quvchilar “Oftob chiqdi olamga” she’ridagi qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Kattalar ish buyurganda nima deb javob berasiz?

– “Mehnatning tagi rohat” maqolini qanday tushunasiz?

– Siz uyda va maktabda qanday ishlarni bajara olasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Oftob chiqdi olamga” she’rini yodlash.

## 37-dars

***Mavzu:*** “Xo‘p hayda” *(She’r).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodi haqida ma’lumot berish, “Xo‘p hayda” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*:** o‘qilgan she’rning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, milliy an’analarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

***TK 5:*** she’rda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Yosh dehqon” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid ko‘rgazmalar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Oftob chiqdi olamga” she’ri o‘qittiriladi, 3-4 nafar o‘quvchidan yoddan so‘raladi. Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

“Oftob chiqdi olamga” qo‘shig‘i qachon kuylanadi?

– Yana qanday xalq qo‘shiqlaridan bilasiz?

O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz xalq qo‘shiqlaridan biri bo‘lgan “Xo‘p hayda” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan xalq qo‘shiqlari, yig‘im-terim davri haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Yig‘im-terim davrida dehqonlar nima bilan shug‘ullanadi?

– Dehqonlar ish vaqtida qanday qo‘shiqlar kuylaganlar?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. Xalq og‘zaki ijodi haqida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

O‘qituvchi “Xo‘p hayda” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Xo‘p hayda” she’ri o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– “Xo‘p hayda” qo‘shig‘i qaysi paytda aytilgan?

– Xirmon egasi otini qanday so‘zlar bilan erkalatadi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.



***“Yosh dehqon” o‘yini.*** Ekranda poliz ko‘rsatiladi. Turli xil savollar paydo bo‘ladi. 1-savolga to‘g‘ri javob bosilsa yer haydaladi. 2-savolga to‘g‘ri javob bosilsa ekin ekiladi. 3-savolga to‘g‘ri javob bosilsa ekin o‘sib chiqadi. 4-savolga to‘g‘ri javob bosilsa ekin yig‘ib olinadi.

***Test topshiriqlari:***

1. “Xo‘p hayda” qo‘shig‘i qachon kuylangan?
A) bahorda B) hosil yig‘imi vaqtida
**D)** hosil yig‘ilganidan so‘ng E) kuzda
2. She’rda qaysi jonivor ishtirok etgan?
**A)** ot B) eshak D) tuya E) xo‘kiz
3. Xirmon egasi otini qanday so‘zlar bilan erkalatadi?
A) “Chu, e, jonivorim hayda”
**B)** “Qalqon qulog‘im”, “Temir tuyog‘im”
D) “Somoni senga foyda” E) “Xirmonni qilgin mayda”
4. She’rda dehqonlar ot yordamida bug‘doyni nima qilganlar?
A) bug‘doyni un qilganlar B) bug‘doyni xirmon qilganlar
D) bug‘doyni yanchganlar **E)** donni somonidan ajratganlar
5. “Xo‘p hayda” so‘zining ma’nodoshini aniqlang.
A) tez hayda B) zo‘r hayda **D)** yaxshi hayda E) yomon hayda

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkaziladi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xo‘p hayda” she’rini yodlash.

## 39-d a r s

***Mavzu:*** “Ilm afzal” *(Ertak)*. 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ilm afzal” ertagining mazmuni bilan tanishtirish, odamning davlati ilmda ekanligi haqida ma’lumot berish, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

***FK 1*:** asar mazmunini to‘liq fikrini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, ilm-hunar boylik ekanligi va uni qadrlash lozimligini tushuntirish.

***TK 5:*** ertakda aks etgan umuminsoniy xususiyatlarni o‘ziga xosliklarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Yosh shoir” mashqi, “Yulduzchalar so‘zlaganda” o‘yini.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilardan “Xo‘p hayda” qo‘shig‘i ifodali qilib yoddan so‘raladi. Mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. “Xo‘p hayda” qo‘shig‘i qaysi bo‘limga taalluqli?
2. “Xo‘p hayda” qo‘shig‘i qaysi paytda yozilgan?
3. Xirmon egasi otini qanday so‘zlar bilan erkalatadi?




***“Yosh shoir”* mashqi.** Buning uchun sinf o‘quvchilari uch guruhga ajratiladi. Har bir guruh “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Xo‘p hayda” qo‘shiqlari asosida berilgan kalit so‘zlardan foydalanib, to‘rtlik to‘qishga harakat qilishlari aytiladi. Har bir guruhning javob berishiga qarab g‘olib aniqlanadi.

1. Vatan haqida: onam, tuprog‘im, zarim, asrayman.
2. Lola haqida: qip-qizil lola, chiroyli, xola, onamga.
3. Ilm haqida: oftobda, sovuqda, rangi, o‘chadi, qotadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

O‘quvchilar “Ilm afzal” ertagining 1-qismi bilan tanishtiriladi. Ertak janri haqida so‘raladi. Ertakni bir o‘quvchi ifodali qilib o‘qib beradi. O‘qituvchi matn mazmunini tushuntirib beradi. Matnni o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi.

Ertakdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***
**omiligimcha** – savodsizligimcha
**soyai davlatlarida** – himoyasida

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**




***“Rolli o‘qish”* usuli.** O‘quvchilarga “Ilm afzal” ertagidagi har bir qahramonni o‘z istaklariga ko‘ra bo‘lib beriladi. Ular darslikdan o‘z qahramonlarini rolga kirib o‘qiydilar.

Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1. Qizi yalqov akalari haqida otasiga qanday maslahat berdi?
2. Chol o‘g‘illari bilan nima haqida suhbatlashdi?



***“Yulduzchalar so‘zlaganda” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linib, yulduzchalarning shakliga mosini aniqlab, ilm haqidagi maqolni topadilar.

Masalan: ilmlining, zimiston, ko‘zi, tubsiz, ilmsizniki, charog‘on, uy, yumuq.

Maqol: Ilmlining uyi charog‘on, ilmsizniki zimiston.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Ertakda nechta qahramon bor?
2. Ertakda qaysi qahramonning ijobiy xislatlarini ko‘rdingiz?
3. “Ilm afzal” ertagi nimasi bilan sizga yoqdi?

4. Ertakni o‘qib qanday xulosa chiqardingiz?

5. Ertakdan olgan bilimlaringiz hayotda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ilm afzal” ertagining 1-qismini qayta hikoyalash.

## 40-d a r s

***Mavzu:*** “Ilm afzal” *(Ertak).* 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga ilm, uning qanchalik afzalligi haqida ma’lumot berish, “Ilm afzal” ertagining 2-qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*:** ertak asar mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshirish, ota-onani hurmat qilishga o‘rgatish.

***TK 5:*** ertakda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil va ijodiy ishlash, mavzuga oid maqollar topish, savollarga to‘liq javob berish qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Aqliy hujum”, “So‘zlarni joylashtir”, “Maqollar zanjiri” ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Ilm afzal” ertagining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni zanjir usulida qayta hikoya qildiriladi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Ota farzandlariga qanday savol berdi?

– Uchinchi o‘g‘ilning javobi qanday bo‘ldi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

Tarqatma materiallar bilan ishlanadi. Ilm haqida maqollar aytish musobaqasi tashkil qilinadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**




***“Aqliy hujum”* metodi.** – Bolajonlar, siz ilm, uning biz uchun qanchalik kerakligi haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Ilm afzal” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan bilim, ilmning qanchalik hayotimizda o‘rin tutishi, ilm va boylik orasidagi tafovut haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Ilm afzal” ertagining 2-qismini ifodali o‘qib beradi.

Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Matndagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**haddan ziyod** – juda ko‘p
**hirs** – ochko‘zlik
**kissangizga** – cho‘ntagingizga
**talmovsirab** – dovdirab

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Ilm afzal” ertagining 2-qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Oqila qiz otasining savoliga qanday javob berdi?

– Aka-ukalar qanday xulosaga kelishdi?

– Nima uchun ilm afzal? Siz nima deysiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.



***“So‘zlarni joylashtir” o‘yini.*** Ekranda matndan parcha beriladi. Matndagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga yozish kerak.




***“Maqollar zanjiri” o‘yini.*** O‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi, har bir guruh ilm, uning foydasi haqidagi maqollardan ketma-ket aytadilar. Eng ko‘p maqol aytgan guruh rag‘batlantiriladi.

Matn mazmuni qayta hikoya qildiriladi, aka-ukalarga qiyosiy tavsif beriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilar darsga ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ilm afzal” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 41-d a r s

***Mavzu:*** “Davlat” *(Ertak).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, dehqonchilik mehnati tufayli yaratiladigan noz-ne’matlar haqida ma’lumot berish.

**FK 1**: ertakni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, matndagi mehnatsevarlik bilan bog‘liq tafakkur tarbiyasini oshirish.

***TK 4***: milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va amal qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish, matnni qisqartirib hikoyalash, asar mazmuniga doir maqollar aytish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Qismini top”, “Fikr sharhi” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Ayrim o‘quvchilar “Ilm afzal” ertagining II qismini ifodali o‘qib beradilar. So‘ngra mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1 Oqila qiz otasining savoliga qanday javob berdi?

2. Aka-ukalar qanday xulosaga kelishdi?

3. Nima uchun ertakka “Ilm afzal” deb nom berilgan?

***Test topshiriqlari*:**

1. Boboning nechta farzandi bor edi?

**A**) 8 ta o‘g‘il, 1 ta qiz B) 5 ta o‘g‘il

D) farzandi yo‘q E) 4 ta o‘g‘il va 1 qiz

2. Boboning qaysi farzandi aqlli va ziyrak edi?

A) katta o‘g‘il **B**) kenja o‘g‘il D) qizi E) o‘rtancha o‘g‘il

3. Qiz yalqov akalari haqida otasiga qanday maslahat berdi?

A) ularning hammasini oldingizga chaqiring

B) boyliklaringizni taqsimlashni ayting D) ulardan “Ilm afzalmi yo davlat?” deb so‘rang **E**) A va D javoblar to‘g‘ri

4. Ota qaysi farzandidan kutgan javobni oldi?

A) katta o‘g‘il **B**) kenja o‘g‘il D) qizi E) o‘rtancha o‘g‘il

5. “Ilm afzal” ertagida qaysi maqol keltirilgan?

A) Har kim ekkanini o‘radi B) So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman

D) O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir **E**) Yetti o‘lchab, bir kes

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**“So‘z o‘yini”**. Berilgan misollarni yechib, harflardan so‘z tuzadilar. Mavzu mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi. Matn o‘quvchilarga “Davom ettir” usulida o‘qitiladi. Mavzudagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**bahramand –** rohatlanuvchi

**beqiyos** – behad, cheksiz **xushnudlik** – mamnun, shod, xursand

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***“Qismini top”* o‘yini.** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlarga mavzu matni qismlarga bo‘lib beriladi. Har bir guruh a’zolari berilgan qismlarni to‘g‘ri topib, ifodali o‘qishadi va hikoya qilishadi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1. Dehqonning oilasi qanday hayot kechirar edi?
2. Nima uchun Davlat dehqonning uyidan ketishni xohlamadi?

***“Fikr sharhi”* mashqi.** O‘quvchilar “Davlat“ ertagida qaysi fazilatlar ulug‘lanishi va qaysi illatlar qoralanishini quyidagi tartibda javoblarni yozishlari lozim.

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Shu mavzudan so‘ng davlat nimada ekan?
2. Hayotingizda shunday holat yuz bersa nima qilgan bo‘lardingiz?
3. Mavzudan olgan bilimlaringizni qachon qo‘llash mumkin?

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Davlat” ertagini hikoya qilib berish.

## 42-d a r s

***Mavzu:*** “Ko‘zacha bilan tulki” *(Ertak).* 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ko‘zacha bilan tulki” ertagi bilan tanishtirish, matnni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan foydalana olish.

***FK 1*:** ertak mazmunini darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4***: yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, lug‘at ustida ishlash, o‘g‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Rezyume”, yarim izlanish metodi.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Davlat” ertagini o‘qib, so‘zlab beradilar.

Suhbat uchun savollar:

– Davlat kimning hovlisida yashabdi?

– Dehqonning oilasi qanday hayot kechirar edi?

– Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

***Test topshiriqlari:***

1. Dehqonning nimasi juda ko‘payib ketibdi?

**A)** mol-u davlati B) hosili D) do‘stlari E) kitobi

2. Davlat kimning qoshiga kelibdi?

A) boyning B) qozining **D)** dehqonning E) boboning

3. Davlatning ketishini eshitib kim yig‘lamadi?

A) dehqon B) qizi D) xotini **E)** kichkina kelini

4. Davlat nima uchun dehqonning uyidan ketmabdi?

A) yashashga joyi bo‘lmaganligi uchun

B) mehmondo‘st bo‘lganligi uchun

D) do‘st bo‘lganligi uchun **E)** ahil bo‘lganligi uchun

5. Davlat dehqonning xonadonida qancha vaqt qolgan?

**A)** umrbod B) bir yil D) ikki kun E) o‘n yil

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 1-qismi bilan tanishamiz.



O‘quvchilarga ertak lavha orqali taqdim etiladi, matn o‘qiladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket ertakni o‘qiydilar. Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**ag‘anamoq** – yumalamoq **g‘am bosibdi** – qayg‘uribdi

**tunamoqchi –** biror joyda tunni o‘tkazmoq

**ta’ziringni beraman** – adabini bermoq

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

O‘quvchilar “Ko‘zacha bilan tulki” ertagini “Rolli o‘qish” usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar.

– Tulki nima uchun bir necha kun indan chiqmay qo‘rqib yotdi?

– Tulki qanday hiyla ishlatib bo‘rini qopqonga tishirdi?

– Ertak sarlavhasini yana qanday nomlash mumkin?




***“Rezyume”* texnologiyasi.** O‘quvchilar ertak qahromonlarini ijobiy va salbiy tomonlarini topib, muhokama etadilar.

Tulkiga xos xususiyatlar: *ayyor, ziyrak, yolg‘onchi, berahm…*

Bo‘riga xos xususiyatlar: *ochko‘z, laqma, qasoskor, landovur…*

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 1-qismini o‘qib, qayta hikoyalash.

## 43-d a r s

***Mavzu*:** “Ko‘zacha bilan tulki” *(Ertak)*. 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodi, xalq ertaklari haqida ma’lumot berish, ertak mazmuni bilan tanishtirish.

***FK 1*:** asar mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda do‘stlikni qadrlash, saxiylik, nochorlarga g‘amxo‘rlik qilish hislarini tarbiyalash.

***TK 4:*** ertakda xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan qahramonlarning do‘stlikka, to‘g‘riso‘zlikka xolis mulohaza yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarni xalqimiz ijodiy merosini o‘rganish, ular haqida mushohada yuritish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan ertakning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, yarim izlanishli muammoli ta’lim metodi, kichik guruhlarda ishlash.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 1-qismi mazmunini o‘quvchilar so‘zlab beradilar. “Topib o‘qi”, tarqatma materiallar bilan ishlanadi. O‘quvchilar berilgan so‘zlar ishtirok etgan gapni matndan topib o‘qiydilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

O‘quvchilarni yangi ertak o‘qishga tayyorlash.

– Bolajonlar, siz bo‘sh vaqtingizda qanday kitoblarni o‘qiysiz?

– Qanday ertaklarni o‘qigansiz?

– Nima uchun ertaklarni ko‘proq o‘qiysiz?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, ertaklarning mazmun jihatidan xilma-xilligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladi.



“Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 2-qismi mazmuni asosida animatsiya namoyish qilinadi. Kadr ortidan ertakning 2-qismi o‘qiladi.

***Lug‘at ishi:***

**dovyurak** – mard, qo‘rqmas
**noliy** – dod-voy
**xam –** egib
**cho‘ltoq** – kalta

Ertak yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

– Ertakning 2-qismi nima haqida ekan?

– Tulkining dumi nima uchun uzilib ketdi?

– Tulki qanday qilib bo‘ridan qutulib qoldi?

Ertak o‘quvchilarga o‘qitiladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***“Kichik guruhlarda ishlash”.***

Sinf bir necha guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga topshiriq beriladi.

– Ertakni qismlarga bo‘lib, reja tuzing.

– Ertakni sahnalashtiring.

Guruhlar taqdimoti tinglanadi. Qiziqarli topshiriqlar bajariladi.

***“Tanlab o‘qish” mashqi.***

– Tulkining ko‘zachaga iltijosi tasvirlangan parchani o‘qing.

– Tulki bilan bo‘rining suhbati tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Laqma it kimlardan boshpana so‘radi?

– Siz ham dangasalik qilganmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 44-d a r s

***Mavzu:*** “Ochko‘z boy” *(Ertak).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik qaytishi haqida ma’lumot berish, ularda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga insoniylik fazilatlarni singdirish, ularda mehribonlik, saxiylik, sabr-qanoat kabi xislatlarni tarbiyalash.

***TK 5:*** yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, qayta hikoya qilish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, tushuntirish, “T-chizma”.
**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.
**Darsning borishi:**
**I. Tashkiliy qism.**
Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.
**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**
“Ko‘zacha bilan tulki” ertagining 2-qismi o‘qitiladi, mazmuni o‘quvchiga qayta hikoya qildiriladi.
O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.
– Tulki qanday qilib bo‘ridan qutulib qoldi?
– Tulkining dumi qanday qilib uzilib ketdi?
O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni.**
– Bolajonlar, siz yaxshilik haqida qanday ertaklar bilasiz?
O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.
– Bugun biz sizlar bilan “Ochko‘z boy” ertagi bilan tanishamiz.
O‘quvchilar bilan yaxshilik, yomonlik haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.
“Ochko‘z boy” ertagi matni asosida multfilm namoyish etiladi. O‘qituvchi matnni o‘qiydi.
Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***
**savob –** yaxshi ish **qashshoq –** kambag‘al
**do‘kondor –** do‘konning egasi, sotuvchi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**
**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “O‘chko‘z boy” ertagi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi. Ertak mazmuni qayta hikoya qildiriladi.
O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:
– Ochko‘z boyning qilmishini qanday baholaysiz?
– Ochko‘z boy bilan xotini nima uchun jazolandi?
O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.
***“T-chizma”*** **metodi.** O‘quvchilar ertak qahramonlariga xos bo‘lgan xislatlarni “T-chizma”ga joylashtiradilar. (Dehqon, boy)
**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**
Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.
1. Ertakdagi qaysi qahramon sizga yoqdi?
2. Siz o‘zgalarga qanday yaxshilik qilgansiz?
3. Ertak mazmuniga mos maqollar bilasizmi?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.
**VI. Uyga vazifa berish.** “Ochko‘z boy” ertagini o‘qish.

## 46-d a r s

***Mavzu:*** “Hiylagarning jazosi” *(Ertak).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Hiylagarning jazosi” ertagi bilan tanishtirish, ularga yaxshilik qilish, dushmandan himoyalanish, oliyjanoblik, sofdillik kabi fazilatlar haqida ma’lumot berish.

***FK 1*:** matnni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni mard, jasur, rostgo‘y, to‘g‘ri, halol, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg‘uradigan insonlar qilib tarbiyalash.

***TK 5:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Savollar hujumi”, “Kim zukko?” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**




“Ochko‘z boy” ertagini o‘quvchilar o‘qib, so‘zlab beradilar.

***“Savollar hujumi” o‘yini.***

1. Chol nima bilan ro‘zg‘or tebratar ekan?
2. Chol qayerga o‘tin tergani boribdi?
3. U nimaning ucholmay yotganini ko‘ribdi?
4. Chol o‘rdakni nima qilibdi?
5. Kampir choldan nima deb ranjibdi?
6. Kunlarning birida nima uchib kelibdi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**



– Bugun biz sizlar bilan “Hiylagarning jazosi” ertagi bilan tanishamiz.

Ertak mazmuniga mos lavha namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi. Matn mazmuni tushuntiriladi.

– Ayting-chi, nima uchun biz ertaklarni yaxshi ko‘ramiz?

– Siz qanday ertaklarni bilasiz?

– Ertaklar doim qanday yakun topadi?

– Yaxshilik, to‘g‘rilik haqida nima deya olasiz?

O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**xarjlash** – sarf qilish **ont ichmoq** – qasam ichmoq, va’da bermoq
**dalil** – isbotlash uchun qo‘llaniladi **marhamat** – rahm, shafqat
**razm solmoq** – biror narsaga tikilib, e’tibor bilan qaramoq

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilarga “Hiylagarning jazosi” matni qismlarga bo‘lib o‘qitiladi. O‘quvchilar uch guruhga bo‘linadilar.

1-guruh – hiylagar va soddadilning uchrashuvi haqida;

2-guruh – soddadilning “gunohi” haqida;

3-guruh – qozining hiylagar makrini bilishi va fosh qilishi haqida topib o‘qiydilar. Shu o‘qiganlari asosida uchtadan savol tuzadilar va boshqa guruhlarga beradilar. Guruhlar berilgan savolga javob bera olmasa, savol bergan guruh rag‘batlantiriladi.

**“Kim zukko” o‘yini.** O‘qituvchi har bir guruhga savollar beradi. O‘quvchilar topshiriqni guruhda muhokama qilib, javob beradi.

– O‘ylang, nima uchun ertak “Hiylagarning jazosi” deb nomlanadi?
– Nima uchun? Asarda kimlar va nimalar haqida hikoya qilingan?
– Nimaga ikki o‘rtoq tillalarni taqsimlab olishmadi?
– Ertasi kuni hiylagar nima qildi?
– Hiylagar nima uchun soddadilni qoziga olib bordi?
– Nima uchun hiylagar daraxtni guvoh qilib ko‘rsatdi? Nima qilmoqchi edi?
– Qozi qanday qilib hiylagarning qilmishini bilib qoldi?
– “Xiyonatga marhamat yo‘q” deganda nimani tushunasiz?

***Test topshirig‘i:***

1. Ikki o‘rtoq nima uchun yo‘lga chiqdi?
A) sayohatga **B)** savdogarchilikka
D) uchrashuvga E) dam olishga
2. Ular yo‘lda nima topib oldilar?
**A)** tilla B) kumush D) tanga E) boylik
3. Tillani qayerga yashirdilar?
A) daraxt ichiga **B)** daraxt ostiga D) daraxt ustiga E) daraxt orqasiga
4. Hiylagar qanday yo‘l tutdi?
A) tillani uyiga olib keldi B) tillani taqsimladi
D) tillani qoziga berdi **E)** tillani hammasini sarfladi
5. Qozi bu voqeani qanday aniqladi?
A) so‘roq qildi **B)** shox qalatib, yoqib yubordi
D) xiylagar aytib berdi E) soddadil yordam berdi

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Sizning ham hiylagar kabi do‘stingiz bo‘lganida nima qilar edingiz?

2. Soddadil o‘z qilmishiga yarasha mukofotlandimi?

3. Nima uchun hiylagarning otasi nomusga chidolmay jon taslim qildi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Hiylagarning jazosi” ertagini so‘zlash.

## 49-d a r s

***Mavzu:*** “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” *(Ertak)*. 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga hunarlar, ularning ahamiyati haqida ma’lumot berish, to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagi bilan tanishtirish.

***TK 2:*** asarga mos mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish.

***FK 1*:** ertak matnini tinglab tushuna olishi va ongli, ifodali o‘qiy olishi.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intiluvchanlik fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 5:*** ertakda kasblarni tanlash va ularga bo‘lgan hurmatni oshirish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan ertak qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, tushuntirish, “Hunarlar” mashqi.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Hiylagarning jazosi” ertagi o‘qitiladi, mazmuni 3-4 nafar o‘quvchiga so‘zlatiladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Qozi hiylagarning hiylasini qanday aniqladi?

– Hiylagarga qanday jazo berildi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 1-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan turli hunar egalari, ularning insonlarga keltiradigan foydasi haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.



“Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 1-qismi asosida multfilm namoyish etiladi. O‘qituvchi matnni o‘qiydi. Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**achchig‘i kelib** – jahli chiqib

**fuqaro** – xalq, omma

**ilgarigi** – avvalgi

**kengashibdi** – maslahatlashibdi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 1-qismi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– O‘tinchining qizi podshohga qanday shart qo‘ydi?

– Qiz shartini sovchilar qanday tushunishdi? Podshoh-chi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.




***“Hunarlarni top”* o‘yini.** O‘quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruhga ma’lum bir hunar beriladi. Har bir guruh o‘ziga berilgan hunarga ta’rif beradi. Eng yaxshi ta’rif bergan guruh g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Nima uchun hunar o‘rganish kerak?

– Ertakdagi qaysi voqea sizda katta taassurot qoldirdi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 1-qismini o‘qish.

## 50-d a r s

***Mavzu:*** “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” *(Ertak)*. 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, ifodali va sidirg‘a o‘qishga, o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki tarzda izchil ifodalashga o‘rgatish.

***FK 1*:** ertak matnini tinglab tushuna olish va ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning hunar egallashga ishtiyoqini, kasb tanlashga qiziqishini oshirish, o‘zgalar mehnatini qadriga yetish tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 5:*** asardagi yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning o‘qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriq tuzish, o‘qish, test yechish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Sinkveyn”, “Tez javob” “Kim topqir” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 1-qismini navbat bilan o‘qiydilar.

***“Kim topqir”* o‘yini.** O‘quvchilar ekranda berilgan ertak voqealari ketma-ketligini aniqlashadi. Voqealar o‘ziga mos raqamli gulning ustiga tartib bilan joylash lozim bo‘ladi. Kim to‘g‘ri va tez topsa, g‘olib bo‘ladi.

Javoblar:

1. Podshoh ovga chiqdi.
2. Podshoh go‘zal qizni sevib qoldi.
3. Qiz sovchilarga rad javobini berdi.
4. Podshoh muallim bilan kengashdi.
5. Podshoh gilam to‘qishni o‘rgandi.
6. Qiz to‘yga rozilik berdi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

“Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 2-qismi asosida multfilm namoyish etiladi. Ertak matni o‘qib beriladi.

Ertak mazmuni ustida ishlanadi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazliladi:

– Podshoh yarim kechada qayerga boribdi?

– Kabob yegani kelganlarni nima qilishar ekan?

– Podshoh qanday qilib o‘limdan qutulib qolibdi?

– Kababchi qanday jazolanibdi?

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**musofir –** boshqa yerdan kelgan yoki boshqa yerda yashovchi

**zindon –** qadimgi zamonda yer ostiga qurilgan zax va qorong‘i qamoqxona

**aqcha –** oldi-sotdi muomalalarida bo‘lgan metal yoki qog‘oz belgi; pul

**muhr –** biror shaxsning nomi to‘liq yozilgan matn va rasmning qabariq yoki botiq tasviri bo‘lgan bosma shakl

**navkar –** harbiy xizmatkor, askar

***“Sinkveyn” usuli***. O‘quvchilar sinkveyn tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi. Shu qoidalar asosida ertak mavzusiga oid sinkveyn tuzish taklif etiladi. Hamma sinkveyn tuzganiga ishonch hosil qilingach, xohishiga ko‘ra o‘qitiladi.

Masalan: *Hunar; bebaho, qadrli; qutqaradi, boqadi, ulug‘laydi*

*Hunarli kishi xor bo‘lmas; kasb.*

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

– Bu ertakda podshoh qaysi hunarni egalladi?

– “Hunarli kishi xor bo‘lmas” maqoli ertak mazmuniga mosmi?

– Podshohning o‘rnida siz qaysi hunarni tanlagan bo‘lardingiz?

– Nima deb o‘ylaysiz, hunar egallash uchun kishida qanday xislatlar mujassam bo‘lishi lozim?

Turli hunar egalarining suratlari ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ularning ish qurollarini aytadilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**




***“Tez javob” o‘yini.*** O‘quvchilar bilan qatorlararo musobaqa o‘tkaziladi. Ertak mazmuni yuzasidan savollar tuzishadi va bir-birlariga berishadi. To‘g‘ri va tez savollar tuzgan hamda javob bergan qator g‘olib bo‘ladi.

**Darslik bilan ishlash.**




***“Harfdan gapgacha” mashqi.*** O‘quvchilar berilgan harflardan birini tanlaydilar va sxemalar asosida avval shu harf ishtirok etgan so‘zni, so‘ng shu so‘z qatnashgan gapni topib, o‘qiydilar.

**Yerto‘l**a. Yerto‘lada podshohdan boshqa bir necha odamlar ham bor ekan.

**Kabobchi**. Kababchilar gilamni podshohning o‘rdasiga olib bordilar.

Topshiriqni faol bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Bu ertakka yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Siz qanday hunarlarni egallashni xohlaysiz?
3. Nima deb o‘ylaysiz, ertakning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
4. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagining 2-qismini o‘qib, qayta hikoyalash.

## 51-d a r s

***Mavzu:*** “Ziyrak uch yigit” (*Ertak*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ziyrak uch yigit” ertagining mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘riso‘zlik va halollik haqida ma’lumot berish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 2*:** asar mazmunidan ta’sirlana olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ziyraklik, topqirlik, tadbirkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash.

***TK 5***: umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va amal qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 1***: og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Zanjir” usuli, “Qahramonni top” o‘yini.
**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.
**Darsning borishi:**
**I. Tashkiliy qism.**
Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.
**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**
O‘quvchilarning ayrimlaridan “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertaginining mazmuni so‘raladi. O‘tilgan mavzu asosida test o‘tkaziladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Hunarsiz kishi o‘limga yaqin ertagida qiz nima uchun podshohga turmushga chiqmasligini aytadi?
A) yoshligi uchun **B)** boyligi uchun D) hunarsiz bo‘lganligi uchun
E) kambag‘alligi uchun
2. Podshoh qancha muddatda gilam to‘qishni o‘rgandi?
**A)** 25 kunda B) 1 oyda D) 1 yilda E) 15 kunda
3. Podshoh nima uchun zindonga tushib qoldi?
A) sayr qilib yurgani uchun B) kabob yegisi kelgani uchun
**D)** o‘zi yurgani uchun E) qorong‘ida yurganligi uchun
4. Vazir gilamning chetida nimani ko‘rib qoldi?
**A)** muhrni B) belgini D) shtampni E) nuqtani
5. Podshoh va zindondagilarni nima qutqarib qoldi?
A) kuch B) podshoh **D)** hunar E) lashkarlar

**III. Yangi mavzu bayoni.**
– Bugungi darsda “Ziyrak uch yigit” ertagining 1-qismi bilan tanishamiz.
O‘quvchilardan ertak janri haqida bilgan ma’lumotlari so‘raladi.
Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi. Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.
1. Ertak kimlar haqida ekan?
2. Ertakda qanday xislatlar ochib berilgan?
Hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**fahm-farosat** – aql-idrok **mabodo** – ehtimol
**hayratda qolib –** hayron bo‘lib, taajjublanib

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**
**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilarga “Ziyrak uch yigit” ertagi “Zanjir usuli”dan foydalanib, navbatma-navbat o‘qitiladi. Mavzu mazmuni qismlarga bo‘lib so‘zlatib mustahkamlanadi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.
1. Aka-ukalar tuyaning qanday belgilarini aytishdi?
2. Hokim ularni nima uchun zindonga tashladi?
***“Qahramonni top” o‘yini***. Bu o‘yinda o‘quvchilar berilgan gaplardan ertak qahramonlarining ismini topishi zarur.

Masalan: – Tuyaning bir tishi tushgan edimi? (Ismoil)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Darsdan nimalarni bilib oldingiz?
2. “Ziyrak uch yigit” ertagida Ibrohim qanday xislatlarga ega?
3. Ibrohimning qaysi xususiyatlari sizga yoqdi?
4. Ertakni o‘qib qanday xulosa chiqardingiz?

Dars yakunlanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ziyrak uch yigit” ertagining 1-qismini o‘qish.

## 52-d a r s

***Mavzu:*** “Ziyrak uch yigit” (*Ertak*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarning ertak haqidagi nazariy bilimlarini boyitish. Ularning ertakni ifodali o‘qish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*:** matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning ziyraklik, to‘g‘riso‘zlik, topqirlik, ahillik kabi fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** ertakda aks etgan qahramonlarning halolligiga qarab xolis fikr yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, lug‘at ustida ishlash, og‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan ertakning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Do‘stingni tanla va u haqida so‘zla”, “To‘g‘ri jumlani top” ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II**. **Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash**.

O‘quvchilar “Ziyrak uch yigit” ertagini so‘zlab beradilar.




**“To‘g‘ri jumlani top” o‘yini.** O‘qituvchi ertak jumlalarini noto‘g‘ri o‘qiydi. O‘quvchilar uni to‘g‘rilab o‘qiydilar.

Namuna: Hozirgi zamonda aqlsiz Ibrohim, Ismoil va Umar ismli uch yigit sayohatga chiqishibdi. Dam olib o‘tirishganida otning izi ularning diqqatini jalb etibdi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Ziyrak uch yigit” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi ertakni o‘qib beradi va matn mazmuni tushuntiriladi.

O‘quvchilar ketma-ket ertakni o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

*Lug‘at ishi:*

**hayratda qolib** – hayron bo‘lib
**o‘kindi** – afsus qildi
**in’om-ehson** – sovg‘a
**tahsinlar –** rahmatlar

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarga “Ziyrak uch yigit” ertagining 2-qismini” “Shivirlab o‘qish” usulida o‘qitiladi va qayta hikoya qildiriladi.

**“Do‘stingni tanla va u haqda so‘zla” didaktik mashqi.** Ziyrak uch yigit nomi ekranda namoyish qilinadi. O‘quvchilar o‘zlariga yoqqan qahramonni tanlab, tavsiflaydi. Eng ko‘p tanlangan qahramon haqida o‘quvchilarning fikrlari va sababi so‘raladi. Ekranga asar qahramonlariga tegishli matn tarkibidagi gaplar namoyish qilinadi. Bu orqali o‘quvchilar ziyrak uch yigitning ijobiy obraz ekanligi haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ziyrak uch yigit sharob, kabob va hokim haqida qanday taxmin qildilar?

2. Ertakni davom ettira olasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ziyrak uch yigit” ertagining 2-qismini so‘zlash.

## 53-d a r s

***Mavzu:*** “Ziyrak uch yigit” *(Ertak)*. 3-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ziyrak uch yigit” ertagining 3-qismi bilan tanishtirish, ertakni ifodali, rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmasini o‘stirish. Ertak matnini qismlarga bo‘lish, reja tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

***FK 1*:** ertak mazmunini tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda hamjihatlik, inoqlik, do‘stlikni qadrlash tuyg‘ularini o‘stirish, halol mehnat qilishga undash.

***TK 4:*** ertak qahramonlarning vijdonliligiga qarab xolis fikr yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, nutqini rivojlantirish, lug‘atini boyitish, ertakni o‘qib qissadan hissa chiqarishga o‘rgatish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish “Savollar hujumi”, “Dinamo”, “Zinama-zina” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: rasmlar, tarqatma materiallar. multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Ziyrak uch yigit” ertagining 2-qismini o‘qib, so‘zlab beradilar.




**“Domino” o‘yini.**

| Savolning javobi | Savollar |
|---|---|
| tishlari bilan o‘tni tortganda, o‘tlardan bittasi qolib ketavergan | Haligi kishi boshqa bir qabiladan nimasini topib oldi? |
| bir tomondagi o‘tlarni yeb borgani, ikkinchi tomondagi o‘tlar joyida qolganligidan | U kimga tuhmat qilganiga ko‘p o‘kindi? |
| tuyasini | Hokim yigitlarni nimadan chiqardi? |
| uch yigitga | Ibrohim tuyaning bir ko‘zi ko‘r ekanini qanday angladi? |
| zindondan | Ismoil tuyaning bir tishi yo‘qligini qanday bildi? |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Ziyrak uch yigit” ertagining 3-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilarga ertak rasmlar orqali taqdim etiladi, matn o‘qiladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket ertakni o‘qiydilar. Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**marhum –** vafot etgan kishi **unamasdan –** ko‘nmasdan, xohlamasdan
**ma’naviy otang –** o‘zingning otang **tasalli –** tinchlantirish, yupatish
**vorisi –** meros egasi, merosxo‘r **qayg‘u-hasrat –** g‘am, alam-ni izhor qilmoq

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilar “Ziyrak uch yigit” ertagini “Zanjir” usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar.




“**Savollar hujumi**” **o‘yini.**

1. Aka-ukalar qayerga safarga chiqdilar?
2. Ular yo‘lda nimani izini ko‘rib qoldilar?
3. Ulardan kim tuyasini so‘radi?
4. Ular tuyaga qanday ta’rif berdilar?
5. Tuyaning egasi ularni kimning oldiga olib bordi?
6. Aka-ukalar tuyaning qanday belgilarini aytishdi?
7. Hokim ularni nima uchun zindonga tashladi?
8. Ular sharob, kabob va hokim haqida qanday taxmin qildilar?



***Test topshiriqlari:***

1. Kim onasining yoniga bordi?

A) oshpaz B ) Umar **D)** hokim E) uch yigit

2. Hokim aslida kimning o‘g‘li edi?

A) hokimning **B)** oshpazning D) Ibrohimning E ) Ismoilning

3. Hokim oshpazning o‘g‘li ekanini kimlarning suhbatlashib o‘tirganlarida eshitdi?

A) ota-onasining B) dehqonlarning

**D)** uch yigitning E) mehmonlarning

4. Hokimning oshpaz o‘g‘li ekanligi haqida kim ta’rif berdi?

A) Ismoil B) o‘rtog‘i D) Ibrohim **E)** Umar

5. “Ziyrak uch yigit” ertagida uch yigitning ismlarini toping.

A) Ilyos, Umar, Hasan B) Ismoil, Islom, Ibrohim

**D)** Ibrohim, Ismoil, Umar E) Hasan, Husan

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

**“Zinama-zina” o‘yini.**




1. Bugungi o‘qish darsi sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Darsda o‘zingiz bilmagan nimalarni bilib oldingiz?
3. O‘ylang, yana qanday fazilatlarni bilasiz?
4. “Ziyrak uch yigit” ertagini o‘qish orqali qanday xulosaga keldingiz?
5. Sizningcha ziyraklik insonga foyda keltiradimi?
6. Sizga qaysi qahramon yoqdi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ziyrak uch yigit” ertagining 3-qismini o‘qish.

## 54-d a r s

***Mavzu:*** “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” (*Anvar Obidjon*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy****:* o‘quvchilarni “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagi mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1*****:** ertakni ongli, to‘g‘ri o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni to‘g‘riso‘zlikka o‘rgatish, yolg‘onchilik va ochko‘zlikning oqibatlari haqida tushuncha berish.

***Rivojlantiruvchi****:* o‘quvchilarning ifodali o‘qish qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini, o‘z fikrini erkin bayon etish qobiliyatlarini rivojlantirish.

***TK 2:*** asardagi materiallarga ongli munosabat bildirish.

***FK 2*****:** o‘rganilgan ertakning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Do‘stingni tanla va fikringni yakunla” mashqi.

**Dars jihozlari:** tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Ziyrak uch yigit” ertagini o‘quvchilar rollarga bo‘linib o‘qib, hikoya qilib beradilar.

“Venn diagrammasi” metodi orqali uch ziyrak yigit topqirligini, ziyrakligini taqqoslaydilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Anvar Obidjonning “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagining 1-qismi bilan tanishamiz.

Anvar Obidjon haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Ertak mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi.

O‘quvchilar “Zanjir” usulida matnni o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**tabib –** shifokor
**shum –** ayyor
**tumov –** shamollash
**notetik –** bardam emas

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagini o‘quvchilar “Rollarga bo‘lib o‘qitish” usulidan foydalanib o‘qiydilar va hikoya qilib berishadi. Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bo‘rining huzuriga qaysi hayvonlar shifo izlab kelishdi?
2. Quyon bilan to‘ng‘iz nima uchun qochib qolishdi?

***Test topshiriqlari:***

1. Qanday Bo‘ri tabib qilib saylandi?
A) saxiy **B)** yirtqich D) ayyor E) aqlli
2. Kimning biqini og‘rib qolgan edi?
A) tulkining **B)** quyonning D) ayiqning E) sherning
3.Tabib quyonga qaysi kasallik nomini aytdi?
A) qizamiq B) kamqonlik **D**) tumov E) ko‘z og‘riq
4. Bo‘rining oldiga kim yig‘lab keldi?
A) kirpi B) bo‘g‘irsoq **D)** to‘ng‘iz E) quyon
5.Tabib to‘ng‘izga qanday davo chorasini aytdi?
A) tomog‘idan kesib olish B) qornini yorish

D) ko‘zini davolash **E)** oyog‘ining go‘shtli joyidan kesib olish




**“Do‘stingni tanla va fikringni yakunla” didaktik mashqi.** Barcha o‘quvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda matn qismlari beriladi. Kartochkaga yozilgan qismning davomini birlashtirish orqali do‘stini topib oladi. Shu zaylda matn hosil qilinadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ertak deb nimaga aytiladi?
2. Ertak qahramonlarining nomini ayting.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagining 1-qismini o‘qish.

## 55-d a r s

***Mavzu:*** “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” (*Anvar Obidjon*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” matni bilan tanishtirish, o‘quvchilarning ertak janri borasidagi bilimlarini boyitish, matnni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***TK 2:*** asardagi materiallarga ongli munosabat bildirish.

***FK 1*:** ertakni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik, samimiylik fazilatlarini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, lug‘at ustida ishlash, o‘g‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan ertak qahramonlariga o‘qituvchi yordamida baho bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “T-chizma”, “Ma‘nodosh so‘zni top” o‘yini.

**Dars jihozlari**: ko‘rgazma, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagining 1-qismini o‘qib, so‘zlab beradilar. Ertak asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Quyon tabib oldiga qanday kirib keldi?
2. Shum shifokor nimalarni o‘ylab o‘tiribdi?

3. Bo‘ri quyonga qanday tashxis qo‘ydi?
4. To‘ng‘izcha bo‘rining oldiga qay holatda keldi?
5. Bo‘ri to‘ng‘izcha kasalining sababini nima deb ko‘rsatdi?
6. Nima uchun to‘ng‘izcha juftakni rostlab qoldi?

***Test topshiriqlari:***

1. Bo‘ri kim qilib saylandi?
A) o‘qituvchi **B)** tabib D) hokim E) vazir
2. Quyonning qayeri og‘rib bo‘rini oldiga kelgan edi?
A ) boshi B) ko‘zi **D)** biqini E) oyog‘i
3. U quyonga qanday davo qo‘llamoqchi bo‘ldi?
**A)** qornini yorib B) boshini yorib D) dori berib E) qo‘lini kesib
4. To‘ng‘izchaning qayeri og‘ridi?
A) qorni B) qulog‘i D) biqini **E)** tomog‘i
5. *“Bemor”* so‘zining ma’nodoshini toping.
**A)** kasal, betob B) odam, inson D) teskari, chap E) ko‘z, bosh

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertakning 2-qismi bilan tanishamiz. (Ertak janri haqida ma’lumot beriladi). Biz siz bilan shu kunga qadar ko‘plab ertaklarni o‘qib-o‘rgandik. Ertaklar ikki turga bo‘linadi: xalq va adabiy ertaklar. “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” adabiy ertak turkumiga mansub bo‘lib, muallifi bolalar adibi Anvar Obidjondir. (Muallif haqida o‘qituvchi o‘quvchilarga nimalar bilishini so‘rab, ularning javoblarini to‘ldiradi.)



O‘quvchilarga ertak lavha orqali taqdim etiladi.
Ertak mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket ertakni o‘qiydilar. Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**tul kampir** – beva kampir
**muttaham** – aldoqchi, shum
**dil xushlam** – xursand bo‘lib
**ozor** – tashvish
**xapdori** – suv bilan ichiladigan dori
**quvvatdori** – quvvat beruvchi dori

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O‘quvchilar “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak”ni rollarga bo‘lib o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar.

O‘quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Bo‘rining huzuriga kimlar shifo izlab keldi?
2. Bo‘ri nima maqsadda tabib bo‘ldi?
3. Tabiblar qanday bo‘lishi lozim?
4. Har bir bo‘limga sarlavha toping. “Bo‘ri shifokor” (birinchi bo‘lim kabi)
5. Ertak sarlavhasini yana qanday nomlash mumkin?

**“T-chizma” metodi.** O‘quvchilar ertak qahromonlarini tavsiflaydilar.

**“Ma‘nodosh so‘zni top” o‘yini.** Bu o‘yinda o‘quvchilar ma’nodosh so‘zlarni topadilar.

ters – ……(teskari, chap) yirtqich –…(vahshiy)
inim – ……(ukam) gar – ……( agar)
muolaja qilamiz – …(davolaymiz) pay – …… (elastik to‘qima)
dingquloq – …(quyon – ko‘chma ma’noda ishlatilgan)
rostlab qoldi juftagin – …. (qochib qoldi – ko‘chma ma’noda)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Shifokor bo‘lish uchun nima qilish kerak, deb o‘ylaysiz?
2. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagining 2-qismini ifodali o‘qib, qayta hikoyalash.

## 56-d a r s

***Mavzu:*** “Baqa bilan taqa” *(Ertak)*. (*Aziz Abdurazzoq*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, sidirg‘a va to‘g‘ri o‘qishga, ertak qahramonlarining fe’l-atvorini aniqlash hamda qiyosiy tavsiflashga o‘rgatish.

***FK 1*:** ertakni ongli, ifodali, o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni o‘zgalarning fikriga quloq solish, qaysarlik qilmaslikka o‘rgatish, turli kasb egalariga bo‘lgan hurmat tuyg‘usini tarbiyalash.

***TK 4:*** asarda bo‘layotgan voqea jarayonlariga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ertak yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki tarzda izchil ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, test yechish malakalarini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan asar mazmunidan ta’sirlana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Ikki qismli kundalik”, “Shifrlangan so‘z”, “Baqaga yordam bering” mashqlari.

**Dars jihozlari:** turli kasb egalari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Anvar Obidjonning “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” ertagini 2-qismini rollarga bo‘linib o‘qib, hikoya qiladilar. O‘quvchilar bilan “Kim ko‘p hayvon nomini biladi?” o‘yini o‘tkaziladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**
***“Shifrlangan so‘z”* ta’limiy o‘yini.**

– Aziz o‘quvchilar, hozir biz siz bilan “Shifrlangan so‘z” o‘yinini o‘ynaymiz. Buning uchun berilgan so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inini tanlab olib, ulardan so‘z tuzasiz. Agar siz bu topshiriqni to‘g‘ri bajarsangiz, bugungi darsimiz mavzusini bilib olasiz.

Masalan: A-**ba**-diy, yup-**qa,** na-**bi**-ra, chi-**lan**-gar, mar-**ta**-ba, laq-**qa.**

O‘qituvchi ertak muallifi Aziz Abdurazzoq haqida qisqacha ma’lumot beradi.

“Baqa bilan taqa” ertagi lavha orqali namoyish etiladi, ekran ortidan matn o‘qiladi.

O‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

– Baqa qanday jonivor?

– Baqa haqida nimalarni bilasiz?

– Milliy hunarmandchilikka oid qanday kasblarni bilasiz?

Turli kasb va hunar egalarining suratlari ko‘rsatiladi.

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**taqa** – ot-ulov oyog‘ini zararlanishdan saqlash uchun tuyoq ostiga mixlab qoqiladigan metal buyum

**ko‘lmak** – chuqur joyga to‘planib qolgan yomg‘ir suvi

**sandon** – temirchi, miskar va zargarlarning qizdirilgan metallga ishlov berishda uning ostiga qo‘yadigan asbobi

**otashkurak** – yonib turgan narsani qisib olish, olovni tuzatish uchun ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or asbobi

Ertak mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu ertak nima haqida ekan?

– Ertak kimning nomidan aytilgan?

– Ertak qahramonlari kimlar?

– Nima deb o‘ylaysiz, baqa to‘g‘ri ish qildimi?

**Darslik bilan ishlash.**

***“Ikki qismli kundalik” uslubi.*** O‘quvchilar ertakni juftlikda navbat bilan g‘ing‘illab o‘qiydilar. Hamma ertakni o‘qib bo‘lganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi. O‘quvchilarga, daftarning chap tomoniga muallif fikrlarini yoqqanlarini yoki yoqmaganlarini yozishlari aytiladi. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur fikrga berilgan o‘zining izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan ertak haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga bittadan fikrni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohlari o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur fikrga o‘z izohini berish ruxsat etiladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari bajariladi.

***Test topshiriqlari:***

1. “Baqa bilan taqa” ertagining muallifi kim?

A) Rauf Tolib B) Anvar Obidjon **D)** Aziz Abdurazzoq
E) Shukur Sa’dulla

2. Baqa qayerda yashar ekan?

A) daryoda **B)** ko‘lmakda D) hovuzda E) ariqda

3. Baqa kimning oldiga boribdi?

A) zargar B) temirchi D) soatsoz **E**) taqachi

4. Baqaga xos bo‘lgan asosiy xususiyatni aniqlang.

**A)** qaysar B) dangasa D) yolg‘onchi E) quvnoq

5. Taqachi bolg‘ani qo‘yib, sandon ustidagi temirni … solayotganda baqa yana salom beribdi. Gapdagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni aniqlang.

B) suvga **B**) olovga D) loyga E) kulga

***“Baqaga yordam bering” mashqi.***

– Aziz o‘quvchilar, biz baqani maqollar yordamida tarbiyalashimiz, to‘g‘ri yo‘lga solishimiz mumkin. Buning uchun maqollardagi tushib qolgan so‘zlarni topishda baqaga yordam berishimiz lozim.

1. Ko‘rpangga qarab oyoq …(tuzat, uzat, kuzat)
2. Yetti o‘lchab bir … (o‘yla, so‘zla, kes)
3. O‘ynab gapirsang ham o‘ylab … (gapir, o‘qi, kul)
4. Ahmoq kalla oyoqqa dam … (kelmas, turmas, bermas)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Baqa nima uchun oyog‘iga taqa qoqtirishni havas qildi?
2. Gap uqmas baqaning qaysarligini qanday baholash mumkin?
3. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Baqa bilan taqa” ertagini qayta hikoyalash.

## 59-dars

***Mavzu:*** “Laqma it” (*Shukur Sa’dulla*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga mehnatsevarlik, tirishqoqlik fazilatlari, dangasalik oqibatlari haqida ma’lumot berish, “Laqma it” ertagi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** asarga mos mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish.

***FK 1*:** asar mazmunining to‘liq fikrini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni mehnatsevarlik, birovning mehnatini qadrlash, tirishqoqlik, va’dasini ustidan chiqishga o‘rgatish.

***TK 5:*** ertakda bo‘layotgan voqealarga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash, rollarga bo‘linib o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** xalq og‘zaki ijodi namunalari ichidan ertakni farqlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Kimning ovozi?”, “Qofiyadoshini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Baqa bilan taqa” ertagining 2-qismi o‘qitiladi, o‘quvchi ertak mazmunini so‘zlab beradi.

Ertak mazmuni yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Baqa nima uchun taqasini oldirib tashlashga rozi bo‘ldi?
2. Siz ham o‘zingizga noloyiq ishga qo‘l urganmisiz?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, dangasalik qanday xislat? U qanday oqibatlarga olib keladi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz Shukur Sa’dullaning “Laqma it” ertagi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dangasalik, uning oqibatlari haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Nima uchun xalqimizda “Bugungi ishni, ertaga qo‘yma” degan naql bor?

– Dangasalar nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi?



O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Laqma it” ertagining I qismi asosida lavha namoyish qilinadi. Kadr ortidan ertak matni o‘qiladi.



O‘qituvchi “Laqma it” ertagini ifodali o‘qib beradi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkaziladi.

*Lug‘at ishi:*

**g‘o‘ra** – dovuchcha **nishxo‘rd** – mol yemay qolgan xashak

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Laqma it” ertagi o‘quvchilarga rollarga bo‘lib o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– It Moshxon, Echki va Olaqashqalardan nima uchun yordam so‘radi?

– Moshxon nima uchun itni uyga kiritmadi?



O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

***“Kimning ovozi?” o‘yini.*** Ekranda ketma-ket ertak qahramonlarining ovozlari ertakdagi qismlari bilan eshittiriladi. Har bir ovoz eshittirilgandan keyin turli xil variantlar namoyish etiladi.



O‘quvchilar ovoz egasi namoyish qilingan rasmni belgilaydilar. ***“Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Laqma it” ertagidagi qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Laqma it kimlardan boshpana so‘radi?
2. Siz ham dangasalik qilganmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Laqma it” ertagining 1-qismini o‘qish.

## 60-dars

***Mavzu:*** “Laqma it” (*Shukur Sa’dulla*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga mehnatsevarlik fazilati, dangasalik oqibatlari haqida ma’lumot berish, “Laqma it” ertagining II qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*:** asarning mazmunini qisqartirib, qayta aytib berish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni mehnatsevarlikka, birovning mehnatini qadrlashga o‘rgatish, axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***TK 4:*** asarda bo‘layotgan hodisa jarayonlariga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan asarning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Ma’nodosh so‘zlar” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Laqma it” ertagi o‘qitiladi, 3-4 nafar o‘quvchidan yoddan so‘raladi. Ertak yuzasidan savol va topshiriq beriladi.

– “Laqma it” ertagida qanday illatlar haqida so‘z boradi?

– Ertakdagi sizga yoqqan qahramon haqida so‘zlab bering.

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar laqmalik qanday odat? U qanday oqibatlarga olib keladi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Laqma it” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dangasalik, uning oqibatlari haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Nima uchun itni laqma deb atashadi?

– Dangasalar nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi?



O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. “Laqma it” ertagining 2-qismi asosida lavha namoyish qilinadi. Kadr ortidan ertak matni o‘qiladi.

O‘qituvchi ertak mazmunini tushuntiradi. Notanish so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**sanqiydi** – tentirab yuradi **boshpana** – turar joy

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash**. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Laqma it” ertagining 2-qismi o‘quvchilarga o‘qittiriladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– It yozni qanday o‘tkazdi?

– Itning qilmishini qanday baholash mumkin?

– Ertak nima uchun “Laqma it” deb nomlanganini izohlang.

***“Ma’nodoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Laqma it” ertagining 2-qismidagi so‘zlarga ma’nodosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p ma’nodosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.



***Test topshiriqlari:***

1. Qaysi parrandalar itga joy berishmadi?

**A)** xo‘roz, tovuq, kurka, o‘rdak B) mushuk, it, buzoq, kurka

D) kuchuk, o‘rdak, jo‘ja, g‘oz E) echki, buzoq, mushuk

2. It yoz kelsa, nima qilmoqchi edi?

A) mushukka rahmat aytmoqchi edi B) o‘ynamoqchi edi

**D)** uy qurmoqchi edi E) cho‘milmoqchi edi

3. It qurmoqchi bo‘lgan uyining o‘rtasida nima bo‘lishini o‘yladi?

A) o‘yinchoq **B)** pech D) gullar E) yostiqlar

4. It yoz kelganda nima qildi?
A) uy qurdi B) o‘yinchoq yasadi
D) mushuknikiga mehmonga bordi **E)** bir ish qilmay, sanqib yurdi
5. It nima uchun uy qurmadi?
A) aqlli bo‘lgani uchun **B)** dangasaligi uchun
D) charchagani uchun E) g‘isht bo‘lmagani uchun

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.
– Siz ota-onangizga uy yumushlarida yordam berasizmi?
– Qanday ishlarni qiynalmasdan bajara olasiz?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Laqma it” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 61-d a r s

***Mavzu:*** “Maqollar.”

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga maqollar haqida ma’lumot berish, maqollarning ma’nosini tushuntirish, ongli va ifodali o‘qish, yod olish, so‘zlab berish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***FK 1***: maqollarning mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda turmush tajribalaridan kelib chiqqan holda vatanga bo‘lgan muhabbat, ilmni, do‘stlikni qadrlash, mehnatsevarlik sifatlarini tarbiyalash.

***TK 3:*** maqollar orqali yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilar bilimini kengaytirish, og‘zaki nutqini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan maqollarni boshqa janrlardan farqlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Misrani tugat”, “Davomini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilardan “Laqma it” ertagining 2-qismi mazmuni so‘raladi.
Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.
1. It nima uchun yozda o‘ziga uy qurmadi?
2. “Erta g‘amin eshak yeyar” misrasida nimani tushundingiz?
3. Ertakni yana qanday nomlash mumkin?

***Test topshiriqlari:***

1. Kim o‘ziga uy qurmadi?
A) echki B**)** xo‘roz **D)** it E) o‘rdak

2. Nima uchun itga parandalar joy bermadi?

**A)** yolg‘onchiligi uchun B) qo‘rqoqligi uchun

D) mehnatsevarligi uchun E) jasurligi uchun

3. Erta g‘amini kim yer ekan?

A) tulki B) bo‘ri D) ayiq **E)** eshak

4. “Cho‘miladi” so‘zining qofiyadoshini toping.

**A)** ko‘miladi B) chopadi D) yugiradi E) o‘tiradi

5. Mavzu mazmuniga mos maqolni toping.

**A)** Qish g‘amini yozda ye B) Bilim – aql chirog‘i

D ) Mevasiz daraxt egilmas E) Hunarli kishi xor bo‘lmas




***“Misrani tugat” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘quvchilar har bir misradagi tushib qolgan so‘zlarni, o‘ng tomonda berilgan so‘zlardan topib, uni yozishlari darkor.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Yomg‘ir ezib..... avval,** | **laylakqor** | **....u yana-yana,** | **boshpana** |
| **So‘ngra..... olar gal.** | **yog‘ar** | **Qani bo‘lsa bir.....** | **g‘amin,** |
| **It tumshayin yurar.....,** | **qoldirib** | **Yoz yemasang qishning** | **yalinar** |
| **Qorda, muzda.....iz.** | **yolg‘iz** | **holingga voy, bo‘lgin.** → | **amin!** |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Aziz o‘quvchilar, bugun biz sizlar bilan maqollar haqida suhbatlashamiz.

1. Maqol nima?

2. Vatan haqida yana qanday maqollarni bilasiz?

Javoblar tinglanib, maqol haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar tomonidan darsdagi maqollar mustaqil “Shivirlab o‘qish” usulida o‘qitiladi.

1. Siz qaysi maqollarni o‘qidingiz?

2. Maqollar qaysi mavzularda ekan?

3. Maqollar kim tomonidan yaratilgan?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar maqollarni ifodali o‘qiydilar. Maqollar mazmuni ustida ishlanadi.



***“Davomini top”o‘yini.***

1. Yaxshi yigit yurt tuzar,
Yomon yigit… (*yurt buzar*)
2. Mehnat qilib topganing,
Qand-u… (*asal totganing*)
3. Qush qanoti bilan tirik,
Odam …(*mehnati bilan*)
4. Yaxshi bo‘lsang, o‘zarsan
Yomon bo‘lsang…(*to‘zarsan*)
5. Tilingda bo‘lsa boling,
Kulib turar… (*iqboling*)
6. Tinchlik bilan el ko‘karar,
Yomg‘ir bilan... (*yer)*

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi, javoblar umumlashtiriladi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Maqollar”ni yodlash.

## 62-d a r s

***Mavzu:*** “Topishmoqlar”.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga topishmoq janri haqida ma’lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o‘qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o‘rgatish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan (kitob, kompyuter) foydalana olish.

***FK 1*:** topishmoqlarning javobini topa olish.

***Tarbiyaviy*:** topishmoqlar orqali o‘quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko‘ngillik tuyg‘ularini singdirish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

***FK 2*:** xalq og‘zaki ijodi namunalaridan topishmoqlarni bir-biridan farqlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Kim topog‘on”, “So‘zlovchi quticha” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar bilgan maqollarini “Davom ettir” usuli orqali yoddan aytib beradilar.

– Maqol deb nimaga aytiladi?

– Mehnatsevarlik haqida maqollarni bilasizmi?

– Maqollar inson hayotida qanday ahamiyatga ega?




***“So‘zlovchi quticha” o‘yini.*** O‘quvchilar uchun quticha ichiga maqollar yozilgan tarqatmalar solingan bo‘ladi. Quticha ichidan shu maqollardan birini olib, qaysi mavzuga oid ekanligini aytadilar va uning mazmunini tushuntirib beradilar. Masalan: Do‘stsiz boshim–tuzsiz oshim. (Do‘stlik haqida.)



**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Ekrandagi topishmoqlarni to‘g‘ri topsangiz, bugungi mavzuga oid so‘z kelib chiqadi.

***“Topgan topaloq” o‘yini.***

1. Qorday oppoq,
Yungday yumshoq. (*Paxta*)

2. Ikki otim bor,

Bir-biridan chopog‘on. (*Oyoq*)
3.Yer tagida qubba igna. (*Tipratikan*)
4. Atlas ko‘ylak qanoti,
Xush xabarchi odati. (*Zag‘izg‘on*)
5. Emaklagan toshni ko‘rdim,
Toshdan chiqqan boshni ko‘rdim. (*Toshbaqa*)
6. Pishirsa osh bo‘lur,
Pishirmasa qush bo‘lur. (*Tuxum*)
7. Ismi bor,
Jismi yo‘q. (*Shamol*)
8. G‘uv-g‘uv etar,
Qorni to‘ysa yumalab ketar. (*Urchuq*)
9. O‘zi qizil, go‘zal biram, Qirga yozar qizil gilam. (*Lola*)
10. Og‘zi yo‘g‘-u, tishi bor, Duradgorda ishi bor. (*Arra*)
11. Gulsiz bo‘lar mevasi,
Shirin-shirin donasi. (*Anjir*)

– Bugun biz sizlar bilan “Topishmoq” janri bilan tanishamiz.

(Topishmoqlar haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.)

– Topishmoq matnida narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo‘ladi. Topishmoqlar qadimda “jumboq”, “top-top” deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o‘ziga xos rasm-rusmlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ekranda video orqali topishmoqlar aytiladi, javoblari topiladi. O‘quvchilar darslikdagi topishmoqlarni o‘qiydilar va javobini topadilar. Topishmoqlarda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**harchand** – harqancha, qanchalik, imkon boricha
**dong‘il** – keng va ravon
**bosib yer** – ko‘p-ko‘p yer

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Topishmoqlar”ni ichda o‘qiydilar, ma’nosi izohlanadi. Savol va topshiriqlar ustida ishlash:

1. Topishmoqqa xos umumiy o‘xshashlik nimada deb o‘ylaysiz?
2. Topishmoqlarni kim yaratgan?
3. Topishmoqlar qadimda nima deb nomlangan?
4. Topishmoqning qanday foydasi bor?
5. O‘zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

***“Kim topog‘on” o‘yini.***

O‘zi katta, Dumi kalta. (*tuya*)

Ko‘m-ko‘k tusi,
Xushbo‘y isi. (*rayhon*)
Qat-qat quloq,
Dum-dumaloq. (*karam*)
Ovozasi azonda,
Mazaligi qozonda. (*xo‘roz*)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlari yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Topishmoq nima ekan?
2. Topishmoqlardan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
3. Insondagi qaysi fazilatni ulug‘laysiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** Topishmoqlarni yod olish.

## 64-d a r s

***Mavzu:*** “Qish to‘zg‘itar momiq par” (*Qudrat Hikmat*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga she’rdan tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘z va iboralarni topish, o‘qilgan asar qanday mavzuga bag‘ishlanganini aniqlash, o‘qilgan asarga nisbatan o‘z hissiyotlarini namoyon qilishni o‘rgatish.

***TK 3:*** mavzuga mos she’rlarni muntazam o‘qib-o‘rganib borish va bilimini oshirish.

***FK 1*:** matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda estetik didni o‘stirish, ularga tabiatni sevish tuyg‘usini singdirish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning adabiy til talaffuzi qoidalariga rioya qilgan holda ongli o‘qish ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 2*:** matndagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Sandiqchaga joyla”, “O‘rnini top” mashqlari.

**Dars jihozlari:** qish manzarasi tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Mehnat kishini ulug‘laydi” mavzusida yozib kelgan kichik hikoyalarini o‘qib beradilar.




***“Sandiqchaga joyla”* mashqi.** O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar aralash tarzda berilgan maqol va topishmoqlarni guruhlab, alohida sandiqchalarga joylaydilar.

Masalan:

Tinmas bitta,
Tinglar mingta.

Jasur bo‘lsang yov qaytar.

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.

Tili po‘lat shovvoz,
So‘zlay olmas beqog‘oz.

Bir ajoyib ishxona,
Ichi doim qishxona.

Bola – aziz, odobi undan aziz.

(Topishmoqlar javobi: radio, muzlatkich, ruchka)
Mashq natijalari e’lon qilinadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolalar, bugun biz “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’ri bilan tanishamiz.

O‘qituvchi she’rning muallifi Qudrat Hikmat haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Qish fasli haqida videolavha namoyish qilinadi.
O‘qituvchi “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’rini ifodali o‘qib beradi.

– Bu she’r sizga yoqdimi? Nima uchun?
– U sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otdi?
– Shoir she’rni qanday kayfiyatda yozgan?

O‘quvchilar she’rni ovoz chiqarmay, mustaqil o‘qiydilar.

– She’rni o‘qiyotganingizda tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilab qo‘ying.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**namat –** yungdan bosib ishlangan palos
**mo‘rkon –** oshxona, o‘choq va shu kabilarning tutun chiqib ketadigan yo‘li
**surunkasi –** muttasil ravishda, uzluksiz, beto‘xtov
**nazdimda –** nazarimda, xayolimda

– “Namat” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping. (palos, sholcha, gilam)

– “Surunkasi” so‘ziga qarama-qarshi ma’noli so‘z ayting. (gohida, onda-sonda, bir-bir)

– Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

She’r mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu she’r nima haqida ekan?

– Shoir she’rda tabiat manzarasini ifodalash uchun qanday so‘z va iboralarni qo‘llagan? Misollar keltiring.

– Darslikdagi rasmda kimlar va nimalar tasvirlangan? She’rdan shu rasmga mos misralarni topib o‘qing.



***“Shoir bo‘laman” mashqi.*** O‘quvchilarga qish fasli haqidagi she’rlarning ikki misrasi beriladi. Ular she’rning davomini yozishga urinib ko‘rishlari lozim bo‘ladi.

Go‘zal bo‘ldi diyorim,
Unga qish kirib keldi.
(Yerlar oq bo‘lib yashnar,
Qor yog‘ib sovuq keldi.)
Endi bo‘ladi bayram,
Endi kelar yangi yil.
(Qish – bu barcha orzular
Ushaladigan fasl.)

Mashqda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

– Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? Bunda muallifning kayfiyatini namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.



***“O‘rnini top” mashqi.*** O‘quvchilar tartibsiz berilgan harflardan so‘z yasab, ularni qofiyalari bo‘yicha o‘z o‘rniga joylashlari lozim bo‘ladi.

| | | |
|---|---|---|
| TUDAYI | → | YUTADI |
| ATRALYIK | → | YALTIRAR |
| NALBUK | → | KUNLAB |
| URYABUR | → | BUYURAR |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Sizda nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
3. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
4. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’rini yodlash.

## 65–d a r s

***Mavzu:*** “Rangin qorlar”. (*Olloyor*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga yil fasllari va ularning o‘rni haqida ma’lumot berish, “Rangin qorlar” ertagi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1*:** ertakni mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, tabiat ne’matlarini qadriga yetish va avaylab asrash hislarini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, matn ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Yil fasllari” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Qish to‘zg‘itar momiq par” she’ri o‘quvchilardan yoddan so‘raladi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Qish faslida qanday tabiat hodisalari ro‘y beradi?

– She’rda qishga qanday ta’rif berilgan?

O‘quvchilar javoblari to‘ldiriladi va umumlashtiriladi.

Tarqatma materiallar bilan ishlanadi va o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Doskaga rasmli rebus yopishtiriladi. O‘quvchilar rebusni yechib, hosil bo‘lgan so‘zni aytadilar.

– Bolajonlar, rasmli rebusning javobi nima ekan?

– To‘g‘ri, rasmli rebusning javobi “Qor” edi.

– Qor qaysi faslda yog‘adi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Rangin qorlar” ertagi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan yil fasllari, ularning qachon kelishi, fasllardagi o‘zgarishlar haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.



“Rangin qorlar” ertagi audio orqali o‘qib eshittiriladi. O‘qituvchi ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beradi.



***Lug‘at ishi:***

**ayoz** – sovuq **chaqinlar** – chaqmoq
**yoz saratoni** – yozning issiq kunlari

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida

“Rangin qorlar” ertagi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Qadimda qorlar qanday ranglarda bo‘lgan ekan?

– Bahorning yashil rang tanlashining sababi nimada?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi. Matn mazmuni qayta hikoya qilinadi.




***“Yil fasllari” o‘yini.*** O‘quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruhga yil fasllari va ularda bo‘ladigan hodisalar rasmlari beriladi. O‘quvchilar tabiat hodisalarini yil fasllarining mosiga yopishtiradilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Sizga qaysi mashq yoqdi?

2. Darsda o‘rgangan bilimlaringizni qayerda qo‘llashingiz mumkin?

O‘quvchilar darsga ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Rangin qorlar” ertagining mazmunini hikoyalash.

## 66-d a r s

**Mavzu:** “Qish” (*Tursunboy Adashboyev*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmuni bilan tanishtirish, sidirg‘a va to‘g‘ri o‘qishga, she’r mazmuniga doir maqol va topishmoqlarni o‘qish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

***TK 2:*** mavjud axborot materiallariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga o‘lkamizdagi qish faslining insonlarga zavq tarovat bag‘ishlashini tushuntirish, tabiatni sevish tuyg‘usini singdirish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning qish manzarasi hamda yilning shu faslida turli jonivorlar va hayvonlarning hayoti yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki tarzda izchil ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish.

***FK 2*:** o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Tezkor savollarga tezkor javoblar”, “Buyuk rassom”, “Qofiyadoshini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** qish fasli tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarning darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Rangin qorlar” ertagini rollarga bo‘linib o‘qiydilar. Ertak mazmunini so‘zlab beradilar.




***“Tezkor savollarga tezkor javob”* o‘yini.**

1. Qish inglizchada nima deyiladi?
2. Qish faslida nechta bayram bor?
3. “Kumush” so‘zini yana qaysi faslga nisbatan ishlatish mumkin?
4. Laylak qishda qayerda yashaydi?
5. Qishning qaysi kunida eng uzoq tun kuzatiladi?
6. Qishning qaysi kunida eng qisqa kun kuzatiladi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun siz bilan Tursunboy Adashboyevning “Qish” she’ri bilan tanishamiz.



Videolavha namoyish qilinadi. O‘qituvchi “Qish” she’rini ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

– Shox-shabbalar orasidan kim mo‘ralab turibdi?

– Ayiq va quyonning ko‘rinishi qanday bo‘lar ekan?

– Archalarga qanday ta’rif berilgan?

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**quyrug‘iday** – dumiday **paxmoq** – tartibsiz o‘sib ketgan, hurpaygan
**oq tivit** – hayvonlarning nozik va mayin junidan tikilgan oq narsa
**so‘qmoqlar** – odamlar qatnovi natijasida o‘z-o‘zidan yuzaga kelgan yolg‘izoyoq yo‘llar

***“Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar she’rdan berilgan so‘zlarga mos qofiyadoshini topishlari lozim. Masalan: bo‘ralar-mo‘ralar, serhasham-beqasam, qulochini-sochini.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “To‘g‘ri va no‘to‘g‘ri javob” o‘yini bajariladi.




***“To‘g‘ri va no‘to‘g‘ri javob”* o‘yini.**

– Endi maqollar bo‘yicha topqirligingizni ko‘ramiz. Quyida berilgan maqollardan faqat qishning xususiyatiga doirlarini belgilang. To‘g‘ri javobga (+) va no‘to‘g‘ri javob (–) qo‘yasiz.

1. Yoz mevasi –qish xazinasi +
2. To‘qson to‘lmay, yoz chiqmas –
3. Yozning kuni – yuz turli
   Qishning kuni – qirq turli +
4. Yozning yomg‘iridan qo‘rq,
   Qishning qirovidan +
5. Dalv kirdi, ekinlarga davr kirdi. –
6. Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas,
   Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas +

***“Buyuk rassom” mashqi.***

– Aziz o‘quvchilar, siz qishning tasvirini jadvaldagi harflardan foydalanib, so‘zlarni toping. So‘zlar orqali gapni toping. Kesilgan rasm qismlaridan mavzu tasvirini hosil qiling.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| E | K | Q | E | R | Y | S | A |
| N | D | I | T | I | O | J | N |
| Y | A | SH | D | N | M | A | Y |
| O | T | O | B | I | M | A | H |
| Z | Q | O | R | D | L | O | U |
| I | L | I | N | A | A | G‘ | SH |

Javob: – Qish ayozi tobida,
Qor erinmay bo‘ralar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. She’rda qish manzarasi qanday tasvirlangan?
2. Qishda hayvonlarga muallif qanday ta’rif bergan?
3. She’rning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
4. Bu darsda olgan bilimlaringizdan kelgusi hayotingizda foydalana olasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qish” she’rini yod olish.

## 68-d a r s

***Mavzu:*** “Qor odamning sovg‘asi” (*Oqiljon Husanov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga qish, nihol haqida ma’lumot berish, “Qor odamning sovg‘asi” hikoyasi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab tushunish va gapirib bera olish.

***FK 1*:** asarning mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni tabiatni sevish, asrab-avaylashga o‘rgatish, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash.

***TK 4***: yaxshi va yomon odatlarni farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘rganilgan asarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Tez aytish” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Qish” she’ri o‘qitiladi, 3-4 nafar o‘quvchidan yoddan so‘raladi. She’r yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Qish qanday fasl?

– Qishda bolalar qanday o‘yinlar o‘ynashadi?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Qor odamning sovg‘asi” hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar qish fasli, ko‘chat ekish haqida suhbatlashiladi, savol-javob o‘tkaziladi.

– Siz ham qishda qor odam yasaysizmi?

– Ko‘chat ekish qanday odat?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. Hikoya muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘qituvchi “Qor odamning sovg‘asi” hikoyasini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**tosh-metin** – beton **ilashmay** – yopishmay **ajriqzor** – chimzor
**kosov** – olovni kovlash uchun ishlatiladigan uzun yog‘och

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Qor odamning sovg‘asi” hikoyasi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savol va topshiriqlarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Kamol bilan Alisher nima uchun dalaga borishdi?

– Qor odam ularga qanday sovg‘a qoldirdi?

– Qishki o‘yinlarning nomini ayting.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.




***“Tez aytish”* o‘yini.** O‘quvchilar qishga oid tez aytishlarni tez-tez aytadilar. Eng tez aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.



***Test topshiriqlari:***

1. O‘tkirvoyning dadasi unga qanday ish buyurdi?

A) qor odam yasashni **B)** qo‘y bilan sigirga yemish keltirishni
D) ukasiga qarashni E) dadasini oyog‘ini uqalashni

2. Kamoljon kimnikiga dalaga ketayotganlarini aytish uchun chiqdi?
**A)** Alishernikiga B) Kozimnikiga D) Qodirnikiga E) Botirnikiga

3. Bolalar nima yasashdi?
A) o‘yinchoq B) sovg‘a **D)** qor odam E) hech narsa

4. Kamoljonning akasi o‘sha yili qayerga ketdi?
**A)** armiyaga B) ish qidirishga D) dalaga E) istirohat bog‘iga

5. Qor odamning sovg‘asi nima edi?
A) gullar B) to‘kin-sochinlik
D) O‘tkirvoyning qaytishi **E)** tol daraxti

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**
Savol-javob o‘tkaziladi.
– Siz ham maktab bog‘iga daraxt ekkanmisiz?
– Daraxtlar qanday parvarish qilinadi?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qor odamning sovg‘asi” hikoyasini o‘qish.

## 70-d a r s

***Mavzu:*** “Kitobga ixlos” (*Mirkarim Osim*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Kitobga ixlos” qissasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1*:** asarni tushunib, ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 5:*** hikoyada aks etgan ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, qayta hikoyalash asosida bog‘lanishli nutqini o‘stirish.

***FK 2*:** matnni tushunib, mazmunini og‘zaki bayon etib bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Blis so‘rov”, “Kim ko‘p topishmoq biladi?”, “Ma’nosini izohlang” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**
“Kumush qish” bo‘limi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.




***“Blis so‘rov” o‘yini.***
1. Biz qaysi bo‘limni tugatdik?

2. Unda qaysi asarlarni o‘rgandik?
3. Asarlarni muallifi bilan sanab bering.
4. Qishda tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
5. Jonivorlarning qishdagi hayoti haqida nimalarni bilasiz?
6. Bo‘limdagi qaysi she’r va hikoyada qish manzarasi jonlantirib tasvirlangan?
7. Qish tabiati tasvirida qanday so‘z va iboralardan foydalanilgan?




***“Kim ko‘p topishmoq biladi?”*** **o‘yini.**

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan. *(Qor)*
Oq tovuq,
Katagi sovuq. *(Qor)*
Ariqdan oyna oldim.
*(Muz)*
Oq sigir turib ketdi,
Qora sigir yotib qoldi. *(Qor, yer)*
Qo‘lsiz, oyoqsiz gul soladi.
*(Sovuq, deraza qirovi)*
Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq. *(Qish, yoz)*

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Kitobga ixlos” qissasining 1-qismi bilan tanishamiz. Muallif Mirkarim Osim haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.

“Kitobga ixlos” matni mazmuniga mos suratlar namoyish etilib, matn o‘qiladi. Qissa mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri qissani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?



***Lug‘at ishi:***

**Qorabug‘raxon** – Shimoliy Turkiston xoni **yarog‘**– qurol
**suron** – shovqin, to‘polon **sayl** – biror joyni tomosha qilish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**




***Darslik bilan ishlash.*** “Kitobga ixlos” qissasini o‘quvchilar “Aks sado” mashqi usulida o‘qiydilar. O‘quvchilar matnda sifat so‘z turkumiga oid so‘z uchrasa, shu so‘zni takrorlab aytishadi.

Darslikdagi savol-javob va topishiriqlar ustida ishlanadi.

1. Asar orqali Ibn Sino haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ibn Sino qanday davrda yashagan ekan?
3. Yosh hakimning yuragi nimani sezdi?

O‘quvchilar matn rejasini tuzib, reja asosida matn mazmunini qayta hikoya qiladi.

***“Ma’nosini izohlang” o‘yini.***

Olovning qip-qizil tillari – ……(gurullab yonayotgan olovning yuqoriga buralib – buralib ko‘tarilishi)

Olovning tillari osmonni yalar – ……..(baland ko‘tarilar)

O‘zini o‘tga urmoqchi – ……. (olovning ichiga kirmoqchi)

O‘quvchilarga yordam berish maqsadida shu so‘zlarni o‘z ma’nosida qo‘llab, taqqoslash uslubidan foydalanish mumkin:

Olovning tili – odamning tili

Odam tili bilan yalaydi – olov tili bilan osmonni yalaydi

O‘tga urmoqchi – stolni urdi

Qaysi birikmada til, yalaydi, uradi so‘zlari o‘zining ma’nosida qo‘llangan? Qaysi birikmada ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Tarixda yashagan buyuk olimlar, sarkardalar, shoir-yozuvchilardan yana kimlarni bilasiz?

2. Buxoroda qanday tarixiy binolar, joylar bor?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Kitobga ixlos” qissasining 1-qismini hikoyalash.

## 71-dars

***Mavzu:*** “Kitobga ixlos” (*Mirkarim Osim*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga adabiy til talaffuzi qoidalariga rioya qilgan holda ongli, to‘g‘ri o‘qish, qissadagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilash, qahramonlarning xatti-harakatini baholash hamda ularga shaxsiy munosabat bildirishni o‘rgatish.

***FK 2*:** asar qahramoniga munosabat bildira olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga yuksak insoniy fazilatlarni, mardlik, fidoyilik tuyg‘ularini singdirish, ularni kitobni sevish va qadrlashga o‘rgatish.

***TK 6:*** o‘quv qurollarini saramjon saqlay olishga o‘rgatish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmunini shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, so‘z boyligini oshira borish va nutqida qo‘llash malakalarini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 1*:** asarning mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Mazmunga oid jadval”, “Topib o‘qi”, “Sonlar tilsimi”, “Tezkor savollar” mashqlari.

**Dars jihozlari:** turli xil kitoblar tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarning darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Kitobga ixlos” qissasining 1-qismini navbat bilan o‘qiydilar.

***“Mazmunga oid jadval” mashqi.*** O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar qissaning 1-qismi mazmunini yorituvchi jadvalni mustaqil ravishda yoki birgalikda to‘ldiradilar va uni izohlaydilar.




“Kitobga ixlos” qissasining 1-qismi mazmuniga oid jadval

| Kim? | Ibn Sino |
|---|---|
| Nima qildi? | Yarim tungacha kitob mutolaa qildi.<br>Registon tomon qizarib, osmonga uchqunlar sachrab turganini sezdi. Halloslab Registon maydoniga keldi. Ko‘nglini ezayotgan shubha haqiqat bo‘lib chiqqanini angladi. |
| Keyin nima bo‘ldi? | Chelaklab suv tashib o‘t o‘chirayotganlarga qarashib turdi.<br>Olov chiqib turgan bir hujraga o‘zini urdi. Etagining yonayotganiga ham parvo qilmay, bir necha kitobni quchoqlab chiqdi. |
| Nima o‘zgardi? | Odamlar shuncha urinib, yong‘inni so‘ndira olmadilar. Ibn Sino yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo‘ltiqlagan holda uyiga jo‘nadi. |
| Xulosa | Ha, baxtsizlik, ammo bilib qo‘yingki, dunyoviy ilm dushmanlari ma’rifat chirog‘ini o‘chirolmaydilar. |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Kitobga ixlos”. (Mirkarim Osim). 2-qism.

O‘qituvchi “Kitobga ixlos” qissasini 2-qismini ifodali o‘qib beradi.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***



**istilochi –** o‘zgalarning yerini, mamlakatini qurol kuchi bilan bosib olgan

**baxayr –** yaxshilikka olib boradigan, oxiri yaxshilik bilan tugaydigan

**quvg‘in –** o‘z joyi, vatanidan haydash, quvish

**quzg‘un–**qarg‘asimonlar oilasiga mansub, o‘limtikxo‘r o‘troq qush

Qissa mazmuni tahlil qilinadi.

– Ibn Sino onasiga qanday xushxabar keltirdi?

– Uzoqdan nima eshitilib turardi?

– Ibn Sino nima uchun Buxoroni tashlab ketishga majbur bo‘ldi?

– Sitorabonu xayrlashuv chog‘ida o‘g‘liga nimalarni tayinladi?

– Husaynning: “Bu yerda qolsam, bir kun meni chaqirib oyog‘imga bolta uradilar” degan gapini siz qanday tushunasiz?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar matnni bitta gapdan navbat bilan “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

***“Topib o‘qi”*** **mashqi.**

– Ibn Sino onasidan suyunchi so‘ragan satrlarni topib o‘qing.

– Ibn Sino onasini tashlab ketishga ko‘zi qiymaganligi haqidagi gapni topib o‘qing.

– Sitorabonuning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan misralarni topib o‘qing.

– Xorazmlik Abu Bakr boboning gaplarini topib o‘qing.

***“Sonlar tilsimi”*** **mashqi.**

– Misollarni yechib, harflarni o‘z o‘rniga qo‘ysangiz qissada Ibn Sinoning onasiga aytgan gaplaridan birini topasiz. (*“Menga oq fotiha bering, safar otini egarlab yo‘lga chiqay”*.)

Mashq natijalari tahlil qilinadi va xulosa yasaladi.



– Bolajonlar, hammamizga ma’lumki kitob-ilm ziyosi. Shuning uchun biz kitoblarni sevib o‘qishimiz, ularni ardoqlashimiz lozim. Hozir kitobga oid bilimlaringizni sinab ko‘ramiz.

***“Tezkor savollar” o‘yini.*** O‘quvchilardan ikkita guruhga bo‘linadilar. Ularga navbat bilan savollar beriladi. Ular tezkor javob berishlari lozim bo‘ladi.

**1-guruh uchun savollar:**

1. Qadimgi Gretsiyada “Bu yerda gapirilmaydi, lekin aqllilar yashaydi” iborasi osib qo‘yilgan inshootlarning nomi nima? (Kutubxona)
2. Kitobni yaxlit qilib biriktirib turuvchi, ichki varaqlarga nisbatan qalinroq materialdan yasaluvchi sirt qismi nima deyiladi? (Muqova)

3. Adabiy asarlarni yozish bilan shug‘ullanuvchi shaxs kim? (Adib)

4. Bosma asarlar tayyorlash va nashr etish ishlari bilan shug‘ullanadigan muassasa nima deb ataladi? (Nashriyot)

5. Kutubxona kitoblarining qaysi sahifasida shtamp turadi? (1, 17-betlarda)

**2-guruh uchun savollar:**

1. Bir xalqning badiiy, ilmiy, falsafiy asarlari majmuasi nima deyiladi? (Adabiyot)

2. Kutubxonadagi har bir kitobxonning hisob kartochkasi nima deb ataladi? (Kitobxon formulyari)

3. Kichik hajmli kitobcha nima deb ataladi? (Risola)

4. Kitobning boshida yoki oxirida uning bo‘limlarini betlari bilan ko‘rsatuvchi ro‘yxat nima deyiladi? (Mundarija)

5. Biror asarni yaratgan shaxs kim deyiladi? (Muallif)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

**O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:**

1. Qissada sizni ko‘proq nima hayajonga soldi?

2. Nima deb o‘ylaysiz, qissaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?

3. Siz ham kitoblarni Ibn Sinodek seva olasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Kitobga ixlos” qissasining 2-qismini qayta hikoya qilish.

## 72 – d a r s

***Mavzu:*** “Pahlavon va shoir” *(Hamidjon Hamidov).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Pahlavon va shoir” rivoyatining mazmuni bilan tanishtirish, mardlik, jasurlik haqida ma’lumot berish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1*:** rivoyatni ongli, ifodali, sidirg‘a o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik qobiliyatlarini, o‘zaro hurmat, tabiatga mehr-muhabbat va ehtiyotkorona munosabatini tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, matndagi so‘zlarning ma’nosini izohlay olish malakasini rivojlantirish.

***FK 2*:** asar qahramonlariga munosabat bildira olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Zig-zag” usuli, “Gapni davom ettir” o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Mirkarim Osimning “Kitobga ixlos” qissasi yuzasidan sahna ko‘rinishi namoyish etiladi. O‘quvchilar tomonidan tayyorlab kelgan sahna ko‘rinishi orqali ularning nutqi ravonligi, ifodali , obrazli namoyish qilishlariga e’tibor qaratiladi.

– Ibn Sino nimani ko‘rib qoldi?

– Nima uchun Ibn Sino o‘z shahrini tashlab ketdi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugungi darsda siz bilan “Pahlavon va shoir” rivoyati bilan tanishamiz. Rivoyat muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi, mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulidan foydalanib o‘qitiladi. Rivoyat mazmuni tahlil qilinadi.

– Pahlavon nima uchun yosh bahodir bilan kurash tushishni xohlamadi?

– Pahlavon qanday jasorat ko‘rsatdi?

– Pahlavon Mahmud sultondan qanday tilak so‘radi?

Rivoyatdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**sulton** – shahar hokimi

**kunda** – xoda, daraxt bo‘lagi

**ulug‘ qadamjolar** – ziyoratgoh, qabriston

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Pahlavon va shoir” matnini “Zig-zag” usulida o‘qiydilar. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

“***Gapni davom ettir*” *o‘yini.***

“Ey xudo, ikki bolam ……”

“Kecha maydondagi zaifligingiz….

“Menga hech narsa kerak emas. Sizning…..

***Test topshiriqlari:***

1. Pahlavon Mahmud qayerga keldi?

A) Dehliga B) Amerikaga **D)** Buxoroga E) Samarqandga

2. Nima uchun Pahlavon Mahmud kurash tushishdan voz kechdi?

A) qo‘rqqanligi uchun **B)** raqibi yosh yigit bo‘lgani uchun

D) kasalligi uchun E) yoshi katta bo‘lgani uchun

3. Pahlavon Mahmud changalzorda qanday mardlik ko‘rsatdi?

A) xalqini asirlikdan qutqardi B) filni o‘limdan qutqardi

**D**) sulton o‘tirgan filni botqoqlikdan qutqardi E) bolani qutqardi

4. Mardligi evaziga Pahlavon Mahmud sultondan qanday ehson so‘radi?

**A**) 200dan ortiq yurtdoshlarini asirlikdan ozod qilinishini

B) bo‘y baravar oltin D) bir shaharga hokimlikni E) filni

5. Pahlavon Mahmud vatandoshlari bilan qayerga yo‘l oldi?

A) Buxoroga B) Samarqandga D) Dehliga **E)** Xorazmga

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagicha savollar beriladi:

1. Bugungi dars sizga yoqdimi?
2. Pahlavon Mahmudni mardlik timsolida ko‘ra olamizmi?
3. Matnda qanday insoniy fazilatlar aks etgan?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Pahlavon va shoir” rivoyatini qayta hikoya qilish.

## 73-d a r s

***Mavzu:*** “Alisherning yoshligi” (*Oybek*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Alisherning yoshligi” qissasining mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘riso‘zlik va halollik haqida ma’lumot berish, Alisherning xususiyatlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1*:** asardagi videotasvirni tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ziyraklik, topqirlik, qobiliyatlarini tarbiyalash, do‘stlik, ilm o‘rganish va donishmandlikning ahamiyatini qadrlashga o‘rgatish.

***TK 4:*** asarda aks etgan qahramonning jonkuyarligiga qarab xolis mulohaza yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, matndagi so‘zlarning ma’nosini izohlay olish malakasini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Zanjir” usuli, “Venn diagrammasi”, “Qutichaga joyla” o‘yini.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Pahlavon va shoir” rivoyatini “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

O‘quvchilar rivoyat mazmunini bitta xatboshidan so‘zlab beradilar. O‘tilgan mavzu “Venn diagrammasi” asosida mustahkamlanadi.




***“Venn diagrammasi”* metodi.** O‘quvchilar Pahlavon Mahmud va yosh bahodirning shaxsiy xususiyatlari va o‘xshash tomonlarini “Venn diagrammasi”ga yozishlari lozim bo‘ladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugungi darsda siz bilan “Alisherning yoshligi” qissasining 1-qismi bilan tanishamiz.

Muallif haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Qissa mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulidan foydalanib, o‘qitiladi. Qissadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**oltin sop** – oltindan yasalgan dasta
**bo‘z yaktak** – astarsiz, erkaklar kiyimi
**chuvvos** – tartibsiz g‘ovur-g‘uvur gap
**gulob** – atirgul gulbargidan maxsus usulda olinadigan suv

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Alisherning yoshligi” qissasining 1-qismini o‘qiydilar. Shundan so‘ng o‘quvchilar qissa mazmunini shaxsi o‘zgartirilgan holda muallif nomidan so‘zlab beradilar. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1. Alisher bilan Husayn bog‘da nimalarni tomosha qilishdi?
2. Ularning suhbatiga qarab har ikkisi nimaga qiziqadi?
3. Bek Alisherga qarab nima dedi?



***“Qutichaga joyla”* mashqi.** O‘tilgan mavzu asosida aralash tarzda berilgan Husayn va Alisherning xislatlarini guruhlab, qutichalarga joylaydilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Darsdan nimalarni bilib oldingiz?
2. Qissada sizga nima ko‘proq yoqdi?
3. Qissani o‘qib qanday xulosa chiqardingiz?

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Alisherning yoshligi” qissasining 1-qismini qayta hikoyalash.

## 74-dars

***Mavzu:*** “Alisherning yoshligi”. (*Oybek*). 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga Alisher Navoiyning yoshlikdagi hayoti haqida ma’lumot berish, “Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*****:** o‘rganilgan asarning nomi, mazmunini ajrata olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda buyuk ajdodlarimizga munosib farzand bo‘lishga intilish hissini tarbiyalash.

***TK 4:*** asarda aks etgan qahramonning halol, jonkuyarligiga qarab xolis fikr yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*****:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Ajdodlar merosi” mashqi.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Alisherning yoshligi” qissasining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni qayta hikoya qildiriladi. Qissa yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Alisherning yoshligi qanday o‘tgan ekan?

– Alisher Navoiy bobomiz haqida yana nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan Alisher Navoiy bobomizning yoshlikdagi hayoti haqida suhbatlashiladi, savol-javob o‘tkaziladi.

– Maktabning hayotda qanday o‘rni bor?

– Alisher Navoiy bobomiz qanday ishlar qilganlar?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. O‘qituvchi “Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismini ifodali o‘qib beradi. Qissa mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***
**takya** – do‘ppi
**suluv** – go‘zal, chiroyli
**yanglig‘** – kabi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Alisher o‘rtoqlari bilan nima haqda suhbatlashdi?

– O‘zingiz qissa bo‘limlariga mos sarlavha qo‘ying.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Ajdodlar merosi”*** **mashqi.** O‘quvchilar Alisher Navoiy bobomiz yozgan asarlarni ketma-ket aytadilar. Eng ko‘p ma’lumot aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Alisher o‘zi tengi ikki qo‘shni bola bilan nima o‘ynardi?
A) koptok **B)** soqqa D) o‘yinchoq E) quvlamachoq

2. Qaysi hayvon daraxtlar orasidan otilib chiqib Alisherga surkaldi?
**A)** kiyik B) quyon D) bo‘rsiq E) kuchuk

3. Alisherning tog‘asi kiyikni qayerdan olib kelibdi?
A) bog‘dan B) tog‘lardan D) yaylovdan **E)** dashtdan

4. Eng zo‘r zaruriyat nima ekan?
A) merganlik B) kuch **D)** maktab E) ov qilmoq

5. Alisherga kim doimo “Olim odam xor bo‘lmaydi” der ekan?
A) onasi B) tog‘asi D) do‘stlari E**)** otasi

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilgan bilimlar umumlashtirilib, dars yakunlanadi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismini o‘qish.

## 75-d a r s

***Mavzu:*** “Shum bola” (*G‘afur G‘ulom*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga ezgulik, hushyorlik haqida ma’lumot berish, “Shum bola” qissasi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1*****:** asarni tushunib, ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda bag‘rikenglik, mehribonlik, g‘amxo‘rlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***TK 3:*** asarda bo‘layotgan voqea jarayonlariga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqlarini, matn ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*****:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Bilimdonlar” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Alisherning yoshligi” qissasining 2-qismi o‘qitiladi, mazmuni 3-4 nafar o‘quvchiga qayta hikoya qildiriladi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Alisher kimlar bilan soqqa o‘ynardi?

– Alisher qaysi hayvon bilan uchrashdi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Shum bola” qissasi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan xushyorlik va rostgo‘ylik haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.



“Shum bola” qissasi asosida videolavha namoyish etiladi. O‘qituvchi “Shum bola” qissasini ifodali o‘qib beradi. Qissadan parcha mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**domlaga** – ustozga
**qo‘rga** – yaxshi cho‘g‘ga
**chiyratma arqon** – yigirilgan arqon
**ko‘lanka** – soya
**haytovur** – hartugur
**obdastaga** – suv idishga
**og‘ilxona** – molxona
**motamzada** – qattiq xafa bo‘lish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Shum bola” qissasidan parchalar o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Domla bolani nima maqsadda ovqatlantirdi? U bolaga qanday ish topshirdi?

– Domlaning bola bilan dastlabki va keyingi suhbatini taqqoslab o‘qing. U yetim bolaga qanday munosabatda bo‘ldi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.




***“Bilimdonlar” o‘yini.*** O‘quvchilarga parcha asosida turli xil savollar beriladi. Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi va rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Qissadagi voqealar sizda qanday taassurot qoldirdi?

– Qissa qahramonlariga o‘xshash insonlarni hayotingizda uchratganmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Shum bola” qissasini o‘qib, mazmunini qayta hikoya qilish.

## 76-d a r s

***Mavzu*:** “Shahzodaning bolaligi” (*Erkin Samandar*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Shahzodaning bolaligi” hikoyasi orqali taniqli tarixiy shaxslardan birining hayotiga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1***: hikoya mazmunini to‘liq fikrini og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ona Vatanga muhabbat, jasurlik, fidokorlik xislatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** hikoyada aks etgan vatanparvarlik xususiyatlarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan asarlarning mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “So‘zlarni top”, “Charxpalak” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: rasmlar va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini o‘quvchilar o‘qib, so‘zlab beradilar. Savol-javob o‘tkaziladi:

1. Bola domlaga ergashib qayerga bordi?

2. Domla bolani nima maqsadida ovqatlantirdi? U bolaga qanday ish topshirdi?

3. Bola ho‘kizning o‘rniga nimani so‘yib qo‘ydi?
4. Domla eshakni qayerdan uch tilloga olgan edi?
5. Eshakka motamzada bo‘lgan domla bolani nima qildi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Shaxzodaning bolaligi” hikoyasi bilan tanishamiz. O‘qituvchi “Shaxzodaning bolaligi” hikoyasining mazmuniga mos suratlar namoyish etib, matnni ifodali o‘qib beradi.

Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?

***Lug‘at ishi:***

**ehtirom** – yuksak hurmat, izzat-ikrom
**amr etdi** – buyurdi, farmon qildi
**o‘z otalig‘imizga olib –** o‘z tarbiyasiga olib
**valiahd** – taxt vorisi
**yuzxotir –** hurmat , andisha yuzasidan birovga qattiq gapirmaslik

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Shaxzodaning bolaligi” hikoyasini o‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulida o‘qiydilar.

***“Charxpalak” o‘yini***. Bu o‘yinda guruhning har bir a’zosi asar haqidagi fikrlarini bir jumla bilan ifoda etadi, keyingi ishtirokchi uning fikrini davom ettiradi.

Savol-javob:

– Nima maqsadda Jaloliddin Kuzbor og‘aga topshirildi? Axir uning xat-savodi bor edi-ku.

– Kuzbor nima sababdan Oychechakka e’tiroz bildirmoqchi edi?

– Oychechakning “Jaloliddin – valiahd, ammo bugundan e’tiboran shogirdingiz, o‘quvchingiz” degan gaplarning ma’nosini izohlang.

– Oychechak nima uchun minnatdorchilik bildirdi?

– Nima uchun malikaning ko‘ziga yosh keldi?

– Malika Jaloliddinning kelajakda qanday bola bo‘lishini istagan edi?

**“So‘zlarni top” o‘yini.**

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| J | A | L | O | L | I | D | D | I | N | M | A |
| X | O | R | A | Z | M | E | H | U | K | A | L |
| O | T | A | H | D | SH | I | T | Z | B | K | I |
| Q | I | L | A | X | O | R | M | R | O | O | D |
| V | A | L | I | L | I | O | A | S | A | V | T |
| SH | O | G | I | A | L | M | L | I | K | A | A |
| Y | O | D | R | R | M | Z | E | H | N | Y | R |
| CH | E | CH | A | K | Y | U | M | U | SH | I | B |

Har bir guruh uchun alohida harflar jadvali beriladi. O‘quvchilar jadvaldan so‘zlarni tez topishlari kerak.

So‘zlar:VALIAHD, JALOLIDDIN, XORAZMSHOHLAR, MALIKA, SAVOD,

KUZBOR MALIK, OTALIQ, TARBIYA, ZEHN, SHOGIRD, OYCHECHAK, ILM, YUMUSH.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Kuzbor Malik va malika orasidagi o‘zaro munosabatni izohlang.

– Nima maqsadda Kuzbor malika huzuriga chaqirtirildi?

– Kuzborning sadoqati nimalarda namoyon bo‘ladi?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, dars xulosalanadi.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** “Shahzodaning bolaligi” hikoyasini so‘zlash.

## 80-d a r s

***Mavzu*:** “Odobli bo‘lish osonmi?” (*Anvar Obidjon*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ongli, ravon va ifodali o‘qishga, matn mazmunini to‘liq uqib olishga, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishga o‘rgatish.

***TK 3***: ertak kitoblarni muntazam o‘qish va bilimini oshirish.

***FK 1***: ertak mazmunini qayta hikoya qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni odobli bo‘lishga, kattalarni hurmat qilishga, muloyim so‘zlashga o‘rgatish, ularda o‘zaro mehr-oqibat, o‘zgalarga yaxshilik tilash tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 4:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asarning asosiy g‘oyasini ajrata olish qobiliyatini, umumlashtirish, taqqoslash, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini hamda og‘zaki nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish.

***FK 2:*** ertak qahramonlariga munosabat bildira olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Kayfiyat xabarlari”, “Zig-zag strategiyasi”, “Toshchalarga qoqilib o‘qish” mashqlari.

**Dars jihozlari:** ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarning darsga hozirlash.

***“Kayfiyat xabarlari”* mashqi.**




O‘quvchilar bir aylana bo‘lib turadi yoki o‘tiradilar va mavzuga, masalan ob-havo, hayvonlar, qushlar yoki o‘simliklarga doir hissiyotlarini ma’lum qiladilar. Misol uchun:

– O‘tgan bir yoki ikki kun ichida atrofda juda ko‘p qora bulutlar bo‘ldi, ammo quyosh o‘z nurlarini socha boshlayapti.

– Men o‘zimni xuddi tipratikan kabi sekin va sertikan his etyapman.

– Sinfga kelganimda men chittak edim, kichkina va sezilmas, hozir esa o‘zimni chig‘alaydek his qilyapman.

Bu mashq hammaga o‘z kayfiyatini ifodalash uchun imkoniyat beradi hamda o‘qituvchining va sinfdagi qolganlarning dars boshlanganida boshqalar qanday his qilayotganliklarini va hissiy xulq-atvorga darsning foydasiga ta’sirlanuvchanligini uyg‘otadi.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “O‘tmishni o‘rganmoq – burchimiz” mavzusida yozib kelgan matnlarini o‘qiydilar. O‘zlari yashaydigan mahalla, shahar yoki qishloqlarining tarixi haqida o‘rganib kelgan ma’lumotlarini so‘zlab beradilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Aziz o‘quvchilar, bugun biz siz bilan Anvar Obidjonning “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining I qismini o‘rganamiz.

O‘qituvchi ertak muallifi Anvar Obidjon haqida qisqacha ma’lumot beradi.




***“Zig-zag” strategiyasi metodi.*** Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadilar. “Odobli bo‘lish osonmi?” ertak matni qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan o‘rganadilar va so‘zlab beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a’zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o‘quvchilari o‘zlariga topshirilgan matn mazmunini so‘zlab berganlaridan so‘ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganib chiqilgach o‘quvchilar ertak mazmuni bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar.

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**to‘lpoq** – do‘mboq
**qiroat** – ohang bilan o‘qimoq yoki so‘zlamoq
**bo‘tam** – bolalarni bo‘taloqqa qiyos qilib, erkalatib aytiladigan so‘z
**dumbul** – donli ekinlar, mevalarning ta’m kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadi:

– Sichqonchaga onasi odobli bo‘lish haqida nima deb nasihat qildi?

– Shum baroq, Echkivoylar sichqonchani qanday qarshi oldi?

***Darslik bilan ishlash.***
***“Toshchalarga qoqilib o‘qish” mashqi.***

– Faraz qiling – irmoqcha oqyapti. Uning yo‘lida “toshcha” uchraydi. Irmoqcha nima qiladi? Biroz to‘xtab, toshchani aylanib o‘tadi va yo‘lida davom etadi. Endi faraz qiling, bizning ovozimiz bu – irmoqcha. Toshchalar – matnda uchraydigan barcha tinish belgilari. Gaplarni o‘qiyotgan vaqtda “toshchalar” (tinish belgilari)ga ahamiyat berib o‘qing.

O‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar. Yo‘llarida nechta va qanday “toshchalar” uchraganiga izoh beradilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar sahna ko‘rinishi qo‘yadilar. Bunda ular o‘z xohishlariga ko‘ra ertak qahramonini tanlaydilar. O‘quvchilarga tanlagan qahramonlariga ovozlari va harakatlari bilan taqlid qilishlari lozimligi tushuntiriladi.

“Ertak qahramonlarini aniqla” mashqi o‘tkaziladi.

*1.Mittigina, quvnoqqina, yebto‘ymasgina* …. Bu ta’rif ertakning qaysi qahramoni haqida?

A) mushuk B) echki D) toshbaqa **E)** sichqoncha

2. Sichqoncha onajonisi bilan qayerda yashar ekan?

A) yerto‘lada **B)** uyning kovagida D) yo‘lakda E) tomda

3. Kichkintoylarning odobi, birinchi navbatda, nimadan bilinadi?

A) tabassum qilishidan B) gapidan

**D)** salom berishidan E) kiyinishidan

4. Ertakda sichqoncha birinchi bo‘lib kimga salom berdi?

**A)** mushukka B) qo‘yga D) echkiga E) itga

5. Echki sichqonga nimaning chetidan ozgina kemirib olishni taklif qildi?

A)olmaning B) nonning D) pishloqning **E)** dumbulning

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi savollar beriladi:

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Ertak kimning nomidan bayon qilingan?
3. Ertakning asosiy g‘oyasi nimada deb o‘ylaysiz?
4. Darsdagi qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
5. Bu darsda olgan qaysi bilimlaringizni kelgusi hayotingizda qo‘llay olasiz?

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 1-qismini o‘qish va mazmunini hikoya qilish.

## 81-d a r s

***Mavzu:*** “Odobli bo‘lish osonmi?” *(Anvar Obidjon)*. 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 2-qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 3***: ertak kitoblarni muntazam o‘qish va bilimini oshirish.

***FK 1***: ertak mazmunini qayta hikoya qilish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga, xushmuomala bo‘lishga o‘rgatish, ularda o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 4:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** ertak qahramonlariga munosabat bildira olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “O‘rnini almashtir” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni 3–4 o‘quvchiga so‘zlatiladi. O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Sichqoncha eng avval kimga salom berdi?

2. Qanday vaziyatlarda salom berilmaydi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz baqaning injiqligi, qaysarligini qanday baholaysiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan o‘z vaqtida salomlashish haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 2-qismini ifodali o‘qib beradi.

Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***

**makkapoya** – jo‘xoripoya **uvat** – dalaning cheti

**javrayveribdi** – vaysayveribdi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 2-qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Matndan sichqonchaning salomiga Toshbaqa va To‘rtko‘zning javobini topib o‘qing.

– Qari Echki salomlashish odobi to‘g‘risida Sichqonchaga qanday maslahat berdi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.



***“O‘rnini almashtir” o‘yini.*** Ekranda ertakdagi gaplar tarkibidagi so‘zlar tartibsiz beriladi. O‘quvchilar shu gapdagi so‘zlarni o‘rnini almashtirib, gap hosil qiladilar va shu gapni ertakdan topib o‘qiydilar.

Masalan: “Yuragim g‘ash bo‘p ketyapti, tog‘ajon”, “Xafa bo‘lma, bo‘tam”.

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Salomlashish odobi haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Siz ham kattalarga salom berasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Odobli bo‘lish osonmi?” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 82-d a r s

***Mavzu:*** “Qodir bilan Sobir” (*Hakim Nazir*).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni “Qodir bilan Sobir” hikoyasi bilan tanishtirish. Ifodali, ravon, tinish belgilariga qarab o‘qish malakalarini oshirish, lug‘at boyligini yangi so‘zlar bilan boyitish.

***TK 5:*** odobli bo‘lishga harakat qilish.

***FK 1:*** o‘rganilgan hikoyaga bayon yoza olish.

**Tarbiyaviy**: o‘quvchilarni ijobiy sifatlarni tarbiyalash, kamtarinlik, yolg‘on gapirmaslikka, qo‘rqmas, jasur bo‘lishga, o‘z xatosini tushunishga o‘rgatish.

***TK 4*****:** do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘la olish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, bog‘lanishli nutq malakalarini hamda mustaqil fikrlash, hozirjavoblik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan hikoyaga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Nima uchun?” metodi, “Zehn matni” mashqi.

**Dars jihozlari:** tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism**.

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga tayyorlash.

**II.Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa “Hozir, buvijon” matnini “Davom ettir” usulida hikoya qilib beradi. Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Dilbar maktabdan kelib qilgan ishini qanday baholaysiz?
2. Hikoyada Malika xola va Dilbar haqidagi voqealarni so‘zlab bering.
3. Nima uchun hikoya “Hozir, buvijon” deb nomlandi?
4. Siz ham uy yumushlariga yordam berasizmi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Hakim Nazirning “Qodir bilan Sobir” hikoyasi bilan tanishamiz. Hakim Nazir haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘qituvchi hikoyani ifodali o‘qib beradi, matn mazmuni tushuntiriladi.

***Lug‘at ishi:***

**chiranib** – maqtanib
**Salor** – daryo nomi
**orden** – davlat mukofoti
**askar –** harbiy xizmatchi
**komandir** – harbiy lavozim
**yuvosh** – muloyim, yumshoq

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.***

***“Zehn matni” mashqi***. O‘quvchilar “Qodir bilan Sobir” hikoyasini bir marotaba o‘qib chiqishlari uchun vaqt beriladi. Vaqt tugagach, partalar bo‘ylab guruhlar orasida “Zehn matni” mashqi o‘tkaziladi.

Ushbu mashqqa ko‘ra guruh ishtirokchilari matn bilan tanishib bo‘lgach zehnini sinash uchun matn ichidagi ayrim so‘z va raqamlar o‘zgartirib qo‘yiladi. O‘quvchilar esa ana shu xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylaydilar.


Namuna: Ba’zi o‘rtoqlari Qodirni “zo‘ravon” desa, ba’zilari “do‘mbirachi” deydi. Nega desangiz, unda har ikki “hunar”dan ham oz-moz bor. “Zo‘ravon”ligi shuki, u yurgan yo‘lida va o‘tirgan yerida yon-beridagilarni turtib-netib, tegajog‘lik qilaveradi. “Do‘mbirachi”ligi

shuki, agar sinfda biron bola xiyol yanglishsa, u lunjini pufak qilib olib, ikki barmog‘i bilan “taka-tum”ni chalib yuboradi.

– Baliq nima bo‘pti! – dedi unga Sobir. – Biz dadam bilan g‘ozovlaganmiz. Patillab uchib ketayotgan g‘ozning qoq tumshug‘iga tushirganmiz.

| NOTO‘G‘RI | TO‘G‘RI |
|---|---|
| *Do‘stlari* | *O‘rtoqlari* |
| *Doirachi* | *Do‘mbirachi* |
| *O‘rdak* | *G‘oz* |
| *Yo‘lbars* | *Arslon* |
| *Ayiqday* | *Bo‘rsiqday* |

IPT ***“Nima uchun?” metodi*** orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlari mustahkamlanadi. Bunda “nima uchun?” savoli orqali voqea-hodisalar ketma-ketlikda bayon qilinadi. Oxirgi “nima uchun?” savolida voqeaning yechimi topiladi.




**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsga yakun yasash maqsadida o‘quvchilarga savollar beriladi.

1. Sizningcha Qodir qanday yo‘l tutishi kerak edi?
2. Sobirning xislatlarini qadrlaysizmi, nima uchun?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Qodir bilan Sobir” hikoyasini ifodali o‘qish.

## 83-d a r s

***Mavzu:*** “Xatosini tushungan bola” (*Xudoyberdi To‘xtaboyev*). I qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Xatosini tushungan bola” hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***TK 3***: hikoyada bo‘lgan voqea jarayonlarida o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish.

***FK 1:*** hikoya mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga manmanlik, birovlarni kamsitish yomon odat ekanligini tushuntirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rgatish.

***TK 4:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Rezyume”, “Javobini top” o‘yini.

**Dars jihozi**: tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Hakim Nazirning “Qodir bilan Sobir” hikoyasini o‘qib, so‘zlab beradilar.




***“Javobini top” o‘yini.*** Hikoya mazmuni yuzasidan berilgan savollarga mos javoblarni topadilar.

| | |
|---|---|
| “Qodir bilan Sobir” hikoyasini kim yozgan? | Men hech narsadan qo‘rqmayman dab maqtandi. |
| Qodirni o‘rtoqlari nima deb atashadi? | Qodir toldan bitta novdani uzib olib, uning uchiga bitta toshni bog‘lab turib itga uloqtirdi. |
| Qodir o‘rtog‘i Sobirga nima deb maqtandi? | Hakim Nazir. |
| Qodir itga nimani uloqtirdi? | Sobir o‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, indamay turdi. |
| Sobir o‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, nima qildi? | Qodirni o‘rtoqlari zo‘ravon, do‘mbirachi deb atashadi. |




***“Rezyume”* texnologiyasi.** O‘quvchilar hikoya qahramonlari Qodir va Sobirning ijobiy va salbiy tomonlarini topib, muhokama qiladilar.

| | |
|---|---|
| *Yaxshi fazilatlar* | *Yomon xususiyatlar* |
| *Rostgo‘ylik* | *yolg‘onchilik* |
| *Mehnarsevarlik* | *dangasalik* |
| *Kamtarlik …* | *ishyoqmaslik …* |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Xatosini tushungan bola” hikoyasi bilan tanishamiz.

“Xatosini tushungan bola” hikoyasi mazmuniga mos suratlar namoyish etilib, o‘qib beriladi.

Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.



***Lug‘at ishi:***

**bosar joyini bilmay qolgan edi –** hech narsani nazar-pisand qilmay qo‘ymoq.

**qistab –** hol-joniga qo‘ymay iltimos qila boshladi

**tuzuk** – durust, yaxshi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Xatosini tushungan bola” hikoyasini o‘quvchilar ichida o‘qiydilar.

– Reja tuzing va u asosida matn mazmunini qayta hikoya qiling.



***Test topshiriqlari:***

1. Kim ochiq deraza oldida bog‘ tomonga tikilganicha o‘yga tolib o‘tirardi?

A) Odiljon B) Muhabbat **D)** Qosimjon E) o‘qituvchi

2. Qosimjonga qayerdan xat kelgan edi?

A ) Samarqanddan, tahririyatdan **B)**Toshkentdan, tahririyatdan

D) Toshkentdan, maktabdan E ) Buxoradan, gazetadan

3. Xatda Qosimjonning qaysi she’ri gazetaning kelgusi sonlarida bosib chiqarilishi aytilgan?

A) “Bahor keldi” B) “Qush tili”

**D)** “Men ekkan nihol” E) “ Oltin kuz”

4. Kim Qosimjonga devoriy gazetaga she’r yozib berishini so‘radi?

A) Umida B) Shokir **D)** Muhabbat E) Munisa

5. Tarix o‘qituvchisi Qosimjonga nima deb tanbeh berdi?

**A)** manman bo‘lib ketayapsan B) ishyoqmas bo‘lib ketayapsan

D) a’lochi bo‘lib ketayapsan E) bilmasvoy bo‘lib ketayapsan

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hikoya sizga yoqdimi?

2. Qosimjonning o‘rnida bo‘lganingizda siz ham shunday qilarmidingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xatosini tushungan bola” hikoyasini o‘qish.

## 84-dars

***Mavzu:*** “Xatosini tushungan bola” (*Xudoyberdi To‘xtaboyev*). II qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoyaning mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri, ravon o‘qish, hikoya mazmuni yuzasidan savollar tuzish, asar qahramonlarining fe’l-atvorini aniqlash va qiyosiy tavsiflashni o‘rgatish.

***TK 3:*** do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘la olish.

***FK 1:*** hikoyani ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga insondagi yaxshi va yomon xulqlar, ularning oqibati haqida, manmanlik, birovlarni kamsitish yomon odat ekanligini tushuntirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rgatish.

***TK 4:*** yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, asar tahlilida matndan misollar tanlay olish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Bumerang”, “Kim tez topadi?”, “Rolli o‘qish”, “Maqollar bilag‘oni” mashqlari.

**Dars jihozlari:** devoriy gazetalar tasviri, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Bir necha o‘quvchi “Xatosini tushungan bola” hikoyasining I qismini so‘zlab beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1.“Xatosini tushungan bola” hikoyasining muallifi kim?

A) Shukur Sa’dulla B) Rauf Tolib

**D**) Xudoyberdi To‘xtaboyev E) Aziz Abdurazzoq

2. Kim Qosimjonni tug‘ilgan kuniga taklif etmadi?

A) Tohir **B**) Muhabbat D) Aziza E) Umar

3. Qosimjonga qayerdan xat keldi?

**A**) Toshkentdan B) Buxorodan D) Samarqanddan E) Andijondan

4. Qosimjonning “Men ekkan nihol” sarlavhali she’ri qayerda bosilib chiqdi?

A) kitobda B) jurnalda **D)** gazetada E) risolada

5. Qosimjon qaysi darsda she’r yozib o‘tirib, qo‘lga tushib qoldi?

A) adabiyot B) matematika D) ona tili **E**) tarix

O‘quvchilar yakka tartibda test topshiriqlarini bajaradilar. Test javoblari o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi, xatolar izohlanadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Xatosini tushungan bola” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

Yangi mavzu “Bumerang” texnologiyasi asosida tashkil qilinadi.




***“Bumerang” texnologiyasi.*** 4ta kichik guruhlar tashkil qilinib, har bir guruhga darslikdagi matndan ma’lum qismlarni mustaqil o‘rganish topshiriladi.

**1-guruh uchun quyidagi parcha beriladi:**

*Ertasiga devoriy gazeta chiqdi. Unda Qosimjonning rasmini boplab chizishgan edi. Yuzi osmonga qaragan, bo‘yni olmaning bandidek, burnini shunaqangi uzun cho‘zishibdiki, naq devoriy gazetadan chiqib ketay deb turibdi, rasmning ostiga “yosh shoir” deb yozib qo‘yilgan...*

**2-guruh uchun quyidagi parcha beriladi:**

*Bu voqea bir nafasda sinf rahbarining qulog‘iga borib yetdi. Darsdan so‘ng Qosimjonni o‘quvchilar o‘rtasida muhokama qiladigan bo‘lishdi. Lekin sinf majlisi endigina boshlanay deb turganda, Qosimjon payt poylab derazadan oshib tushdi-da, Tohirni ergashtirib uyiga jo‘nab qoldi...*

**3- va 4-guruhlar uchun ham parchalar beriladi.**

O‘quvchilar matnlarni qunt bilan o‘qishadi. So‘ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a’zolari o‘zlari o‘qigan matnlarni sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So‘ngra guruh a’zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. Har bir guruhga 3 tadan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo‘ladi:

- Devoriy gazetada kimning rasmi chiqqan edi?
- Qosimjon devoriy gazetada qanday tasvirlangan edi?
- Qosimjon kim bilan tortishib qoldi?
- Bu voqea kimning qulog‘iga borib yetdi?
- Kim sinf majlisidan qochib ketdi?
- Qosimjon o‘ziga nima deb tasalli berdi?
- Ertasiga sinf rahbari Qosimjonni qayerga chaqirtirdi?
- Direktor Qosimjonga nima dedi?
- Nima uchun Tohirdan boshqa hech kim Qosimjon bilan gaplashmay qo‘ydi?
- Qosimjon nima uchun cho‘chib tushdi?

Savolga to‘liq javob olinsa, 3 ball, to‘liq bo‘lmasa, 2 ball, boshqa guruh to‘ldirsa,1 ball beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**achchiqlanmoq** – jahli chiqmoq, g‘azablanmoq
**tasalli bermoq –** tinchlantirmoq, yupantirmoq, taskin bermoq

**jild –** biror narsa ustidan kiydiriladigan, qoplab qo‘yiladigan g‘ilof

***Darslik bilan ishlash.***

***“Rolli o‘qish” usuli.*** O‘quvchilar hikoyani rollarga bo‘linib o‘qiydilar. Olti nafar o‘quvchi muallif, Qosimjon, Muhabbat, Odil, Tohir, direktor kabi rollarga bo‘linadilar va ularning so‘zlarini o‘qiydilar. O‘qiyotganlarida har bir qahramonning xarakterini ochib bera olishlari lozimligi tushuntiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi mashq bajariladi.



***“Kim tez topadi?” mashqi.*** Berilgan so‘zlar orasidan hikoyaga oidlarini tanlab, gaplar hosil qilish va chizmada ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

1. Ertasiga, mushuk, shirin, devoriy, chumoli, gazeta, qiziq, chiqdi, o‘qidi.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

(Ertasiga devoriy gazeta chiqdi.)

2. Qosimjon, menga, boshini, kulib, quyi, go‘shtni, solgancha, tez, jim, qoldi, turaverdi.

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | |

(Qosimjon boshini quyi solgancha jim turaverdi.)

Mashq natijasi e’lon qilinadi va xulosalanadi.




***“Maqollar bilag‘oni” musobaqasi.*** Har bir qatordan bittadan o‘quvchi doska oldiga chiqib, kamtarlik va manmanlik haqida maqollar aytishi kerak. Eng ko‘p aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. *Maqollar:*

| | |
|---|---|
| Ish boshlaganda maqtanma, | Maqtangan pand yeydi, |
| Ish bitganda maqtan. | Kamtarin qand yeydi. |
| Kamtar bo‘lsang, obro‘ ortar, | Mevali daraxt yerga engashar, |
| Manman bo‘lsang, ensa qotar. | Mevasiz daraxt ko‘kka tirmashar. |
| Kamtar yetar murodga, | Haddidan oshsa kishi, |
| Manman qolar uyatga. | Maqtanish bo‘lar ishi. |

G‘olib o‘quvchi aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyada sizni ko‘proq nima hayajonga soldi?
2. Siz ham Qosimjonga o‘xshab, xatoyingizni tushunib, kechirim so‘raganmisiz?
3. Bu hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xatosini tushungan bola” hikoyasining II qismini o‘qish va mazmunini hikoya qilish.

## 85-d a r s

***Mavzu:*** “Nurxon bilan Burxon” (*Miraziz A’zam*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri va ongli o‘qishga, she’r qahramonlarini o‘zaro qiyoslab, shaxsiy xususiyatlari va o‘xshash tomonlarini topib, tegishli xulosa chiqarishga o‘rgatish.

***TK 5:*** odobli bo‘lishga harakat qilish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali o‘qiy olish, mavzuga mos maqol topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga mehribonlik, ahillik kabi insoniy fazilatlarni singdirish.

***TK 4:*** odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar asosida bahs-munozara qilish, ertak mazmunini qayta hikoyalash, matndagi so‘zlarning ma’nosini izohlay olish malakasini rivojlantirish.

**FK 2:** asar mazmunidan ta’sirlana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Venn diagrammasi”, “Topib o‘qi” mashqlari.

**Dars jihozlari:** ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Xatosini tushungan bola” hikoyasini “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar hikoya mazmunini bitta xatboshidan so‘zlab beradilar. Mavzular asosida test o‘tkaziladi.

***Test topshiriqlari:***

1. “Xatosini tushungan bola” hikoyasidagi sinf rahbarining familiyasini toping?

**A)** Abdullayev B) Burhonov D) Samatov E) Usmonov

2. Xatosini tushungan bola kim?

A) Tohir **B)** Qosimjon D) Muhabbat E) Odil

3. Asardagi salbiy obrazni toping.

A) Tohir **B)** Qosimjon D) Muhabbat E) Odil

4.Bu asarda Qosimjonni o‘rtoqlari nima uchun jazoladi?

A) yaxshi o‘qimasligi uchun B) urushqoqligi tufayli

**D)** manman edi E) odobsizligi uchun

5. “Xatosini tushungan bola” hikoyasida kimning tug‘ilgan kuniga borishdi?

**A)** Muhabbat B) Tohir D) Sinf rahbari E) Nasiba

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz sizlar bilan “Nurxon bilan Burxon” sh'erini o‘rganamiz. She’rning muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Ekranda lavha namoyish etilib, kadr ortida she’r matni ifodali o‘qib beriladi.

– She’r sizga yoqdimi? Nima uchun?

– U sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otdi?

O‘quvchilar she’rni ovoz chiqarmay, mustaqil o‘qiydilar.

– She’rni o‘qiyotganingizda tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilab qo‘ying.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**munkidi** – qoqilib tushdi

**gursillab** – “gurs-gurs” ovoz chiqarmoq

**chirandi** – biror maqsadda bor kuchini ishga solib, harakat qilmoq

She’r mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu she’r nima haqida ekan?

– Shoir she’rda Nurxon va Burxonning xislatlarini ifodalash uchun qanday so‘z va iboralarni qo‘llagan? Misollar keltiring.

– Darslikdagi rasmda kimlar va nimalar tasvirlangan? She’rdan shu rasmga mos misralarni topib o‘qing.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

– Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? Bunda muallifning kayfiyati va o‘zingizning hissiyotlaringizni namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.

***“O‘rnini top”* mashqi.** O‘quvchilar tartibsiz berilgan harflardan so‘z yasab, ularni qofiyalari bo‘yicha o‘z o‘rniga joylashlari lozim bo‘ladi.

*Nurxon qiz …(munkidi)*
*Savati uchib ketdi.*
*Qulupnay sochilib*
*Har yoqqa qochib ketdi.*

*Burxon qattiq …(uyaldi)*
*“Zararsiz” – dedi Nurxon*
*Qulupnayni “puf-puflab”*
*Savatga terdi Burxon.*

***“Venn diagrammasi”* metodi.** O‘quvchilar Nurxon va Burxonning shaxsiy xususiyatlari va o‘xshash tomonlarini “Venn diagrammasi”ga yozishlari lozim bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. Sizda nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
3. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?
4. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Nurxon va Burxon” she’rini yod olish.

## 86-d a r s

***Mavzu:*** “Qo‘rqoq”. (*Sunnatulla Anorboyev*). I qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga dovyuraklik, qo‘rqoqlik haqida ma’lumot berish, “Qo‘rqoq” hikoyasining I qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 5:*** hikoyada bo‘layotgan voqea jarayonlariga daxldorlikni his etish.

***FK 1:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda dovyuraklik, jasurlik, mardlik kabi tuyg‘ularni tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** hikoya mazmunini qisqa qilib aytib bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Matn yarat” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Nurxon bilan Burxon” she’ri o‘qitiladi, 3-4 nafar o‘quvchilardan yoddan so‘raladi. O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Burxon nima uchun uyalib qoldi?

– Nurxonni qilgan ishi to‘g‘rimi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz dovyuraklik, uning biz uchun qanchalik kerakligi haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Qo‘rqoq” hikoyasining 1-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dovyuraklik, uning qanchalik hayotimizda o‘rin tutishi, qo‘rqoqlikning oqibatlari haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Qo‘rqoq” hikoyasining 1-qismini ifodali o‘qib beradi.

Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**jiyirish** – qiyshaytirish **irg‘ib minish** – sakrab, siltanib minish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Qo‘rqoq” hikoyasining I qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Bolalar nima uchun Bahromni “Qo‘rqoq” deb atashardi?

– Bahrom nega kechqurun yo‘lga otlandi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.



***“Matn yarat” o‘yini.*** Ekranda hikoya mazmuni asosida yozilgan matn ko‘rsatiladi. Matndagi gaplarning o‘rni almashgan bo‘ladi. O‘quvchilar ularni ketma-ket bosib matnni o‘z holiga keltiradilar.

1. Bahrom velosipedga minib, ketib qoldi.
2. Bugun bolalar uchinchi fermadan kelib Bahromni masxaralashdi.
3. Bolalar Bahromga “Qo‘rqoq, qo‘rqoq” deb ozor berishadi.
4. Shuning uchun onasi Bahromga yolg‘iz ko‘chaga chiqma deydi.
5. Chunki uning dadasi tunda bo‘rilarga yem bo‘lgan.

**Javob: 3, 5, 4, 2, 1**

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Jasur, mard bo‘lish uchun nima qilish kerak?

– Siz qaysi sport turi bilan shug‘ullanasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qo‘rqoq” hikoyasining 1-qismini o‘qish.

## 87-d a r s

***Mavzu:*** “Qo‘rqoq” (*Sunnatulla Anorboyev*). 2-qism

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga dovyuraklik va qo‘rqoqlik haqida ma’lumot berish, “Qo‘rqoq” hikoyasining 2-qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 5:*** hikoyada bo‘layotgan voqea jarayonlariga daxldorlikni his etish;

***FK 1:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda dovyuraklik, mardlik, jasurlik kabi xislatlarni, jonivorlarga mehribonlik hislarini tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutq, lug‘at ustida ishlash, asar qahramonlarini ajrata olish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Ortiqchasini top” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Qo‘rqoq” hikoyasining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni 3-4 nafar o‘quvchiga so‘zlatiladi. O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Nima uchun Bahromni qo‘rqoq deyishardi?

– Bahromning dadasiga nima qilgan edi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz jasurlik, mardlik, uning biz uchun qanchalik kerakligi haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan “Qo‘rqoq” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dovyuraklik, uning hayotimizda qanchalik o‘rin tutishi, qo‘rqoqlikning oqibatlari haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Qo‘rqoq” hikoyasining 2-qismini ifodali o‘qib beradi.

Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***

**payqamagan** – sezmagan
**suruv** – qo‘ylar
**sovliq** – urg‘ochi qo‘y
**chakmon** – yozgi to‘n
**olazarak** – havotir bilan qarash

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Qo‘rqoq” hikoyasining 2-qismi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Bahrom qo‘zichoqni qanday qutqarib qoldi?
– Qo‘rqoq bo‘lmaslik uchun nima qilish kerak, deb o‘ylaysiz?
O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.




***“Ortiqchasini top” o‘yini.*** Turli xil hikoyaga oid suratlar va hikoya qahramonlari namoyish qilinadi. O‘quvchilar ular orasidan ortiqchasini topadilar.



***Test topshiriqlari:***

1. Bahrom nimani payqamagan ekan?
A) do‘lni **B)** selni D) yomg‘irni E) qorni
2. Sel ovozi, momoqaldiroq gumburlashi orasida Bahromning qulog‘iga nima chalindi?
A) ot kishnagani B) chaqmoq chaqishi
**D)** qo‘y ma’ragani E) bolalar ovozi
3. Bahrom qachon qo‘rquvni unutdi?
**A)** qo‘yni ko‘rganida B) oyisi kelganida
D) do‘stini eslaganida E) sel to‘xtaganida
4. Bahrom ko‘zini ochsa, kimdir uni nimaga o‘rayotgan ekan?
A) cho‘ponga B) matoga D) ko‘rpaga **E)** chakmonga
5. Bahrom qachon maktabga yetib keldi?
A) ertalab B) tushda **D)** kechki g‘ira-shirada E) tunda

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Bahrom qo‘rquvini jilovlay olmaganida voqealar qanday tus olar edi?
– Hikoyadagi qaysi voqea sizda katta taassurot qoldirdi?
– Siz nimadan qo‘rqasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qo‘rqoq” hikoyasining 2-qismini o‘qish.

## 91-d a r s

***Mavzu:*** “Yaxshi bo‘ldi”. (*Nosir Fozilov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Yaxshi bo‘ldi” hikoyasining mazmuni bilan tanishtirish va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***FK 1:*** hikoya mazmunini qisqartirib aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilar yaxshilik qilishning ahamiyati, yaxshilik yerda qolmasligi haqida tushuncha berish va axloqiy sifatlarni tarbiyash.

***TK 4:*** yurish-turishda kattalardan o‘rnak olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning kundalik hayotda bo‘ladigan voqea va hodisalarga munosabat bildira olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan hikoyaning nomi, mazmunini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Davom ettir” metodi, “Tezkor javob”, “Yosh quruvchi” ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Qo‘rqoq” hikoyasining mazmunini so‘zlab berishadi. O‘tilgan mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bolalar nima uchun Bahromni “qo‘rqoq” deb atashardi?
2. Bahrom nega kechqurun yo‘lga otlandi?
3. Bahrom qo‘zichoqni qanday qutqarib qoldi?
4. Qo‘rqoq bo‘lmaslik uchun nima qilish kerak, deb o‘ylaysiz?

***Test topshiriqlari*:**

1. “Qo‘rqoq “ hikoyasining muallifi kim?

A) Sunnatulla Anorboyev B) Rahim Bekniyozov
D) Nosir Fozilov E) Mirtemir

2. “Qo‘rqoq” hikoyasida Bahromning otasi qanday halok bo‘lgan ?

**A)** och bo‘rilari bilan bo‘lgan jangda B) kasal bo‘lgan
D) suvga cho‘kib ketgan D) urushda halok bo‘lgan

3. “Qo‘rqoq” hikoyasida bolalar nima uchun Bahromni qo‘rqoq deb atashadi?

**A)** kechasi yolg‘iz eshikka chiqishdan qo‘rqardi
B) “bo‘ri” deb qo‘rqitsa ishonganligi uchun D) ishonuvchanligi uchun
E) har xil so‘zga ishonishi oqibatida

4. Bahrom qanday jasorat ko‘rsatdi?

A) tunda bir o‘zi sayohat qiladi **B)** qo‘zochoqni qutqaradi
D) bo‘ri bilan olishadi E) musobaqada g‘olib bo‘ldi

5. Do‘stlari qanday kutib olishadigan bo‘ldi?

A) “Qo‘rqoq” so‘zini almashtirishdi B) O‘rtoq Bahrom
**D)** Bahrom keldi E) “Qo‘rqoq” Bahrom

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Aziz o‘quvchilar, bugun biz siz bilan Nosir Fozilovning “Yaxshi bo‘ldi” hikoyasini o‘rganamiz.

Hikoya ifodali o‘qib beriladi. Hikoyada uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**bo‘g‘ot** – qamish solib yopilgan tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi
**mulohaza** – kuzatish , fikr bildirish

***Darslik bilan ishlash:***

O‘quvchilarga “Davom ettir” usulidan foydalanib, mavzu o‘qitiladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**



***“Yosh quruvchi” o‘yini.*** Ekranda savollar va javoblar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar to‘g‘ri javobni topib, uy quradilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyadan siz o‘zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
2. Shunday holatlar sizning hayotingiz davomida uchrashi mumkinmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Yaxshi bo‘ldi” hikoyasini o‘qish.

## 92-d a r s

***Mavzu:*** “Sharq hikoyasi” (*Abdulla Oripov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga qarindoshlik rishtalarining qanchalik muhimligi haqida tushuncha berish, “Sharq hikoyasi” ertagi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** ertakni tushunib o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda yaqinlariga mehribon bo‘lish, kattalarni hurmat qilish hislarini tarbiyalash, o‘zgalarning emas o‘z fikriga quloq solishga o‘rgatish.

***TK 3:*** o‘zidan kattalarni hurmat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, qofiyadosh so‘zlarni topish, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘rganilgan ertakning qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Qofiyadoshini top”, “Zanjir” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Yaxshi bo‘ldi” hikoyasi o‘qitiladi, mazmuni 3–4 nafar o‘quvchiga hikoya qildiriladi. Hikoya yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Iso bobo kim edi?

– Qaysi bir bola yaxshi ekan?

O‘quvchilar bergan javoblar to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun “Sharq hikoyasi” ertagi bilan tanishamiz. O‘quvchilar bilan ota va bola o‘rtasidagi hurmat, e’zoz haqida suhbatlashiladi, savol-javob o‘tkaziladi.

– Ota va bola orasida qanday umumiylik bor?

– Nima uchun ota-o‘g‘ilning qondoshlik rishtalari buzildi?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. Ertak muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Sharq hikoyasi” ertagi asosida lavha namoyish qilinadi. Kadr ortidan ertak matni o‘qiladi.

O‘qituvchi “Sharq hikoyasi” ertagini ifodali o‘qib beradi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**yag‘ir** – ozg‘in, quvvatsiz

**bedarmon** – holsiz

**lavanglar** – lapanglar

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Sharq hikoyasi” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Ota eshakka minib, o‘g‘il piyoda borishayotganda odamlar ularning ustidan nima deb kulishdi?

– Ikkinchi, uchinchi qishloqda-chi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.




“***Qofiyadoshini top” mashqi.*** O‘quvchilar qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**




***“Zanjir” o‘yini.*** O‘quvchilar ertakdagi voqealar ketma-ketligini kichik hikoya tarzida aytadilar. Har bir o‘quvchi bittadan gap aytadi.

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ota va o‘g‘ilni kimlar tanqid qilishdi?
2. Ota-o‘g‘il odamlarning gapiga kirib, to‘g‘ri ish qildimi?
3. Sizni ham tanqid qilishganmi?
4. O‘zgalar tanqidiga qanday munosabatda bo‘lasiz?

O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Sharq hikoyasi” ertagini o‘qish.

## 93-d a r s

***Mavzu:*** “Saxiy” *(Muhammad Avfiy)*.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Saxiy” rivoyati bilan tanishtirish, matni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni gapirib bera olish.

***FK 1:*** rivoyat qahramoni haqida kichik ijodiy matn yoza olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda saxiylik, insoniy fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** rivoyatda aks etgan umuminsoniy xislatlarni anglay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, og‘-zaki nutqini rivojlantirish.

**FK 2:** rivoyatning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Blis-o‘yin” texnologiyasi, “Zanjir” usuli, “Tezkor javob” o‘yini.

**Dars jihozlari**: rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Sharq hikoyasi” ertagini o‘qib, so‘zlab beradilar.




***“Tezkor javob” o‘yini.***

1. Bir qishloqda kim yashar ekan? (ota-o‘g‘il)
2. Ikkovining o‘rtasida bitta nima bor edi? (eshak)
3. Piqirlab so‘zining qofiyadoshini toping? (tiqirlab)
4. Ota-bolaning ortlaridan kim kulib qoldi? (to‘rt-besh odam)

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz sizlar bilan “Saxiy” rivoyati bilan tanishamiz.

Muallif Muhammad Avfiy haqida qisqacha ma’lumot beriladi. O‘qituvchi “Saxiy” rivoyatini o‘quvchilarga ifodali o‘qib beradi. Matn mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar matnni ketma-ket o‘qiydilar.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**kulba** – kichik, ko‘rimsiz, bechorahol uy, boshpana
**mo‘ysafid** – soch-soqoli oqargan, keksa, chol
**peshvoz** – turib qarshi olmoq, kutmoq, yuzma-yuz turmoq
**ochiq chehra** – xushfe’l, yuragida kiri yo‘q; xushchaqchaq.
**poyqadamiga ishlatdi** – oyoqosti, tashrif buyurish, kelishiga ishlatdi
**hissasini chiqaray** – ulushni chiqaray

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Saxiy” matnini “Zanjir” usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qilib beradilar.



***“Blis-o‘yin” texnologiyasi.***

| **O‘quvchining ismi, familiyasi** | | **Sinfi : «4». “Saxiy”. (Muhammad Avfiy).** | | |
|---|---|---|---|---|
| **T/r** | **Savollar mazmuni** | **O‘quvchi javobi** | **To‘g‘ri javob** | **Javoblar mazmuni** |
| 1 | Hotamtoydan nima deb so‘rabdilar? | | 4 | Mo‘ysafid o‘g‘liga echkini so‘yib taom hozirlashini aytdi |
| 2 | Hotamtoy cho‘lda ketayotganida uzoqdan nimani ko‘rdi? | | 1 | Hotamtoydan o‘zingizdan ham saxiyroq odamni uchratganmisiz? – deb so‘rabdilar |
| 3 | Hotamtoyga kim peshvoz chiqibdi? | | 6 | Mo‘ysafid mehmondan ziyofat pul olmasligini aytdi |
| 4 | Mo‘ysafid o‘g‘liga nimani so‘yib taom hozirlashni aytdi? | | 2 | Hotamtoy ikki xonadan iborat ko‘rimsizgina bir kulba, kulbaning oldida bog‘lab qo‘yilgan bir echkini ko‘ribdi |
| 5 | Mo‘ysafid nimasini o‘tin o‘rnida ishlatdi? | | 3 | Hotamtoyga mo‘ysafid peshvoz chiqibdi |
| 6 | Hotamtoy mo‘ysafidga saroyga keling, bu yaxshiliklaringizning hissasini chiqaray deganda nima deb javob berdi? | | 5 | Mo‘ysafid ikki nayzasini o‘tin o‘rnida ishlatdi |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hotamtoy mo‘ysafid bilan nima haqida suhbatlashdi?

2. Hotamtoyni mehmon qilgan mo‘ysafidni nima uchun saxiy deb atash mumkin.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Saxiy” rivoyatini o‘qish.

## 94-dars

***Mavzu:*** “Chumchuq bilan chumoli”. (*Aziz Abdurazzoq*).

**Darsning maqsadi**:

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga ertakni mazmunini tushuntirish, ertakni rollarga bo‘lib o‘qitishga o‘rgatish.

***TK 5*:** ertakda bo‘layotgan voqea jarayonlariga munosabat bildira olish

***FK 1:*** ertakdagi videotasvirlarni ko‘rib tushuna olish

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, kamtarinlik, irodalilik, fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** ertakda aks etgan umuminsoniy xususiyatlarni anglay olish.

**Rivojlantiruvchi**: o‘quvchilarda og‘zaki hikoya qila olish, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan mavzular doirasida bayon yozish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “Asar janri va muallifini aniqla” mashqi, “Maqollar chashmasi” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi**:

**I. Tashkiliy qism**. Salomlashish. O‘quvchilarni darsga tayyorlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa “Saxiy” ertagini so‘rab baholash.

O‘tgan mavzu, savol-javob, maqollar orqali mustahkamlash.

1. Hotamtoy mo‘ysafid bilan nima haqida suhbatlashdi?

2. Hotamtoyni mehmon qilgan mo‘ysafidni nima uchun saxiy deb atash mumkin?

3. Siz do‘stlaringizga saxiylik qila olasizmi?

4. “Saxiy topsa bo‘lib yer, baxil topsa bosib yer” maqolining ma’nosi nima?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan “Chumchuq bilan chumoli” ertagi bilan tanishamiz.

Aziz Abdurazzoq haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



Ertak mazmuniga mos animatsiya namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi. Matni mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.



***Lug‘at ishi:***

**chayir** – baquvvat
**olg‘ir** – chaqqon, epchil
**quyuq** – ko‘p, sershox
**chaqirim** – uzoqlik

Matn asosida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat uchun savollar:

– Chumchuq qanday qush?

– Chumchuq nimalarga zarar yetkazadi?

– Chumoli hasharotmi yoki jonivormi?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Chumchuq bilan chumoli” ertagini o‘quvchilar qismlarga bo‘lib o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.



***“Asar janri va muallifini aniqla” mashqi.*** O‘quvchilar berilgan turli asar nomlarini, janr va mualliflar to‘g‘ri joylashtirishlari lozim bo‘ladi. Darslikdagi savollar ustida ishlanadi. Ertakdagi qahramonlar tahlil qilinadi.




***“Maqollar chashmasi” o‘yini.*** Mehnatsevarlik, kamtarlik haqida maqollar aytishadi. Masalan: “Kamtarga kamol, manmanga zavol”.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Chumchuqning iltimosiga chumoli qanday javob berdi?

2. Sizga chumoli hayotda qanday bo‘lishingizni o‘rgatdi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Chumchuq bilan chumoli” ertagini o‘qish.

## 95-d a r s

***Mavzu:*** “Yolg‘onchining izza bo‘lishi”.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni rivoyat mazmuni bilan tanishtirish, asar qahramonlarining xatti-harakatini baholash hamda ularga shaxsiy munosabat bildirishni, bahs-munozara qilishni o‘rgatish.

***FK 1:*** ularni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga to‘g‘riso‘zlik, halollik kabi go‘zal insoniy fazilatlarni singdirish, birovning omonatiga xiyonat qilmaslikka, turli vaziyatlarda aql bilan ish tutib, oqilona yechim topishga o‘rgatish.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, ifodali o‘qish, asar janrini ajrata olish, voqealar ketma-ketligini aniqlash malakasini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan rivoyatning qahramonlariga baho bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Charxpalak” texnologiyasi, “Asar janri va muallifini aniqla”, “Ketma-ketlikni top”, “Topshiriqli o‘qish” mashqlari.

**Dars jihozlari:** rivoyat mazmuniga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Chumchuq bilan chumoli” ertagini ifodali o‘qib beradilar.




***“Asar janri va muallifini aniqla” mashqi.*** O‘quvchilar tartibsiz berilgan turli asar nomlari, janrlari va mualliflari yozilgan kartochkalarni to‘g‘ri joylashtirishlari lozim bo‘ladi.

**Javob:**

- “Chumchuq bilan chumoli”. Ertak. Aziz Abdurazzoq.
- “Sharq hikoyasi”. Ertak. Abdulla Oripov.
- “Yaxshi bo‘ldi”. Hikoya. Nosir Fozilov.
- “Qo‘rqoq”. Hikoya. Sunnatulla Anorboyev.
- “Saxiy”. Rivoyat. Muhammad Avfiy.
- “Nurxon bilan Burxon”. She’r. Miraziz A’zam.

Mashq natijalari tekshiriladi, xulosa qilinadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Yolg‘onchining izza bo‘lishi” rivoyati bilan tanishamiz.



“Yolg‘onchining izza bo‘lishi” rivoyati lavhasi ko‘rsatiladi, matni kadr ortidan o‘qib beriladi.

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**hamyon-xalta –** pul solib, cho‘ntakda olib yuriladigan xaltacha

**omonat –** saqlab berish, vaqtincha foydalanish yoki boshqa bir kishiga eltib berish uchun topshirilgan narsa

**ro‘baro‘ –** yuzma-yuz, ro‘parada, qarama-qarshi tomonda

**da’vogar –** o‘z haq-huquqini himoya etish uchun tegishli joyga arz qilgan kishi

**g‘aflatda qolmoq –** hushyorlikni yo‘qotmoq

O‘quvchilarga savollar beriladi:

– Bir kishi kimning oldiga kelib arz qilibdi?

– Da’vogar Mirzo Ulug‘bekdan nimani iltimos qildi?

– Mirzo Ulug‘bek haqiqatni qanday aniqladi?

– Mirzo Ulug‘bekning qaysi fazilati haqiqatni anglashga yordam berdi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi, xulosa qilinadi.



***“Ketma-ketlikni top” mashqi.*** O‘quvchilar tartibsiz berilgan gaplarni da’vogarning hikoyasi asosida ketma-ket joylashtirishlari lozim bo‘ladi.

Javoblar:

- *Samarqanddan Buxoroga safarga chiqdim.*
- *Daraxt soyasiga dam olgani o‘tirdim.*
- *Ovqatlanayotgan edim, bir do‘stim paydo bo‘lib qoldi.*
- *Uni dasturxonga taklif etdim.*
- *Hamyonni haligi do‘stimga berdim.*
- *Uyga eltib berishni iltimos qildim.*
- *Safardan qaytib keldim.*
- *Do‘stim hamyonni uyimga olib bormabdi.*
- *Uning oldiga borib, hamyonimni so‘radim.*
- *U, seni ham, daraxtni ham ko‘rgan emasman, dedi.*

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash. “Topshiriqli o‘qish” mashqi.*** O‘qituvchi turli topshiriqlarni aytadi, o‘quvchilar darslikdan topib o‘qiydilar.

1. Rivoyatning asosiy mazmunini yorituvchi gapni topib o‘qing.
2. Maqol yoki hikmatli so‘z qo‘llash mumkin bo‘lgan qismni topib o‘qing.
3. Darslikda berilgan suratga mos qismni topib o‘qing.

Yangi mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilarning shu mavzu yuzasidan olgan bilimini tekshirish maqsadida “Charxpalak” texnologiyasidan foydalaniladi.




***“Charxpalak” texnologiyasi***

| T/r | Rivoyat qahramonlariga oid ma’lumotlar va gaplar | Mirzo Ulug‘bek | Da’vogar | Da’vogarning do‘sti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | “O‘sha daraxtdan uch-to‘rt barg keltirgin”. | + | | |
| 2 | “Men u daraxtni ham, bu odamni ham ko‘rmaganman”. | | | + |
| 3 | “Hamyonni haligi do‘stimga berdim”. | | + | |
| 4 | “…safarga chiqqanimda hamyonxaltamda ming tanga pulim bor edi”. | | + | |
| 5 | “Da’vogar o‘sha daraxtning oldiga yetib bordimikan?” | + | | |
| 6 | Mirzo Ulug‘bek huzuriga kelib arz qilibdi. | | + | |
| 7 | “U daraxt shahardan ancha uzoqda, hali yetib bormagan bo‘lishi kerak”. | | | + |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | “Yaxshisi yolg‘on gapirmay, omonatni egasiga topshir”. | + | | |
| 9 | U kishi aybiga iqror bo‘libdi va pulni egasiga qaytarib beribdi. | | | + |
| 10 | “Shahardan chiqib bir daraxt soyasiga – suv bo‘yiga dam olgani o‘tirdim”. | | + | |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rivoyatni yana qanday nomlash mumkin?
2. “Omonatga xiyonat” deganda nimani tushunasiz?
3. Nima deb o‘ylaysiz, ertakning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Yolg‘onchining izza bo‘lishi” rivoyatini qayta hikoya qilish.

## 97-d a r s

***Mavzu:*** “Qush tili”. (*Mirtemir*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Qush tili” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarning ravon o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** rivoyatni tushunib, ongli ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni qushlarni sevishga, ularni asrab-avaylashga o‘rgatish.

***TK 4:*** she’rdagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, erkin va mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “Javobini matndan top”, “Xotira o‘yini”, “Kim ko‘p qushlar nomini biladi?” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – “Yolg‘onchining izza bo‘lishi” rivoyatini qayta hikoya qilib beradilar.

***“Javobini matndan top” o‘yini.***

1. Bir kishi kimning huzuriga kelib arz qilibdi? (Bir kishi Mirzo Ulug‘bekning huzuriga kelib arz qilibdi.)

2. U safarga chiqqanida hamyon-xaltasida qancha puli bor edi? (Uning hamyon-xaltasida ming tanga puli bor edi.)

3. U hamyonini kimga beribdi? (U hamyonini do‘stiga berib, uyiga eltib berishni iltimos qilibdi.)

4. Bir kishi do‘stidan omonatini so‘rasa nima deb javob beribdi?

(– Jinni bo‘ldingmi? Men seni ham, hech qanaqa daraxt-paraxtni ko‘rgan emasman, – deb javob beribdi.)

5.Shoh uning sherigiga nimani aytib aybiga iqror qildi?

(Shoh uning sherigiga hikoyatni aytib aybiga iqror qildi.)

***“Xotira”* o‘yini.** Mavzuga doir 20 ta so‘z o‘qib beriladi. O‘quvchilar ularni eshitib bo‘lgach, eslab qolganlarini aytadilar. Eng ko‘p so‘z aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** O‘quvchilar, bugun biz Mirtemirning “Qush tili” she’ri bilan tanishamiz.



Matn muallifi haqida ma’lumot beriladi.
She’r mazmuniga mos videolavha namoyish etilib, kadr ortidan she’r matni o‘qiladi.

She’r mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket she’rni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. She’r matni ustida ishlanadi, notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**bo‘zlashaylik** – mungli, darddli tovush chiqarmoq, nola qilmoq
**tuvaloq –** ov qilinadigan, go‘shti mazali yirik qush
**yovuq** – yaqin
**tillashaylik –** gaplashaylik

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash. “Ifodali o‘qish” musobaqasi.*** Musobaqa qatorlararo o‘tkaziladi. O‘quvchilarning hammasi she’rni o‘qiydi. Musobaqa so‘ngida har bir qatorda nechta o‘quvchi ifodali o‘qigani e’lon qilinadi va ko‘p ifodali o‘qigan qator g‘olib sanaladi.

Qofiyadosh so‘zlar ustida ishlanadi: uzoq-tuzoq, bo‘zlashaylik-so‘zlashaylik, quvlashaylik-quvmashaylik, bedana-sedana, sirlashaylik-tillashaylik.



***“Kim ko‘p qushlar nomini biladi?” o‘yini.*** Boshqotirma kataklariga qushlar nomini yozadilar. Eng ko‘p qushlar nomini yozgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Siz yana qaysi qushlarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Qush tili” she’rini yod olish.

## 100-d a r s

***Mavzu:*** “Yomg‘ir”. (*Farhod Musajonov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Yomg‘ir” hikoyasi bahor fasli va undagi o‘zgarish va xususiyatlar bilan tanishtirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning bilim olishga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini va ijobiy fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** hikoya qahramonining yomon odatlaridan nafratlana olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, erkin fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan hikoya qahramoniga o‘qituvchi yordamida baho bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “Ovozini top”, “Soatdagi jumboq” o‘yini.

**Dars jihozi**: rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasin i so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – “Qush tili” she’rini yoddan aytib beradilar.




***“Ovozini top” o‘yini.*** Qushlar ovozi audio orqali eshittiriladi, o‘quvchilar topadilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– O‘quvchilar, bugun biz “Yomg‘ir” hikoyasi bilan tanishamiz.

Muallif haqida ma’lumot beriladi. O‘qituvchi hikoyani ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket hikoyani o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Hikoya matni ustida ishlanadi, notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**mug‘ambir** – ayyor
**dovdirroq** – shoshqaloqroq
**hijjalab** – bo‘g‘inlab, harflab

Savol-javob o‘tkaziladi.

– O‘lkamizda bahor fasli qaysi oydan boshlanadi?
– Bahor fasliga qaysi oylar kiradi?
– Bahor faslida tabiat qanday libos kiyadi?
– Shoirlarimiz bahorni qanday so‘zlar bilan tasvirlaydilar?
– Tabiat hodisalariga nimalar kiradi?

***“Soatdagi jumboq”* o‘yini.** O‘quvchilar soat raqamlarini tartib bilan terib, harflarni jamlaydilar va yashiringan so‘zni o‘qiydilar. Javob: momaqaldiroq.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Yomg‘ir” hikoyasini o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, *“Shivirlab o‘qish”* usulida o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.

Savol-javob o‘tkaziladi.

– Bahor faslida tabiatda qanday hodisalar sodir bo‘ladi?
– Erkinjon tog‘ri ish qildimi?
– Shifokorni nega sehrgar deb o‘yladi?
– Ko‘nglidagi quvonch nega g‘ashlikka va xomushlikka aylandi?

***Test topshiriqlari:***

1. “Yomg‘ir” matnining qahramoni kim?
A) To‘lqinjon **B)** Erkinjon D) Umidjon E) Sobirjon
2. Erkinjon nega maktabga bormadi?
A) dars qilmagani uchun **B)** yomg‘ir yog‘gani uchun
D) dangasaligi uchun E) mehmon kelganligi uchun
3. Erkinjon nima deb bahona qildi?
**A)** boshim og‘riyapti B) qornim og‘riyapti
D) ko‘zim og‘riyapti E) oyog‘im og‘riyapti
4. Erkinjon kimni ko‘rib nafasi ichiga tushib ketdi?
A) onasini B) o‘rtoqlarini **D)** shifokorni E) o‘qituvchisini
5. Shifokor Erkinjonda qanday kasallik alomati paydo bo‘lganligini aytdi?
A) tumov B) bosh og‘rig‘i **D)** ko‘z og‘rig‘i
E) mug‘ambirlik va yalqovlik

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz?
2. Erinchoqlik, dangasalik, yalqovlik illatlari qanday oqibatlarga olib kelishini bilib oldingizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Yomg‘ir” hikoyasini o‘qish.

## 101-d a r s

***Mavzu:*** “Ikki irmoq” (*Xabib Po‘latov).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ikki irmoq” masalining mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan foydalana olish.

***FK 1:*** o‘qilgan asarning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish, xolis va jiddiy fikr yurita olish ko‘nikmalarini tarbiyalash.

***TK 4:*** asardagi qahramonning insoniylik xususiyatlarini aniqlash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarda masal mazmuni ustida ishlash, turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Kim bilag‘on”, “Topqirlar” o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Yomg‘ir” hikoyasini o‘qib beradilar.

O‘tilgan mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Erkinjon nima uchun maktabga bormadi?
2. Shifokor unga qanday dorini yozib berdi?
3. Uni qanday kasallikka yo‘liqqan deb o‘ylaysiz?

***“Kim bilag‘on” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘quvchilar tartibsiz berilgan so‘zlardan mosini topib, o‘tilgan mavzuga mos maqolni topadilar.

**Javob:** Dangasaning – vaji ko‘p
Ohangsizning – avji.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Aziz o‘quvchilar, bugun “Ikki irmoq” masalini o‘rganamiz.

Masalning muallifi Xabib Po‘latov haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



Masal mazmuniga mos lavha namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga *“Davom ettir”* usu-

lida o‘qitiladi. Masalda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**noumid** – umidsiz
**behuda** – bekorga

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadi:

1. Katta irmoq kichik irmoqqa nima dedi?
2. Kichik irmoq katta irmoqqa qanday javob qildi?
3. Katta irmoq kichik irmoqqa yordam berdimi? Nima uchun?
4. Kichik irmoqqa nimalar yordamga keldi?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**




***“Fikrlar bilag‘oni” mashqi.*** O‘quvchilar o‘tilgan mavzu asosida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrlarini jadvalga yozishlari zarur.

| T/r | Badiiy asar nomi | Asar qahramonlari | Nimalar ulug‘langan | Nimalar qoralangan |
|---|---|---|---|---|
| 1 | “Yomg‘ir” hikoyasi | Onasi, shifokor, Erkinjon | Shifokorning to‘g‘riso‘zligi | Dangasalik, yalqovlik, yolg‘onchilik |
| 2 | “Ikki irmoq” | | | |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyadan siz o‘zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
2. Shunday holatlar sizning hayotingizda uchrashi mumkinmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ikki irmoq” masalini qayta hikoya qilish.

## 104-d a r s

***Mavzu:*** “Mo‘jiza”. (*Rahim Bekniyozov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Mo‘jiza” hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoya mazmunini qisqartirib aytib berish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni tabiatni sevishga, uni avaylab asrashga, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatish.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** hikoya mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Bumerang” texnologiyasi, “Kim nima yeydi?”, “O‘ylab top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Nima yaxsh-yu, nima yomon” bo‘limi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Bo‘limdagi qaysi hikoyada mehnatsevarlik, topqirlik, tadbirkorlik xususiyatlari yuqori baholangan?

– Yalqovlik, dangasalik, aldamchilik yomon odat ekanligi qaysi she’r va hikoyada ifodalangan?

– Saxiy va xasis kishilarga xos xislatlarni qiyoslab gapiring.

– Bo‘limdagi qaysi hikoyada jonivorlarga mehr bilan qarash haqida so‘z yuritilgan? Uning mazmunini qisqacha so‘zlab bering.




***“O‘ylab top” o‘yini.***

1. Dunyoda bir narsa borki, u bo‘lmasa hech kim bir-birini tanimaydi, u nima? (ism)

2. Qaysi joyda daryolar suvsiz, shaharlar uysiz bo‘ladi? (xaritada)

3. Qaysi hayvon qish bo‘yi boshini pastga qilib uxlaydi? (ko‘rshapalak)

4. Hayvonlardan birining nomini ikki tomondan o‘qilsa ham o‘zgarmaydi. Bu qaysi hayvon? (kiyik)

5.Yumuq ko‘z bilan nimani ko‘rish mumkin? (tush)

6. Qaysi joyda osmon pastda bo‘ladi? (quduqda)

7. Suvga tushsa mingta, Suvdan chiqsa bitta. (otning dumi)

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Mo‘jiza” hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi “Mo‘jiza” hikoyasini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar hikoyani *“Davom ettir”* usulida o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***



**dog‘da qoldirib** – armonda qoldirib
**ro‘parada –** to‘g‘risida
**tang qoldirdi –** g‘oyat og‘ir, mushkul ahvolda qoldirdi
**serrayib –** bir joyda angrayib turmoq
**jir boylagan** – semirgan
**alomat –** darak beruvchi belgi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Mo‘jiza” hikoyasini o‘quvchilar *“Ichida o‘qish”* usulida o‘qiydilar.

Reja asosida matn mazmunini qayta hikoya qiling.

Ovchi quyonni qanday tutib oldi?

Keksa ovchi yoshligida bo‘lgan voqea haqida nimalarni gapirib berdi?




***“Bumerang” texnologiyasi.*** 4 ta kichik guruhlar tashkil qilinib, har bir guruhga “Mo‘jiza” matnidan ma’lum qismlarni mustaqil o‘rganish topshiriladi.

**1-guruh uchun quyidagi parcha beriladi:** *“Quyonlar serob kuz yemishlaridan semirib, rosa jir boylagan paytda ovga chiqdim. Velosipedimni tanish cho‘pon qo‘rasiga qoldirdim-da, miltiqni kiftimga ilib, ro‘parada ko‘rinib turgan qamishzor tomon ketdim. Mo‘ljallab chiqqan “ovxonam” o‘sha. …*

**2-guruhga:** *“Miltiqning uchini tekkizganimda, birdan sapchib o‘rnidan turdi. Biroq gandiraklab kelib o‘zini oyoqlarim ostiga urdi. …”.*

**3- va 4-guruhga ham parchalar beriladi.** Qiyin so‘zlar lug‘ati beriladi.

O‘quvchilar matnlarni qunt bilan o‘qishadi. So‘ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a’zolari o‘zlari o‘qigan matnlarni sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So‘ngra guruh a’zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. Savolga to‘liq javob olinsa, 3 ball, to‘liq bo‘lmasa, 2 ball, boshqa guruh to‘ldirsa,1 ball beriladi. Har bir guruhga 4 tadan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo‘ladi:

1. Kim ovga chiqdi?
2. Nimalar rosa jir bog‘lagan paytda ovga chiqdi?

O‘qituvchi darsni qanday o‘zlashtirilganini yana bir bor o‘z-o‘ziga baho berish tartibida nazorat qilish uchun “Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tekshirib olish imkoniyatini yaratishi mumkin.



***“Kim nima yeydi?” o’yini.***

– Rasmlari berilgan hayvonlarning ozuqasini topib, aylana bo‘ylab joylashtiring va markazdagi aylanaga yashiringan kalit so‘zini toping.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hikoya sizga yoqdimi?
2. Mo‘jiza deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, dars xulosalanadi.

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Mo‘jiza” hikoyasini o‘qish.

## 105-d a r s

***Mavzu:*** “Xatarli uchrashuv” (*Pirimqul Qodirov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoyaning mazmuni va muallifi bilan tanishtirish, tez, ifodali o‘qish, hikoya qahramonlarining xatti-harakatini baholash hamda ularga shaxsiy munosabat bildirishni, hikoyadan asar qahramonlari, tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarni topishni o‘rgatish.

***TK2:*** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK1:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushunib olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni murakkab vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmasdan, aql bilan ish tutish, to‘g‘ri qaror chiqarishga o‘rgatish, mardlik tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK4:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmunini shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, so‘z boyligini oshira borish va nutqida qo‘llash malakalarini rivojlantirish.

***FK2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Mosini top”, “Raqamlar so‘zlaganda” mashqlari.

**Dars jihozi:** yovvoyi hayvonlar rasmlari, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Mo‘jiza” hikoyasini “O‘zaro tekshiruv” usulida o‘qiydilar. Bunda o‘quvchilar juftliklarda bir-birlariga navbat bilan hikoyaning o‘zlari xohlagan bir qismini o‘qib beradilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi ulardan juftiga qo‘ygan bahoni so‘raydi. Ular qo‘ygan baholarini qisqacha izohi bilan aytadilar.

O‘quvchilar hikoya mazmunini shaxsini o‘zgartirgan holda muallif nomidan so‘zlab beradilar.



**III. Yangi mavzu bayoni.**

***“Rebus” o‘yini.***

– Aziz o‘quvchilar, hozir biz siz bilan “Rebus” o‘yinini o‘ynaymiz. Agar siz bu rebusni to‘g‘ri yechsangiz, bugungi darsimiz mavzusini bilib olasiz.




Bugun biz “Xatarli uchrashuv”. mavzusi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi hikoya muallifi Pirimqul Qodirov haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadi:

– Qanday yovvoyi hayvonlarni bilasiz?

Turli yovvoyi hayvonlarning suratlari ko‘rsatiladi.

– Bo‘rilar haqida nimalarni bilasiz?

Hikoya mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi.

Hikoyada uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**chordevor** – hamma tomoni devor bilan o‘rab olingan, to‘rt devor
**biyday** – ochiq, yalang; keng
**sharpa** – kimsa yoki narsaning g‘ira-shira, bilinar-bilinmas qorasi

Hikoya mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu hikoya nima haqida ekan?

– Bola bo‘ridan nima uchun qochmadi?

– Hikoyadagi bola ijobiy qahramonmi yoki salbiy?

– Hikoyada sizni nima hayajonga soldi?

– Siz ham xatarli vaziyatlarga duch kelganmisiz?

– Akasining: “Hamma gap aql bilan irodada” degan gapini siz qanday tushunasiz?

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar hikoyani “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

***“Mosini top” mashqi.*** Bu mashqda o‘quvchilar tartibsiz berilgan asar qahramonlari va tabiat manzaralarini ularni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlar bilan moslashtirishlari lozim bo‘ladi.

*Masalan:* kichkina qishloq, kulrang jonivor, g‘amgin chordevorlar...

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Test topshiriqlari:***

1. Bola yashaydigan qishloq shahardan necha chaqirim narida edi?
A) yigirma **B**) yigirma besh D) o‘n besh E) o‘n

2. Yo‘lning chap tomonida bola nimalarni ko‘rib qoldi?
A) tulkilarni B) qo‘ylarni D) itlarni **E**) bo‘rilarni

3. Bola bo‘rilarni ko‘rganda qanday holatga tushdi?

A) xursand bo‘ldi B) hafa bo‘ldi **D)** qo‘rqib ketdi E) pinagini buzmadi

4. Bola bo‘rilar bilan uchrashganini kimga aytib berdi?

A) otasiga **B)** akasiga D) do‘stiga E) ukasiga

5. Hikoya qahramonining qaysi xislati uni bo‘rilardan saqlab qoldi?

**A)** aqlli va irodaliligi B) chaqqon va mehnatsevarligi

D) sezgir va ziyrakligi E) quvnoq va xushchaqchaqligi

Test javoblari o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi, xatolar izohlanadi.




***“Raqamlar so‘zlaganda”* o‘yini.**

– Aziz o‘quvchilar, biz siz bilan “Raqamlar so‘zlaganda” o‘yinini o‘ynaymiz.

Bu o‘yinning sharti quyidagicha: men navbat bilan raqamlarni ko‘rsataman, siz esa hikoyadan shu raqam qatnashgan gapni topib o‘qiysiz. Faol qatnashgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladilar.

1. Biz Turkiston tizma tog‘ining etagida, shahardan yigirma besh chaqirim naridagi kichkina qishloqda turar edik.

2. Yog‘ib turgan qor pardasi ortidan uch-to‘rt g‘amgin chordevorlar ko‘rindi.

3. Ulardan narida qurib qolgan bir hovuz ham bor.

4. Durustroq qarasam, mendan yuz qadamcha narida ikkita kulrang jonivor turibdi.

5. Xuddi o‘n kun yo‘l yurganday charchab, qorga o‘tirib qoldim.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyada nima sizni ko‘proq hayajonga soldi?

2. Nima deb o‘ylaysiz, hikoyaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?

3. Darsda olgan qaysi bilimlaringizni hayotingizda qo‘llaysiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Xatarli uchrashuv” hikoyasini o‘qish.

## 106-d a r s

***Mavzu:*** “Ola buzoq” *(G‘afur G‘ulom)*.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga, o‘rgatish.

***TK 3:*** she’r o‘qib-o‘rganib borish va bilimini oshirish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiatga, hayvonlarga g‘amxo‘rlik tuyg‘usini tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning she’r yuzasidan o‘z fikr-mulo-

hazalarini og‘zaki tarzda izchil ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish.

***FK 2:*** she’r mazmunidan ta’sirlana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tarmoqlash, “So‘z o‘yini”, “Kim chaqqon?” o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Xatarli uchrashuv” hikoyasini o‘qiydilar. Mustahkamlash maqsadida mazmunini so‘zlab beradilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz “Ola buzoq” she’ri bilan tanishamiz.

G‘afur G‘ulom haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



She’r mazmuniga mos lavha namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi. She’r mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketmaket she’rni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**ko‘zi yoridi** – tug‘di
**baqbaqa** – g‘urra, qavariq
**qamchindasta** – qamchi dastasi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Ola buzoq” she’ri o‘quvchilarga “Zanjir” usulida ifodali o‘qitiladi. She’r mazmuni tahlil qilinadi.

– She’r kimning nomidan yozilgan?

– Qo‘ng‘ir sigir nima qildi?

– Shoir ola buzoqni qanday tasvirlagan?



***“Tarmoqlash” metodi.*** O‘quvchilar “Tarmoqlash” metodidan foydalanib, buzoqning xislatlari ochib beriladi.



***“Kim chaqqon?” o‘yini.***

– Aziz o‘quvchilar, buzoqning sifatlarini tasvirlash uchun foydalanilgan so‘zlarni jadvaldagi harflardan foydalanib hosil qiling.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Q | O | O | S | S | A | R | G |
| A | R | P | A | F | O | J | U |
| S | I | P | O | Q | N | M | L |
| A | D | CH | Q | O | Q | O | N |
| R | A | O‘ | Z | CH | M | J | U |
| A | F | I | I | N | A | R | SH |

***Javob:*** qora, oppoq, sadaf, cho‘zinchoq, marjon, safsargul



***“So‘z o‘yini”.***

O‘quvchilar doirachalar ichida yashiringan hayvonlar nomini topadilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Bu she’rga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Siz yana buzoqni qanday tasvirlashingiz mumkin?
3. Bu darsda olgan bilimlaringiz kelgusi hayotingizda kerak bo‘ladimi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ola buzoq” she’rini yod olish.

## 107-dars

***Mavzu:*** “Tushovli toy” (*Nosir Fozilov*).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy**: o‘quvchilarga “Tushovli toy” hikoyasi mazmunini tushuntirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoya mazmunini og‘zaki bayon qila olish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda mas’uliyatlilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, irodalilik fazilatlarini tarbiyalash, odob-axloqqa qaratilgan sifatlarini ongli, ixtiyoriy bajarishga odatlantirish.

***TK 3:*** hikoya kitoblarni muntazam o‘qib, o‘rganib borish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni og‘zaki hikoya qilish, mustaqil fikrlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: suhbat, savol-javob, “Begona so‘z” mashqi.

**Dars jihozlari:** ko‘rgazmali va tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga tayyorlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa: “Ola buzoq” sherini yoddan so‘rash.

O‘tilgan mavzu savol va topshiriqlar orqali mustahkamlanadi.

1. Ola buzoqning ko‘rinishi nimalarga o‘xshatilgan.
2. She’r asosida ola buzoqni tasvirlab bering.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Nosir Fozilovning: “Tushovli toy” hikoyasi bilan tanishamiz.



Nosir Fozilov haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Hikoya mazmuniga mos animatsiya namoyish qilinadi va kadr

ortidan matn o‘qiladi. Matn mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydilar. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

1. Saman toy tunda nima uchun kishnadi?
2. Ko‘kqashqa unga qanday yordam berdi?

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?



***Lug‘at ishi:***

**tushovlangan** – oyoqlari bog‘lagan, erkin harakatlana olmaydigan
**zimiston** – qorong‘ulik
**chilvir** – ingichka pishiq arqon
**o‘mrovi** – ko‘krak qismi
**esxonasi chiqib ketgan –** shoshib qolib, o‘zini yo‘qotib qo‘ygan

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Tushovli toy” hikoyasini o‘quvchilar qismlarga bo‘lib o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.

Matn asosida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat uchun savollar:

– Saman toy qanday vaziyatga tushib qoldi?
– Ko‘kqashqa haqida gapirib bering?
– Qo‘chqorni ahvolini izohlab bering.
– Siz Qo‘chqorni o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz?

***“Begona so‘z” mashqi.*** Bu mashqda matn asos qilib olinadi. O‘quvchilardan berilgan vaqt ichida jadvalda berilgan 4 ta so‘zdan matnda uchramaydigan so‘z yoki so‘zlarni topish talab qilinadi.



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qashqir | Ko‘kqashqa | Bo‘ri | Saman | Qo‘chqor |
| 2 | Saman | Qudrat aka | Ayg‘ir | Qahramon | Qo‘y |
| 3 | Sigir-poda | Vahshiy | Tushov | Chilvir | Ipak |
| 4 | Zimiston | Beh, beh, beh | Ertalab | Bug‘doy | Saroy |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Nima uchun hikoya “Tushovli toy” deb nomlangan?
2. Otlarga yana qanday nom qo‘yish mumkin?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Tushovli toy” hikoyasini o‘qish.

## 108-d a r s

***Mavzu:*** “Jo‘ja” (*Anvar Obidjon*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Jo‘ja” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilar ravon o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** she’riy kitoblarni muntazam o‘qib, o‘rganib borish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mehribonlik, kamtarlik, rahmdillik kabi xislatlarni, qushlarga nisbatan g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, erkin va mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan she’rning nomi, mazmunini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “Blis-so‘rov”, “Kim topag‘on” o‘yini.

**Dars jihozlari**: ko‘rgazma va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Tushovli to‘y” hikoyasini o‘qib, so‘zlab beradilar.

***“Blis-so‘rov” o‘yini.***

1. Yaylovda yoyilib yurgan nimalar dalalarning husniga-husn qo‘shdi?

(Yaylovda yoyilib yurgan qo‘y, sigir podalari, uyur-uyur yilqilar dalalarning husniga–husn qo‘shdi.)

2. Nima qo‘rquv bosib sarosimada qoldi? (Oldingi oyoqlaridan ingichka, lekin pishiq jun chilvir bilan tushovlangan Saman toy qo‘rquv bosib sarosimada qoldi.)

3. Nimaning cho‘zib-cho‘zib uvullagani eshitildi? (Bo‘rining cho‘zib-cho‘zib uvullagani eshitildi.)

4. Saman ot nimaning tovushi chiqqan tomonga kuchining boricha kishnab yubordi? (Saman ot Ko‘kqashqaning tovushi chiqqan tomonga kuchning boricha kishnab yubordi.)

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– O‘quvchilar bugun biz sizlar bilan Anvar Obidjonning “Jo‘ja” she’ri bilan tanishamiz. (Matn muallifi haqida ma’lumot beriladi.)

She’r mazmuniga mos lavha namoyish etilib, kadr ortidan she’r o‘qiladi.

She’r mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket she’rni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. She’r matni ustida ishlanadi, notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**shovvoz –** har qanday ishni eplay oladigan, qoyil qiladigan epchil, azamat

**charos** – go‘zal, qop-qora ko‘z

**dumbuldan –** pishmagan, xom, g‘o‘r meva

**qirarman –** ko‘plab yoki yoppasiga o‘ldirmoq
**asil –** a’lo sifatli, eng yaxshi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash. “Ifodali o‘qish” musobaqasi.***

Musobaqa qatorlararo o‘tkaziladi. O‘quvchilarning hammasi she’rni o‘qiydi. Musobaqa so‘ngida har bir qatorda nechta o‘quvchi ifodali o‘qigani e’lon qilinadi va ko‘p ifodali o‘qigan qator g‘olib sanaladi. Qofiyadosh so‘zlar ustida ishlanadi: qiraman–uraman, dumbuldan–bulbuldan.



“Dam olish daqiqasi” o‘tkaziladi. “Jo‘ja” qo‘shig‘i eshittiriladi.




***“Kim topag‘on” o‘yini.*** Guruhlar o‘rtasida qush va parrandalar haqida topishmoqlar aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Bir qo‘shnim bor avval boshdan,
Soqoli uning qizil go‘shtdan.
Sahar turib shovqin solar,
Xabari yo‘q hech bir ishdan.
*(Xo‘roz)*

Oq sandiq,
Og‘zi yo‘q sandiq. *(Tuxum)*
Chiy tagida chinni kosa.
*(Qush uyasi)*

Boyning o‘g‘li ko‘kka qarab yig‘laydi.
*(Boyo‘g‘li)*

Yuqoridan keladi zebogina tovushi bor,
Oyog‘ida paxmoqqina kovushi bor.
*(Kaklik)*

Kasbi doim taqir-tuqur,
Qayda ilon ko‘rsa cho‘qir.
*(Laylak)*

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasida savol-javob o‘tkaziladi.

1. She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Jo‘ja haqida she‘r bilasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Jo‘ja” she’rini yod olish.

## 110-d a r s

***Mavzu:*** “Ayiqni yenggan cho‘pon”. (*Pirimqul Qodirov*). I qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga dovyuraklik haqida ma’lumot berish, “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining 1-qismi bilan tanishtirish.

O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni, tabiatga muhabbat, jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish hislarini tarbiyalash.

***TK 4:*** hikoyada go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, matnga reja tuzish, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savollarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Topib o‘qi”, “Mozaika” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan “Jo‘ja” she’ri o‘quvchilardan yoddan so‘raladi.

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Jo‘jacha opalaridan qanday farq qiladi?

– Jo‘jacha qanday xislatlarga ega ekan?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz hayvonlar bilan sodir bo‘lgan qanday qiziqarli voqealarni bilasiz? O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Pirimqul Qodirovning “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining I qismi bilan tanishamiz. Pirimqul Qodirov haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar bilan dovyuraklik va mardlik, uning hayotimizda qanchalik o‘rin tutishi haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining I qismini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**suruv** – qo‘ylar podasi

**qo‘ton** – qo‘ylar saqlanadigan joy

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining birinchi qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Akrom dadasi bilan tog‘ga kimning oldiga bordi?

– Suyun ota ularga nimalarni gapirib berdi?

– Suyun ota ayiqni qanday yengdi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.



***“Mozaika” o‘yini.*** Mavzuga oid rasm turli xil bo‘laklarga bo‘lib, turli xil joylarga qo‘yilgan bo‘ladi. O‘quvchilar bo‘laklarni o‘z o‘rniga qo‘yib, rasm hosil qiladilar.

***“Topib o‘qi” mashqi***.

– Ayiqni qo‘ylarga hujumi tasvirlangan joyni matndan topib o‘qing.

Matn qismlarga bo‘linib reja tuziladi va reja asosida qayta hikoya qildiriladi.

Reja:

1. Akrom bobosinikida mehmonda.
2. Suyun otaning hikoyasi.
3. Ayiq qo‘yni jilg‘aga olib ketdi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Siz qaysi yovvoyi hayvonlarni ko‘rgansiz?

– Yovvoyi hayvonlarning inson uchun qanday foydasi bor?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining 1-qismini o‘qish.

## 111-d a r s

***Mavzu:*** “Ayiqni yenggan cho‘pon”. (*Pirimqul Qodirov*). II qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining II qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mardlik, jasurlik, dovyuraklik hislatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** hikoyada go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Bilag‘on” ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni o‘quvchilarga qayta hikoya qildiriladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Bobo nevarasiga nimani so‘zlab berdi?

– Dovyurak insonlar yana qanday ishga qo‘l ura oladi?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, siz botirlik, uning biz uchun qanchalik kerakligi haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

**–** Bugun biz sizlar bilan “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan dovyuraklik, uning hayotimizda qanchalik o‘rin tutishi, qo‘rqoqlikning oqibatlari haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining II qismini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***

**Chaqmoq** – odam ismi
**qiyqirib** – qichqirib, baqirib

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining II qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savol va topshiriqni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Cho‘ponlar nima uchun ayiqni yo‘qotish payiga tushdi?

– Yovvoyi hayvonlar hayoti haqida o‘zingiz bilganlaringizni so‘zlab bering.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Bilag‘on”o‘yini.*** O‘quvchilar har bir hikoya qahramoniga alohida ta’rif beradilar. Eng yaxshi va mazmunli ta’rif bergan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Ayiq terisining qalinligi qancha kelar ekan?

**A)** ikki enli B) juda qalin D) 20 kg E) besh enli

2. Chaqmoq qochayotganda ayiqning panjasi uning qayeriga tegibdi?

A) qorni B) beliga **D)** yelkasiga E) bo‘yniga

3.Qirqlik nima?

A) kamon **B)** uchlari nayzasimon uzun qaychi

D) uchi burama qisqa enli o‘q E) ipdan to‘qilgan o‘rama

4. Qo‘shni cho‘ponlardan biri nimani o‘qlab qo‘ydi?

A) kamonni B) qirqlikni D) nayzalarni **E)** miltiqni

5. Ayiq qochib borib, qayerga kirdi?

**A)** muzning kovagiga B) g‘orga

D) chaylaga E) qishloq tomondagi uyga

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

– Yovvoyi hayvonlar nimalar bilan oziqlanadi?

– Ayiqni ko‘rganmisiz? Qayerda?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining II qismini o‘qish.

## 112-d a r s

***Mavzu:*** “Ko‘kyol” (*Nosir Fozilov*). 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoya mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga, o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki tarzda izchil ifodalashga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qilish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni tabiatni sevishga, uni avaylab asrashga, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilishga, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

***TK 4:*** do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning o‘qigan asarlari yuzasidan savollar tuzish, asar mazmunini shaxsini o‘zgartirib qayta hikoyalash va so‘zlardan gaplar tuzish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Insert” texnologiyasi, “Kim zukko?”, “Raqamli joylashuv” mashqlari.

**Dars jihozlari:** yovvoyi hayvonlar suratlari, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O ‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Ayiqni yenggan cho‘pon” hikoyasining II qismi mazmunini navbat bilan shaxsini o‘zgartirib, muallif nomidan so‘zlaydilar.




***“Kim zukko?”* mashqi.** Bu mashqda o‘quvchilar berilgan so‘zlarga hikoya matnidan so‘z birikmalarini topadilar va ularning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini aytadilar.

So‘zlar: ayiqning, bitta, nayzalarni, baquvvat, besh-o‘n, kovagiga.

O‘quvchilar javobi:

| | | |
|---|---|---|
| Ayiqning | ayiqning tirnog‘i | ot + ot |
| Bitta | bitta miltiq | son + ot |
| Nayzalarni | nayzalarni bog‘ladim | ot + fe’l |
| Baquvvat | baquvvat tayoqlarning | sifat + ot |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Ko‘kyol” hikoyasining 1-qismi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi “Ko‘kyol” hikoyasining I qismini ifodali o‘qib beradi.

Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**qatqaloq –** qorning muzlab, qotib qolgan ustki qatlami

**o‘tov –** yengil material, kigiz kabilardan yasalgan ko‘chma uy, turarjoy

**dog‘da qolmoq –** biror maqsadi amalga oshmaganidan armonda qolmoq

**quloqchin –** tushirib qo‘yiladigan quloqlari bor issiq telpak

**o‘limtik –** o‘lgan jonivor




***“Insert” texnologiyasi.*** O‘quvchilar hikoya mazmuni asosida individual tarzda o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Maxsus belgilar quyidagilardan iborat:

“B” – bu ma’lumotni bilaman; “?” – ushbu ma’lumotni tushunmadim.

“+” – bu ma’lumot men uchun yangilik; “-”– mazkur ma’lumot yoki fikrga qarshiman.

| T/r | Ma’lumotlar | «B» | «?» | «+» | «-» |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | O‘rdak, g‘ozlar “g‘ag‘a”– lashib bu joylarni qushlar bozoriga aylantirib yuboradi. | «B» | | | |
| 2 | Qopqonga chap bersa, miltiq bor joyga yo‘lamasa, dorining hidini olsa, buning yo‘li bor. Iziga tozi solamiz. | | | «+» | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Yana nariroq yurgan edik, bir butaning tagida uchinchisi yer tishlaganicha mukkasidan tushibdi... | | | | «-» |
| 4 | Shishaning sirtiga yopishtirilgan oq qog‘ozga odamning bosh suyagi, uning tagida ikkita ilik suyagining ayqashib turgan surati solingan. | | «?» | | |

O‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

– Hikoya qahramonlari kimlar?

– Hikoya voqealari qaysi faslda sodir bo‘lgan?

– Ovchilar nima uchun bo‘rilarning ketiga tushishdi?

– Bo‘rilar qanday vahshiylik qilishgan edi?

– Ovchilar qanday hiyla ishlatishdi?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar hikoyani navbat bilan “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

***“Raqamli joylashuv” mashqi.*** Hikoyadan olingan bir necha gapdagi so‘zlar raqamlar yoniga joylashtiriladi. O‘quvchilar so‘zlarning raqamini aytib, gaplar hosil qilishlari kerak bo‘ladi.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ko‘klam | 2 | Samanni | 3 | Bo‘ri | 4 | Kechasi |
| 5 | bu | 6 | nafasi | 7 | o‘tgan | 8 | yerga |
| 9 | kuni | 10 | o‘limtikka | 11 | esib | 12 | bir |
| 13 | qatqaloq | 14 | o‘tov | 15 | qarich | 16 | qorlar |
| 17 | oldida | 18 | kechasi | 19 | eriy | 20 | qalinlikda |
| 21 | tag‘in | 22 | ko‘rgan | 23 | qor | 24 | boshlagan |
| 25 | edim | 26 | yog‘gan | 27 | payt | 28 | keladi |

1, 6, 11, 13, 16, 19, 24, 27 – “Ko‘klam nafasi esib, qatqaloq qorlar eriy boshlagan payt”.

2, 7, 9, 14, 17, 22, 25 – “Samanni o‘tgan kuni o‘tov oldida ko‘rgan edim”.

3, 5, 10, 18, 21, 28 – “Bo‘ri bu o‘limtikka kechasi tag‘in keladi”.

4, 8, 12, 15, 20, 23, 26 – “Kechasi yerga bir qarich qalinlikda qor yog‘gan”.

Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Bu hikoyaga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?

2. Siz qaysi yovvoyi hayvonlarni ko‘rgansiz?

3. Yovvoyi hayvonlarning insonlar uchun qanday foydasi bor?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa**. “Ko‘kyol” hikoyasining 1-qismini o‘qish.

## 113-d a r s

***Mavzu:*** “Ko‘kyol”. 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni hikoya mazmuni bilan tanishtirish, hikoya mazmunini to‘liq yoki qisqartirib, qayta aytib bera olishga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qilish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mehribonlik, ezgulik kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish, asar qahramonlariga munosabat bildira olish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “Sinkveyn”, “Bo‘g‘indan gapgacha” mashqlari.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Ko‘kyol” hikoyasining 1-qismini navbat bilan o‘qib, qayta hikoya qiladilar.




***“Mosini top” o‘yini.*** O‘quvchilar hikoya voqealari ketma-ketligini aniqlashadi. Voqealar ketma-ketligini o‘ziga mos so‘zga tartib bilan joylash lozim bo‘ladi. Masalan: Sirdaryoning suvi, mol doktori, momiq qor, kattakon it.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Ko‘kyol” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz. O‘qituvchi “Ko‘kyol” hikoyasining 2-qismini ifodali o‘qib beradi. Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**oqsoqol** – soch-soqoli oqargan keksa odam
**jing‘il** – yulg‘un o‘simligi
**qo‘shog‘iz** – ketma-ket o‘q otadigan miltiq
**qayishmoq** – bukilmoq

O‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

– Bo‘rijarda uni kim kutib oldi?

– Iso bobo Oqshunqorni nima qildi?
– Bo‘rijarda qanday voqea ro‘y berdi?
– Ko‘kyolni qanday qilib qo‘lga tushirishdi?
O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.




***“Sinkveyn” metodi.*** O‘quvchilar sinkveyn tuzish qoidalari asosida hikoya mavzusiga oid sinkveyn tuzadilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar bilan qatorlararo musobaqa o‘tkaziladi. Hikoya mazmuni yuzasidan savollar tuzishadi va bir-birlariga berishadi. To‘g‘ri va tez savollar tuzgan hamda javob bergan qator g‘olib bo‘ladi.



***“Bo‘g‘indan gapgacha” mashqi.***
O‘quvchilar berilgan harflardan birini tanlaydilar va sxemalar asosida avval shu harf ishtirok etgan so‘zni, so‘ng shu so‘z qatnashgan gapni topib, o‘qiydilar.

(Quyosh. Quyosh ikki terak bo‘yi ko‘tarilib qolgan edi.)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Bu hikoyaga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Siz hikoyani o‘qib, qanday xulosa chiqardingiz?
3. Hikoya kimning nomidan yozilgan?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Ko‘kyol” hikoyasining 2-qismini o‘qish.

## 116-d a r s

***Mavzu:*** “Bahor” (*Qudrat Hikmat*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga bahor fasli, undagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish, “Bahor” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish.

***FK 1:*** she’r asosida yaratilgan videotasvirni tinglab, tushunish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, kuzatuvchanlik hislatlarini tarbiyalash. Tabiat bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga odatlantirish.

***TK 4:*** she’rda tasvirlangan go‘zallik va ezgulikka intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarni ifodali o‘qish, mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** she’rdagi so‘z ma’nolarini izohlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Mozaika”, “Ortiqcha surat”, “Qofiyadoshini top”, “Zanjir” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar yozgan sevimli hayvonlari haqidagi hikoyalari o‘qittiriladi. “Hayvonot olamida” bo‘limi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Chaqmoq ismli cho‘pon qaysi hikoya qahramoni edi?

– “Ola buzoq” she’rining muallifi kim?

– Bo‘limda berilgan hikoyalar orqali qanday hayvonlarni bilib oldingiz?

– Irodali insonlar haqida qanday hikoyalar bilan tanishdingiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Mozaika” mashqi.*** O‘quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga bahor fasli tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Qudrat Hikmatning “Bahor” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan bahor fasli, unda bo‘ladigan tabiat hodisalari haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Bahor faslida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

– Bahorda yurtimizga qaysi qushlar uchib keladi?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Bahor” haqidagi videolavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Bahor” she’ri o‘qiladi.

O‘qituvchi “Bahor” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**oro berar –** o‘ziga qarar

**tong yellari** – tonggi shaboda

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**




***Darslik bilan ishlash.*** “Bahor” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi.

– She’rda bahor faslida tabiat uyg‘onishi qanday tasvirlangan?

– Bahor tabiatini “mayin shamollar”, “soyabon tollar”, “tong yellari”, “ko‘kni quchgan teraklar” iboralaridan foydalanib, qayta hikoya qiling.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.



***“Kamalakdagi jumboq”* o‘yini.** kamalakdagi belgilardan foydalanib so‘zlar tuzadilar.

“***Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Bahor” she’ridagi qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

***“Zanjir” o‘yini.*** O‘quvchilar bahor faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini ketma-ket aytishadi. Shu tarzda o‘yin davom etadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Darsda nimalarni bilib oldingiz?

– She’rda bahor tabiati qanday tasvirlangan?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bahor” she’rini ifodali o‘qish.

## 117-d a r s

***Mavzu:*** “Bahor ta’rifida” (*Yusuf Xos Hojib*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Bahor ta’rifida” rivoyati bilan tanishtirish. O‘quvchilarga Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqidagi ma’lumot berish. Iboralarning ma’nosini izohlash, savol-topshiriqlar ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoya mazmunini qayta so‘zlab bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda bahor faslini qadrlash va tabiatni sevish hissini tarbiyalash.

***TK 3:*** rivoyatda tasvirlangan go‘zallikdan ta’sirlanish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning lug‘atni nasim, turdosh, chin, sabo, havo so‘zlari bilan boyitish, iboralarning ma’nosini izohlash, o‘qish malakalarini yanada rivojlantirish.

***FK 2:*** bahor tabiatiga kichik ijodiy matn yozish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Zanjir” usuli, “Matndan top” o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Bahor” she’rini yoddan aytib beradi.

Savol-topshiriqlar:

Men topishmoq aytaman. Siz uning nima haqida ekanini aytasiz, javobini topasiz. Ilon izli yorug‘ nur bulutlarni quchadi.

Jarangdor ovozida yer-u osmon ko‘chadi. (Chaqmoq)

– Topishmoqni topishda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi?

– Bu so‘zlar qaysi fasl ta’rifida aytiladi?

– Bahor faslini qanday so‘zlar bilan ta’riflash mumkin?

– Demak, biz bahor faslini ta’riflashda qaysi usuldan foydalandik?

– Bahor fasli haqida kim kichik matn tuzib, gapirib beradi?

– Bahor fasli haqida, she’r yod olganmisiz?

– Gullar haqida-chi?

– Maqollar-chi?

– Shuning uchun qadimdan shoir-yozuvchilarimiz bahorni madh etib she’rlar bitgan, hikoyalar yozishgan.

– Shunday yozuvchilardan biri Yusuf Xos Hojibdir.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Bahor ta’rifida” rivoyati bilan tanishamiz.

O‘qituvchi “Bahor ta’rifida” rivoyatini o‘qib beradi. Rivoyat mazmuni tushuntiriladi.

***“Matndan top” o‘yini.*** O‘qituvchi bergan savollarga o‘quvchilar rivoyat matnidan javob topadilar.




– Yozuvchi bahorni ta’riflashda qaysi so‘zlardan foydalangan? (Nasim, firdavs, oq rang, bo‘z yer, alvon rang, musaffo, yashil to‘n, yashil parda)

– Yozuvchi qaysi qushlarni nomini tilga olgan? (G‘oz, o‘rdak, oq qush…)

O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***



**nasim** – shabada, shamol
**Firdavs** – bog‘, jannat bog‘i
**musaffo** – toza, pokiza
**sabo yeli** – shamol nafasi
**mushk-anbar** – xushbo‘y hid
**navo** – kuy
**ifor** – yoqimli hid

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Bahor ta’rifida” rivoyatini o‘quvchilar “Zanjir” usulida o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar. Darslikdagi savollar ustida ishlanadi.

1. O‘lkamizga bahor kelganini qayerdan bilamiz?
2. Alloma qushlar hayotini qanday tasvirlagan?
3. Bahorda janubdan qanday qushlar uchib keladi?

***Test topshiriqlari:***



1. Yusuf Xos Hojib kim?

**A)** alloma B ) yozuvchi va shoir D) bog‘bon E) shox

2.“Bahor ta’rifida” matnida qaysi qushlar qatnashgan?

A) oqqush, qarg‘a, musicha **B)** oqqush, qora qarg‘a, kaklik, turnalar

D) qora qarg‘a, musicha, oqqush E) qaklik,turnalar, musicha

3. *Nasim* so‘zining ma’nodoshini toping.

A) Bahor, ko‘klam B) kuy,navo **D)** shabada, shamol E) toza, pokiza

4. Nimaning ovozi tantiq qizning ovozi kabi yoqimsiz?

A ) turnaning B) musichaning **D)** qarg‘aning E) bulbulning

5. Gulzorda nima tun-kun tinmasdan yoqimli sayramoqda?

A**)** qora qarg‘a **B)** bulbul D) turna E) kaklik

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. O‘lkamizga bahor fasli qachon kirib kelar ekan?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bahor ta’rifida” rivoyatini ifodali o‘qish.

## 118-d a r s

***Mavzu:*** “Jala darakchisi”. (*Habib Rahmat*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’r mazmunini chuqur tahlil qilish, she’rdagi urg‘u tushadigan so‘zlarni aniqlash, to‘xtam o‘rinlarini ajratish, asar tahlilida matndan misol tanlay olish, she’rni ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***TK 3:*** she’riy kitoblarni o‘qib, o‘rganib borish.

***FK 1:*** she’rlarni o‘qib tushunish va mazmunini qayta so‘zlab berish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda yangilanish fasli bo‘lgan go‘zal bahor tabiati, uning dillarga beradigan quvonchi, tabiat hodisalari haqida tushuncha berish, go‘zallikni his qilish tuyg‘usini tarbiyalash.

***TK 4***: tevarak-atrofga mehribon bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning adabiy til talaffuzi qoidalariga rioya qilgan holda ongli, to‘g‘ri o‘qish, she’rdan tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘z va iboralarni topa olish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** she’rdagi so‘z ma’nolarini izohlash.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Zukkolar bahsi”, “Topgan topaloq” , “To‘rtinchisi ortiqcha” mashqlari.

**Dars jihozlari:** tabiat hodisalari, rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Yusuf Xos Hojibning “Bahor ta’rifida” rivoyatini navbat bilan o‘qib, mazmunini so‘zlab beradilar.




***“Zukkolar bahsi” mashqi.*** O‘quvchilar matndan olingan so‘zlarga ularni ifodalash uchun zarur bo‘lgan o‘xshatish va iboralarni topishlari kerak bo‘ladi.

| So‘zlar | Ibora va o‘xshatishlar |
|---|---|
| Bahor | Firdavs yo‘lini ochdi |
| Olam | O‘ziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi |
| Qishni | Bahor nafasi haydadi |
| Daraxtlar | Yashil to‘n kiydi |
| | Oq, sariq, ko‘k, qizil rangli harir yopinchiqlar bilan bezandi |

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Jala darakchisi”. (Habib Rahmat).

O‘qituvchi she’rning muallifi haqida qisqacha ma’lumot beradi.

O‘qituvchi “Jala darakchisi” she’rini ifodali o‘qib beradi.

– Bu she’r nima haqida ekan?

– Qaysi faslda momaqaldiroq gumburlaydi?

– U nimadan darak beradi?

– Shoir momaqaldiroqni nimaga o‘xshatadi?

– Yana qanday tabiat hodisalarini bilasiz?



She’r mazmuniga oid videolavha namoyish etiladi.

***“Topgan topaloq” o‘yini.*** O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, bir-birlariga tabiat hodisalari haqida topishmoqlar aytadilar.

- Suvda yotar – suv ichmas,
  Yurganini odam bilmas. *(Quyosh)*

● Kecha tomda bir patir ko‘rdim,
Erta qarasam – yo‘q. *(Oy)*
● Kichkinadir o‘zi,
Yiltir-yiltir ko‘zi. *(Yulduz)*
● Qilich urdim,
O‘rni yo‘q. *(Suv)*
● Gilam ustida oq bodroq. *(Do‘l)*
● Qo‘lim bilan ushlay olmayman,
● Cho‘ntagimga sola olmayman. *(Tuman)*
● Oppoq qushim qaqillar,
Qanotlari shaqillar. *(Sharshara)*
● Suvga tushsa, suv bo‘lmaydi,
Loyga tushsa, loy bo‘lmaydi. *(Soya)*

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qiydilar.

***“To‘rtinchisi ortiqcha” mashqi.*** O‘quvchilar har bir qatorda berilgan qofiyadosh so‘zlar orasidan ortiqcha so‘zni topishlari lozim bo‘ladi.

1. Goho, sado, osmon, navo.
2. Sharaqlab, tomosha, taraqlab, charaqlab).

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Sizda nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
3. Qaysi topshiriqlar siz uchun qiziqarli bo‘ldi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Jala darakchisi” she’rini yod olish.

## 119-d a r s

***Mavzu:*** “Erka cholning o‘rigi”. (*Xudoyberdi To‘xtaboyev*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Erka cholning o‘rigi” hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK1:*** hikoyani o‘qib tushunish va mazmunini qayta so‘zlab berish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga ko‘chat ekishning foydali tomonlari, ko‘chat ekkan insonning hech qachon nomi o‘chmasligini, ekilgan ko‘chatlarning atrof-muhitga foydali ta’siri, tabiatni sevish haqida tushuncha berish.

***TK 4:*** hikoyada aks etgan milliy qadriyatlarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash, ongli o‘qish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** hikoya qahramoniga munosabat bildirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Zig-zag” strategiyasi, “Daraxt gullarini top”, “Bahribayt”, “Raketa uchdi” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga topshiriq qilib berilgan “Jala darakchisi” she’ri yoddan so‘raladi.

***“Raketa uchdi” o‘yini.*** Raketalar shakliga savollar yozib, har ikki guruhga beriladi. Guruhdagi o‘quvchilar birin-ketin savollarga javob beradilar. Raketaga quyidagi savollar yoziladi:

1. Biz nimani “Jala darakchisi” deb ataymiz?
2. Shoir momaqaldiroqni nimaga o‘xshatadi?
3. Jalaning foydali tomonlarini ayting.
4. Jala darakchisi o‘zi nima?
5. *Chog‘i* so‘zining ma’nodoshini toping.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Erka cholning o‘rigi” hikoyati bilan tanishamiz.

Muallif Xudoyberdi To‘xtaboyev haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi. “Erka cholning o‘rigi” hikoyasini o‘qituvchi ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**qoraqandak** – o‘rikning navi
**shu yo‘sin** – shu zaylda
**serzarda** – jahldor
**qumg‘on** – chovgumning kattasi

***“Bahribayt” o‘yini.*** O‘quvchilar yodlagan she’rlari asosida bahribayt o‘yinini o‘ynaydilar. She’rning oxirigi harfi bilan boshlanuvchi she’r davom ettirib aytilishi kerak bo‘ladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Erka cholning o‘rigi” hikoyasini “Ichda o‘qish” usulida o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.

Darslikdagi savol-javob va topishiriqlar ustida ishlanadi.

***“Daraxt gullarini top” mashqi.***

O‘quvchilar rasmlari berilgan gullar qaysi daraxtga tegishli ekanligini aniqlaydilar.

***“Zig-zag”* strategiyasi metodi.**

Strategiyani qo‘llash jarayoni:

● Sinf o‘quvchilari bir necha (3,4) guruhga bo‘linadi.

● Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 3,4ga bo‘linadi.

● Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn va hokazolar) beriladi va uni o‘rganish vazifasi topshiriladi.

● Belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar.

● Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari tomonidan liderlar tanlanadi va ular o‘rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so‘zlab beradilar.

● Liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to‘ldiriladi.

● Barcha guruhlar o‘zlariga berilgan matn puxta o‘zlashtirilganlaridan so‘ng matnlar guruhlararo almashtiriladi.

Shu tarzda mavzu mohiyatini yorituvchi matn o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi.

***Test topshiriqlari:***

1.Bobosi kim bilan qishloqqa bordi?

A) o‘g‘li bilan B ) o‘rtog‘i bilan

**D)** nabirasi bilan E) ustozi bilan

2. Bobosi va nabirasi nima olib kelgani boradi?

A) olma **B)** o‘rik ko‘chati

D) nok E) shaftoli

3. Bobo bilan nabira ko‘chatni qayerdan olib kelishdi?

A) shahardan **B)** Qashqar qishlog‘idan

D) tog‘dan E) bog‘dan

4. “Erka cholning o‘rigi” hikoyasining mualifi kim?

A) X.To‘xtaboyev B) P. Mo‘min

D) A. Obidjon E) Shukur Xolmirzayev

5. Erka cholning o‘rigining nomi nima edi?

A) qoraqandak B) chillaki

D) subxon E) erta pishar

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hikoyat sizga yoqtimi?

2. Siz ham ko‘chat ekanmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Erka cholning o‘rigi” hikoyasini o‘qish.

## 121-d a r s

***Mavzu*:** “Navro‘z – bahor bayrami” (*Muzayyana Alaviya*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga Navro‘z haqida ma’lumot berish, “Navro‘z – bahor bayrami” hikoyasi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** o‘qilgan hikoyaning mazmunini tushunish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni milliy qadriyatlarni ulug‘lash ruhida tarbiyalash.

***TK 4***: hikoyada go‘zallik va ezgulikka intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, “So‘zlarni top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Erka cholning o‘rigi” hikoyasi o‘qitiladi, 3,4 nafar o‘quvchidan mazmuni so‘raladi. O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Yozuvchiga qanday o‘rik uzatishdi?

– Erka chol o‘rikni qachon ekkan ekan?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz “Navro‘z – bahor bayrami” hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan Navro‘z, unda bo‘ladigan urf-odatlar haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

Hikoya o‘qib beriladi.

Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***

**bo‘g‘ot** – tomning cheti
**shinni** – tutdan tayyorlanadigan shirinlik
**qo‘g‘irmoch** – un va yog‘dan tayyorlanadigan taom

Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Navro‘z – bahor bayrami” hikoyasi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:
– Erta bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
– Navro‘zgacha va Navro‘z kunlari qanday ishlar qilinadi?



***“So‘zlarni top”* o‘yini**. O‘quvchilar yo‘nalishlar bo‘yicha harflardan so‘zlar tizib sumalakka kerakli masalliqlarni aniqlaydilar.



***Kichik guruhlarda ishlash***. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linishadi. Har bir guruh Navro‘zda tayyorlanadigan taomlarni birin-ketin aytishadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.
– Sizning oyingiz Navro‘z bayramida qanday taomlar pishiradilar?
– Qaysi Navro‘z taomlarini tayyorlashda yordam bera olasiz?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Navro‘z – bahor bayrami” hikoyasini o‘qish.

## 122-d a r s

***Mavzu*:** “Bayram urf-odatlari”.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Bayram urf-odatlari” matni mazmuni bilan tanishtirish, matnning mazmunini to‘liq yoki qisqartirib qayta aytib bera olish, o‘rganilgan mavzular doirasida bayon yoza olishga o‘rgatish.

***FK 1:*** matnni tushunib, ongli, to‘g‘ri o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda Navro‘z bayramiga bog‘liq urf-odatlarga amal qilinishi. Milliy udumlar va qadriyatlarni e’zozlanishi ruhida tarbiyalash.

***TK 4:*** matndan milliy qadriyatlarimizni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmuniga doir savol va topshiriqlar bilan ishlash, matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini izohlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** maktab kutubxonasidan foydalana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Bilimdon”, “Yosh ijodkor” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarning bir nechtasi “Navro‘z – bahor bayrami” hikoyasini ifodali o‘qib beradilar. So‘ngra o‘tilgan mavzu asosida test topshirig‘i o‘tkaziladi.

***Test topshiriqlari:***

1. 21-mart qanday kun?

**A)** tun va kun tenglashgan kun

B) yangilanish, yosharish bayrami

D) bahorning boshlanishi

E) yil o‘rtasi

2. “Navro‘z” so‘zining ma’nosi nima?

A) yangi yil **B)** yangi kun D) yangi tun E) yangi oy

3. Navro‘zda qanday ishlar boshlanadi?

**A)** obodonlashtirish B) yerdan qorlarni tozalash

D) gullar terish E) mehmondorchilikka borishadi

4. Navro‘zda qariyalarga nima tayyorlanadi?

A) bayram sovg‘asi B) kiyim tiktirishadi

**D)** sarpo tayyorlashadi E) gullar keltirishadi

5. “Eson-omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, yanagi oylar-yillarga o‘ynab-kulib yetaylik” degan tilakni qachon bildirishadi?

A) xushbo‘y narsa keltirilganda **B)** yalpiz, binafsha keltirilganda

D) mevalar keltirilganda E) kiyimlar keltirilganda

**III. Yangi mavzu bayoni.**

***“Boshqotirma bilag‘oni” mashqi.***

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 1. | | s | u | b | h | o | **n** | i | | | | | | |
| | | | | 2. | | k | o‘ | k | s | o | m | s | **a** | | | | | | |
| 3. | M | u | z | a | y | y | a | n | a | A | l | a | **v** | i | y | a | | | |
| | | | | | | | | | | 4. | M | u | **r** | o | d | | | | |
| | | | | | | | | | | | 5. | d | **o‘** | s | t | s | i | z | |
| | | | | | | | | | 6. | G | u | l | **z** | a | m | o | n | | |

1. O‘rik navi. 2. Navro‘z taomlaridan biri. 3.“Navro‘z – bahor bayrami” matnining muallifi kim? 4. Navro‘z kuni tug‘ilgan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladigan ism. 5. … boshim, tuzsiz oshim. 6. Navro‘z kuni tug‘ilgan qiz bolalarga qo‘yiladigan ism. Javob: Navro‘z.

Yangi mavzu kelib chiqadi va e’lon qilinadi.

– Bugungi darsda siz bilan “Bayram urf-odatlari” matni bilan tanishamiz.

Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib, ifodali o‘qib beriladi.

Matn asosida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi.

1. Siz Navro‘z bayramida qanday niyatlar qilasiz?

2. Oilangizda bayram urf-odatlaridan qaysi birlariga amal qilinadi?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***“Bilimdon” mashqi***. Bu o‘yinda o‘quvchi ari orqali gullarga

ketma-ket tartib bilan qo‘nadi. Gullarga qo‘nishi bilan Navro‘z bayramining urf-odatlarini izohlashi zarur.

***“Yosh ijodkor” o‘yini***. “Navro‘z bayrami urf-odatlari” mavzusida fikrlaringizni quyidagi namuna asosida ifodalang.

1. Bobodehqon dalada_____
2. Obodonlashtirish ishlari _____
3. Navro‘zdagi odatlar_____
4. Navro‘z va men_____

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagicha savollar beriladi:

1. Navro‘zgacha va Navro‘zdan keyin qanday ishlar amalga oshirilar ekan?
2. Bayram urf-odatlaridan yana qanday tadbirlarni bilasiz?
3. Bugungi dars sizga yoqdimi?
4 Oilangiz bilan bayramni qanday nishonlaysiz?
5. Matnni o‘qib, qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bayram urf-odatlari” matnini o‘qish.

## 123-d a r s

***Mavzu:*** “Yaxshidan bog‘ qoladi” *(Rivoyat).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga ajdodlarimiz, rivoyatlar haqida ma’lumot berish, “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** ertakni tushunib ongli, to‘g‘ri o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ezgu amallarni bajarish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 4:*** hikoyada milliy qadriyatlarimizning o‘ziga xosliklarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Bog‘ yarat” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Bayram urf-odatlari” matni o‘qittiriladi, 3-4 nafar o‘quvchi matn mazmunini so‘zlab beradi. Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Navro‘z so‘zining ma’nosi nima?

– Navro‘z haqida she’r va qo‘shiq bilasizmi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati bilan tanishamiz.

– Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro bobolarimiz haqida nimalar bilasiz?

– Rivoyatlarda nima oldinga suriladi?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi.

O‘qituvchi “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyatini ifodali o‘qib beradi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**mashoyix** – donishmand qariya
**naql** – maqol

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash:*** “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Mir Alisher va Sulton Husayn o‘rtasidagi suhbatni rollarga bo‘lib, rivoyatni ifodali o‘qing.

– Mir Alisherning ko‘chatlarni nima niyatda ekayotganini aniqlang.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

***“Bog‘ yarat”o‘yini.*** Ekranda bo‘sh maydon ko‘rsatiladi. Ketma-ket savollar beriladi. Mos tugma bosilsa ko‘chat hosil bo‘ladi va keyingi savolga o‘tish imkoni beriladi.

1. Sulton Husayn borib qarasa, Mir Alisher nima qilayotgan ekan?
2. Mir Alisher Sulton Husayn savoliga qanday naql keltirdi?
3. Sulton Husayn Mir Alisherning saxovatiga qoyil qolib, unga nima berdi?

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Siz ham daraxt ekkanmisiz?

– Qanday daraxtlarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyatini o‘qish.

## 124-d a r s

***Mavzu*:** “So‘zlovchi yomg‘ir” (*Abdurahmon Akbar*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga she’r satrlarining mazmunan bog‘liqligini mustaqil belgilay olish, so‘z ma’nolarini farqlash, she’r mazmunini chuqur tahlil qilish, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabat bildirishni o‘rgatish.

***FK 1:*** she’rni ongli va ifodali o‘qish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiat hodisalarini diqqat bilan kuzatish, onalarni hurmat qilish, ularning maslahatiga doim amal qilish, gapini ikki qilmaslik kabi xislatlarni tarbiyalash.

***TK 3****:* tevarak-atrofga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning so‘zlarni adabiy qoidalarga muvofiq talaffuz etish, mustaqil o‘qish, savollarga to‘liq javob berish malakalarini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

***FK 2:*** savollarga to‘liq javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “T-chizma” , “Pantomima”, “Adashib qolgan satrlar”, “Gapni to‘ldiring” mashqlari.

**Dars jihozlari:** tabiat hodisalari tasvirlangan rasmlar, so‘z va gaplar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar uyga berilgan vazifa “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati mazmunini so‘zlab beradilar.




***“Pantomima”* o‘yini.** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadilar. O‘quvchilarga “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati mazmunini ovoz chiqarmasdan pantomima ko‘rinishida ko‘rsatib bering, deb aytiladi. Guruhlar ishlarini rejalashtirib olishlari uchun 3–5 daqiqa vaqt beriladi. Ular ovoz chiqarmasdan o‘tgan mavzu pantomimasini ko‘rsatib beradilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “So‘zlovchi yomg‘ir” (Abdurahmon Akbar).

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi:

– Siz qanday tabiat hodisalarini bilasiz?

– Tabiat hodisalari haqida maqollar bilasizmi?

O‘quvchilar tabiat hodisalari haqida bilgan maqollarini navbat bilan aytib, ma’nosini qisqacha tushuntirib o‘tadilar.

Qarg‘a ketmay, qor ketmas,

Turna kelmay, muz ketmas.
Qor yog‘di – don yog‘di,
Yomg‘ir yog‘di – osh yog‘di.
Qora bulutdan tiniq suv tomar.
Yomg‘ir – ekinning joni.

Tog‘ havosi – dard davosi. O‘qituvchi “So‘zlovchi yomg‘ir” she’rining muallifi Abdurahmon Akbar haqida qisqacha ma’lumot beradi.



She’r mazmuniga mos videolavha namoyish etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga she’rni ifodali o‘qib beradi.

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi.

– Bu she’r nima haqida ekan?
– Uni eshitganingizda ko‘z oldingizga nimalar keldi?

O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qiydilar.

– She’rdagi tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilang.

She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**suruv** – qo‘y-echki podasi
**zamin** – yer, tuproq
**g‘ubor** – gard, chang, to‘zon

O‘quvchilar shu so‘zlar ishtirok etgan satrlarni she’rdan topib o‘qiydilar.

She’rning mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkaziladi:

– She’r nimaning nomidan aytilgan?
– Yomg‘irning qarindoshlari nimalar ekan?
– Shoirning yozishicha, yomg‘ir asli qayerlik? Nima uchun?
– Onasi yomg‘irga qanday maslahat berdi?
– Siz ham onangizning maslahatlariga quloq tutasizmi?

Onalarni hurmat qilish, ularning maslahatiga doim amal qilish, gapini ikki qilmaslik kabi xislatlar insonni doim to‘g‘ri yo‘lga boshlashi haqida tushuncha beriladi.




***“T-chizma” metodi.*** O‘quvchilar yomg‘irning ijobiy va salbiy xususiyatlarini yoritib beradilar.

| YOMG‘IR | |
|---|---|
| ekinlarni sug‘oradi | kiyimlarni ho‘l qiladi |
| kanallarni suvga to‘ldiradi | hovlilarga toshib ketadi |
| tabiatni yashnatadi | nihollarni ko‘chirib tashlaydi |
| g‘ubor-changni yuvadi | paxtaning sifatini tushiradi |

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.***

– Kim she’rni ifodali o‘qib bera oladi? She’rni o‘qiyotganda hissiyotlaringizni namoyon qilishga harakat qiling.

O‘quvchilar xohishiga ko‘ra she’rni o‘qiydilar.

Darslikda berilgan she’r mazmuniga oid rasmlar ustida ishlanadi.

***“Adashib qolgan satrlar” mashqi.***
She’rdagi satrlarning ayrimlari betartib beriladi. O‘quvchilar ularni o‘z o‘rnilariga qo‘yishlari lozim bo‘ladi.

| | |
|---|---|
| Ishim o‘zi shunaqa: | Yaylovdagi suruvdek |
| Hamma joyga yog‘aman. | Ko‘kda kezib yursak ham, |
| Qarindoshman qor bilan, | Bizlar asli Yerlikmiz, - |
| Deydilar Bulut onam. | Ko‘proq ko‘klam chog‘i yog‘ |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

***“Gapni to‘ldiring” mashqi.*** Bu mashq o‘quvchilar darsda olgan bilimlarini yana bir bor yodga olib, xotirada saqlab qolishlari uchun o‘tkaziladi. O‘quvchilar gaplarni mustaqil ravishda to‘ldiradilar.

1. Men bugun darsdan menga kerakli bo‘lgan ... ma’lumotlarni oldim.
2. Bugungi darsda menda katta taassurot qoldirgan ma’lumotlar, bular …..
3. Darsda menga yangilik bo‘lgan ma’lumot bu ……...
4. Men uchun takror bo‘lgan ma’lumot bu ……...

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish**. “So‘zlovchi yomg‘ir” she’rini yod olish.

## 125-d a r s

***Mavzu*:** “Danak ichidagi daraxt” (*Aziz Abdurazzoq*) 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri va ongli o‘qishga, tabiat hodisalariga mustaqil ravishda munosabat bildirishga, tegishli xulosa chiqarishga o‘rgatish.

***TK 2*:** mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1:*** ertakni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga ezgulik, mehribonlik kabi go‘zal insoniy fazilatlarni singdirish.

***TK 3:*** tevarak atrofga oqilona munosabatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** tabiat hodisalariga mustaqil ravishda munosabat bildirish. Axborot manbalaridan foydalanish.

***FK 1:*** hikoyaga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: bahs-munozara, tushuntirish, “Gapning egasini top” mashqi.

**Dars jihozlari:** rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Bir necha o‘quvchidan “So‘zlovchi yomg‘ir” she’ri so‘raladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar she’r mazmuniga asosida savol-javob o‘tkazadilar.

1. She’rga nima uchun “So‘zlovchi yomg‘ir “ deb nom qo‘yilgan?
2. Yomg‘irga onasining bergan maslahatlarini aytib bering.

**III. Yangi mavzu bayoni.**



***“Rebus”***. O‘quvchilar rebusni yechadilar va yangi mavzuni topadilar. Bugun biz “Danak ichidagi daraxt” hikoyasi bilan tanishamiz. “Danak ichidagi daraxt” hikoyasining muallifi haqida qisqacha ma’lumot o‘qituvchi tomonidan beriladi.

– Hikoyani o‘qiyotganingizda tushunarsiz so‘z va iboralarni belgilab qo‘ying.

Hikoyada uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

O‘quvchilar hikoyani ovoz chiqarmay o‘qiydilar.

***Lug‘at ishi:***

**kafti** – qo‘lning bilak uchidan barmoqlarning oxirigacha bo‘lgan qismi
**sirg‘alib**– sirpanib, surilib, aylanib ketmoq

Hikoya mazmuni tahlil qilinadi.

– Bu hikoya nima haqida ekan?

– Yozuvchi hikoyada Ra’noning daraxt bilan suhbatini ifodalash uchun qanday so‘zlarni qo‘llagan? Misollar keltiring.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.***

– Kim hikoyani ifodali o‘qib bera oladi?

O‘quvchilar hikoyani birin-ketin o‘qiydilar. Mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ra’nolarning hovlisi nimaga o‘xshar edi?
2. Ra’no danakning ichidagi daraxt bilan nima haqida gaplashdi?
3. Danak nima qildi?

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

***“Gapning egasini top” mashqi.*** Bir o‘quvchi hikoyadan biror qahramonning gapini o‘qib beradi. Ikkinchi o‘quvchi esa bu gap kimga tegishli ekanini topishlari lozim bo‘ladi.

*Masalan:*

– Iya bu nima! *(Ra’no)*

– Bu men! *(Daraxt)*

– Iya, daraxt ham danakning ichida bo‘ladimi? *(Ra’no)*

***Test topshiriqlari:***

1. “Danak ichidagi daraxt” hikoyasining muallifi kim?

A) N.Fozilov B) Abdurahmon Akbar

D) G‘. G‘ulom **E)** Aziz Abdurazzoq

2. “Ra’nolarning uyida asaldan ham totliroq mevasi bor” daraxtning nomi nima?

**A)** o‘rik B) gilos D) olcha E) olma

3. O‘rikni quritib nima qilishar edi?

A) turshak qilishardi **B)** turshak qilib xaltalarga yig‘ishar edi

D) savatga solib yig‘ishardi E) murabbo tayyorlashardi.

4. Danakning ichidan qanday ovoz keldi?

A) bu men-daraxtman B) qanaqa daraxt ekansan?

D) daraxt danakning ichida bo‘ladimi? E) daraxt, qayoqqa qochding?

5. Danak nima qildi?

A) qochib ketdi B) gapirdi **D)** yo‘qoldi E) yerga tushdi

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Sizda nima ko‘proq taassurot qoldirdi?
2. Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish**. “Danak ichidagi daraxt” hikoyasini o‘qish.

## 127-d a r s

***Mavzu:*** “Bahor” (*Dilshod Rajab*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Bahor” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarning ravon o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** she’rni ongli va ifodali o ‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni tabiatni sevish, asrab-avaylashga o‘rgatish va tabiatga bo‘lgan mehrini uyg‘otish.

***TK 3:*** tevarak atrofga oqilona munosabatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, erkin va mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***TK 2:*** mavjud axborot manbalaridan (kitob, kompyuter) foydalana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari**: savol-javob, “She’rni to‘ldir”, “Topqirlar” o‘yini.

**Dars jihozi**: tarqatma materiallar, multimediali ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga topshiriq qilib berilgan “Danak ichidagi daraxt” hikoyasi “Davom ettir” usulida hikoya qildiriladi. Savol-javob o‘rkaziladi.

1. Ra’noning hovlisida qaysi daraxt asaldan ham totli ekan?
2. Ra’no o‘rik pishganda nima qilar ekan?
3. Ra’no oyisi bilan birgalashib turshak solayotganda turshak orasidan nima yerga tushibdi?
4. U nimani o‘ynabdi?
5. Ra’no danakning ichidagi daraxt bilan nima haqida gaplashdi?
6. Danak ichidagi daraxt qanday qilib ko‘karib chiqdi?




***“Topqirlar” o‘yini.***

- Yerga tushsa loy qilar,
  Dehqonlarni boy qilar. *(Yomg‘ir)*
- Katta chelak teshildi,
  Undan ko‘p suv to‘kildi. *(Yomg‘ir)*
- Beqasamdan yo‘li bor,
  Osmon-falakda chiqar. *(Kamalak)*
- Qishda oq gul,
  Bahorda suv sochadi.
  Yel esganda,
  Tumtaraqay qochadi. *(Bulut)*
- Kelib ketar bir yilda,
  To‘rt og‘ayni har xilda. *(To‘rt fasl)*
- Bola kelar, bola kelar,
  Ilk mehr ola kelar,
  Silab-siylab daraxtlarga,
  Guldan marjon taqa kelar. *(Bahor)*

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– O‘quvchilar bugun biz Dilshod Rajabning “Bahor” she’ri bilan tanishamiz. (Matn muallifi haqida ma’lumot beriladi.)

O‘qituvchi she’rni ifodali o‘qib beradi, mazmunini tushuntiradi. O‘quvchilar ketma-ket she’rni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. She’r matni ustida ishlanadi, notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**qahri –** g‘azabi
**malak –** farishta
**sheryurak –** qo‘rqmas

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash: “Ifodali o‘qish” musobaqasi.*** Musobaqa qatorlararo o‘tkaziladi. O‘quvchilarning hammasi she’rni o‘qiydi. Musobaqa so‘ngida har bir qatorda nechta o‘quvchi ifodali o‘qigani e’lon qilinadi va ko‘p ifodali o‘qigan qator g‘olib sanaladi.

***“Qofiyadosh so‘zni top” o‘yini.***

So‘ndirib – to‘ldirib, olib – solib, uchar – quchar, falak – malak



***“She’rni to‘ldir” mashqi.*** Ekranda she’r matni beriladi, o‘quvchilar she’rdagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yishlari kerak.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘larkan?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bahor” she’rini yod olish.

## 131-d a r s

***Mavzu:*** “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” (*Shukur Sa’dulla*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga tinchlik, tinchlik qushi ya’ni kabutar haqida ma’lumot berish, “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***TK 2***: mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

***FK 1:*** she’rni ongli, ifodali o‘qiy olish va mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tinchlik, osudalik, hotirjamlikni qadrlash, vatanparvarlik hislarini tarbiyalash.

***TK 4:*** umuminsoniy qadriyatlarni anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***TK 2:*** axborot manbalaridan (kitob, kompyuter) foydalana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Mozaika” mashqi, “Kabutarlar” o‘yini.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar yozgan bahor faslida yuz beradigan hodisalar haqidagi hikoyalari o‘qittiriladi. Bo‘lim yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Ra’no qaysi ertak qahramoni edi?

– “So‘zlovchi yomg‘ir” she’rining muallifi kim?

***Test topshiriqlari:***

1. “Danak ichidagi daraxt” ertagining muallifi kim?
A) Shukur Sa’dulla B) G‘ayratiy D**)** Fitrat
**E)** Aziz Abdurazzoq
2. Kimlarning hovlisi bog‘ga o‘xshardi?
**A)** Ra’noning B) Munisaning D) Komilning E) Anvarning
3. “So‘zlovchi yomg‘ir” she’rining muallifi kim?
A) Aziz Abdurazzoq **B)** Abdurahmon Akbar
D) Habib Rahmat E) Qudrat Hikmat
4. Yomg‘ir tabiatga ko‘proq qaysi faslda kerak?
A) yoz B) kuz D) qish **E)** bahor
5. Mir Alisher ko‘chatlarni nima niyatda ekayotgan ekan?
A) hosilini sotish uchun B) uni maqtashlari uchun
**D)** kelajak avlod uchun E) o‘zi uchun

***“Mozaika” mashqi o‘tkaziladi.*** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga kabutar tasvirlangan rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

**–** Bugun biz Shukur Sa’dullaning “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan tinchlik, uning ramzi bo‘lgan kabutar haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

**–** Bizning tinchligimizning ramzi nimada?

**–** Tinchligimizning bardavomligiga biz qanday hissa qo‘sha olamiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘qituvchi “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**ohista –** sekin
**yarqiraydi –** yaltiraydi
**charx uradi –** aylanib uchadi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Shoir she’rda tinchlik ramzi bo‘lgan oq kaptarni nimaga o‘xshatadi?

– “Qotil”, “battol”, “jallod”, “odamxo‘r” so‘zlarining ma’nosini izohlang.



***“Kabutarlar” o‘yini.*** Ekranda ketma-ket savollar ko‘rsatiladi. To‘g‘ri javob ko‘rsatilgan tugma bosilsa, kabutar uchib chiqadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkazilib, dars yakunlanadi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” she’rini o‘qish va yodlash.

## 132-d a r s

***Mavzu:*** “Shoira” (*Hakim Nazir*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** “Shoira” hikoyasining mazmuni bilan tanishtirish, bog‘lanish nutqi va matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini ongli tushunib o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni kattalarga hurmat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 3:*** o‘zidan kattalarni hurmat qilish va kichiklarga izzatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** hikoya mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Har kim, har kimga o‘rgatadi”, “She’rni tikla” mashqi.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘qituvchi o‘quvchilarni “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r” she’rini yod olganliklarini aniqlash maqsadida *“She’rni tikla”*mashqidan foydalanadi.



***“She’rni tikla” mashqi***. O‘quvchilar berilgan vaqt ichida she’rni qayta tiklash orqali o‘z ziyrakliklarini namoyish etishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun sinf 3 guruhga bo‘linadi. She’r misralari almashtirib beriladi, o‘quvchilar yoddan she’r misralarini to‘g‘ri tiklab birishi kerak bo‘ladi.

She’r asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Siz tinchlik ramzi bo‘lgan oq kaptarlarni ko‘rganmisiz?
2. Kaptarlar nimalar bilan oziqlanishini bilasizmi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Shoira” hikoyasi bilan tanishamiz. Muallif haqida ma’lumot beriladi.

Matnni o‘qituvchi o‘qiydi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar hikoyani navbat bilan o‘qiydi, qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***



**tortig‘liq** – tuhfa qildi, sovg‘a qildi
**dong qotib turdi** – hayratlandi
**dami ichiga tushdi** – nafas ololmay qoldi
**g‘ujg‘on** – to‘planib
**ko‘pda alahsitmasdi** – ko‘pda aralashmaslik, qo‘shilmaslik

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**



***Darslik bilan ishlash. “Har kim har kimga o‘rgatadi” metodi.***

O‘quvchilarga “Shoira” hikoyasi qismlarga bo‘lib beriladi. O‘quvchilar matn qismlarini o‘qib, hikoya mazmuni bir-biriga o‘rgatadilar. So‘ngra Shoiraning qilgan ishlari haqida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Shoira nima uchun o‘rtog‘inikiga borib, uy ishlariga yordam berishini oyisidan yashirdi?

2. Shoiraning qaysi fazilati sizga yoqdi?
3. Shoira qanday qiz?

Reja asosida o‘quvchilarga qayta hikoya qildiriladi.



– Berilgan gaplarni hikoyadagi voqealar ketma-ketligida joylashtirib reja tuzing va matnni qayta hikoya qiling.

Ekranda gaplar aralash holda beriladi. Gaplar to‘g‘ri joylashtirilsa, quyidagi ketma-ketlik hosil bo‘lishi kerak.

Reja:

1. Shoiraning dars xonasi.
2. Onasining xavotirlanishi.
3. Shoiraning dugonasiga qilgan yordami.

***Test topshiriqlari:***

1.Shoiraning dars xonasida qanday qog‘ozlar ilib qo‘yilgan?
A) dars jadvali **B**) maqtov yorlig‘i
D) chizgan rasmlari E) kun tartibi
2. Habiba opa qayerda ishlaydi?
**A)** fabrikada B) maktabda D) do‘konda E) zavodda
3. Shoira qayerga bordi?
A) maktabga B) kutubxonaga **D)** dugonasinikiga E) buvisinikiga
4. Shoiraning dugonasi kim?
A) Qutbi B) Habiba D) Zebo **E)** Nodira
5. Shoira qanday qiz?
A) dono **B)** mehnatkash D) ziyrak E) dangasa

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Shoira nega xursand bo‘ldi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Shoira” hikoyasini o‘qish.

## 133-d a r s

***Mavzu:*** “Do‘stlik” (*Xudoyberdi To‘xtaboyev*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga do‘stlik haqida ma’lumot berish, “Do‘stlik” hikoyasi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** o‘qilgan hikoya mavzuyiga mos maqol topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga do‘stlikning qadriga yetishni o‘rgatish.

***TK 5:*** hikoyada qahramonning insoniylik xususiyatlariga xolisona fikr yurita olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2***: hikoyadagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, muammoli izlanish.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Shoira” hikoyasi o‘qitiladi, mazmuni hikoya qildiriladi. O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Shoira qanday qiz ekan?

– Shoira qanday yutuqlarga erishgan?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, siz do‘stlik, uning biz uchun qanchalik kerakligi haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz “Do‘stlik” hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan do‘stlik, uning qanchalik hayotimizda o‘rin tutishi haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi. O‘qituvchi “Do‘stlik” hikoyasini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Lug‘at ishi:***

**Vova** – rus millatiga mansub odam ismi
**durustgina** – yaxshigina

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Do‘stlik” hikoyasi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Abduqodir bilan Vova qanday qilib do‘stlashib qolishdi?

– Daftaringizga do‘stlik haqidagi maqollarni yozing.

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Krossvord”.***

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **D** | O‘ | P | P | I | | |
| **O‘** | R | I | K | | | |
| **S** | A | B | Z | I | | |
| **T** | U | Z | | | | |
| **L** | O | L | A | | | |
| **I** | L | O | N | | | |
| **K** | A | B | U | T | A | R |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkazilib, dars yakunlanadi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Do‘stlik” hikoyasini o‘qish.

## 134-d a r s

***Mavzu:*** “Mangu olov” (*Ravshan Isoqov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Mangu olov” she’ri bilan tanishtirish, tinchlik, uning ahamiyati, mangu olov haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** ixcham matn asosida yaratilgan videotasvirlarni tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ezgulik, mehr-oqibat tuyg‘ularini tarbiyalash, ularga vatan uchun jonini berganlarni doim xotirada saqlash, tinchlikning qadriga yetish, doim ogoh bo‘lishni o‘rgatish.

***TK 5:*** hikoyada bo‘layotgan voqea jarayoniga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ifodali o‘qish, lug‘at ustida ishlash, matn tuzib yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** asar mazmunidan ta’sirlana olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Mozaika”, “Bilag‘onlar” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Do‘stlik” hikoyasi o‘qitiladi, mazmuni qayta hikoya qilinadi. “Do‘stlik” hikoyasi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Abduqodir kimga xat yozayotgan edi?

– Abduqodir va Vova qanday qilib do‘stlashib qolishdi?

O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.




***“Mozaika” mashqi.*** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga “Xotira maydoni” tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

– Bugun biz Ravshan Isoqovning “Mangu olov” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan vatan uchun jonini bergan fidoyilar haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Xotira va qadrlash kunini qachon nishonlaymiz?

– Mangu olov qayerda joylashgan?

She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Mangu olov” she’ri asosida videolavha namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

O‘qituvchi “Mangu olov” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**mangu** – abadiy
**ehtirom –** hurmat

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Mangu olov” she’ri o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Mangu olov nimaning ramzi?

– Shoir uni nima uchun “Yuraklardan o‘chmaydi sira” deb ta’riflaydi?




***“Bilag‘onlar” o‘yini.*** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, “Xotirangiz abadiy bo‘lar” nomli matn yozadilar. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng har bir guruh o‘z matnini o‘qib beradi. Eng yaxshi matn yozgan guruh g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Vatan uchun jonini bergan fidoyilardan kimlarni bilasiz?
2. Xotirlash va qadrlash nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Mangu olov” she’rini yodlash.

## 137-d a r s

***Mavzu:*** “To‘maris” (*Hamdam Sodiqov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘tmishda yashab o‘tgan vatanparvar ajdodlarimizdan To‘maris haqida ma’lumot berish, uning Vatan oldidagi burchini to‘g‘ri anglaganini o‘quvchilar ongiga yetkazish.

***FK 1:*** o‘qilgan rivoyatning mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda Vatan tuyg‘usini kengaytirish, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

***TK 4:*** rivoyatda aks etgan vatanparvarlik xususiyatlarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilar nutqiga To‘maris, Sparangiz, Kurush, Krez ismlarini, massaget, forslar kabi qabila nomlarini, Oks (O‘kuz) – Amudaryo so‘zlarini kiritish, qayta hikoyalash asosida bog‘lanishli nutqni o‘stirish.

***FK 2:*** o‘qilgan rivoyat mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi**: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** “T-chizma”, “Nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri” o‘yini.

**Dars jihozlari:** rasmlar va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Yashasin tinchlik, bor bo‘lsin do‘stlik” bo‘lim yuzasidan “Biz tinchlik istaymiz” mavzusida yozgan inshosi tekshiriladi va suhbat o‘tkaziladi.

– Siz tinchlikni saqlash uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz?

– Tinchlik, do‘stlik va Vatan haqida qanday she’r va maqollarni bilasiz?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz H.Sodiqovning “To‘maris” rivoyati bilan tanishamiz.

(Muallif haqida qisqacha ma’lumot beriladi.)

Rivoyat mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi va matn mazmuni tushuntiriladi.

– Ajdodlarimiz deganda kimlarni tushunasiz?

– Nima uchun biz ular bilan faxrlanamiz?

– To‘maris kim?

– U haqda nimalarni bilasiz?

O‘qituvchi qisqacha ajdodlarimiz haqida so‘zlab beradi:

O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**Oks (O‘kuz)** – Amudaryoning qadimgi nomi
**Massaget** – qabila nomi
**muddao** – maqsad

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga rivoyatni topshiriqlar asosida o‘qitiladi.

1-qismni o‘qing va unga sarlavha toping. “Oltin – ro‘zg‘or buyumi” yoki “Massagetlar g‘alati xalq”. Qolgan qismlar ham shu tarzda top-

shiriqlar asosida o‘qitiladi. Ohirida bu sarlavhalar reja tarzida doskaga yozib qo‘yiladi.

Reja:

1. Oltin – ro‘zg‘or buyumi
2. Sharob nimaligini bilmaydigan xalq
3. Massagetlar to‘yi
4. Taklif rad etildi.

Ana shu rejalar asosida o‘quvchilar tanlab o‘qitiladi va qayta hikoya qiladi.

***Test topshiriqlari:***



1. Kurush qaysi halq hukumdori edi?
A) massagetlar B) qarluqlar **D)** forslar E) qipchoqlar
2. Elchi massagetlar haqida qanday xabar aytdi?
A)…ularning qo‘y-qo‘zilari ko‘p ekan
B)...ularda yegulik mo‘l ekan
D)….ularda yilqilari ko‘p ekan
**E)**…ularda oltin-kumush serob ekan
3. Massagetlar oltin kumushdan qanday foydalanishgan?
A) oddiy bezak, ro‘zg‘or buyumi qurolida oltin bor
B) tuprog‘i va toshlarda oltin bor
**D)** xumlarda, yerto‘lalarda oltin bor E) qop-qop oltin-kumush bor
4. Nima uchun To‘maris Kurush taklifini rad etdi?
A) boyligim kerak deb B) lashkarlarim kerak deb
**D)** yurtim kerak deb E) yilqilarim kerak deb
5. To‘maris ikkinchi bor elchining taklifiga qanday javob berdi?
**A)**…o‘z ona yerimizni himoya qilamiz
B) …qo‘shinlarimizni birlashtiramiz
D) …boyliklarimizni tortiq qilamiz
E)…bitta davlat quramiz




***“T-chizma” metodi.*** Qahramonlarga tavsif beriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1. “To‘maris” asarini o‘qish orqali sizda qanday tuyg‘u paydo bo‘ldi?
2. Siz kimning o‘rnida bo‘lishni istar edingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “To‘maris” rivoyatini o‘qish.

## 138-d a r s

***Mavzu:*** “Najmiddin Kubro” (*Rivoyat*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Najmiddin Kubro” rivoyati bilan tanishtirish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** rivoyatning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda Vatan, xalq, millat taraqqiyoti va gullab yashnashiga hayotini bag‘ishlagan vatandoshlarimizning jasoratidan o‘rnak olish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 4:*** rivoyatda aks etgan vatanparvarlik g‘oyalarini anglash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z fikrini qisqa va dalillar asosida erkin bayon etishga o‘rgatish.

***FK 2*:** rivoyat mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Ha-yo‘q”, “Teatr” rolli o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Hakim Nazirning “To‘mars” matnini so‘zlab berish.

***“Rolli o‘yini”.*** Rivoyat sahna ko‘rinishida ijro etiladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Najmiddin Kubro” rivoyati bilan tanishamiz.

O‘qutuvchi rivoyatni ifodali o‘qib beradi va mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri rivoyatni ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**Shayx–** din ilmining donosi **shahid** – halok bo‘lgan

**Mo‘g‘il bosqinchilari** – mo‘g‘il millatiga mansub dushmanlar (bosqinchilar)

**g‘alabaiy munavvar –** g‘alaba qozona olmaslik, mag‘lubiyat.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Najmiddin Kubro” rivoyatini o‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulida o‘qiydilar. Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bosqinchilar Xorazmga nima maqsadda yurish qildilar?
2. Dushman shayx Najmiddin Kubroga qanday maktublar yo‘llaydi?
3. Najmiddin Kubro “Mening yaqinlarim ming kishidan ham ko‘p erur” deb kimlarni nazarda tutganlar?
4. Dushman nima uchun yengildi?



***“Ha-yo‘q” o‘yini.***

“Vatan” tushunchasi “Ona” so‘ziga tenglashtiriladimi? (Ha).

O‘zbekiston mustaqil davlatmi? (Ha).

3. Amir Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud kabi vatanparvarlar bizga o‘rnakmi? (Ha).

4. Najmiddin Kubro xorazmlik emas? (Yo‘q).

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Najmiddin Kubro haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Yana qaysi buyuk allomalarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Najmiddin Kubro” rivoyatini o‘qish.

## 139-d a r s

***Mavzu*:** “Sulton Maxmud va Beruniy” (*N.A.Samarqandiy)*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Sulton Maxmud va Beruniy” rivoyati bilan tanishtirish, ifodali o‘qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** rivoyatni tinglab tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ahillik, birodarlik, hamjihatlik fazilatlarini tarbiyalash.

***TK 4:*** rivoyatda aks etgan go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**FK 2:** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, muammoli izlanish, “FSMU”, “Charxpalak” o‘yini.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish.O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar Hakim Nazirning “Najmiddin Kubro” rivoyatini o‘qib beradilar.




***“Charxpalak” o‘yini.***

1. Amudaryo tomonda kim yashagan ekan?

2. Mo‘g‘ullar qayerga urush boshlabdi?
3. Bosqinchilarning niyati nima ekan?
4. Dushman kimga maktub yuboribdi?
5. Najmiddin Kubro maktublarga nima deb javob beribdi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Sulton Maxmud va Beruniy” hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi o‘quvchilarga hikoyani ifodali o‘qib beradi.

Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?

***Lug‘at ishi:***

**boloxona** – imoratning ikkinchi qavati va shu ikkinchi qavatdagi xona
**xunibiyron** – jaxli chiqdi
**o‘qday tikildi** – to‘g‘ri, tik, tikildi
**nazari tushibdi** – ko‘zi, nigohi tushibdi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Sulton Maxmud va Beruniy” rivoyatini o‘quvchilar “Ichida o‘qish” usulida o‘qib, reja asosida matn mazmunini qayta hikoya qiladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Sulton Mahmud G‘aznada Ming chinor bog‘idagi qasrining boloxonasida vazirlar, olimlar, shoirlar bilan o‘tirib, birdan kimga nazari tushibdi?
**A)** Abu Rayhon Beruniyga B) Al – Xorazmiyga
D) Abu Ali ibn Sinoga E) Sohibqiron Amir Temurga

2. Abu Rayhon usturlobni qo‘liga oldi, nimani keltirishlarini buyurdi?
A) kitob va qalamni B) qog‘oz va ruchkani
D) bo‘r va qalamni **E)** bo‘r va taxtachani

3. Abu Rayhon Beruniy nimaning balandligini o‘lchadi?
A) boloxonaning **B)** oftobning D) devorning E) daraxtning

4. Sulton xunibiyron bo‘lib, Abu Rayhonni nima qilishni buyuribdi?
A) to‘n kiydirishni B) she’r o‘qishini
**D)** yerga uloqtirishni E) kitob yozishini

5. Abu Rayhon Beruniy nimaning ustiga tushdi?
**A)** soyabonning B) yerning D) tomning E) xashakning

***“FSMU” metodi.*** Vazifa: “Sulton Maxmud va Beruniy” mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo‘yicha bayon eting.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hikoya sizga yoqdimi?

2. Abu Rayhon Beruniyning qaysi xislatlari sizga yoqdi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Sulton Maxmud va Beruniy” hikoyasini o‘qish.

## 141-d a r s

***Mavzu:*** “Tanbeh” (*Xondamir*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga adabiy til talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli, to‘g‘ri o‘qish, rivoyatdagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilash, qahramonlarning xatti-harakatini baholash hamda ularga shaxsiy munosabat bildirishni o‘rgatish, buyuk allomalar haqida ma’lumotlar berish.

***FK 1:*** rivoyatdagi qahramonlarga munosabat bildira olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga yuksak insoniy fazilatlarni, mehnatsevarlik, fidoyilik tuyg‘ularini, topqirlik, sezgirlik, hozirjavoblik kabi xislatlarni singdirish, ulug‘ ajdodlarimiz hamda madaniy merosimizga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash.

***TK 4:*** odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmuni yuzasidan savollarga javob topish, matndan imlo xatolarni topish, so‘z boyligini oshira borish va nutqida qo‘llash malakalarini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 2:*** rivoyatning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila oladi.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Bilimlar daraxti”, “Arra” metodlari, “Yosh muharrirlar”, “Ta’rifi bo‘yicha top” mashqlari.

**Dars jihozlari:** turli xil masjid va tarixiy obidalar surati, daraxtning rasmi, olma shaklidagi rangli, yopishadigan (stikerlar) qog‘ozlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Sulton Mahmud va Beruniy” rivoyatini navbat bilan o‘qiydilar.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Bilimlar daraxti” metodidan foydalaniladi.




***“Bilimlar daraxti” metodi.*** Daraxt rasmi doskaga yopishtiriladi va olma shaklidagi rangli qog‘ozlarga o‘tilgan mavzu yuzasidan savollar yozib qo‘yiladi va daraxtga yopishtiriladi.

- Abu Rayhon Beruniyni kim imtihon qilmoqchi bo‘ldi?

1. Sulton Mahmud Beruniyga qanday topshiriq berdi?
2. Abu Rayhon javob topish uchun nima qildi?
3. Sulton qaysi eshikdan tashqariga chiqdi?
4. Ko‘rpacha qatidagi qog‘ozga nima yozilgan edi?

Guruh a’zolari tartib asosida bittadan taklif etiladi va daraxtdagi bir savolni tanlab olib, unga javob berishlari so‘raladi. Agar o‘quvchi savolga javob bera olmasa, bu o‘rinda quyidagi ikkita imkoniyatdan bittasini tanlashni taklif etish mumkin. 1. Guruh yordami. 2. Kitob yordami.

Barcha savollarga javob olingach, olib borilgan jarayon bo‘yicha yakun yasaladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Tanbeh” (Xondamir). O‘qituvchi rivoyat muallifi haqida ma’lumot beradi. Yangi mavzuni tushuntirishda “Arra” metodidan foydalaniladi.




***“Arra” metodi.*** Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4-5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq, ya’ni “Tanbeh” rivoyati matni ustida ishlaydilar.

O‘quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tqazilib, nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**munshiy –** saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib
**devoni oliy –** o‘tmishda amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi
**dinor** – qadimda musulmon davlatlarning oltin tangasi
**abadulabad** – butun hayot davomida
**giribon** – yoqa; bo‘g‘iz

Rivoyat mazmuni tahlil qilinadi.

– Alisher Navoiy Mirak Naqqoshning yalqov va beparvoligiga qarshi qanday chora qo‘lladi?

– Rivoyatdan Alisher Navoiyning qanday fazilatlarini bilib oldingiz?



***“Yosh muharrirlar” mashqi.*** O‘quvchilar hikoyadan olingan parchada tartibsiz berilgan so‘zlardan gaplar tuzishlari lozim bo‘ladi.

Quyidagi gaplar hosil bo‘ladi.

*Amur Alisher 1448-yili Xirotning Jomi maschitini tamirlashga urunayotkan edi. Binoning yozivlarini yozip berish Mirak naqosh tahalusi bilan mashxur bo'lgan Sayid Ruxuloga topshirilgan edi. U beparvolik qilip, ishka kechikiproq qo'l urdi. Naqoshlar unga qarap ish boshlolmiy turdilar.*

(23 ta xato)

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar matnni bitta gapdan navbat bilan “Zanjir” usulida o‘qiydilar.

– Yurtimizdagi qaysi tarixiy obidalarni bilasiz?

– Ular qaysi shaharlarda joylashgan?

– Tarixiy obidalarni asrab qolish uchun nimalar qilishimiz kerak?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va to‘ldiriladi.




***“Ta’rifi bo‘yicha top” mashqi.*** Guruhlarga navbat bilan buyuk allomalar haqida ta’rif beriladi. O‘quvchilar gap kim haqida borayotganini topishlari kerak. Agar birinchi ta’rifda topa olmasalar, ikkinchi ta’rif, shunda ham topishga qiynalsalar, uchinchi ta’rif o‘qib beriladi.

1-guruh uchun ta’riflar:

1. Hamadon shahrining Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasining ismi Abdulloh, onasining ismi Sitora.)

2. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shgan o‘rta osiyolik buyuk qomusiy olim. O‘rta asrning buyuk allomasi. (Abu Ali ibn Sino)

2-guruh uchun ta’riflar:

1. Andijon shahrida tug‘ilgan. Otasi – Umarshayx mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

2. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste’dodli sarkarda. (Zahiriddin Muhammad Bobur)

3-guruh uchun ta’riflar:

1. Hirot shahrida tug‘ilgan. 4 yoshida maktabga borgan, 10–12 yoshlaridan she’r yoza boshlagan.

2. Yosh shoirning iste’dodidan mamnun bo‘lgan mavlono Lutfiy uning mashhur g‘azaliga o‘zining 10-12 ming forsiy va turkiy baytini alishtirmoqchi bo‘lgan. (Alisher Navoiy)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rivoyatda sizni ko‘proq nima hayajonga soldi?

2. Nima deb o‘ylaysiz, rivoyatning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
3. Siz ham buyuk bobolarimizga o‘xshashni xohlarmidingiz?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.
**VI. Uyga vazifa berish.** “Tanbeh” rivoyatini qayta hikoya qilish.

## 142-d a r s

***Mavzu:*** “Navoiy bobomlar” *(Tursunboy Adashboyev).*
**Darsning maqsadi:**
***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni she’rning mazmuni bilan tanishtirish, to‘g‘ri, ongli o‘qish, o‘qiganini so‘zlab berish, she’rning asosiy g‘oyasini aniqlashni o‘rgatish.
***TK 3:*** she’riy kitoblarni o‘qib, o‘rganib borish.
***FK 1***: she’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qiy olish.
***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda Alisher Navoiyning topqirligi va bilimdonligi, do‘stlik, ilm o‘rganish va donishmandlik kabi tuyg‘ularni tarbiyalash.
***TK 4:*** rivoyatda aks etgan vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni anglash.
***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ifodali o‘qish, mavzu yuzasidan savollarga og‘zaki javob berish, og‘zaki nutqini rivojlantirish.
***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.
**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.
**Dars metodlari**: suhbat, “Tanlab so‘zla”,“Kim tez topadi?” o‘yini.
**Dars jihozlari**: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.
**Darsning borishi:**
**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.
**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**




***“Tanlab so‘zla” mashqi.*** O‘quvchilar “Tanbeh” hikoyasini “Tanlab so‘zla” mashqi yordamida so‘zlaydilar. Bunda o‘quvchilar juftliklarda bir-birlariga navbat bilan hikoyaning o‘zlari xohlagan qismini so‘zlab beradilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi ulardan juftiga qo‘ygan bahoni so‘raydi. Ular qo‘ygan baholarini qisqacha izohi bilan aytadilar.
O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadi:
– Alisher Navoiy Mirak naqqoshga qanday topshiriq bergan edi?
– Ishboshilar naqqoshga qanday choralar ko‘rdilar?
– Alisher Navoiy Mirak naqqoshning yalqov va beparvoligiga qarshi qanday chora qo‘lladi?
– Alisher Navoiyning qanday fazilatlarini bilib oldingiz?

Javoblar umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Navoiy bobomlar”. (T. Adashboyev).

O‘qituvchi “Navoiy bobomlar” she’rini ifodali o‘qib beradi.



Videolavha namoyish etiladi.

– Bolajonlar, men hozir she’rni o‘qiyman, siz esa diqqat bilan eshiting va tushunarsiz so‘zlarni qalam bilan belgilab qo‘ying.

She’rni o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tushunarsiz so‘zlarga izoh beradi.



***Lug‘at ishi:***

**to‘zon** – Havoga ko‘tarilgan mayda narsalar aralash chang
**mag‘rib-u mashriq** – kunbotar-kun chiqish tomon
**shamshod** – qaddi-qomati tik va kelishgan.

She’rning mazmuni tahlil qilinadi.

– A. Navoiy qayerda tavallud topgan?

– Qaysi asar ko‘ngilni yoritgan?

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** She’rni o‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar.

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari bajariladi.

***Test topshiriqlari:***

1.G‘azal mulkining sultoni.

**A)** A.Navoiy B) Bobur D) Amir Temur E) Nodirabegim

2. A.Navoiy qayerda tavallud topgan?

**A)** Hirot B) Qo‘qon D) Buxoro E) Andijon

3. Yo‘llarni munavvar etgan asar nomi?

A) Mahbubul-qulub **B)** Qush tili D) Xamsa E) Boburnoma

4. Ko‘ngilni shamdek yoritgan doston nomi?

A) Mahbubul-qulub B) Qush tili **D)** Xamsa E) Boburnoma

5. Alisher Navoiyning nimalari fidoyi-jondir?

**A)** G‘azallari B) masallari D) maqollari E) hikoyalari

– “Xamsa” dostoniga qaysi asarlar kiritilgan? Buni “Kim tez topadi?”o‘yini yordamida bilib olamiz.




***“Kim tez topadi?” o‘yini.*** O‘quvchilar birinchi harfi va harflar soniga qarab she’rda keltirilgan A.Navoiy asari qahramonlarini topishlari lozim bo‘ladi. (Farhod, Shirin.)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. She’rning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
2. Darsda olgan qaysi bilimlaringizni hayotingizda qo‘llaysiz?

O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Navoiy bobomlar” she’rini yodlash.

## 143-d a r s

**Mavzu:** “Hidi, tilimi va mazasidan” *(Hikoyat)*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati bilan tanishtirish, ajdodlarimiz, rivoyatlar haqida ma’lumot berish, ifodali o‘qish.

***FK 1:*** rivoyatni tinglab, tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni ajdodlarimizdan o‘rnak olish, tabiatni asrab-avaylashga o‘rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** matndagi so‘z ma’nolarini izohlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Mosini top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Navoiy bobomlar” she’ri yoddan so‘raladi. Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Navoiy bobomiz haqida nimalar bilasiz?

– She’r mazmuni nimadan iborat?

O‘quvchilarning bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan rivoyatlar, ajdodlarimiz haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Siz qanday rivoyatlarni bilasiz?

– Rivoyatlarda nima ifoda etiladi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati asosida animatsiya namoyish etiladi. Kadr ortidan “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatining matni o‘qiladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Bobur shoh o‘zidan yodgorlik qoldirish uchun Hindistonda nima ishlar qildi?

– Bog‘bonning gaplaridan nima uchun Bobur shohning ko‘ngli buzildi?



***“Mosini top” o‘yini.*** Ekranda ketma-ket savollar beriladi. To‘g‘ri javob yozilgan tugma qovunning bir bo‘lagi hosil bo‘ladi. O‘yin so‘ngida bir butun qovun ko‘rsatiladi.

1. Hindistonda barpo qilingan bog‘ga nima deb nom berildi?

**A)** Bog‘i Boburiy B) Hindiston bog‘i D) Mo‘jiza bog‘i

2. “Bog‘i Boburiy” da qaysi ekinlar bitmabdi?

A) piyoz, qovun **B)** handalak, qovun D) tarvuz, handalak

3. Bog‘bonlar qovunni qayerdan keltirishibdi?

**A)** Farg‘onadan B) Toshkentdan D) Andijondan

4. Bobur shoh qovunni “Bog‘i Boburiy” dan emasligini qanday bildi?

A) ko‘rinishidan, uzunligidan B) hididan, kattaligidan **D)** hidi, tilimi, mazasidan

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkazilib, dars yakunlanadi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatini qayta hikoya qilish.

## 144-d a r s

***Mavzu:*** “Rivoyat” *(Naim Karimov).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga ajdodlarimiz haqida ma’lumot berish, “Rivoyat” matni bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** rivoyatni o‘qib tushunish va mazmunini qayta so‘zlab bera olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ajdodlarimizdan faxrlanish, ularga munosib avlod bo‘lishga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash.

***TK 4:*** rivoyatda go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** rivoyatning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, “Sehrli daraxt”, “Kimning gapi?” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyati o‘qittiriladi, mazmuni so‘zlatiladi. Rivoyat yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Bobur shoh o‘zidan yodgorlik qoldirish uchun Hindistonda nima ishlar qildi?

– Shoh birinchi yil qovun ektirganda nima bo‘libdi?

– Bog‘bon qovunni qayerdan keltiribdi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

***“Sehrli daraxt” o‘yini.*** Ekranda daraxt ko‘rsatiladi. Uning har bir shoxida turli xil gullar bo‘ladi. Gullarga “Rivoyat” so‘zining harflari o‘rni almashgan holda yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar harfli gullarni ketma-ket bosib, so‘z hosil qiladilar.

– Bugun biz sizlar bilan Naim Karimovning “Rivoyat” matni bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan rivoyatlar, ajdodlarimiz haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Siz qanday rivoyatlarni bilasiz?

– Rivoyatlarda nima ifoda etiladi?

Mavzu tushuntiriladi, matn muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Rivoyat” asosida lavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Rivoyat” matni o‘qiladi.

O‘qituvchi “Rivoyat” matnini ifodali o‘qib beradi. Rivoyat mazmuni tushuntiriladi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**etagidan ushlasam –** tanlasam
**ochig‘ini –** to‘g‘risini
**chakki emas –** yomon emas

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Rivoyat” o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Usmon Nosir otasining ruhi bilan nima haqda suhbatlashadi?

– Ota ruhi bo‘lajak shoirga qanday maslahat berdi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi. Rivoyat mazmuni qayta hikoya qildiriladi.




***“Kimning gapi?” o‘yini.*** O‘qituvchi rivoyatdagi Usmon Nosir yoki otasining ruhi aytgan gaplarni ketma-ket o‘qiydi. O‘quvchilar u kimning gapi ekanligini topadilar.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkazilib, dars yakunlanadi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Rivoyat” matnini o‘qish.

## 147-d a r s

***Mavzu*:** “Bolalar gurungi” *(Hans Kristian Andersen) 1-qism.*

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy**: o‘quvchilarni “Bolalar gurungi” ertagi bilan tanishtirish, jahon bolalar adabiyoti haqida ma’lumot berish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1:*** o‘qilgan ertakning mazmunini tushuna olish.

**Tarbiyaviy**: o‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash, o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatish.

***TK 4:*** do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘la olish.

**Rivojlantiruvchi*:*** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, hozirjavoblik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi**: yangi, tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** “Diqqat” mashqi, kichik guruhlarda ishlash, “Nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri” o‘yini.

**Dars jihozlari:** tarqatma materiallar, multimediali ilovalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.




***“Diqqat” mashqi***. Mashq shartiga ko‘ra o‘qituvchi xonadagi mavjud jihozlar nomini ingliz tilida aytadi. O‘quvchilar shu jihozlarga qarashlari yoki qo‘llari bilan ko‘rsatishlari lozim. Masalan, shelf (shkaf), window (oyna), flowerpot (gul tuvagi), desk (parta), blackboard (doska). Mashqdan maqsad o‘quvchilarning diqqatini bir joyga jamlash hisoblanadi.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Ajdodlarimiz bilan faxrlanaman” matnini so‘rab, baholash.

***“Sehrgar bo‘lib qolsam” mashqi.*** O‘quvchilar vaqtni orqaga qaytarib, qaysi voqea qaytadan sodir bo‘lishi yoki boshqacha tus olishini istashlari haqida fikrlarini aytadilar. (bir necha so‘z yozib yoki rasmini chizib ifoda qilsa bo‘ladi.)

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Hans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi” ertagi bilan tanishamiz. Hans Kristian Andersen haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘qituvchi ertakni ifodali o‘qib beradi, matn mazmuni tushuntiriladi.

O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**gurung** – suhbat, bahsli muloqot **dongdor** – mashhur, taniqli
**ulug‘vor-boyonlar** – nasl-nasabi ulug‘, hurmatli toifa kishilari
**kamer** – yunker-unvon

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Bolalar gurungi” ertagini bir marotaba ichda o‘qib chiqishlari uchun vaqt beriladi. So‘ng o‘quvchilar o‘rtasida “Ifodali o‘qish” musobaqasi o‘tkaziladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Kim ziyofat berdi?
A) o‘qituvchi B) hokim
**D)** badavlat savdogar E) bolalarning otalari
2. Ziyofatda kimlar ishtirok etdilar?
**A)** bolalar B) bolalarning otalari
D) bolalarning onalari E) ota-onalar
3.Qizchaning dimog‘dor bo‘lishiga kimlar sababchi bo‘lgan?
A) onasi **B)** xizmatkorlari D) do‘stlari E) opa-singillari
4. Maqolni davom ettiring: Kamtarga kamol, Manmanga ….
A) savol B) malol **D)** zavol E) iqbol
5. Qizcha qanday kishilardan odam chiqmaydi deb hisoblayverdi?
A) o‘qimagan odamlardan B) tartibsiz kishilardan
D) tarbiyasiz kishilardan **E)** familiyasi “sen” bilan tamomlangan kishilardan

***“Nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri” mashqi.*** To‘g‘ri deb hisoblagan vaziyatlariga o‘quvchilar + (qo‘shish) ishorasini, aksincha noto‘g‘ri deb hisoblagan vaziyatlariga – (ayirish) ishorasini ko‘rsatadilar.

– Og‘ir yuk ko‘targan ayolga yordam berish kerak.

– Tug‘ilgan kunda berilgan sovg‘aning yoqmaganligini aytish shart.

– Bemor kishining holidan xabar olish uchun borganda baqirib gapirish kerak.

– Kattalarga salom berish shart.

– Ertalab maktabga yuz-qo‘llarni yuvmay kelsa ham bo‘ladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsga yakun yasash maqsadida o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi.

1. Bolalar nima haqida bahslashdilar?

2. Qaysi bolaning javobi sizga yoqmadi? Nima uchun?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bolalar gurungi” ertagining I qismini ifodali o‘qish.

## 148-d a r s

***Mavzu:*** “Bolalar gurungi”. *(Hans Kristian Andersen).* 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga to‘g‘ri, ravon o‘qish, ertak mazmuni yuzasidan fikrini bildirish, nutqlarida maqol va hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanish, asar qahramonlarini qiyosiy tavsiflashni o‘rgatish.

***FK 1:*** ertak mazmunidan ta’sirlana olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga insondagi axloqiy fazilatlarni, maqtanchoqlik, manmanlik, birovlarni kamsitish yomon odat ekanligini tushuntirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rgatish.

***TK 5:*** sinfda va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, rollarga bo‘linib o‘qish, asar tahlilida matndan misollar tanlay olish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** ertakning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Topshiriqli o‘qish” “O‘z o‘rningni top”, “Domino” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** turli kasb egalarining suratlari, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. Davomatni aniqlash. O‘quvchilarning darsga hozirligini tekshirish. Fasl haqida suhbat o‘tkazish.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Bir necha o‘quvchi “Bolalar gurungi” ertagining 1-qismini so‘zlab beradi.

O‘tilgan mavzu “Domino” o‘yini orqali mustahkamlanadi.

***“Domino” o‘yini.*** O‘qituvchi ertakdan biron so‘z aytadi, o‘quvchilar davom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harfda tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni aytishi kerak. Masalan: badavlat – tinimsiz – ziyofat – takabburona – ataylab – boy – yig‘in – novvot….

O‘quvchilar shu so‘zlar ishtirok etgan gaplarni matndan topib o‘qishadi yoki ularning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini aytishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bolajonlar, bugun biz “Bolalar gurungi” ertagining 2-qismi bilan tanishamiz.

Ertakni o‘qituvchi o‘qib beradi. O‘quvchilar diqqat bilan eshitishadi. So‘ng notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**o‘sal –** qattiq hijolat bo‘lmoq, noqulay holatda qolmoq
**loaqal –** hech bo‘lmaganda, eng kamida
**falonchi** – kimsani aniq atamasdan, uning ismi o‘rnida ishlatiladigan so‘z
**aslzoda** – yuqori tabaqali zotlarga mansub shaxs

Ertak mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

– Kambag‘al bola kimlarga havasi keldi?

– Bolaga qizchalarning gapi qanday ta’sir qildi?

– Ko‘p yillar o‘tib o‘sha shaharda qanday uy paydo bo‘ldi? Bu uy kimniki edi?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va to‘ldiriladi.

***“O‘z o‘rningni top” metodi.*** 1. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita rasm osiladi. Ularning biriga “Roziman”, boshqasiga “Rozi emasman” degan so‘zlar yozilishi kerak. Rasmlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo‘yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: “Inson orzu-umidlariga ota-onasining boyligi yordamida ham erishsa bo‘ladi”, yoki “Inson orzu-umidlariga faqat bilimi va intilishi yordamida erishadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrlariga mos keladigan rasmlar yoniga borish zarurligi o‘qituvchilarga taklif etiladi.

4. Bo‘lingan o‘quvchilardan o‘z qarashlarini asoslash so‘raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinfdagi o‘quvchilarning hammasi jalb etiladi.

5. O‘quvchilar ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytganini aniqlash so‘raladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**
**Darslik bilan ishlash.**
O‘quvchilar ertakni navbat bilan “Zanjir” usulida o‘qiydilar.
***“Topshiriqli o‘qish” mashqi o‘tkaziladi.***
– Bolaning ota-onasi haqidagi gapni o‘qing.
– Kambag‘al bola uchun katta baxt nima edi?
– Darslikdagi rasmga mos misralarni topib o‘qing.
– Shaharda paydo bo‘lgan uyning egasi haqidagi gapni o‘qing.
Mashq natijasi tahlil qilinadi va xulosalanadi.



***Test topshiriqlari:***

1. Kambag‘al bola qayerda turgan ekan?
A) eshik orqasida **B)** devor orqasida
D) deraza orqasida E) shkaf orqasida

2. Qachon bolaga o‘yin-kulgi qilayotgan bolalarni tomosha qilishga ruxsat berildi?
A) iltimos qilganida B) uxlab turganida
**D)** yumushini tugatgach E) tushlikdan so‘ng

3. Bola nima uchun o‘sal bo‘lib, umidsizlikka tushishi mumkin edi?
**A)** qizchalarning gapidan B) otasining tanbehidan
D) onasining gapidan E) ustozining koyishidan

4. Bolaning o‘ylashicha, nima uchun undan durustroq odam chiqmaydi?
A) boyligi uchun B) odobsizligi uchun
D) dangasaligi uchun **E)** kambag‘alligi uchun

5. Ko‘p yillardan so‘ng shaharda paydo bo‘lgan xazinalar liq to‘la uy kimniki ekan?
A) savdogarniki B) aslzodaniki
D) “kamer-yunker”niki **E)** kambag‘al bolaniki

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**
O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Ertakda sizni ko‘proq nima hayajonga soldi?
2. Siz katta bo‘lganingizda kim bo‘lmoqchisiz?
3. Bu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.
**VI. Uyga vazifa berish.** “Bolalar gurungi” ertagining 2-qismini o‘qish.

## 149-d a r s

***Mavzu:*** “Bir xurmacha shavla” *Aka-uka Grimmlar.*
**Darsning maqsadi:**
***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

***TK 3***: ertakni o‘qish va o‘rganish.

***FK 1:*** ixcham audio matnni tinglab, tushuna olishi.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni sehrli so‘zlarni doimo yodda tutishga o‘rgatish, muomala odobini tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning asar mazmuniga doir savol va topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2***: o‘rganilgan asarning qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** “Charxpalak”, “Zanjir” usuli, “Rolli o‘yini”.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarning bir nechtasi “Bolalar gurungi” ertagining II qism mazmunini qayta hikoya qilib berishadi. So‘ng o‘tilgan mavzu asosida ***“Rolli o‘yini”*** o‘tkaziladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugungi darsda “Bir xumcha shavla” ertagi bilan tanishamiz.

Muallif haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.



Matn mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi.

Hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**maymunjon –** tanasi tikanli, yerda cho‘zilib o‘sadigan o‘simlik

**shikoyat –** arz qilish, norozilik

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga “Bir xurmacha shavla” ertagi “Zanjir usuli”dan foydalanib, navbatma-navbat o‘qitiladi. Mavzuni mustahkamlash asosida savollar beriladi. Ularga javob topadilar va izohlaydilar.

1. Ertak nima haqida?
2. Ertakning asosiy qahramoni kim?
3. Qiz nima uchun kampirdan sovg‘a oldi?
4. Onasi qanday sehrli so‘zni unutib qo‘ydi?




***“Charxpalak” texnologiyasi.*** O‘quvchilarga tarqatma savollar beriladi. Ular berilgan gaplarni mos qahramonlariga qo‘yadilar.

| T/r | Rivoyat qahramonlariga oid ma’lumotlar va gaplar | Kampir | Qiz |
|---|---|---|---|
| 1 | Vaalaykum assalom. Menga maymunjoningdan bersang-chi. | + | |
| 2 | Marhamat | | + |
| 3 | Rahmat ,buvijon | | + |
| 4 | Bir, ikki, uch, pishirishdan kech | | + |
| 5 | Sen menga maymunjon berding, men senga biron narsa sovg‘a qilaman | + | |
| 6 | Mana senga xurmacha, faqat sen faqat shuni aytishing kerak | + | |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga savollar beriladi:

1. Kampir nima uchun qizchaga xurmacha sovg‘a qildi?
2. Qizning onasi nima uchun sehrli so‘zlarni unutib qo‘ydi?
3. Sehrli so‘zlarni unutilishi qanday oqibatlarni olib keldi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bir xurmacha shavla” ertagini o‘qish.

## 151-d a r s

***Mavzu*:** “Rustam”. (*Faxri Erdinch)* 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga jahon bolalar adabiyoti haqida ma’lumot berish, “Rustam” hikoyasining I qismi bilan tanishtirish, lug‘at boyligini yangi so‘zlar bilan to‘ldirish.

***FK 1:*** ertakning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikning qadriga yetish, ota-onaga, qarindoshlarga mehribonlik ruhida tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarnin ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Ma’nodoshini top”, “Kim bilag‘on?” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Bir xurmacha shavla” ertagi o‘qitiladi, mazmuni qayta hikoya qilib beriladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Qizcha o‘rmonda kimni uchratib qolibdi?

2. Kampir qizchaga nima sovg‘a qilibdi?

3. Qizchaning onasi sehrli so‘zni untib qo‘yishi qanday oqibatlarga olib keldi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bugun biz sizlar bilan “Rustam” hikoyasining 1-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan jahon bolalar adabiyoti haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.

O‘qituvchi “Rustam” hikoyasining 1-qismini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.



***Lug‘at ishi:***

**chuvirindi** – tashlandiq
**nomus** – or, uyat
**yollash** – biror yumushga jalb qilish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**



***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Rustam” hikoyasining I qismi o‘quvchilarga “Zanjir” usulida o‘qitiladi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Matndagi voqea qaysi mamlakatda sodir bo‘lgan?

– Rustam nima uchun yollanib ishlaydi?

– U otasi haqida nimalarni gapirib berdi?



***“Ma’nodoshini top” o‘yini.*** Ro‘paramda-qarshimda, olis-uzoq, suhbatlashmoq-gaplashmoq, naf-foyda qamoq-turma, politsiya-jandarm.

***“Kim bilag‘on?” o‘yini.*** O‘quvchilar mehnatsevarlik haqida maqol aytishadi.



Asar qahramoni “Klaster” usulida tavsiflanadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Rustam qanday bola ekan?

2. Siz ham ota-onangizga yordam berasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** “Rustam” hikoyasining 1-qismini o‘qish.

## 152-d a r s

***Mavzu:*** “Rustam”. *(Faxri Erdinch)*. 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga jahon bolalar adabiyoti haqida ma’lumot

berish, “Rustam” hikoyasining II qismi bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** hikoyaning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, jonkuyarlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***TK 3:*** yaxshi fazilatlarni bir-biridan farqlay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, “Muammoli izlanish”, “Topag‘on” o‘yini.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Rustam” hikoyasining 1-qismi o‘qitiladi, mazmuni o‘quvchilarga so‘zlatiladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

– Rustamning otasiga nima bo‘lgan ekan?

– Rustamni qanday yigit deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar berilgan savollarga javob berishadi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Rustam” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan jahon bolalar adabiyoti haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi. O‘qituvchi “Rustam” hikoyasining 2-qismini ifodali o‘qib beradi. Hikoya mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**iyagidan** – dahanidan
**qurush –** pul birligi
**cho‘rt kesdi** – gapni bo‘ldi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Rustam” hikoyasining 2-qismi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Rustam ishlab topgan pullarini nimaga sarflar edi?

– U ortiqcha pulni olmay to‘g‘ri qildimi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Topag‘on” o‘yini.*** O‘quvchilar har bir hikoya qahramoniga alohida ta’rif beradilar. Eng yaxshi va mazmunli ta’rif bergan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

***Test topshiriqlari:***



1. Rustamning qanday kasali bor ekan?
**A)** bezgak B) qizamiq D) tutqanoq E) suvchechak
2. Rustamga bezgak kimdan yuqqan ekan?
A) otasidan B) opasidan **D)** onasidan E) akasidan
3. Rustam otasiga nima eltib berarkan?
A) ovqat **B)** sigaret D) suv E) kiyim
4. Yo‘lovchi Rustamga qancha pul berdi?
A) 5 qurush B) 20 qurush D) 3 qurush **E)** 10 qurush
5. Rustam yo‘lovchiga qancha qaytim berdi?
**A)** 5 qurush B) 20 qurush D) 3 qurush E) 10 qurush

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**
Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.
O‘quvchilar darsga ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Rustam” hikoyasining II qismini o‘qish.

## 153-d a r s

***Mavzu:*** “Gulliverning sayohatlari” *(Jonatan Svift).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga jahon adabiyoti, sarguzashtlar haqida ma’lumot berish, “Gulliverning sayohatlari” asar bilan tanishtirish.

***TK 2***: mavjud videotasvirni tinglab, tushunish va gapirib bera olish.

***FK 1:*** o‘qilgan asarning mazmunini tushuna olish va mavzuga mos maqol topa olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda xushyorlik, ziyraklik, mardlik, mehribonlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqlarini, mustaqil va ijodiy ishlash, ifodali o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan ertak mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, muammoli izlanish.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Rustam” hikoyasining II qismi o‘qitiladi, mazmuni 3,4 nafar o‘quvchiga qayta hikoya qildiriladi. O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

– Rustam ishlab topgan pullarini nimaga sarflar edi?
– Rustam otasini ko‘rgani qachon borayotgan edi?
– U ortiqcha pulni olmay to‘g‘ri qildimi?
– Rustam yo‘lovchiga nima deb va’da qildi?

**III. Yangi mavzuni bayoni.**

**–** Bugun biz sizlar bilan Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” qissasidan parcha bilan tanishamiz. Asar muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar bilan xushyorlik va ziyraklik haqida suhbatlashiladi, javoblari tinglanib, to‘ldiriladi.



“Gulliverning sayohatlari” qissasi asosida videolavha namoyish etiladi.

O‘qituvchi “Gulliverning sayohatlari” qissasini ifodali o‘qib beradi.

Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– Qissa nima haqida ekan?
– Gulliver qayerga borib qoldi?
– Odamchalar unga qanday munosabatda bo‘ldilar?
– Ular Gulliverni qanday ovqatlantirdilar?

Matndagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



***Lug‘at ishi:***

**chandilgan** – bog‘langan
**bet** – yuz
**qoqlangan** – toblangan

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Gulliverning sayohatlari” qissasi o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Odamchalar Gulliverga qanday munosabatda bo‘ldilar?
– Ular Gulliverni qanday ovqatlantirdilar?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Ifodali o‘qish” mashqi.*** O‘quvchilar o‘rtasida ifodali o‘qish musobaqasi o‘tkaziladi. Eng ifodali va mazmunli o‘qigan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Matn mazmuni zanjir usulida qayta hikoya qildiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Siz ham sayohatga chiqqanmisiz?
2. Sayohatga chiqishdan oldin nimalarni bilish kerak?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Gulliverning sayohatlari” qissasini o‘qish, qayta hikoyalash.

## 155-d a r s

***Mavzu:*** “Jimjiloq” (*Chingiz Aytmatov*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Jimjiloq” ertagi bilan tanishtirish, jahon bolalar adabiyoti haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** ertakni ongli, ifodali o‘qiy olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda ziyraklik, mardlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

***TK 4:*** ertakda aks etgan go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** xalq og‘zaki ijodi namunalarini farqlay olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, muammoli izlanish.

**Dars jihozlari:** tarqatma material, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Gulliverning sayohatlari” matni o‘qitiladi, mazmuni hikoya qilib beriladi.

O‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Gulliver qanday odamlarga duch keldi?
2. Odamchalarning Gulliverga munosabati qanday bo‘ldi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Jimjiloq” ertagi bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan jahon bolalar adabiyoti haqida suhbatlashiladi, ularning fikrlari tinglanib, to‘ldiriladi.



***“Jimjiloq”*** ertagi asosida animatsiya namoyish qilinadi. Kadr ortidan ertak matni o‘qiladi. O‘qituvchi “Jimjiloq” ertagini ifodali o‘qib beradi. Ertak mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



***Lug‘at ishi:***

**kavshaganini** – chaynaganini
**likillaysan** – qimirlaysan

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Jimjiloq” ertagi o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Jimjiloq tuyaning qornidan qanday qutuldi?

– U bo‘rini qanday jazoladi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Boshqotirma”.***

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **J** | I | Y | D | A | | | | |
| 2 | **I** | N | | | | | | | |
| 3 | **M** | U | Z | | | | | | |
| 4 | **J** | O‘ | J | A | | | | | |
| 5 | **I** | T | | | | | | | |
| 6 | **L** | I | M | O | N | | | | |
| 7 | **O** | Y | | | | | | | |
| 8 | **Q** | A | L | D | I | R | G‘ | O | CH |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilar darsga ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Jimjiloq” ertagini o‘qish.

## 156-d a r s

***Mavzu*:** “Bolalar hayotidan lavhalar”.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga o‘z hayotlari davomida ro‘y bergan qiziqarli va unutilmas voqea-hodisalarni eslab, dadil, ravon, izchillik bilan so‘zlab berishni o‘rgatish.

***FK 1***: maktab kutubxonasidan foydalana olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga bolalik davri eng beg‘ubor, quvonchlarga to‘la davr ekanini tushuntirish, vaqtdan unumli foydalanish, uni behuda ishlarga sarflamaslikni tushuntirish.

***TK 3:*** odobli bo‘lishga harakat qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, ongli va ifodali o‘qish, maqollardan o‘rinli foydalanish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** matndagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, “Bilag‘on”, “Maqollar zanjiri” ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** bolalar hayotidan lavhalar tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Jimjiloq” ertagini navbat bilan o‘qiydilar. Bir necha o‘quvchi ertak mazmunini so‘zlab beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1. “Jimjiloq” ertagining muallifi kim?

A) Jonatan Svift B) Aka-uka Grimmlar

**D**) Chingiz Aytmatov E) Faxri Erdinch

2. Nima bolani bargga qo‘shib yamlab yuboribdi?

A) ot B) sigir D) qo‘y **E**) tuya

3. Bir kuni nima Jimjiloqni uchratib qolibdi?

A) tulki **B**) bo‘ri D) quyon E) ayiq

4. Bo‘ri otlarga yaqinlashishi bilanoq Jimjiloq kimlarga xabar berar ekan?

**A)** cho‘ponlarga B) qo‘shnilarga D) ota-onasiga E) do‘stlariga

5. Gapdagi tushib qolgan so‘zni aniqlang: “Shunday qilib, bo‘ri … bo‘lib qolgan ekan”.

A) echki B) tulki **D**) it E) mushuk

O‘quvchilar yakka tartibda test topshiriqlarini bajaradilar. Test javoblari o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi, xatolar izohlanadi.



**III. Yangi mavzuni bayoni.**

***“Bilag‘on” o‘yini.*** O‘quvchilarga turli raqamlar ko‘rsatiladi. Ular alifboni eslab, shu raqam ortiga qaysi harf berkinganini topadilar va hosil bo‘lgan jumlani o‘qiydilar.

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | 14 | 11 | 1 | 11 | 8 | 10 | - | 2 | 4 | 26 | 20 | 2 | 14 | 17 | 11 | 8 | 10 |

**Javob:**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| B | o | l | a | l | i | k | - | b | e | g‘ | u | b | o | r | l | i | k |

Shu harflar bilan boshlanadigan insonlarga xos ijobiy va salbiy xislatlarga oid so‘zlarni guruhlab yozib, o‘qib beradilar.

*Masalan:*

Beg‘ubor Bebosh

Odobli Ochko‘z

Latofatli Laganbardor

O‘quvchilardan hosil bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini izohlash so‘raladi.

Yangi mavzu e’lon qilinadi. “Bolalar hayotidan lavhalar”.

O‘qituvchi o‘quvchilarga bolalik eng beg‘ubor, quvonchlarga to‘la davr ekanini, vaqtdan unumli foydalanish, uni behuda ishlarga sarflamaslik, bilim olib, baland cho‘qqilarga intilish lozimligini tushuntiradi.

O‘quvchilar o‘z hayotlari davomida ro‘y bergan qiziqarli va unutilmas voqea-hodisalarni yozadilar hamda o‘qib beradilar.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarga “Baxtli bolalik” mavzusida videolavha ko‘rsatiladi.



Videolavha namoyishidan so‘ng o‘quvchilar o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi.

– Berilgan videolavha nima haqida ekan?

– O‘zbekiston bolalariga qanday sharoitlar yaratilgan?

– Chet ellik bolalar hayoti haqida nimalarni bilasiz?

– Siz o‘zingizni baxtli deb hisoblaysizmi?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.




***“Maqollar zanjiri” mashqi.*** Har bir qatordan bittadan o‘quvchi doska oldiga chiqib, “bola” so‘zi ishtirok etgan maqollar aytishi kerak. Eng ko‘p aytgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

*Maqollar:*

● Ona daraxt – bola meva

● Bol – shirin, boldan – bola shirin.

● Onaning ko‘ngli bolada,

Bolaning ko‘ngli dalada.

● Ota bola uchun taxt yasar,

Baxt yasata olmas.

● Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der,

Kirpi bolasini yumshog‘im der.

G‘olib o‘quvchi aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Dars sizga yoqdimi?

2. Darsda sizni ko‘proq nima hayajonga soldi?

3. Darsda olgan qaysi bilimingizni hayotda qo‘llashingiz mumkin?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Baxtli bolalik” mavzusida insho yozib kelish.

## 160-d a r s

***Mavzu:*** “Yoz” *(Shukur Sa’dulla).*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Yoz” she’ri bilan tanishtirish, ularda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1:*** o‘rganilgan she’rning nomi, muallifi ajrata olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat hissini tarbiyalash, ularga kattalar mehnatini qadrlashni o‘rgatish.

***TK 3:*** tevarak-atrofga insoniylikka xos munosabatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘qilgan she’r mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Mevalar”, “Qofiyadoshini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari:** rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar yozgan bolalar hayotidan lavhalari o‘qittiriladi. Avvalgi bo‘lim yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Rustam qaysi hikoya qahramoni edi?

– “Bolalar gurungi” ertagining muallifi kim?

O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.




***“Mozaika” mashqi.*** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga yoz fasli tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Shukur Sa’dullaning “Yoz” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan yoz fasli, unda bo‘ladigan tabiat hodisalari haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

– Yoz faslida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

– Yozda bolalar qanday o‘yinlar o‘ynaydilar?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



“Yoz” haqidagi videolavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Yoz” she’ri matni o‘qiladi.

O‘qituvchi “Yoz” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Yoz” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savollarni o‘qib, ularga javob berishadi:

– Bolalar yoz faslini nima uchun sevadi?

– Yozda qanday mevalar pishadi? Kuzda-chi?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.



***“Mevalar” o‘yini.*** Ekranda turli xil yozda pishadigan mevalar suratlari ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ularning ingliz tilidagi tarjimasi bilan tutashtirib chiqadilar.




“***Qofiyadoshini top” o‘yini.*** O‘quvchilar “Yoz” she’ridagi qofiyadosh so‘zlarni topib, aytadilar. Eng ko‘p qofiyadosh so‘z topgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.




**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

***“Zanjir” o‘yini.*** O‘quvchilar yoz faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini ketma-ket aytishadi. Shu tarzda o‘yin davom etadi.

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Yoz ne’matlarini bizga kimlar yetishtirib beradi?
2. Yoz faslida quyoshda ko‘p yurishning qanday zarari bor?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bahor” she’rini yodlash.

## 161-d a r s

***Mavzu:*** “Non qayerdan keladi?” (*Qambar O‘tayev*)

**Darsning maqsadlari:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga “Non qayerdan keladi?” she’rini ifodali o‘qishni o‘rgatish. Novvoy kasbi haqida ma’lumot berish.

***FK 1***: she’rdagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarga nonni e’zozlash, uvol qilmaslik, uning inson rizq-ro‘zi ekanligini tushuntirish.

***TK 4:*** tabiat in’omiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish.

**Rivojlantiruvchi**: o‘quvchilarning she’rni ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** o‘rganilgan she’rning nomi, muallifini ajrata olish.

**Dars turi**: yangi, tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Do‘stingni tanla va fikringni yakunla”, “Qofiyadosh juftini top” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism**. Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Yoz” she’rini ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab beradilar.

Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Bolalar nima uchun yoz faslini sevishadi?
2. Yozda qanday mevalar pishadi?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan Qambar O‘tayevning “Non qayerdan keladi?” she’ri bilan tanishamiz. (Qambar O‘tayev haqida qisqacha ma’lumot beriladi.)



She’r mazmuniga mos vedeolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o‘qiladi. She’r mazmuni tushuntiriladi.

O‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulida matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar

***Lug‘at ishi:***

**nobud** – isrof qilish **gohi** – ba’zan **hovoncha** – non tuyadigan idish

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Non qayerdan keladi?” she’rini o‘quvchilar “Davom ettir” usulidan foydalanib, o‘qiydilar.

Savollar:

1. Bo‘rining huzuriga qaysi hayvonlar shifo izlab kelishdi?
2. Quyon bilan to‘ng‘iz nima uchun qochib qolishdi?

***Test topshiriqlari:***

1. “Non qayerdan keladi?” she’rining muallifi kim?

A) Sh.Sa’dulla **B)** Q.O‘tayev
D) A.Oripov E) Safar Barnoyev

2. Non haqida maqol qaysi qatorda berilgan?

**A)** Non ham non, uvog‘i ham non B) Nonni tashlab yuboring
B) Nonni uvol qilmang E) Ish sevarni el sevar

3. Nonni qaysi kasb egasi tayyorlaydi?

A) o‘qituvchi B) oshpaz **D)** novvoy E) tikuvchi

4. Bobosi non haqida nima degan?

A) Bolalarim non rizq-ro‘zimiz B) Nobud qilma, olib qo‘y
D) Non aziz ne’mat E ) Nonning isi yoqimli

5. Buvisi necha yoshga kirgan ekan?

A ) oltmish **B)** to‘qson
D) yetmish E) sakson



***“Qofiyadosh juftini top” o‘yini.*** Mehmon–dasturxon, qo‘yishar–yeyishar, olar–qolar, keladi–biladi, tuyar–qo‘yar.

**“Non turlarini top” o‘yini.**

O‘quvchilar non turlarini aytadilar.

Masalan: obinon, patirnon, kulchanon, bo‘lkanon, qoranon, piyoznon, qo‘qonpatir.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Non haqida she’r va maqollar bilasizmi?

2. Non bug‘doydan boshqa qaysi don mahsulotlaridan ham tayyorlanadi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Non qayerdan keladi?” she’rini yodlash.

## 162-d a r s

***Mavzu:*** Non rizq-ro‘zimiz *(amaliy mashg‘ulot)*

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga non haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK 1***: mashg‘ulotdagi non haqidagi gaplarning ma’nolarini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni nonni asrashga tarbiyalash.

***TK 3:*** o‘zining burch va vazifalarini bilish va unga rioya qilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** mashg‘ulot asosida kichkina matn tuzish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Maqolni top” o‘yini.

**Dars jihozlari:** ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Non qayerdan keladi?” she’ri o‘qittiriladi, o‘quvchilardan yoddan so‘raladi. Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Non qayerdan kelar ekan?

– Nonni qanday asrash mumkin?

O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***Test topshiriqlari:***

1. Dasturxon oldiga nima qo‘yiladi?

**A)** non B) suv D) tuz E) taom

2. “Non qayerdan keladi?” she’ridagi “qo‘yishar” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

A) keladi **B)** yeyishar D) ushog‘i E) qotgan

3. Mehmon ketganda non qolsa nima qilish kerak?

A) qo‘shnilarga berish kerak B) qushlarga berish kerak

**D)** quritib qo‘yish kerak E) yemasdan asrash kerak

4. “Non qayerdan keladi?” she’rining muallifi kim?

**A)** Qambar O‘tayev B) Shukur Sa’dulla

D) Obid Rasul E) Miraziz A’zam

5. Qotgan non nimada tuyilgan ekan?

A) idishda **B)** hovonchada

D) qozonda E) kosachada

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Non rizq-ro‘zimiz” mavzusida suhbatlashamiz.

O‘quvchilar bilan non, uni doim asrash kerakligi haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

1. Nonni qanday asrash mumkin?
2. Nima uchun non rizq-ro‘zimiz?

Non haqidagi lavha namoyish qilinadi.



**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***“Maqolni top” o‘yini.*** Ekranda non haqidagi maqolning so‘zlari aralashtirib yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar ularni to‘g‘rilaydilar.

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar bilan nonning turlari haqida suhbatlashiladi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o‘tkazilib, dars yakunlanadi. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Non rizq-ro‘zimiz” mavzusida bayon yozish.

## 163-d a r s

***Mavzu*:** “Oydin kecha” (*Murod Xidir*) 1-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Oydin kecha” matnining mazmuni bilan tanishtirish, oromgoh haqida ma’lumot berish, ongli, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

***FK 1:*** o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda kattalarni hurmat qilish, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish, tabiatga bo‘lgan mehr hissini tarbiyalash.

***TK 5:*** hikoyada bo‘layotgan voqea jarayonlarga daxldorlikni his etish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, o‘qituvchi yordamida qahramonlarga baho bera olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK2:*** o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, “Birikmadan gapgacha”, “Hayvonlar bilag‘oni”, “Yosh novvoy” o‘yini.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Non qayerdan keladi?” mavzusida yozib kelgan matnlarini o‘qishadi. O‘tilgan mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Non qadri haqida bobosi bolaga nima dedi?
2. To‘qsonga kirgan buvisi nonni asrash to‘g‘risida nima dedi?
3. Nonni nima uchun qadrlash kerak?
4. Siz suvi qochgan nondan qanday foydalanasiz?

***“Yosh novvoy” o‘yini.*** Bu o‘yinda o‘qituvchi ekranda tandir rasmini ko‘rsatadi. O‘quvchilar har bir misrada “non“ so‘zi qatnashgan gapni to‘g‘ri topib, tandirchaning ichiga yopishtirishlari zarur bo‘ladi.

Mehmonga non qo‘yishar,
Eng avval non yeyishar.
Mehmon uyga yo‘l olar,
To‘g‘ram-to‘g‘ram non qolar.

Non qayerdan keladi,
Bular qaydan biladi?
Non yeb yurishar gohi,
Tushar yerga ushog‘i.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Oydin kecha” hikoyasining 1-qismi bilan tanishamiz. O‘qituvchi tomonidan hikoya muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi. O‘qituvchi hikoya mazmuni haqida gapirib beradi. Mavzu o‘quvchilarga “Ichda o‘qish” usulidan foydalanib, o‘qittiriladi.

Mavzudagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi

***Lug‘at ishi:***

**hamqishloq –** bir qishloqda yashaydigan odam **serviqor –** viqorli
**hilvirab –** g‘arq pishgan **gardishi** – chambarak

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilarga “Oydin kecha” hikoyasi navbatma-navbat, tinish belgilariga e’tibor bergan holda ifodali qilib o‘qitiladi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.

1.Ozod bilan Nosir tog‘ yo‘lida qanday jonivorlarga duch kelishdi?
2. Do‘stlar jonivorlarning qanday xislatlari haqida so‘zlashadilar?




***“Kimga tegishli” mashqi.***

| T/r | Hikoya qahramonlariga oid ma’lumotlar va gaplar | Muallif | Ozod | Nosir |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Soylikdan o‘tib, to‘g‘ri qirdagi chakalakzorga yo‘l oldilar | + | | |
| 2 | Manavi ko‘ksultonni qara-ya, salkam olxo‘ridek keladi | | + | |
| 3 | Dam oldingmi, tamom, bo‘shashasan | | | + |
| 4 | Yo‘lda zerikmaslik uchun Nosir vaj izladi | + | | |
| 5 | Endi yurish befoyda | | | + |
| 6 | Kunduzi tanasi kovak tutni ko‘rgan edik | | + | |




***“Birikmadan gapgacha” mashqi.*** O‘quvchilar birikmalar asosida gaplar tuzishlari lozim. Masalan: Ko‘ksultonni qara, tuproqdagi iz, dam oldingmi, ilon bekordan. Manavi ko‘ksultonni qara-ya, salkam olxo‘ridek keladi.

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Matn nima haqida ekan?
2. Matnning asosiy g‘oyasi nimada deb o‘ylaysiz?
3. O‘qigan matningizdan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Oydin kecha” hikoyasini o‘qish.

## 164-d a r s

***Mavzu:*** “Oydin kecha” (*Murod Xidir*) 2-qism.

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Oydin kecha” hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** o‘rganilgan hikoyaning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, do‘stlik, o‘zaro va kattalarga hurmat hislarini tarbiyalash.

***TK 4***: tabiatga bo‘lgan insoniy xislatlarni anglay olish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2*:** o‘qilgan hikoya mazmuniga oid savol va topshiriqlarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “Rezyume”, “Kim topag‘on?”, “Baliq ovi” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II.Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar “Oydin kecha” hikoyasini ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab beradilar.

***“Baliq ovi” o‘yini.***




1. Ozod va Nosir kimning nasihatlariga quloq solmadi?
2. Ular qayerga borishdi?
3. Ozod va Nosir tog‘ yo‘lida qanday jonivorlarga duch kelishdi?
4. Do‘stlar jonivorlarning qanday xislatlari haqida so‘zlashdilar?



***“Kim topag‘on?” o‘yini.*** O‘quvchilar topishmoqning javobini matnning ichidan topadi.

1. Osh ichida tosh,
   Tosh ichida osh. *(O‘rik)*
2. Oltin kelganda, kumush ketar,
   Kumush kelganda, oltin ketar. *(Quyosh,oy)*
3. Uzun ichak,
   Uchi tugunchak.
   Tanasi chipor,
   O‘rmondan chiqar. *(Ilon)*
4. Dum-dumaloq barkash non
   Ko‘k yuzida suzadi.
   Kunduz kuni berkinar
   Javobini kim bilar? *(Oy)*

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz sizlar bilan “Oydin kecha” hikoyasining 2-qismi bilan tanishamiz.

“Oydin kecha” hikoyasi mazmuniga mos suratlar namoyish etilib, hikoya o‘qiladi, mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

***Lug‘at ishi:***

**ko‘lankalar –** oftob nuridan to‘silgan joy
**dami chiqdi –** ovozi chiqdi
**shipshidi –** past ovoz bilan biror narsa demoq, pichirlamoq

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Oydin kecha” hikoyasini “Ichda o‘qish” usulida o‘qiydilar va hikoya qilib beradilar.

***Test topshiriqlari:***

1. Daraxt shoxlari orasida shapaloqdek-hapaloqdek nimalar tushdi?
A) barglar B) gullar **D)** yog‘dular E) mevalar
2. Ular nimaning tuyoq tovushini eshitdi?
A) otning **B)** to‘ng‘izning D) qo‘yning E) tuyaning
3. To‘ng‘iz nimaning danaklarini chaqib, mag‘zini yeb kelardi?
A) bodomning B) yong‘oqning **D)** o‘rikning E) pistaning
4. Kim to‘ng‘izdan qo‘rqayotganini bildirmadi?
**A)** Ozod B) Nosir D) Shokir E) Anvar
5. Ozod kimni uyg‘otdi?
A) tarbiyachisini B) onasini D ) bobosini **E)** Nosirni

IPT ***“Rezyume” texnologiyasi.*** O‘quvchilar Ozod va Nosirning xislatlarini ijobiy va salbiy tomonlarini topib muhokama etadi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ikki do‘st kechasi nimalarni ko‘rdi?
2. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Oydin kecha” hikoyasini o‘qish.

## 165-d a r s

***Mavzu*:** “Bobomning sovg‘asi” (*G‘ayratiy*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** “Bobomning sovg‘asi” hikoyasining mazmuni bilan tanishtirish, bog‘lanish nutqi va matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni qushlarga g‘amxo‘r bo‘lish, tabiatni sevishga o‘rgatish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, “So‘zlardan tuz va topib o‘qi” mashqi.

**Dars jihozlari:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘qituvchi o‘quvchilarni “Oydin kecha” matnini o‘quvchilar qismlarga bo‘lib o‘qiydilar va hikoya qilib beradi.

IPT ***“So‘zlardan tuz va topib o‘qi” mashqi.*** O‘quvchilariga

“Oydin kecha” matnidagi so‘zlarning o‘rnini almashtirib beriladi. O‘quvchilar shu so‘zlardan gaplar tuzib , matndan topib o‘qiydi.

*ko‘z , bolalarning ,o‘ngida, bilinar-bilinmas, osmon, kelardi, yorishib; Uning, oy, goho, xanjardek, yog‘dusida, tishlari, ko‘rinadi, yiltirab; bildirmasdi, hech, Ozod, seskanayotganini, o‘zi; sezmadi, allamahalgacha, elitganini, o‘y-xayollar bilan, uyqu, qachon;*

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Bugun biz “Bobomning sovg‘asi” hikoyasi bilan tanishamiz. (Muallif haqida ma’lumot beriladi.) Matnni o‘qituvchi o‘qiydi va hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar hikoyani navbat bilan o‘qiydi, qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

***Lug‘at ishi:***

**laxcha**– qizarib , yallig‘lanib , lovullab turgan cho‘g‘, o‘t
**so‘lim** – yoqimli va go‘zal
**ishqiboz** – mehr-havas qo‘ygan, havasmand

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** O‘quvchilar “Bobomning sovg‘asi” hikoyasini “Zanjir” usulida o‘qiydi va qayta hikoya qiladi.

1. Obid bilan Murod qayerga bordi?
2. Bolalar bobosining bog‘ida qanday mevalar yeyishdi?
3. Bobo nabirasiga nimani sovg‘a qildi?

***“Oltinchisini top” o‘yini.***

1. Laylak, turna, qaldirg‘och, mayna, sa’va, …(bulbul)
2. Bo‘ri, bo‘rsiq, tulki, ayiq, yovvoyi cho‘chqa, …(arxar)
3. Tog‘, bog‘, adir, qir, tekislik, …(cho‘l)

4. Ummon, daryo, soy, irmoq, dengiz, …(ko‘l)

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Siz qanda matnda uchramaydigan qushlar va hayvonlarni bilasiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Bobomning sovg‘asi” hikoyasini o‘qish.

## 166-d a r s

***Mavzu*:** “Nihollarning nolasi” (*Xudoyberdi To‘xtaboyev*)

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarni “Nihollarning nolasi” hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o‘qishga, matn ustida ishlashga o‘rgatish.

***FK 1:*** hikoya matnini tinglab tushuna oladi.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarni tabiatni sevishga uni asrab-avaylashga,

undan oqilona foydalanishga o‘rgatish, tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni singdirish.

***TK 3:*** tevarak-atrof muhitga insoniy munosabatda bo‘lish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘-lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

***FK 2:*** hikoya qahramonlariga munosabat bildira olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi dars.

**Dars metodlari:** tushuntirish “Muallifini top”, “Baliq ovi” o‘yinlari.

**Dars jihozlari**: tarqatma materiallar, multimediali ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Bobomning sovg‘asi” hikoyasi “Zanjir” usulida o‘qitilib, qayta hikoya qildiriladi.

**“Baliq ovi” o‘yini.**

1. Bola bilan Murod qanday yo‘ldan jo‘nadi?
2. Ular ertalabki shirchoyni kim bilan ichishdi?
3. Ular nima bilan o‘ynashdi?
4. Bobosi ularga nima haqida aytib berdi?
5. Rustam aka ularga chiroyli nimani ko‘rsatdi?

O‘qituvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat haqida berilgan moddalarni o‘quvchilardan so‘raydi va to‘ldiradi. *50-moddasida* “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” deyilgan.

*55-moddasida:* “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlar muhofazasidadir.” – deyilgan.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun biz “Nihollarning nolasi” hikoyasi bilan tanishamiz.



“Nihollarning nolasi” hikoyasi mazmuniga mos lavha namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilardan biri hikoyani ifodali o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.



***Lug‘at ishi:***

**ma’noli qarab qolishdi** – biror narsaga ishora qilib qarash

**shabnam** – kechasi haroratning pasayishi tufayli tushadigan mayda tomchilar

**soz bo‘lardi –** yaxshi bo‘lardi

**ko‘z tashladi –** qaradi , nazar soldi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** “Nihollarning nolasi” hikoyasini o‘quvchilar “Ichda o‘qish” usulida o‘qib, qayta hikoya qilib beradi. Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Shaharda nima bo‘lib o‘tganidi?
2. Ko‘chalar chekasiga, ariqlar bo‘yiga qancha mevali va manzarali ko‘chatlar ekdi?
3. Ertalab nimalar birdan uyg‘onib yengil-yengil chayqalashib, so‘ngra tunlar qanday o‘tganligini ayta boshladi?
4. Nihollar nima uchun nola chekishdi?
5. “Nola chekish” iborasini qanday tushunasiz?



***“Muallifini toping” o‘yini.***

Har bir asarning tartib raqamini uning muallifi to‘g‘risiga qo‘-ying.

| | |
|---|---|
| 1. “Qovun sayli” | Xudoyberdi To‘xtaboyev |
| 2. “Shaxzodaning bolaligi” | Rahim Bekniyozov |
| 3. “Erkacholning o‘rigi”. | Shukur Sa’dulla |
| 4. “Saxiy” | Erkin Samandar |
| 5. “Mo‘jiza” | Muhammad Avfiy |

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Hikoyat sizga yoqtimi?
2. Siz ham nihol ekkanmisiz?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Nihollarning nolasi” hikoyasini o‘qish.

## 167-d a r s

***Mavzu:*** “Suv bilan suhbat”. (*Zafar Diyor*).

**Darsning maqsadi:**

***Ta’limiy:*** o‘quvchilarga suv haqida ma’lumot berish, “Suv bilan suhbat” she’ri bilan tanishtirish. O‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

***FK1:*** she’rning mazmunini to‘liq og‘zaki bayon qila olish.

***Tarbiyaviy:*** o‘quvchilarning tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash, ularni tejamkorlikka, suvdan oqilona foydalanishga odatlantirish.

***TK4:*** she’rda go‘zallik va ezgulikka intilish.

***Rivojlantiruvchi:*** o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini, maqollarni o‘z o‘rnida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

***FK2*:** o‘qilgan she’rning mazmuniga doir savollarga javob bera olish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, “Maqolni yig‘” o‘yini.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish. O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

“Nihollarning nolasi” hikoyasi o‘qittiriladi, mazmuni so‘zlatiladi. Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Bolalar qayerga nihol ekishdi?

– Nihollar qachon nobud bo‘ldi?




O‘quvchilar bergan javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

***“Mozaika” mashqi.*** O‘quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir kichik guruhlarga suv tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni “Mozaika” usuli yordamida yig‘adilar.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**–** Bolajonlar, yig‘gan rasmingizda nima tasvirlangan ekan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, yangi mavzu e’lon qilinadi.

**–** Bugun biz sizlar bilan Zafar Diyorning “Suv bilan suhbat” she’ri bilan tanishamiz.

O‘quvchilar bilan suv, uning ahamiyati haqida suhbatlashib, fikrlari tinglanadi.

**–** Hayotimizda suvning ahamiyati qanday?

**–** Suvsiz qancha vaqt yashay olamiz?



O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, mavzu tushuntiriladi. She’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

“Suv” haqidagi videolavha namoyish etiladi. Kadr ortidan “Suv bilan suhbat” she’ri matni o‘qiladi.

O‘qituvchi “Suv bilan suhbat” she’rini ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni tushuntiriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

***Darslik bilan ishlash.*** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Suv bilan suhbat” she’ri o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitiladi.

O‘quvchilar darslikdagi savol va topshiriqni o‘qib, ularga javob berishadi:

– She’rda suvning oqishi nimalarga o‘xshatiladi?



– She’rni rollarga bo‘lib ifodali o‘qing.

***“Maqolni yig‘” o‘yini.*** Ekranda katakchalar ko‘rsatiladi. Uning atrofiga maqolning bo‘g‘inlari tomchi shaklida tarqatib yuborilgan bo‘ladi. O‘quvchilar maqolni yig‘adilar. Javob: Suv – hayot manbayi.

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Siz bir kunda qancha suvni sarflaysiz?

– Suvni qanday tejash mumkin?

O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va faolligiga ko‘ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa berish.** “Suv bilan suhbat” she’rini yodlash.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: O‘zbekiston, 2008. 3-b.

2. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2016. 56-b.

3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2016. 488 – b.

4. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2016. 488-b.

5. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T. 2010 y.

6. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T, -2017 y.

7. Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom. T,-2017 y.

8. *S.Matjonov.* va boshqalar “O‘qish kitobi ”, 4-sinf, – T. , 2017-yil

9. *S.Matjonov. X.G‘ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva* ”Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”, – T., 2008-yil.

10. *T. G‘afforova.* “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, – T., 2011-yil.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, I–V tom.

12. *O.Parpiyeva*. “O‘qish fanidan amaliy mashg‘ulotlar” 1–4-sinflar uchun. – T: “Bayoz” nashriyoti, 2015-yil.

## Mundarija


So‘zboshi……3
Metodik qo‘llanmaning tuzilishi……4
O‘qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish……5
Texnologik xaritalardan o‘qish darslarida foydalanish……8
***1-dars.*** Mangulikka tatigulik kun (Matn). *SafarBarnoyev* ……11
***2-dars.*** Iqboli buyuksan (She’r). *Abdulla Oripov*……13
***3-dars.*** Qodir boboning orzusi *(Matn). To‘lqin Hayit*……15
***4-dars.*** Istiqlol bolalari (She’r). *Dilshod Rajab*……17
***7-dars.*** Serquyosh o‘lka. (She’r). *Zafar Diyor* ……19
***8-dars.*** Xarita (Hikoya *1-qism). Normurod Norqobil*……21
***9-dars***. Xarita (Hikoya *2-qism). Normurod Norqobil* ……23
***11-dars***. Mardlik va aql yorug‘ligi (She’r). *Miraziz A’zam*……24
***12-dars.*** Kichik Vatan (Hikoya). *Ashurali Jo‘rayev* ……*26*
***13-dars***. Gulg‘unchalarmiz (She’r). *Muhiddin Omon*……28
***16-dars***. Kuz (She’r) *Shukur Sa’dulla*……31
***17-dars.*** Qovun sayli (Hikoya *1-qism*) *Shukur Sa’dulla*……33
***18-dars***. Qovun sayli (Hikoya *2-qism*). *Shukur Sa’dulla*……34
***19-dars.*** Dehqon (She’r). *Sulaymon Rahmon*……37
***23-dars.*** Salomlashish odobi (Pandnoma). *Husain Voiz Koshifiy* ……39
***24-dars***. Odamdan nima qoladi? (Dostondan parcha).*Yusuf Xos Hojib*……41
***25-dars.*** Eng ulug‘ fazilat (Ertak)……43
**26-*dars.*** Har kim ekkanin o‘rar (Ertak). *Munavvarqori Abdurashidxon*……44
***27-dars.*** Chaqimchiga “mukofot” (Ertak)……45
***28-dars.*** Omonatga xiyonat (Ertak)……47
***30-dars.*** Ikki saxiy (Ertak *1- qism*). *Murod Xidir*……49
***31-dars.*** Ikki saxiy (Ertak *2-qism*). *Murod Xidir* ……51
***32-dars.*** Qo‘zichoq (Masal). *Rauf Tolib* ……*53*
***35-dars***. Boychechak (She'r)……55
***36-dars***. Oftob chiqdi olamga (She'r). ……58
***37-dars.*** Xo‘p hayda (She'r)……59
***39-dars***. Ilm afzal (Ertak *I qism*)……61
***40-dars***. Ilm afzal (Ertak *II qism*)……63
***41-dars.*** Davlat (Ertak)……64
***42-dars.*** Ko‘zacha bilan tulki (Ertak *1-qism*)……66
***43-dars.*** Ko‘zacha bilan tulki (Ertak *2-qism*)……68
***44-dars.*** Ochko‘z boy (Ertak)……69
***46-dars.*** Hiylagarning jazosi (Ertak)……71
***49-dars.*** Hunarsiz kishi o‘limga yaqin (Ertak *1- qism*) ……73
***50-dars.*** Hunarsiz kishi o‘limga yaqin (Ertak *2-qism*) ……74
***51-dars***. Ziyrak uch yigit (Ertak *1-qism*) ……76
***52-dars.*** Ziyrak uch yigit (Ertak *2-qism*)……78
***53-dars.*** Ziyrak uch yigit (Ertak *3-qism*)……79
***54-dars.*** Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak (*1-qism*). *Anvar Obidjon*……81

***55-dars.*** Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak (*2-qism*). *Anvar Obidjon*…83
***56-dars.*** Baqa bilan taqa (Ertak). *Aziz Abdurazzoq* .....……85
***59-dars.*** Laqma it (Ertak *1-qism*).*Shukur Sa’dulla* ….....……87
***60-dars.*** Laqma it (Ertak *2-qism*). *Shukur Sa’dulla*……89
***61-dars.*** Maqollar……..91
***62-dars.*** Topishmoqlar …….....……93
***64-dars.*** Qish to‘zg‘itar momiq par (She’r). *Qudrat Hikmat* …..... 95
***65-dars.*** Rangin qorlar (Ertak). *Olloyor*….....….....97
***66-dars.*** Qish (She’r). *Tursunboy Adashboyev*.…..…..…..…..…..99
***68 -dars.*** Qor odamning sovg‘asi (Hikoya). *Oqiljon Hasanov*.....…..…..101
***70-dars.*** Kitobga ixlos. (*1-qism).* *Mirkarim Osim*….....103
***71-dars.*** Kitobga ixlos. (*2-qism). Mirkarim Osim*.....105
***72-dars.*** Pahlavon va shoir (Rivoyat). *Hamidjon Hamidov*.…..…..…..108
***73-dars.*** Alisherning yoshligi (*1- qism). Oybek* ……..……..110
***74-dars.*** Alisherning yoshligi (*2-qism). Oybek*……..……..112
***75-dars.*** Shum bola. *G‘afur G‘ulom* …….....……113
***76-dars.*** Shahzodaning bolaligi (Hikoya). *Erkin Samandar*……..…116
***80-dars.*** Odobli bo‘lish osonmi (Ertak *1-qism*). *Anvar Obidjon*……117
***81-dars.*** Odobli bo‘lish osonmi (Ertak *2-qism*). *Anvar Obidjon*……120
***82-dars.*** Qodir bilan Sobir (Hikoya). *Hakim Nazir*….....……121
***83-dars.*** Xatosini tushungan bola (Hikoya *1-qism*). *Xudoyberdi To‘xtaboyev.*123
***84-dars.*** Xatosini tushungan bola (Hikoya *2-qism*). *Xudoyberdi To‘xtaboyev*126
***85-dars.*** Nurxon bilan Burhon. (She’r***).*** *M.A’zam* ….....……129
***86-dars.*** Qo‘rqoq (Hikoya. *1-qism***)** *S.Anorboyev*.…..…..…..…..…..131
***87-dars.*** Qo‘rqoq (Hikoya. *2-qism*) *S.Anorboyev*.…..…..…..…..…..132
***91-dars.*** Yaxshi bo‘ldi (Hikoya). *N. Fozilov*.…..…..…..…..…..134
***92-dars.*** Sharq hikoyasi (Ertak). *A.Oripov*……..……136
***93-dars.*** Saxiy (Rivoyat). *Muhammad Avfiy*……138
***94-dars.*** Chumchuq bilan chumoli (Ertak). A. Abdurazzoq….....……140
***95-dars.*** Yolg‘onchining izza bo‘lishi (Rivoyat)……..……141
***97-dars.*** Qush tili (She’r). *Mirtemir*……..……144
***100-dars.*** Yomg‘ir (Hikoya). *F.Musajonov*.…..…..…..…..…..146
***101-dars.*** Ikki irmoq (Masal). *H.Po‘latov*……..……148
***104-dars.*** Mo‘jiza (Hikoya). *R.Bekniyoz*.…..…..…..…..…..149
***105-dars.*** Xatarli uchrashuv (Hikoya). *P.Qodirov*.…..…..…..152
***106-dars.*** Ola Buzoq (She’r). *G‘. G‘ulom*.…..…..…..…..…..154
***107- dars.*** Tushovli toy (Hikoya). *N. Fozilov*.…..…..…..…..…..156
***108- dars.*** Jo‘ja (She’r). *A. Obidjon*.…..…..…..…..…..157
***110-dars.*** Ayiqni yenggan cho‘pon. (Hikoya *1-qism*). *P.Qodirov*.…..…..159
***111-dars.*** Ayiqni yenggan cho‘pon. (Hikoya *2-qism*). *P.Qodirov*.…..…..161
***112-dars.*** Ko‘kyol (Hikoya *1-qism*). *N.Fozilov*.…..…..…..…..163
***113-dars.*** Ko‘kyol (Hikoya *2-qism). N.Fozilov*.…..…..…..…..166
***116-dars.*** Bahor (She’r). *Q.Hikmat*……167
***117-dars.*** Bahor ta’rifida (Rivoyat). *Yusuf Xos Hojib*……169
***118-dars.*** Jala darakchisi (She’r). *H.Rahmat*.…..…..…..171

***119-dars.*** Erka cholning o‘rigi (Hikoya). *H. To‘xtaboyev*.....173
***121-dars.*** Navro‘z – bahor bayrami (Hikoya). *M.Alaviya*.....176
***122-dars.*** Bayram urf-odatlari.....177
***123-dars.*** Yaxshidan bog‘ qoladi (Rivoyat).....179
***124-dars.*** So‘zlovchi yomg‘ir (She’r). *A.Akbar*.....181
***125-dars.*** Danak ichidagi daraxt (Ertak). *A.Abdurazzoq*.....183
***127-dars.*** Bahor (She’r). *D.Rajab*.....185
***131-dars.*** Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r (She’r). Sh.Sa’dulla.....187
***132-dars.*** Shoira (She’r). *H.Nazir*.....189
***133-dars.*** Do‘stlik (Hikoya). *X. To‘xtaboyev*.....191
***134-dars.*** Mangu olov (She’r). *R.Isoqov*.....193
***137-dars.*** To‘maris (Rivoyat). *H.Sodiqov*.....194
***138-dars.*** Najmiddin Kubro (Rivoyat).....197
***139-dars.*** Sulton Mahmud va Beruniy (Rivoyat). *N.A.Samarqandiy*.....198
***141-dars.*** Tanbeh (Rivoyat). *Xondamir*.....200
***142-dars.*** Navoiy bobomlar (She’r). *T.Adashboyev*.....203
***143-dars.*** Hidi, tilimi va mazasidan (Rivoyat).....205
***144-dars.*** Rivoyat *N.Karimov*.....206
***147-dars.*** Bolalar gurungi (Ertak *1-qism*). *G.X.Andersen*.....208
***148-dars.*** Bolalar gurungi (Ertak *2-qism*). *G.X.Andersen*.....210
***149-dars.*** Bir xurmacha shavla (Ertak). *Aka-uka Grimmlar*.....212
***151-dars.*** Rustam (Hikoya *1-qism*) *F.Erdinch*.....214
***152-dars.*** Rustam **(**Hikoya *2-qism*) *F.Erdinch*.....215
***153-dars.*** Gulliverning sayohatlari (Qissadan parcha). *J.Svift*.....217
***155-dars.*** Jimjiloq (Ertak). *Ch.Aytmatov*.....219
***156-dars.*** Bolalar hayotidan lavhalar .....220
***160-dars.*** Yoz (She’r). *Sh.Sa’dulla*.....222
***161-dars.*** Non qaerdan keladi? (She’r). *Q.O‘tayev*.....224
***162-dars.*** “Non rizq-ro‘zimiz” *amaliy mashg‘ulot*.....226
***163-dars.*** Oydin kecha (Hikoya *1-qism*). *Murod Xidir*.....227
***164-dars.*** Oydin kecha **(**Hikoya *2-qism*). *Murod Xidir*.....229
***165-dars.*** Bobomning sovg‘asi **(**Hikoya). *G‘ayratiy*.....231
***166-dars.*** Nihollarning nolasi **(**Hikoya). *X.To‘xtaboyev*.....232
***167-dars.*** Suv bilan suhbat (She’r). *Z. Diyor*.....234

Foydalanilgan adabiyotlar.....236

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

*Metodik qo‘llanma*

# O‘QISH

4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or
pedagogik va axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarini amaliyotga joriy etish
bo‘yicha metodik qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi*
*vazirligi tasdiqlagan*

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2017

Muharrirlar *V. Fayzulloh, G. Xaitova*
Badiiy muharrirlar *Feruza Basharova,*
*Sarvar Xojimuratov*
Texnik muharrir *Ra’no Boboxonova*
Sahifalovchi *Oygul Fozilova*
Musahhih *Shahlo Xoldorova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011**

Bosishga ruxsat etildi 5.08.2017. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. “Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 15,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 14,1. Adadi 20.261. Buyurtma № 4808.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,**
**100000, Toshkent shahri, “Buyuk Turon” ko‘chasi, 41-uy.**